3 2022

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY



ИЛМИЙ- НАЗАРИЙ ЖУРНАЛ

АНИҚ ФАНЛАР
ТАБИИЙ ФАНЛАР
ФАЛСАФА
ПЕДАГОГИКА
ПСИХОЛОГИЯ
ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР

ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2022

3-son

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

MUNDARIJA

Xalikov A.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nizoli vaziyatlarga munosabatini belgilovchi funksiyalar	5-9
Avazov Sh. Pedagogika fanida shaxs kamoloti va ma’rifat masalasi	9-19
Adilova S.A. Til ta’limida fanlararo integratsiyani ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajriba (tibbiyot terminlari misolida)	19-24
Халдаров Х.А., Ташпулатов Р.Х. Создание алгоритма управления качеством процесса обучения в приобретении знаний (для высших образовательных учреждений)	25-30
Алимова Ф.А. Условия подготовки будущих преподавателей химии к реализации проектной деятельности	30-37
Ishbayeva N.A. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy qayta tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	37-41
Nuraliyeva K.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirishning ayrim psixologik - pedagogik xususiyatlari	41-48
Mamadaliyev B.M. Texnika ta’limi yo‘nalishlarida elektron ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari	48-54
Azimov A.T., Raximov R.S. Grafika tarixidan ba’zi geometrik yasashlar	54-58
Abdullayeva D.N. Geografiya darslarini muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etish	59-68
Toshmurodov M.I. Yosh avlodni diniy bag‘rikenglik asosida tarbiyalashda oila va mahallaning o‘rni	68-77
Yoqubova S. Tabiatning shoirona tasviri	77-81
Xakimova Y.T. Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limning vazifalari va uni tashkil etishning psixologik-pedagogik jihatlari	82-87
Yuldasheva N.S., Hamidova N.T. Buyuk siymolar tomonidan yaratilgan tarixiy, ilmiy va pedagogik qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayoniga integratsiyalash	87-91
Norboyev Z.N., Sulaymonov X.N. Kovrakning xomashyo sanoatida qo‘llanilishi	92-96
Uralova G.O‘. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida darsni oqilona tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish vazifalari	96-101
Xolnazarova D.M. Talabalarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari	101-108
Duysabayeva D.U. Til birliklarining madaniy semantikasini o‘rganish - lingvomadaniyatshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri	109-114
Maxmudova D.M. Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish tuzilmasi	114-119
Ergasheva S.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini	119-124

rivojlantirishni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy-metodologik asoslari	
Nurbaeva H.B. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni	124-128
Haqberdiyeva Sh.T. Maktab biologiyasida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish	129-132
Abdullayeva S.M. 5-6-sinf o‘quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasining ayrim jihatlari	132-139
Raxmatullayeva G.I. Mediatexnologiyalar yordamida talabalarrning milliy tarbiyasini rivojlantirish shakllari, usullari va vositalari	139-146
Babayeva M.A. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda xalqaro baholash tizimining ahamiyati va uning ta’lim samaradorligini oshirishda tutgan o‘rni	146-154
Локтева Н.М. Европейская семья и семейная хроника в творчестве американского писателя Г.Джеймса	155-163
Karamatova.D. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o ‘qituvchilarining ekologik madaniyatini integral yondashuv asosida rivojlantirish	163-169
Ismatullayev F.O. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan turizm sohasidagi hamkorligi	169-177
Nazarov Q.N. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda nostandart topshiriqlarning tutgan o‘rni va ahamiyati	177-183
Xudoyberdiyeva A.X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlashini shakllantirish modeli	184-193
Ismoilov E.O. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	193-199
Abduraxmonova D.A. Talabalarda kasbiy ko‘nikmalarning “me’yoriy modeli”ni shakllantirish	199-203
Toshxo‘jaeva N.R. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tabiatshunoslik”ni o‘qitishga kasbiy tayyorlash tizimi	204-212
Insapova G.G. O‘qiv jarayoni samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari	212-218
Adilov N.X. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari	219-224
Umarov J.S. Talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining tutgan o‘rni	224-230
Rajabova M.B. O‘zbekistonda turar joy masalasining huquqiy asosi va sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi	230-235
Jumaniyozova N.X. Maktab biologiya ta’limida tayanch va fanga oid	235-241

kompetensiyalar tizimi	
Xolmurodova L.E. Kimyoni o‘qitishning metodik tizimini ishlab chiqishda ta’lim mazmunini tanlash mezonlari	241-245
Pulatova D.R. Intensiv ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni va bosqichlari	245-250
Panjiev Q.B. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning motivatsiyali, mazmunli va operatsiyali tarkibiy qismlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash	251-260
Usarov S.A. Mantiq elementlari va ular ustida operatsiyalardan foydalanishga oid ba’zi mulohazalar	260-267
Azimova N.E. Pedagogik mahorat ta’lim va tarbiyaning muhim omili sifatida	268-274
Nasimova Z.I. Modulli texnologiyalardan foydalanish orqali ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari	274-280
Yaxyayev S.J. Elektron ta’lim muhitida o‘qituvchilar raqamli kompetensiyasining o‘rni va ahamiyati	280-286
Sobirxonov A.T. Tabiiy geografiya darslarida badiiy ijodiyotdan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari va ahamiyati	286-290
Xonnazarova M.T. Mediatexnologiyalar asosida zoologiya ta’limi metodikasini takomillashtirish (suyakli baliqlar sinfini o‘rganish misolida)	291-296
Марупова Д.Д. Применение креативных технологий на уроках литературы в высшей школе	296-30
Supayeva A.N. Tabiiy fanlar yo‘nalishida PISA, PIRLS, TIMSS dasturlaridan foydalanishning afzalligi	302-308
Safarova S.O. Maktabgacha tarbiya yoshidagi dizartrik bolalarni savodga tayyorlash	308-316
Aralova L.A. “Devonu lug‘otit turk” leksikasining qipchoq shevalariga munosabati	316-322
Азимов Т.Д., Алимова Д.К. Современные методы преподавания начертательной геометрии при формировании пространственные представлений студентов	322-327

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING NIZOLI VAZIYATLARGA MUNOSABATINI BELGILOVCHI FUNKSIYALAR

Xalikov A.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining konfliktologik vaziyatlarda o‘zini boshqara olishi, nizolarni bartaraf etishi, kutilmaganda sodir bo‘ladigan ziddiyatlarni oldindan ko‘ra olishi, munosabatlarni adolatli hal etishni belgilaydigan funksiyalardan unumli foydalanish yaxshi natijalarga erishishga yo‘naltirilishi haqidagi qarashlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: funksiya, konfliktologiya, nizo, pedagogik jarayon, manfaatlar, ziddiyatlar yechimi, kompromissga kelish.

ФУНКЦИИ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ОТНОШЕНИЕ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К КОНФЛИКТНЫМ СИТУАЦИЯМ

Халиков А.А. - профессор Ташкентского государственного педагогического университета, доктор педагогических наук

Аннотация. В данной статьи рассмотрена с точки зрения функций конфликта – достаточно *противоречивое* явление. Вступая в противоборство, учителя начальной школы могут добиться реализации поставленных целей. Но часто трудно предугадать даже не очень отдаленные последствия, которые за этим последуют. При этом последствия могут носить как положительный, так и отрицательный характер для участников конфликта.

Ключевые слова: функция, конфликтология, спорные ситуация, педагогический процесс, выгодные интересы, противоречивые развязки, быть согласованным

FUNCTIONS THAT DETERMINE THE ATTITUDE OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER TO CONFLICT SITUATIONS

Xalikov A.A. - Professor of Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Pedagogical Sciences

Annotation. From the point of view of functions, conflict is a rather contradictory phenomenon. By entering into confrontation, teachers can achieve their goals. But it is often difficult to predict even not very distant consequences that will follow. In this case, the consequences can be both positive and negative for the parties to the conflict.

Key words: function, conflict management, controversial situation, pedagogical process, beneficial interests, conflicting outcomes, to be agreed

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi konfliktologik vaziyatlarda turli nizolarga nisbatan bildiradigan munosabatini quyidagi funksiyalar asosida belgilab olish mumkin:

1. Nizoni inkor etish funksiyasi. Mazkur funksiya agar nizoli vaziyat o‘z mazmuniga ko‘ra juda katta e’tiborni talab qilmaydigan masalalar negizida sodir bo‘lgan hamda uning kengayib ketishiga asos bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladigan metodlar majmuasi sanaladi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z kuchi va energiyasini yanada muhimroq masalalarga yo‘naltirishni tanlaydi hamda nizoni inkor etish orqali yechimga olib kelinadi. Ammo ba’zi vaqtlarda nizoni e’tiborga olmaslik, yanada kattaroq ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki nizoni inkor etish har doim ham ziddiyatni yechimga olib kelishini anglatmaydi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi ziddiyatli vaziyatga o‘z ta’sirini o‘tkazishdan mahrum bo‘lib qoladi. O‘qituvchi ta’sirining yo‘qligi uni pedagogik jarayondan chiqarib yuboradi. Nizoli vaziyatga o‘qituvchi ta’sirini to‘xtatib qo‘yadi. Nizo o‘qituvchidan tashqarida yashay boshlaydi. Natijada nizoni yechimga olib kelish vaziyati qo‘ldan boy berilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchining sa’y-harakatlari har doim nizo yechimiga yo‘naltirilgan bo‘lishi darkor.

2. Nizolarni bartaraf etish funksiyasi. Nizoni yechimga olib kelishda tomonlarning g‘alabaga erishish funksiyasi faqat bir tomonning yutug‘ini anglatmaydi, balki ziddiyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning birday yutug‘ini anglatadi. Biroq ba’zi vaqtlarda ko‘pchilik boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari an’anaviy tarzda aynan o‘zlari haqiqatning yutib chiqishini istagan holda harakat qilishadi. Natijada, umumiy haqiqat emas, balki aynan o‘qituvchi haqiqati yutib chiqqan bo‘ladi. Ammo mana shunday tarzda erishilgan o‘qituvchi haqiqati tomonlar manfaatlariga zid bo‘lishi hamda pedagogik jarayon samaradorligiga putur yetkazishi mumkin. Bunday qilinganda, pedagogik jarayonining o‘qituvchidan tashqari barcha ishtirokchilari tafakkurida adolatsizlik ro‘y berganligi, adolatsizlik o‘rin tutganligi borasidagi fikr kelib chiqadi va mana shu o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilgan adolatsizlik ular ongida o‘rnashib oladi. Pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘qituvchi “haqiqatini” qabul qila olmaydi. Ular o‘qituvchi haqiqati adolatli ekanligini inkor etadilar. O‘qituvchi esa mana shu adolatsizlikni yuzaga chiqargan inson sifatida rol o‘ynay boshlaydi. Tabiiy ravishda o‘quvchilar oldida o‘qituvchi hurmati pasayib boradi hamda o‘quvchi adolatsizlikni o‘qituvchi qilishi mumkinligiga o‘z ko‘zi bilan iqror bo‘ladi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi nizoli vaziyatlarda o‘z haqiqatini o‘rnatishi emas, balki ziddiyatni adolatli yechimga olib kelishi zarur. Nizoni yechimga olib kelishda esa barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olishi, o‘z kuchi va

tajribasini nizo yechimiga qaratishi, tomonlarga nisbatan esa e’tiborli, hurmatli va neytral pozisiyada turishi taqozo etiladi. Nizo yechimida har bir tomon mazkur yechimdan qoniqib, “Men yutqazmadim, men yutdim” degan fikrda qolsagina, o‘qituvchi haqiqatan ham nizoni adolatli yechimga olib kelgan bo‘ladi. Binobarin, pedagogik nizo yechimi o‘qituvchi haqligini anglatmaydi, balki o‘qituvchining ziddiyatni yechimga olib kelishda barcha ishtirokchi tomonlar manfaatlarini uyg‘un holda nazarga olganligi va barcha tomonlarni qoniqtirgan yechim topilganligini anglatadi [1]**.** Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z haqiqatini o‘rnatishga emas, balki umummanfaatlarini e’tiborga olib, ularni kelishtirish va bir nuqtaga olib kelishni ta’minlashi taqozo etiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi ziddiyatli vaziyatda ishtirok etayotgan tomonlarning har birining manfaatlarini nazarga olishga o‘rgatishi zarur bo‘lgan shaxs sifatida maydonga chiqadi. Agar nizoli vaziyatda tomonlar faqat o‘z manfaatlarini himoya qilish yo‘lidan ketishsa, mazkur ziddiyat hech zamon hamma tomonlarni birday qoniqtirgan yechimga olib kelmaydi. Agar nizoda har bir tomon faqat o‘z manfaatlarini muhofaza qilishga o‘tsa, bu nizoning dekstruktiv holatga o‘tganligini anglatadi va uni yechimga olib kelish qiyinlashadi. Nizoning destruktiv holatida tomonlar o‘z manfaatlarini muhofaza qilish istagida bir-birini qo‘rqitish, tahdid qilish, o‘zini ustun qo‘yish, o‘zgalarni o‘z tomoniga og‘dirish, zug‘m o‘tkazish, birovning ustidan kulish, uni tahqirlash kabilarni keltirib chiqara boshlaydi. Agar bir tomon sanab o‘tilgan destruktiv amallarga o‘tsa, tabiiy ravishda ikkinchi tomon ham ularni qo‘llay boshlaydi. Natijada munosabatlar uzoq muddatga chuqurlashib ketadi. Agar o‘qituvchining o‘zi o‘z obro‘sining pasayib ketishidan cho‘chib o‘quvchiga nisbatan mana shunday amallarni bajara boshlasa, uning hurmati barchaning oldida, ya’ni barcha o‘quvchilar, ota-onalar va butun pedagogik jamoa oldida ham pasayib ketadi [2]. Binobarin, o‘qituvchi funksiyasi o‘z hurmatini betaraflik asosida muntazamliligini ta’minlash va barcha tomonlar manfaatlariga birday munosabat bildirishda namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun nizoli vaziyat asosida vujudga kelgan har qanday ziddiyatning yechimga olib kelinishi va barcha tomonlarning mazkur yechimdan qoniqib, ziddiyatni xayoldan chiqarganligi, ziddiyat ularning hayotidan chiqib ketganligi, ularni boshqa xavotirga solmayotganligi bosh yutuq sanaladi.

3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nizoli vaziyatlarni hal etish mahorati funksiyasi. Pedagogik nizolarni yechimga olib kelishda o‘qituvchida quyidagi kompromissga olib keladigan usullari mavjud bo‘lishi kerak: tomonlar va ularning harakter xususiyatlari, ularning manfaatlariga moslashishi, ularning manfaatlarini anglashga urinish, ba’zi masalalarda biror tomonga yon berish, murosaga kelish, tomonlar manfaatlarini nizoli vaziyatdan oldingi holatda saqlab qolishga urinish, nizolar yechimida vositachilar yordami va ishtirokidan foydalanish. Moslashish va yon berish jarayonida boshqa tomon manfaatlarining muhimligi va boshqa tomon

qarashlarida ikki tomon uchun foydali bo‘lgan o‘rinlarning mavjudligi tan olinadi. Natijada boshqa tomon fikr va qarashlari qabul qilinadi. Aslida boshqa tomon qarashlari qabul qilingan bo‘lsa ham, mana shu qarashni qabul qilgan tomon ham yutuqqa erishadi. Chunki mazkur qarash barcha tomon manfaatlarini ham inobatga oladi va muvaffaqiyat uchun xizmat qiladi. Yon berish boshqalar fikr va qarashlariga e’tibor, ularning tahlil qilishda ochiqlik va samimiylik, o‘zga fikrlar orasidan maqbul g‘oyalarni topa bilish va ularni hamkorlikda qabul qilish, o‘zining neytral va ratsional munosabatini ko‘rsata olish kabi amallar orqali o‘zini namoyon etadi. Shaxslararo mana shunday maqbul kelishuvga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Biroq o‘zga tomon fikr va qarashlarini qabul qilish, ikkinchi tomonning yutqazishi, o‘z manfaatlariga zarar yetkazishi, birovga bo‘ysunish, mulzam bo‘lish, yo‘qotish sifatida baholansa, bu holatlar nizoning eskalatsiyasi, ya’ni yanada kuchayishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining o‘zi esa nizoli vaziyatda umuman o‘zini ustun qo‘yish, boshqa tomonni tahqirlash, o‘zgani mulzam qilish, psixologik va jismoniy zo‘ravonlik o‘tkazish, o‘z fikrini kuch bilan singdirish, o‘zgalarga tazyiq o‘tkazish kabi amallardan hech vaqt foydalanmasligi talab etiladi. Kompromiss tomonlarning u yoki bu darajada manfaatlarining inobatga olinganligini tasdiqlab beradi. Har bir tomon o‘z manfaatlaridan eng muhimlari qabul qilinganligi, biroq ba’zi boshqa fikrlar inobatga olinmaganligini anglaydi va shu natijaga rozi bo‘ladi. Tomonlar manfaatlaridagi qabul qilingan o‘rinlar ahamiyati qabul qilinmagan jihatlardan ustunroq mavqega ega bo‘ladi. Biroq ko‘pchilik nizoli vaziyatlarda tabiiy ravishda bir tomon boshqasiga nisbatan ko‘proq kompromissga boradi. Agar mana shu tomon qarashlarida biror-bir norozilik paydo bo‘lsa, nizo biroz vaqt tinch va osuda o‘tib turadi, keyinchalik esa yangi kuch va energiya bilan ziddiyat qayta paydo bo‘lib, yana tomonlar munosabatlariga rahna sola boshlaydi.

4. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nizoli vaziyatlarda o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorligi funksiyasi. Har qanday nizoda unda ishtirok etayotgan tomonlarning mavjud muammoni hamkorlikda muhokama etish, ziddiyatdan chiqishning yo‘li, usul va vositalarini taklif etish, kompromisslarga borish, nizoni yengib o‘tishga ishtiyoq va xohishni tarbiya qilish ziddiyat jarayonida har ikki tomonning yutib chiqishi va “g‘alaba-g‘alaba” sharoitining amal qilishini ta’minlaydi. Biroq konkret vaziyatda ziddiyatga kirgan tomonlar har doim buni to‘g‘ri va mutanosib anglayvermaydi. Shuning uchun mana shu vazifani bajarishda o‘qituvchining roli juda ahamiyatli sanaladi. Binobarin, har qanday nizoli vaziyatda tomonlar hamkorligini o‘rnatish muhimdir. Hamkorlik uchun tomonlarning qarashlari, fikrlari va nuqtayi nazarlaridagi yaqinlik, o‘zaro takrorlanuvchi va har ikki tomon uchun qadrli bo‘lgan o‘rinlarning mavjudligi, umumiy manfaatlar va maqsadlarning yuzaga kelishi, har ikki tomondan hissiy-emotsional va aqliy tafakkur faoliyatlari taqozo etiladi. O‘qituvchi nizoli vaziyatlarda o‘quvchilar, hamkasblar,

rahbariyat o‘rtasidagi hamkorlikka mas’ul hisoblanadi. Hamkorlikni o‘rnata bilish nizoni bartaraf etish va uning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Nizoli vaziyatdagi hamkorlik birgalikda turli muammolarni muhokama etish va tegishli qarorlar qabul qilishni anglatadi.

Mazkur funksiyani amalga oshirish uchun nizoli vaziyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olish va o‘rganish, ularni amaliy qabul qilish va ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish, ularning qadriyatlar tizimini hurmat qilish, muhokamalarda obyektivlikni ta’minlash, muammolarni shaxsdan ayri holda ko‘rish taqozo etiladi [3; 44-b.].

Adabiyotlar

1. Thomas K.W. Conflict and negotiation // Handbook of industrial and organizational psychology/ Eds. M.D. Dunnette. Palo Alto, CA, 1992. – P. 889-935.

2. Рыбакова М. М. Конфликт и взаимодействия в педагогическом процессе. – М.: Педагогика, 1991. – 168 с.

3. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. //Дарслик. – Тошкент, Молия. 2015.- 435 бет.

PEDAGOGIKA FANIDA SHAXS KAMOLOTI VA MA’RIFAT MASALASI

Avazov Sh. –Toshkent davlat pedagogika universiteti professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs kamolotining pedagogik jihatlari odam va shaxs ontogeneziga muvofiq mavjud nazariyalar hamda irsiyat, muhit va ma’rifat kabi omillar asosida tahlil etilgan. Xususan, shaxs kamolotida ma’rifatning tutgan o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: odam, shaxs, ontogenez, bioijtimoiy mavjudot, shaxs kamoloti, barkamollik, shaxs kamoloti haqidagi nazariyalar, irsiyat, muhit va ma’rifat.

ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕДАГОГИКЕ

Авазов Ш. – профессор Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические аспекты развития личности на основе существующих теорий и факторов, таких как наследственность, среда и образование в соответствии с онтогенезом человека и личности. В частности, раскрывается роль образования в развитии личности.

Ключевые слова: человек, личность, онтогенез, биосоциальное существо, развитие личности, совершенство, теории о развитии личности, наследственность, среда и образование.

THE PROBLEM OF PERSONALITY DEVELOPMENT AND EDUCATION IN PEDAGOGY

Avazov Sh. - Professor of the Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes the pedagogical aspects of personality development on the basis of existing theories and factors such as heredity, environment and education in accordance with the ontogenesis of a person and personality. In particular, the role of education in personality development is revealed.

Key words: man, personality, ontogeny, biosocial being, personality development, perfection, theories about personality development, heredity, environment and education.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi pedagogika fanida shaxs kamoloti va ma’rifat masalasining zamonaviy qirralarini turli jihatdan tahlil qilish va ochib berishdan iborat. Shunga muvofiq ushbu tadqiqot ibtidosini odam zotining kamol topishini ta’minlovchi borliq hodisalari tahlilidan boshlaymiz.

Aql-zakovatli odam o‘zida *biologik*, *ijtimoiy* va *madaniy* jihatlarni namoyon etadigan tirik organizmdir. Yer sayyorasida bunday xususiyatlarga ega bo‘lgan boshqa jon egasi mavjud emas. Ibtidoiy odamlar tabiiy muhit qurshovida yashagan, o‘zini tabiat bilan birgalikda his qilgan, tirikchilik uchun ovchilik va o‘simlik mevalarini yig‘ish bilan shug‘ullangan, vaqtinchalik manzilgohlarda yashab, oziq-ovqatlarga boy hududlarni izlab, muntazam ko‘chib yurishgan. Odamlarda mehnat qilish, mehnat qurollarini yaratish va tafakkur qobiliyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan ularning turmush tarzi keskin o‘zgargan. Aql (ong) – odamlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak taqchilligini bartaraf qilishga imkon bergan: bundan 10 ming yil oldin qishloq xo‘jaligi vujudga kelgan, atigi 250 yil oldin sanoat inqilobi boshlangan. Odam buyuk yaratuvchi sifatida o‘zi uchun qulay yashash muhitini, ya’ni tabiiy landshaftlar o‘rnida madaniy landshaftlar, qishloq va shaharlar (urbanizatsiya) tizimini vujudga keltirgan. Shu tariqa inson butun borliqning ko‘rkiga, ongli va tafakkurli vujudga, beqiyos ijtimoiy-madaniy hodisa – voqelikka aylangan.

Odam biologik tur - individ sifatida ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimiga kirgach, unda o‘ziga va jamiyatga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar vujudga kela boshlaydi. Odam o‘z genetik dasturi, artof-muhit omillari va o‘zi yashayotgan

jamiyatga xos qadriyatlar, me'yorlar, yo'l-yo'riqlar va xulq-atvor namunalarini o'zlashtirishi hamda o'zining shaxsiy tajribasi asosida yaxlit ijtimoiy-madaniy mavjudot, ya'ni ***shaxs*** sifatida shakllanadi.

Odam tabiiy-genetik, ijtimoiy-tarixiy va ma'rifiy-madaniy hodisa va jarayonlarning subyekti / obyekti bo'lib, ular tabiat va jamiyat tomonidan yaratilgan hamda odamni shaxs sifatida shakllantiradigan ***hayotiy muhit*** hisoblanadi. Odamning ijtimoiylashuvi, turmush tarzi va avlodlarning uzluksiz yangilanishi mazkur muhitda ro'y beradi. Bu muhit moddiy va ma'naviy qadriyatlar iste'molchisi, tashuvchisi, ijodkori va yaratuvchilik faoliyatiga tayyor bo'lgan ***barkamol inson*** shaxsini vujudga keltiradi. Har qanday odam boshqa odamlar, ijtimoiy guruhlar va madaniy muhit ta'sirisiz "tirik murda", ya'ni individ holida qoladi, o'zligini anglamaydi. Demak, ***shaxs*** *tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik va shaxsiy xususiyatlari rivojlangan, o'z hatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, o'ziga xos xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosini ifodalaydi. Yetuk shaxslar doimo aql-farosati, mas'uliyat-javobgarligi, erk-erkinligi, qadr-qimmati hamda o'ziga xosligi-individualligi bilan o'zgalarda havas, hurmat va go'zallik tuyg'usini uyg'otadi.*

Barcha odamlar birgalikda ***insoniyat*** (sosium) deb ataluvchi populyatsiya tizimini hosil qiladi. Har bir odam bu tizimda o'ziga xos va mos ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy xislatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, biosfera qonuniyatlari doirasidan tashqariga chiqmaydi. Odamning tanasi, anatomik-fiziologik tuzilishi va xususiyatlari uning biologik jihatini, o'rganish va bilishga qobilligi, o'zgalar bilan muloqotga kirishishi va munosabatlar o'rnatishi, ma'naviy barkamollikka intilishi ijtimoiy-madaniy jihatini anglatadi. Odamda ushbu jihatlarning o'zaro mutanosib rivojlanishi yaxlit inson shaxsining shakllanishini ta'minlaydi. Zero, inson o'z aqli va ruhi sohibi, o'z shaxsi, madaniyati va kamolotining bunyodkori. Inson – eng oliy qadriyat, uning baxt-saodati - eng oliy maqsad hisoblanadi.

Odam ontogenezi - odamning irsiy dastur asosida jismoniy-biologik rivojlanish yo'li, ***shaxs ontogenezi*** - shaxsning ijtimoiy dasturlar asosida ruhiy, ma'naviy-madaniy shakllanish yo'li bo'lib, ular o'zaro shartlangan, uyg'unlashgan va uzviy yaxlit jarayon – inson kamolotining ikki jihati sifatida barkamol inson shaxsining vujudga kelishini ta'minlaydi.

Aslida biologik mavjudot bo'lgan odam o'z hayoti davomida ijtimoiy xususiyat va fazilatlarga ega bo'ladi. Shu sababli odam fanda ***bioijtimoiy mavjudot*** sifatida qarab chiqiladi. Biroq odamning biologik xususiyatlari (tavsifi) *shaxs* tushunchasi mazmuniga kiritilmaydi. Shu sababli shaxsning mohiyatini uning soch-soqoli, qoni, jismoniy tabiati emas, balki ijtimoiy sifatlari belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxs bo'lish odamning jismoniy hayotiga emas, balki ijtimoiy-ma'naviy fazilatlariga bog'liq. Shunday ekan, shaxs tushunchasi odamning ijtimoiy mohiyatini

tavsiflaydi va uning hayoti davomida o‘zida shakllantirgan ijtimoiy xususiyatlari majmuini anglatadi.

Psixologlar shaxs tushunchasini odamning yoshi va ruhiy yetukligi bilan bog‘laydilar. Shu nuqtayi nazardan psixik rivojlanish darajasiga etmagan go‘daklar, o‘z hatti-harakatida onglilikni namoyon qila olmaydigan ruhiy xasta kishilar shaxs bo‘la olmaydi. Shaxs qancha kuchli bo‘lsa, unda ijtimoiy xususiyatlar va fazilatlar shunchalik yorqin, faoliyati esa qandaydir darajada ijodiy bo‘ladi. Odam yoki shaxs tushunchalarining tavsifi *individuallik (shaxsiyat)* tushunchasi bilan to‘ldiriladi. ***Individuallik*** yakka odam yoki shaxsning tabiati, mijozi, ijodiy qobiliyati va faoliyati o‘ziga xosligi, o‘zgalarga o‘xshamasligi, boshqalardan ajralib turishi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, ***shaxs kamoloti*** deganda odamning anatomik-fiziologik balog‘atga yetishida, uning asab tizimi va psixikasi, shuningdek bilish va ijodiy faoliyati mukammallashuvida, dunyoqarashi, axloqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, e’tiqodlarining kengayishida sodir bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bog‘liq jarayoni tushuniladi. Shaxs kamoloti jarayonining yig‘ma ko‘rsatkichi va natijasi – shaxs, guruh yoki jamoaning *barkamollik* darajasi hisoblanadi.

Barkamollik – odamning jismoniy, aqliy, ijodiy va kasbiy (texnik, pedagogik, huquqiy, musiqiy va sh.k.) barqaror xususiyatlari, fazilatlari, umumiy va maxsus qobiliyatlarining mukammallik va samaradorlik darajasidir. Sodda qilib aytganda, *barkamollik (komillik)* – inson tanasi va ruhining salomatligi; aqli, qalbi va hulq-atvorining mukammalligidir. Barkamollik ko‘rsatkichi odamning hayotiy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya olganlik, madaniylik darajasida aks etadigan funksional xususiyatlari bilan shartlanadi. Ta’kidlash joizki, *shakllanish* tushunchasi ham inson kamolotini aks ettiradi. ***Shakllanish*** – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, psixologik, pedagogik va boshqa omillar ta’sirida odamning ijtimoiy mavjudot sifatida qaror topish jarayonidir.

Shaxsning shakllanishi inson kamoloti darajasining yuksalishiga olib keluvchi izchil qayta o‘zgarishlar, ya’ni miqdor va sifat o‘zgarishlari jarayoni bilan tavsiflanadi. Biroq bu jarayonlar *shaxs kamoloti haqidagi nazariyalar* mazmunida turlicha talqin etilgan [1]:

1) ***preformistik nazariya*** – jinsiy hujayrada embrion rivojlanishi va undan paydo bo‘ladigan organizmning xususiyatlarini oldindan belgilab beruvchi moddiy tuzilmalar mavjudligi haqidagi ta’limot; inson shaxsi oldindan berilgan yoki belgilab qo‘yilgan “dastur” asosida shakllanishi, uning barcha xususiyatlari va fazilatlari o‘z-o‘zidan rivojlanishi, tarbiya va boshqa ijtimoiy sharoitlar esa faqat bunga yordam berishi haqidagi nazariya (Antoni Levenguk, Marchello Malpigi va boshqalar);

2) ***teologik nazariya*** – inson shaxs kamolotining ichki dasturi odamning ilohiy vazifasi, burchi bilan bog‘liqligi, ya’ni shaxs kamoloti Olloh tomonidan

belgilanishi haqidagi ta’limot. Odam - ikki, ya’ni jismoniy va ma’naviy ibtidolar uyg‘unligidir. Ma’naviy ibtido, ya’ni “o‘lmas jon” odamni tabiatdan ustun qo‘yib, uning Xudo bilan muloqot qilishiga kafolat beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, inson hayotining ma’nosi imon-e’tiqod orqali kechadigan “o‘ta hissiy olam”ni chuqur tushunishdan iborat (F. Akvinskiy, J. Mariten, D. Treysi va boshq.);

3) ***ekzistensialistik nazariya*** – jamiyat shaxsga salbiy ta’sir qiladi va odam faqat undan ajralgan holda komillikka erishadi. Boshqacha aytganda, kamol topish odamning o‘zi va tabiat tomonidan oldindan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi; buning uchun hech narsa va hech kimga zarurat bo‘lmaydi (S. Kyerkegor, K. Yaspers, M. Xaydegter va boshq);

4) ***biologik nazariya*** – odam individining homiladan rivojlanishi odamning tur sifatida rivojlanish jarayonida o‘talgan barcha bosqichlarini takrorlaydi, ya’ni odam o‘zida mavjud bo‘lgan tug‘ma his-tuyg‘ular, mayllar va ehtiyojlarga bog‘liq hatti-harakatlar (xulq-atvor) asosida irsiyat (tabiat) qonunlariga muvofiq shaxs sifatida kamol topadi (Ch. Darvin, I. Myuller, G. Xoll va boshq.);

5) ***psixoanaliz*** (***ruhiy tahlil) nazariyasi*** – ruhiy quvvat ta’siridagi jinsiy mayl (istak, intilish) darajasi qanchalik kuchli, yuqori bo‘lsa, odam shunchalik tez rivojlanadi, kamol topadi (Z. Freyd va boshq.).

Bu nazariyalarni keltirishdan maqsad shaxs kamoloti muammolarini o‘rganishda pedagogika fani tayanadigan tegishli nazariyalarni aniqlashdan iboratdir. Aksariyat hollarda shaxs muammosiga oid pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shaxs kamolotining *biologiyalashgan, ijtimoiylashgan* va *bio-ijtimoiy* yo‘nalishlariga tayaniladi:

1. ***Biologiyalashgan yo‘nalish*** vakillari shaxsni tabiiy mavjudot, deb hisoblaydi, odamning xulq-atvorini unga tug‘ma berilgan tabiiy ehtiyojlar, mayllar va his-tuyg‘ular bilan izohlashadi (3. Freyd va boshq.). Bu yo‘nalish vakillarining fikricha, odam jamiyat talablariga bo‘ysunishga majbur, biroq bunda shaxsning tabiiy ehtiyojlari jamiyat tomonidan qandaydir darajada sun’iy tarzda bostirib turiladi. Ya’ni, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasligi qandaydir faoliyat turlari (mashg‘ulotlari) bilan almashtirilib, odamning o‘z-o‘zi bilan doimiy ichki kurashi qay bir darajada niqoblab, yopib turiladi.

2. ***Ijtimoiylashgan yo‘nalish*** vakillarining fikricha, odam biologik mavjudot sifatida dunyoga kelsa ham, o‘z hayoti davomida o‘zi muloqotda bo‘lgan ijtimoiy guruhlar ta’sirida asta-sekinlik bilan ijtimoiylashib boradi. Shaxsning kamolot darajasi qanchalik past bo‘lsa, unda biologik xususiyatlar, xususan, egalik qilish, vayron qilish, jinsiy mayl kabi tug‘ma his-tuyg‘ular (beixtiyor harakatlar) shunchalik yorqin, kuchli namoyon bo‘ladi. Bu yo‘nalish vakillarining fikricha, bola – “toza qog‘oz” kabidir, uning kamoloti atrof-muhitdagi shart-sharoitlar va ma’rifatga to‘liq bog‘liq bo‘ladi.

3. ***Bioijtimoiy yo‘nalish*** vakillarining fikricha, odamda kechadigan psixik jarayonlar (sezgi, idrok, tafakkur va h.k.) biologik tabiatga ega, biroq shaxsning intilishi, qiziqish va qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sifatida shakllanadi. Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida shaxs biologik va ijtimoiy jihatlari chambarchas uzviy bog‘langan bir butun, yaxlit mavjudot sifatida qarab chiqilmoqda. Chunki shaxs biologiyasidagi o‘zgarishlar nafaqat inson faoliyati xususiyatlariga, balki turmush tarziga ham ta’sir ko‘rsatadi. Biroq muayyan bir motivlar, qiziqishlar, maqsadlar, ya’ni ijtimoiy hayot natijalari shaxs kamolotida hal qiluvchi o‘rin tutadiki, ular shaxsning qiyofasini belgilab, o‘zini-o‘zi kamol toptirishi uchun kuch bag‘ishlaydi. Ya’ni, shaxs o‘zidagi ba’zi jismoniy kamchiliklar va fe’l-atvor xususiyatlarini (tez achchiqlanish, serjahillik, odamovilik va sh.k.) imkon qadar bartaraf qila oladi.

Shunday qilib, shaxs ***psixologiya*** fanida asosiy ruhiy tavsiflar, ya’ni, psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar nuqtayi nazaridan qarab chiqilsa, ***pedagogika*** fanida biologik va ijtimoiy jihatlari o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit bioijtimoiy majmu sifatida qarab chiqiladi.

Shaxs kamoloti psixologiya va pedagogika fanlarining umumilmiy kategoriyasi bo‘lib, ***psixologiya*** - shaxsning ruhiy kamoloti qonuniyatlarini izohlab bersa, ***pedagogika*** - komil inson va barkamol avlodni shakllantirish maqsadini ko‘zlab, shaxs kamolotini boshqarish haqidagi nazariyani yaratadi.

Shaxs kamoloti jismoniy, aqliy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ekologik va estetik jihatga egaligi bilan tavsiflanadi. Bu jihatlar notekis, ya’ni har xil sur’atda kechadi. Masalan, odamning jismoniy kamoloti 50 ming yil oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham deyarli shunday kechmoqda. Biroq odamning aqliy kamolotida tafakkurning rivojlanishi hisobiga juda katta ijobiy siljishlar kuzatilgan. Pedagogika shaxs kamolotini barcha tarkibiy qismlari bilan birgalikda o‘rganadi.

Odamning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun sog‘lom irsiyat, yashash muhiti va ma’rifiy shart-sharoitlar kerak bo‘ladi. Mana shu omillar ta’sirida odam zoti (individ) shaxsga aylanadi. Demak, shaxs kamoloti jarayoni va natijasi *irsiyat*, *muhit* va *ma’rifat* omillarining o‘zaro uzviy birligida vujudga keladi va aniqlanadi:

1. ***Irsiyat*** – ota-onadan bolaga muayyan sifatlar va xususiyatlarning o‘tishini ifodalaydi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

1) odamning biologik tur sifatida belgilarini aks ettiruvchi anatomik-fiziologik tuzilmalar (nutq, to‘g‘ri yurish, tafakkur va mehnat faoliyatiga oid iste’dod nishonalari);

2) tabiiy o‘ziga xos xususiyatlar (tashqi irqiy belgilar, teri va sochning rangi, ko‘z rangi va qorachiqda nurning sinishi, yuz tuzilishi, qaddi-qomat, inson tabiatini yuzaga keltiruvchi asab tizimi tuzilmasi);

3) fiziologik o‘ziga xos xususiyatlar (qon guruhi, rezus-faktor, moddalar almashinuvining shakli);

4) organizm rivojlanishidagi me’yordan chetga chiqishlar;

5) ayrim irsiy kasalliklarga moyilliklar.

Shaxsning o‘ziga xos psixologik xususiyati - ***iste’dod nishonalari***, ya’ni qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ichki imkoniyatlar nasldan-naslga o‘tadi. Talant – qaysidir sohadagi iste’dodning eng yuqori darajasi, ya’ni misli yo‘q qobiliyatdir. Shuningdek, faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha maxsus qobiliyatlar (musiqiy, badiiy, matematik, pedagogik va h.k.) ham farqlanadi.

Har bir shaxsda mavjud bo‘lgan iste’dod nishonalari va qobiliyatlar bir-biriga bosqichli bo‘ysunish asosida shakllanadi:

1) genetik tuzilmadagi iste’dod nishonalari – nasldan naslga o‘tadi;

2) shu asosda umumiy qobiliyatlar – umumiy aqliy kamolot darajasi (o‘qimishliligi, diqqati, xotirasi, nutqi, ish qobiliyati va h.k.) shakllanadi;

3) umumiy qobiliyatlar asosida maxsus qobiliyatlar (musiqiy, badiiy, matematik, pedagogik qobiliyat va h.k.) vujudga keladi;

4) iste’dod nishonalari, umumiy va maxsus qobiliyatlar negizida guruhlangan qobiliyatlar paydo bo‘ladi;

5) guruhlangan qobiliyatlar kasbiy qobiliyatlar shakllanishiga olib keladi.

Inson kamoloti qonuniyatlarini o‘rganishning pedagogik jihati uchta asosiy muammo – *aqliy*, *maxsus* va *axloqiy* sifatlar irsiylanishini (nasldan-naslga o‘tishini) o‘rganishni taqozo qiladi [2]. Jumladan, aqliy sifatlar irsiylanishida bolalar ota-onasidan aqliy faoliyatning qandaydir turiga tayyor qobiliyatlarnimi yoki faqat iste’dod nishonalarini meros qilib olishi masalasini o‘rganish o‘ta muhimdir.

Zamonaviy pedagogika har bir insonda genetik mavjud bo‘lgan iste’dod nishonalarini rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishiga urg‘u beradi. Biroq, ma’naviy (axloqiy) sifatlarning irsiylanishi haqidagi masala hamon ochiqligicha qolmoqda.

Bixeviorizm oqimi namoyandalari ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tadi, ular insonga tabiatan berilgan, deb hisoblaydilar. Bu ta’limotning yorqin vakili amerikalik mashhur olim E. Torndayk hisoblanadi. Pragmatizm oqimi vakillari ham shaxs kamolotini irsiyat nuqtayi nazardan asoslaydilar (D.Dyui, A.Kombe va boshq.).

2. ***Muhit*** **–** shaxs kamoloti kechadigan va unga ta’sir ko‘rsatuvchi real voqyelik shart-sharoitlari (obyektlar, jarayonlar, voqyea-hodisalar va h.k.) majmui. **Muhit deganda odam yashaydigan joydagi barcha tashqi ta’sirlar majmui tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan, muhit bolani o‘zi yashaydigan joydagi tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtiradi, degan xulosa kelib chiqadi.** Xususan, bola ijtimoiylashish (boshqa odamlar bilan o‘zaro muloqot va munosabatga

kirishish) jarayonida shaxsga aylanadi. Jamiyatdan tashqarida shaxsning ma'naviy, ijtimoiy va ruhiy kamoloti sodir bo‘lmaydi ("maugli" bolalar bunga yaqqol misol bo‘ladi).

Odamning atrofdagi muhit bilan o‘zaro bog‘liqligi jadalligiga ko‘ra: yaqin (uy yoki mahalla muhiti, mahalliy ekologik sharoit va sh.k.) va uzoq (ijtimoiy tuzum, hayotning moddiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlar oqimining tabiati va h.k.) muhit farqlanadi.

Inson kamolotida, ayniqsa bolalikda, uy va mahalla muhitining ta'siri katta bo‘ladi. Bola o‘zi o‘sayotgan va kamol topayotgan oila muhitini o‘zida yetarlicha aniq aks ettiradi. Zero, qadim-qadimdan "bola - oila ko‘zgusi" hisoblanadi. Bolaning qiziqishlari, qarashlari, qadriyatli mo‘ljallari ko‘pincha oila va mahallada shakllanadi. Oila va mahalla bolaga moddiy va tabiiy iqtidorini rivojlantirish shart-sharoitlarini taqdim etadi. Shaxsning axloqiy va ijtimoiy sifatlariga ham oila va mahallada asos solinadi. Farzandlar oila va mahallani mustahkamlovchi rishtaga aylanadi.

Insonning kamol topishiga nima ko‘proq ta'sir ko‘rsatadi: irsiyat yoki muhit? Bu murakkab masala bo‘lib, mutaxassislar fikriga ko‘ra, har bir inson kamolotida bu omillarning tutgan o‘rni va salmog‘i turlichadir. Har bir odam o‘zicha kamol topadi, unga irsiyat va muhitning ta'sir ko‘rsatish "hissasi" ham turlicha bo‘ladi. Bu ko‘plab tasodifiy omillarga ham bog‘liq bo‘lib, ularning ta'sirini aniq hisobga olish yoki aniq o‘lchashning imkoni yo‘q.

3. ***Ma'rifat*** - irsiyat va muhitning shaxs kamolotiga ko‘rsatadigan ta'sirini tartibga soluvchi va jamiyatga yetuk shaxslarni yetkazib berishga qodir bo‘lgan asosiy kuch, vosita hisoblanadi. Har bir odam va har qanday jamiyatning ma'naviy-madaniy hayotida ma'rifiy qadriyatlar asosiy o‘rin tutadi. Bilim va insoniylik azaldan muhim ma'rifiy qadriyat hisoblanib, dunyoqarash va bilimlar tizimi ta'lim-tarbiya dasturlarining negizini tashkil qilgan: ular odamda insoniylik fazilatini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu boisdan, o‘zbek xalq pedagogikasi aynan milliy ma'rifiy qadriyatlar negizida shakllangan.

Xo‘sh, ma'rifat nima? ***Ma'rifat*** – muayyan shaxs va jamiyat rivojlanishining umumiy shakli. Har qanday shaxs yoki jamiyatning ma'naviyati, mafkurasi va madaniyati - ma'rifatdan boshlanadi. Zero, "ma'rifat – kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya"dir [3]. "Ma'rifat (arabcha "arafa" – "bilmoq" so‘zidan) - ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat" [4]. Keltirilgan ta'riflardan ayonki, ma'rifatning asosini ***ta'lim*** va ***tarbiya*** tashkil qiladi.

Ota-bobolarimiz qadimdan ta'lim va tarbiya ishini o‘zaro uyg‘un olib borishgan; ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratishmagan. Bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma'rifat inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi hisoblangan. Jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan ku-rashilgan. Bugungi kunda

chinakamiga ma’rifatli odam inson qadri, milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, jahon hamjamiyatida mustaqil davlatimizning munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

Ma’rifat - ta’lim, tarbiya va inson kamoloti jarayonlarining uzviy birligi va o‘zaro bog‘liqligi. Ma’rifat – odam irsiyati va odam atrofidagi tabiiy-ijtimoiy muhitning shaxs kamolotiga ta’sirini tartibga solib turuvchi omil. Ma’rifat - inson tabiatini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan yagona vosita, biroq u odamning noqulay irsiyati (masalan, genetik kasalliklar) yoki odamga atrofdagi muhit ko‘rsatadigan o‘ta salbiy ta’sirlar oldida nisbatan ojiz omil. Ma’rifat – inson shaxsi kamolotini o‘ziga bo‘ysundirib, uning iste’dodi, qiziqishi asosida o‘ziga xos tarzda kamol topishini ta’minlaydi, biroq odamlar ma’rifatga, ya’ni ta’lim-tarbiyaga turlicha beriladi: kimdir - yetarli darajada ta’lim olib, tarbiyalanadi, kimdir – aksincha. Oqibatda jamiyatda turli darajada tarbiyalangan, ya’ni madaniyatli yoki madaniyatsiz kishilar, ota-onasiga rahmat yoki la’nat olib keluvchi odamlar shakllanadi.

Ma’rifat – ijtimoiy hodisa va jarayon. Ma’rifat – jamiyatdagi qadriyat, ijtimoiy ong va shaxs tuzilmalarini o‘z ichiga qamrab olgan alohida tizim, ayni paytda, ijtimoiy hayotning muhim sohasi. Ma’rifat - odamni dunyoviy qadriyatlar, fan-texnika yutuqlari bilan tanishtiradi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot muhiti hisoblanadi. Shaxs va jamiyatning aqliy-ma’naviy va madaniy-axloqiy salohiyati ma’rifatga bevosita bog‘liqdir.

Demak, ***ma’rifat*** – ta’lim va tarbiyaning yaxlit tizimi, ayni paytda, shaxs tomonidan egallanadigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar, ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyatli mo‘ljallar majmuidir. Shu nuqtayi nazardan, “ma’rifat” tushunchasi ahamiyatiga ko‘ra turlicha talqin etiladi:

1) ma’rifat – jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyatida to‘plangan bilim va tajribalarni individga (shaxsga) yetkazish (o‘tkazish) jarayoni;

2) ma’rifat – ta’lim-tarbiya jarayoni va natijasida olingan bilimlar va tajribalar majmui;

3) ma’rifat – shaxsning bilish saviyasi, ma’lumot darajasi;

4) ma’rifat - inson (shaxs) kamoloti yoki shakllanishi (paydo bo‘lishi, vujudga kelishi, yaralishi) kabi so‘zlarning ma’nodoshidir.

Ma’rifatning maqsadi – shaxsni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatga jalb etish uchun uning o‘ziga va jamiyatga zarur bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishdan, boshqacha aytganda, odamni jamiyatdagi ustuvor oliy maqsadlar, qadriyatlar va e’tiqodlar majmui bilan tanishtirish orqali inson kamolotini boshqarishdan iboratdir.

Ma’rifatning vazifalarini uch guruhga ajratish mumkin:

1) jamiyat taraqqiyoti manfaatlaridan kelib chiqadigan vazifalar – malakali xodimlarni tayyorlash, jamiyat qadriyatlariga sherik bo‘lgan ongli va faol fuqarolarni shakllantirish;

2) inson kamoloti manfaatlaridan kelib chiqadigan vazifalar – insonning ijodiy salohiyati va ma’naviy dunyosini shakllantirish va boyitish;

3) shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadigan vazifalar – har xil ma’rifiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni bir vaqtning o‘zida qondirish.

Ma’rifatning asosiy vazifalari:

1) ***ta’lim –*** jamiyatda tarixan shakllangan ijtimoiy tajribaning avloddan-avlodga o‘tkazilishi va uning yosh avlod tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlaydi;

2) ***tarbiya*** – odamga madaniyatni o‘zlashtirish sharoitlarini yaratadi va uzluksiz tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali ijtimoiy-madaniy tajribalar, axloqiy qadriyatlar va me’yorlar, umuman, umuminsoniy va milliy madaniyatni har bir kishining shaxsiy tajribasiga aylantiradi, bu jarayonda o‘ziga xos ijtimoiy madaniy xulq-atvor fazilatlarini shakllantiradi;

3) ***ijtimoiylashtirish*** – individning o‘zga kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi, jamiyatda shakllangan qadriyatlar, me’yorlar va xulq-atvorlar majmuini o‘zlashtirishi, muayyan sharoitlar ta’sirida atrofdagi olamni anglashi va shaxs sifatida shakllanishining tezlashuvi oqibatida insoniy fazilatlarga ega bo‘lishini, boshqacha aytganda, madaniylashuvini ta’minlanlaydi;

4) ***malakali mutaxassislar tayyorlash*** – boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus professional va oliy ta’lim muassasalarida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanadi.

“Ma’rifat” kategoriyasi (tushunchasi) bir qancha ma’nolarga ega bo‘lib, uni jarayon, natija va tizim sifatida ta’riflash mumkin:

1**)** ***jarayon sifatida*** – ma’rifiy muassasalarida, shuningdek mustaqil o‘qish natijasida bilim va ko‘nikmalar, bilish va amaliy faoliyat tajrabasi, qadriyatli mo‘ljallar va munosabatlar tizimining o‘zlashtirilishi;

2**)** ***natija sifatida*** – bilim va ko‘nikmalarni, tafakkur va faoliyat usullarini o‘zlashtirishda erishilgan daraja, ya’ni ma’lumot**;**

3**)** ***tizim sifatida*** – Davlat ta’lim standartlari va ta’lim-tarbiya dasturlarining o‘zaro izchil majmui, ularni amalga oshiruvchi ma’rifiy (o‘quv-tarbiya) muassasalar va boshqaruv organlari tarmog‘i.

Pedagog bo‘lish uchun boshqalar aql-idrokini o‘stirish, ularni ma’rifat ziyosidan bahramand qilish kerak. Millat farzandini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning o‘ziga ishonchini orttirish kabi ishlarning markaziga ma’rifat kabi o‘lmas qadriyat qo‘yilishi lozim. Zero, **m*a’rifat - ta’lim va tarbiyaning o‘zaro birligida kechadigan, shaxs kamolotini tartibga solib, uni madaniylikka, komillikka eltadigan pedagogik jarayondir***. Shunday ekan, shaxs kamoloti va ma’rifat -

pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida namoyon bo‘ladiki, ular pedagogika fani va amaliyoti mazmunida o‘z aksini to‘liq topishi lozim.

Adabiyotlar

1. Коджаспирова Г.М. Педагогика. Учебник. – М.: Издательство Юрайт, 2016. - 719 с.

2. Christian Rittelmeyer: Pädagogische Anthropologie des Leibes. Biologische Voraussetzungen der Erziehung und Bildung. Weinheim/München: Juventa 2002. 216 S.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли. 60000 сўз ва бирикмаси // З.М.Маъруфов таҳрири остида. I том. А-Р.- Москва, “Рус тили” нашриёти, 1981.- 455-б.

4. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Г.Абдураззоқова ва бошқ.; А.Жалолов ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. - Т.: “Шарқ”, 1998. - 116-б.

TIL TA’LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI TA’MINLASH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA

(tibbiyot terminlari misolida)

Adilova S.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti umumiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilini chet til sifatida o‘qitish jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlash masalalari o‘rganilgan. AQSHdagi ayrim universitetlar misolida til va tibbiyot integratsiyasi ko‘rsatilgan hamda mazkur mavzu bo‘yicha o‘zbek tili darsligida berilgan materiallar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada til ta’limida integrativ yondashuvni ta’minlashga doir aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, o‘zbek tili o‘qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya, integratsiya, tilshunoslik, tibbiyot, terminologiya, evfemizm, ekvivalent.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ЯЗЫКОВОМ ОБУЧЕНИИ

(на примере медицинской терминологии**)**

Адилова С.А. - доцент кафедры общего языкознания Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, кандидат педагогических наук

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы междисциплинарной интеграции в процессе обучения узбекскому языку как иностранному. Интеграция языка и медицины проиллюстрирована на примере некоторых университетов США, проанализированы материалы учебника узбекского языка по данной теме. Также в статье приведены конкретные рекомендации по обеспечению интегративного подхода в языковом обучении.

Ключевые слова: узбекский язык, методика обучения узбекскому языку, коммуникативная компетенция, интеграция, языкознание, медицина, терминология, эвфемизм, эквивалент.

FOREIGN EXPERIENCE IN ENSURING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN LANGUAGE TEACHING

(on the ehample of medical terminology**)**

Adilova S.A. - Associate Professor of the chair of General Linguistics, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Candidate of Pedagogical Sciences

Annotation. The article ehamines the issues of interdisciplinary integration in the process of teaching Uzbek as a foreign language. The integration of language and medicine is illustrated by the ehample of some universities in the United States, and the materials on the subject in the Uzbek language textbook are analyzed. The article also provides specific recommendations for ensuring an integrative approach to language learning.

Key words*:* Uzbek language, Uzbek language teaching methods, communicative competence, integration, linguistics, medicine, terminology, euphemism, equivalent.

Bugungi kunda til o‘qitish jarayoni talabalarda bo‘lajak kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy bo‘lgan va umumkasbiy kompetensiyalar tarkibiga kirgan kommunikativ kompetensiyaning barcha elementlarini shakllantirishga qaratilgandir. Fanlararo integratsiyaga asoslangan yondashuv esa bu jarayonda alohida vazifani bajaradi, ya'ni u turli o‘quv fanlarini birlashtiruvchi omil sifatida dunyoni to‘liq umumiy holda tasavvur qilishga olib keladi [6, 295-b.]

Oliy ta’limdagi islohotlar shuni ko‘rsatyaptiki, real hayotning zamonaviy muammolarini chuqur anglash ta'lim jarayonida fanlararo hamda fan bo‘limlariaro integratsiyani ta’minlashni talab etadi. Bunga ehtiyojning kattaligi ayniqsa tabiiy fanlar, aniq fanlar va boshqa yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga til va terminologiyani o‘qitish davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Integrativ yondashuv turli

fanlarni o‘qitishda yaxshi samara beradi. Jumladan, o‘zbek tili mashg‘ulotlarini mazkur yondashuv asosida tashkil etish bo‘lajak mutaxassislarning (pedagoglarning) kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asqatadi.

Umuman olganda, fanlararo integratsiya, sohalararo integratsiya doimiy ravishda mutaxassislar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Biroq bugungi kunda global kommunikatsiyaning kengayishi, madaniyatlararo munosabatlarning jadallik bilan o‘rnatilib borishi, inson hayotining barcha jabhalariga texnologiyalarning shiddat bilan kirib borishi turli fanlar doirasida, jumladan, tilshunoslik va tibbiyot kesimida yangidan-yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib kelyapti. Psixiatrik lingvistika, bio, eko, fizio, antropologik lingvistika, artikulatsion va perseptiv fonetika, klinik lingvistika kabi yo‘nalishlarning vujudga kelgani fikrimizning dalilidir [5, 104-b.]. Ayniqsa, “tibbiyot lingvistikasi” deb nomlangan yo‘nalish har ikki soha vakillarida ham katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Aniq ta’riflarning hozircha mavjud emasligi tufayli tibbiyot lingvistikasi deganda tibbiyot olamida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan lingvistik tadqiqotlar, fizik-fiziologik rivojlanishdagi nuqsonlarning nutqda aks etishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi soha, tilning pragmatik vazifasining bajarilishini tadqiq qiluvchi yo‘nalish kabilar tushuniladi. Albatta, bu kabi tor doiragi masalalar yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar mavjud muammo va yechimlarni aniq belgilab beradilar. Biz esa masalaga ikkinchi til o‘qitish metodikasi, nutq madaniyati, kompyuter lingvistikasi bo‘yicha mutaxassis sifatida fikr bildirmoqchimiz. Nazarimizda, tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- tibbiyotga oid terminologik tizimni tadqiq qilish;
- tibbiyot atamalarini xalq shevalaridagi so‘zlar, sinonimlar, ibora va evfemizmlar bilan boyitish;
- bir necha tilli bosma va elektron shakldagi terminologik lug‘atlarni yaratish, ularni takomillashtirish;
- ingliz, rus va boshqa tillardagi tibbiyotga oid matnlarni tarjima qilish, tibbiy terminologiyani qiyosiy tadqiq qilish;
- tibbiyot yo‘nalishidagi OTMlarda o‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitish;
- tibbiyot sohasidagi kasbiy muloqotning o‘ziga xosligi, lisoniy (verbal) aloqa jarayoni, zamonaviy shifokorning kommunikativ va sotsiolingvistik kompetentligini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy loyihalar doirasida faoliyat yuritish;
- xalqaro hamkorlik doirasida tashrif buyuradigan xorijiy mutaxassislar hamda xorijda malaka oshiradigan o‘zbekistonlik tibbiyot xodimlari uchun maxsus til kurslarini tashkil qilish va hokazo.

Ko‘rinib turganidek, tilshunoslik va tibbiyot sohalarining vakillari hamkorlikda bajarishlari mumkin bo‘lgan ishlarning ko‘lami keng va globallashuv sharoitida u yanada kengayib boradi.

Aslida, har bir mamlakatda chet tillarni o‘qitishning yillar davomida shakllangan va sinalgan o‘ziga xos metodlari mavjud bo‘ladi. Bunda mamlakatning geosiyosiy holati, boshqa davlatlar bilan munosabati, kun konyukturasi, o‘qitish sharoitlari, milliy mentalitet, o‘rganilayotgan tillarning davlat tiliga yaqinlik darajasi va amaliy ahamiyati kabi omillar hisobga olinadi. Xo‘sh, yoshi, kasbi, kelib chiqishi turlicha bo‘lgan amerikaliklarni o‘zga tillarni o‘rganishga nima majbur qiladi? Avvalo, mamlakatda har xil tilda so‘zlashuvchi immigrantlarning ko‘pligi. Ikkinchidan, bir nechta chet tilni bilish kishilarning liberalligidan dalolat beradi, ular nafaqat o‘zining tili va madaniyatini biladilar, balki o‘zga millat vakillariga ham hurmat bilan qaraydilar. Umuman olganda, har bir talabaning chet tilni, xususan, o‘zbek tilini o‘rganishdan o‘z maqsadi bor: shaxsiy qiziqish, ya’ni o‘zbek tilini yoqtirgani tufayli, xalqaro biznes bilan bog‘liq tashkilotga ishga kirish uchun Markaziy Osiyo tillaridan birini bilishi kerak bo‘lgani uchun, “Til ta’limiga oid kompyuter resurslari” deb nomlangan laboratoriyadagi faoliyatiga kerak bo‘lgani uchun, ilmiy-tadqiqot ishi aynan yurtimiz tarixi yoki madaniyatimiz bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, yoki O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni ko‘rishni orzu qilgani va o‘zbek xalqining tilini bilish boshqa turkiy xalqlarning tilini va madaniyatini o‘rganishga asos (baza) bo‘la olishi tufayli va hokazo. Bu kabi sabab va maqsadlar esa tilni intensiv ravishda o‘rganish uchun kuchli motivatsiya bo‘lib xizmat qila oladi.

So‘nggi yillarda xorijiy davlat vakillarining O‘zbekistonga, o‘zbek tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Maqola muallifi tomonidan AQSHda olib boriladigan intensiv kurslarda asosan muallif tomonidan yaratilgan elektron majmualar, autentik va o‘quv-autentik materiallardan, Nigora Azimovaning [1, 334-358-b.] o‘zbek tili darsliklaridan hamda G.Ergasheva va MO‘TUL jamoasi tomonidan yaratilgan resurslardan foydalanib kelinadi. Shu bilan birga, yurtimizda so‘nggi yillarda nashr etilayotgan turli qo‘llanma, internet resurslaridan, radio, televideniye materiallaridan ham foydalaniladi. Har bir darsda til sathlariaro integratsiya taminlanadi, leksik, morfologik, sintaktik birliklar o‘rganiladi hamda mavzu doirasida o‘zbek madaniyatiga oid ma’lumotlar ham berib boriladi. Masalan, N.Azimovaning darsligida 15-bo‘lim “Nima bezovta qilyapti?” deb nomlanadi. Mazkur bo‘limning materialini o‘rganish jarayonida talabalar o‘zbek tilidagi anatomiya va tibbiyotga oid 38ta so‘z va birikmalar bilan tanishadilar. Ular qatorida tana a’zolari konseptiga kiradigan leksik birliklar, insonning umumiy jismoniy holatiga oid tibbiyot terminlari, muayyan tana a'zosining holatiga tegishli bo‘lgan leksemalar, tor doiradagi tibbiy ixtisoslikning, shifokorning nomi kabilar

faollashtiriladi. Qizig‘i shundaki, darslarimizda biz nafaqat rasmiy tibbiyotning, balki xalq tabobatining ham o‘ziga xosliklari haqida suhbatlashamiz. Talabalarimiz AQSHning turli universitetlari vakillari (ya’ni, talaba, magistrant, tadqiqotchi, doktorant, o‘qituvchilari) bo‘lgani sababli, ular orasida bevosita shifokorlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchilar ham uchraydi. Bunday va boshqa yuqori bosqich talabalarini ayniqsa, “tabib”, “siloqchi”, “giyoh”, “damlama”, “dorivor o‘simlik” singari xalq tilida uchraydigan so‘z va iboralar qiziqtiradi.

Shu bilan birga, xorijiy talabalar o‘zbek tilining evfemizmlarga boy ekanini bilgan holda aynan evfemistik qo‘llanishlarni o‘rganishni xohlaydilar va bu borada ularda ko‘pgina savollar tug‘iladi. Ayniqsa, inglizcha evfemizmlarning o‘zbekcha muqobillari katta qiziqish uyg‘otadi. Ma’lumki, evfemizm ko‘proq lingvistik tushuncha emas, balki madaniy tushunchadir [4, 1-b.]. Shuning uchun uni aynan tarjima qilish mumkin emas. Bunday hollarda biz albatta manbalarga murojaat qilib, ikki tildagi muqobil variantlarni topishga harakat qilamiz. Darslar davomida tibbiyotga aloqador bo‘lgan tushunchalarning evfemistik qo‘llanishiga doir quyidagi misollarni keltiramiz:

“Keksa” ma’nosidagi “yoshi bir joyga borib qoldi” yoki “endi olma bilan o‘rik bo‘larmidi” kabi birikmalarning muqobili sifatida “mature (yetuk)”, “senior (katta)”, “advanced in years (tajribali yoki yoshi katta)” kabi variantlar taklif qilinadi. Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi “ko‘r” (blind), nogiron (invalid), semiz (fat), aqldan ozgan (mad) kabi birliklarning o‘rniga “ko‘zi ojiz” (unseeing - ko‘rmaydigan); handicapped (aqliy yoki jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan, imkoniyati cheklangan odam), ortiqcha vaznli odam (overweight), ruhiy kasal (mentally sick) kabi evfemik ifodalardan foydalaniladi. Shuningdek, tana a’zolari, homiladorlik, o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘pgina evfemizmlar mashg‘ulot davomida bahslarga sabab bo‘ladi. Aytish joizki, AQSHning turli shtatlaridan kelgan talabalar tibbiyot yoki boshqa soha bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin lug‘atlarda uchramaydigan o‘ziga xos, spetsifik evfemik ifodalarni bilishlari, ularni qo‘llashlari mumkin. Bu esa soha lingvistikasini qiyoslab o‘rganish bo‘yicha yangidan-yangi tadqiqotlarni olib borishga turtki bo‘ladigan holatdir.

Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi borasida AQSH ta’lim tizimidagi e'tiborga loyiq bo‘lgan yana bir jihatga qisqacha to‘xtalamiz. Nyu-York, Los-Anjeles, San-Fransisko, Denver, Orlando, San-Diego kabi shaharlardagi universitetlar qoshida, sog‘liqni saqlash sohasida tadqiqotlar olib boruvchi yirik markazlar qoshida “Medical English” (“Shifokorlar uchun ingliz tili”) deb nomlangan maxsus kurslar tashkil qilingan [3, 1-b.].

Bunday kurslarning maqsadi ingliz tilini o‘rganayotgan shifokor va bo‘lajak shifokorlarga mutaxassislik tilini maqsadli va tizimli o‘rgatish, aynan tibbiyot tizimida qo‘llaniladigan o‘ziga xos so‘z va iboralarni, evfemizmlarni, tibbiy

terminologiyani o‘rgatish, shifoxona yoki klinik sharoitda inglizzabon bemorlar hamda hamkasblar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini yaxshilashdir. Yuzma-yuz o‘tkaziladigan yoki onlayn tarzda tashkil etiladigan bu mashg‘ulotlarda maxsus audio-videomateriallardan, qo‘llanmalardan foydalaniladi [2, 72-b.] Taklif etilayotgan mavzular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- AQSH sog‘liqni saqlash tizimi;
- bemor bilan muloqot ko‘nikmalari;
- inson anatomiyasi va fiziologiyasi;
- anamnez olish jarayoni;
- jarohatlar va shoshilinch tibbiy yordam;
- diagnostika va terapevtik muolajalar;
- taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantirish va hokazo.

Fikrimizcha, bizning yurtimizda ham shu kabi kurslar tashkil etilsa, ularda o‘zbek va boshqa tillarda aynan tibbiyot xodimlariga yoki boshqa turdagi mutaxassislarga dars berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zero, O‘zbekisonga kun sayin ko‘plab xorijiy mutaxassislar tashrif buyurmoqdalar, ular o‘zaro kasbiy hamkorlik doirasida, malaka oshirish maqsadida, yangi qo‘shma muassasalarini barpo etish maqsadida kelmoqdalar. Bu yo‘nalishdagi ishlarni rivojlantirib borish uchun turli xalqaro konferensiyalar o‘tkazish, ularda fikr almashinish, xorijiy hamkasblar bilan tajriba almashinish kabi ishlar ham tilshunoslik, ham boshqa turli sohalar rivojiga katta hissa qo‘shadi. Bu esa, o‘z o‘rnida, til o‘qitish metodikasini yangidan-yangi yondashuv, metod, vositalar bilan boyitib boradi deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar

1. Azimova N., Uzbek: An Elementary Textbook, Georgetown University Press, 2010.

2. Ewa Donesch-Jezo. Teaching of vocabulary to medical students in ESP courses // LangLit. Vol 1. Issue-1. August, 2014. -P.72.

3. https://extension.ucsd.edu/International-Programs/Medical-English-4-week

4. Как обойти грубое или "непристойное" выражение? Эвфемизмы в английском языке. https://languagereal.ru/post/96

5. Палютина З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития// Медицинский вестник Башкортостана. Том 8. № 3. 2013. – С.104.

6. Чиркова В.М. Реализация междисциплинарного подхода на занятиях по русскому языку в процессе обучения иностранных студентов // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2020. Т. 9. № 3(32)

СОЗДАНИЕ АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ В ПРИОБРЕТЕНИИ ЗНАНИЙ (ДЛЯ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ)

Халдаров Х.А. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета
Ташпулатов Р.Х. - старший преподаватель Ташкентского государственного технического университета

Аннотация. Исследовательская работа посвящена разработке алгоритма эргономических моделей обучения для определения качества приобретенных знаний в образовании. На основе педагогико-психологического состояния обучаемых разработана имитационная модель расчета качества приобретенного знания процесса обучения в зависимости от проводимых занятий, а также проведения опроса приобретенного знания после каждого занятия, пройденных тем и их оценивания.

Ключевые слова: психология, эргономика, эргономическая модель, математическая модель, имитационная модель, педагогико – психологический уровень, состояние обучаемого.

BILIMLARNI EGALLASHDA TA’LIM JARAYONI SIFATINI BOSHQARISH ALGORITMINI YARATISH (OLIY TA’LIM MUASSASALARI UCHUN)

Халдаров Х.А. -Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
Ташпулатов Р.Х. Toshkent davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tadqiqot ishi ta’limda olingan bilimlarning sifatini aniqlash uchun ergonomik ta’lim modellari algoritmini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Talabalarning pedagogik va psixologik holatdian kelib chiqib, o‘tkaziladigan darslarga, shuningdek, har bir darsdan so‘ng olingan bilimlar, mavzularga qarab o‘quv jarayonini o‘zlashtirilgan bilimlari sifatini hisoblash uchun imitatsiya modeli ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: psixologiya, ergonomika, ergonomik model, matematik model, imitatsion model, pedagogik – psixologik daraja, talabaning holati.

CREATION OF AN ALGORITHM FOR MANAGING THE QUALITY OF THE LEARNING PROCESS IN THE ACQUISITION OF KNOWLEDGE (FOR HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS)

Xaldarov X.A. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University
Tashpulatov R.X. - Senior Lecturer, Tashkent State Technical University

Annotation. The research work is devoted to the development of an algorithm for ergonomic learning models to determine the quality of acquired knowledge in education. Based on the pedagogical and psychological state of the students, a simulation model was developed for establishing the quality of the obtained knowledge of the learning process depending on the conducted lessons, as well as a questionnaire of the acquired knowledge and topics after each lesson along with students' assessment.

Key words: psychology, ergonomics, ergonomic model, mathematical model, simulation mode and pedagogical: psychological level and state of the student**.**

Одним из-под систем АСУ ВОУ должно быть подсистема управления качеством образовательных систем (УКОС) на уровне всех факультетов, который ведет единый учет по образовательному учреждению в приобретении знаний успеваемости обучаемых. То есть каждый факультет у себя должен иметь такую под систему, включенная в вузовскую систему АСУ ВУЗ, где будет вестись учет успеваемости по приобретенным знаниям обучаемых.

Целью данной исследовательской работы является создание одного из алгоритмов подсистемы управления качеством образовательных систем высших образовательных учреждений в приобретении знаний процесса обучения (УКОС ВОУ) [3, 201-b].

На основе эргономической модели процесса обучения, необходимо построит математическую модель процесса приобретения знаний обучаемых, и с помощью имитационной модели расчёт результатов процесса образования.

Создание системы управления качеством образовательных процессов, является очень сложной и объемной работой [2, 60-b], которая: требует проведения системных исследований, в области приобретении знаний. Построение логической схемы взаимосвязи подсистем и ее элементов, определение информационной взаимосвязи целом всей системы [3, 154-b] во всех уровнях ее управления, изучение путей оптимального управления и принятия решения в определении качества обучения в высших образовательных учрежденьях.

Нами разработана функция управления качеством процесса обучения формула1, которое представляется в следующем виде [2,58-b]:

(К = (К$_{уч.проц}$, К$_{эксперт.}$, К$_{эргоном.}$ К$_{экология}$, К$_{тест}$, К$_{уч.мет.обесп.}$, К$_{зн.иностр.яз.}$ К$_{квал.исслед.}$, К$_{обесп.орг.культ.}$ К$_{инфор.обесп.}$, ИМ, W$_{п}$), (1))

где:

$К_{уч.проц.}$ – подсистема, определяющая качество проводимого учебного процесса;

$К_{эксперт.}$ – подсистема, определяющая экспертизу проводимого учебного процесса;

$К_{эргоном.}$ – подсистема, определяющая качество приобретенного знания с помощью эргономической модели**;**

$К_{экология}$ - подсистема, определяющая качества экологизации образования *;*

$К_{тест}$ – подсистема, определяющая качество проводимых тестов**;**

$К_{уч.мет.обесп.}$ – подсистема, определяющая качество учебно-методических разработок;

$К_{зн.иност.яз.}$ – подсистема, определяющая качество знания иностранного языка обучаемых и преподавателей с учетом спецификации выпускаемых специалистов;

$К_{квал.исслед.}$ – подсистема, определяющая качество методом проведения квалиметрии;

$К_{обес.орг.культ.}$ – подсистема, определяющая качество обеспеченности организационно-культурных мероприятий;

$К_{инфор.обесп.}$ - подсистема, определяющая качество информационного обеспечения процесса образования;

ИМ – подсистема, определяющая качество инновационного менеджмента, которая совершенствуется за счет новых методов, подходов, педагогической технологии, технической оснащенности и обеспеченности учебного процесса;

W_n – матрицы, участвующие в подсистемах, логически и информационно взаимосвязанные в системе образования, которые организуют очередных таблиц между собой с очередными приобретенными данными в приобретении знаний.

Управления качеством образовательных систем в образовательных учреждениях, будут проводится в четырех этапах, которые автономно выполняют свои функции исходя из планов, программ, требований и прогнозов предприятий на подготовку будущих кадров, алгоритм расчета приобретения знаний с помощью эргономики рисунок 1.

I этап. Сбор информации – о:

- G_0 потенциал обучаемых перед занятием;
- A_{ij} приобретенном знании, обучаемых на каждом занятии;
- W_{ij} расчет промежуточных результатов, приобретенных знаний I этапа.

II этап. Сбор информации и расчет второго этапа расчета:

- G_i психологический состояние обучаемого и расчет с учетом G_0 и A_{ij} для приобретения знаний, обучаемых на каждом занятии;

- W_{ij} промежуточное результат приобретенного знания II этапа.

III этап. Сбор информации и расчет третьего этапа:

- G_{ij} педагогический уровень знаний с учетом мотивации, компетентности, креативности обучаемого и расчет их с учетом G_0 и A_{ij} приобретенных знаний, обучаемых на каждом занятии;

- W_{ij} промежуточное результат приобретенного знания II этапа.

IV этап. Сбор информации и расчет конечного этапа:

- A_{ij} приобретение промежуточных знаний обучаемых на каждом занятии;

- W_{ij} расчет конечного результата приобретенного знания IV этапа. В процессе исследования необходимо определит входящие параметры для каждой подсистемы о психологической-педагогическом состояний обучаемых:

- расчет первого этапа подсистемы на основе формулы 1, со входным данным $\mathbf{G_0}$ – начальный психологический состояние обучаемого, будет рассчитана по формуле 2

$$\mathbf{S_1 = G_0 * A_{ij}} \quad 2,$$

- **во втором этапе** в исследования учебного процесса необходимо определить следующие факторы Gi, как: компетентность Gik,, мотивация Gim, креативность Gikr, и т.д. m

Для приобретения знаний предлагаем вести дополнительные расчеты для уточнения пределов изменения данных, например, компетентность - Gik, мотивация - Gim, креативность - Gikr и т.д., например, если необходимо рассчитать - компетентность, то ее рассчитаем тремя вариантами:

- первый вариант параметр Gik=0,5 – примем как константу;

- второй вариант, расчет по среднему значению, т.е. Gik =$\sum$ Gik/i ;

- третий. вариант, расчет с учетом всех параметров k, т.е. Gik.

Для продолжения расчета будет использована формула 3

$\mathbf{S_2 = G_i * A_{ij}}$ 3,

На третьем этапе произведено расчет результата S_3

$$\mathbf{S_3 = G_0 * G_i * A_{ij}} \quad 4.$$

Четвертый этап исследования является завершающим, где будет произведено расчет результата – качество обучения $\mathbf{W_{ij}}$

$$\mathbf{W_{ij} = S_3 * A_{ij}\ 4.}$$



(Рисунок 1. Алгоритм расчета УКОС в приобретении знаний с помощью эргономики.)

РЕЗЮМЕ: В проведение исследований необходимо выполнит следующие работы:

- проводя системное исследование процесса образования определит логическую схему процесса обучения в аудитории;

- определит информационную взаимосвязи [6] для передачи, обработки и накопления данных между подсистемами и ее элементами;

- на основе эргономической модели разработать математическую модель процесса обучения для всех видов обучения;

- на основе созданной математической модели разработать имитационную модель ее исследования;

- использовать разные математические методы вычисления/расчетов и определение среди них самую оптимальную;

- определить метод расчета приобретенного знания;

- исследовать подключение ТСО [5,360-b] в процесс обучения для приобретения дополнительных знаний;

- исследование подключения элементов и устройств искусственного интеллекта [3,154-b] к учебному процессу в зависимости от вида занятия в приобретении дополнительного знания;

- исследование параметров чувствительности [5,359-b] проводимого процесса обучения к параметрам приобретаемого знания.

Литературы

1. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Смысл, 2001, -365 с.

2. Лебедев О.Е. Управление образовательными системами: теория и практика. Учебно-методическое пособие. Санк-Петербург, 2011, -108 с.

3. Воробьева, С. В. Управление образовательными системами: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / С. В. Воробьева. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 491 с.

4. Халдаров Х.А., Кадырова Г.А. Программа методики оценивания знаний учащихся с использованием педагогической технологии таблично - опросного метода Инсерт в образовании. Агентство по интеллектуальной собственности РУз. Авторская справка № DGU 04556. Ташкент 13.07.2017.

5. Халдаров Х.А. Алимарданова Н. Управление качеством образования в процессе проектирования образовательных систем. Межд. НПК “Новая наука и формирование культуру знаний современного человека”, Москва, 2018, С. 358-363.

6. Абдуллаева Б. С., Халдаров Х.А. Концептуальное управление качеством образования в проектировании образовательных систем. Eastern European Scientific Journal, Ausgaba 1-2019 ISSN: 2199-7977, Auris. Pages: 130-134. Германия, 2019, 8 с.

УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ХИМИИ К РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Алимова Ф.А. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат педагогических наук

Аннотация. Метод проектов относится к высоким педагогическим технологиям. Это требует особенной подготовки как со стороны преподавателя, так и со стороны студентов, и не менее тщательной координации всей деятельности учащихся в процессе работы над проектом. В ходе работы над проектом студенты приучаются выполнять разные социальные роли (лидера или исполнителя, организатора совместной деятельности, генератора идей, оформителя результатов совместной деятельности и т. д.). Данная статья

посвящена вопросам подготовки к проектной деятельности студентов при обучении химии как одному из наиболее эффективных методов, позволяющей достигать цели современной системы обучения и воспитания. Рассмотрены педагогические условия, способствующие подготовке студентов к проектной деятельности.

Ключевые слова: педагогика, методика преподавания, химия, метод проектов, педагогическая деятельность, образовательный процесс, педагогические условия, самостоятельная работа, компетенции.

BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINI LOYIHALASH FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLASH SHART-SHAROITLARI

Alimova F.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Loyihalash metodi yuqori pedagogik texnologiyalarga taalluqlidir. Loyiha ustida ishlash jarayonida o‘qituvchi tomonidan ham, talabalar tomonidan ham o‘ziga xos tayyorgarlikni hamda talabalarning barcha faoliyatini aniq va to‘liq hamohangligini taqozo etadi. Loyiha ustida ishlash davomida talabalar turli ijtimoiy rollarni bajarishni o‘rganadilar (lider yoki ijrochi, hamkorlikdagi faoliyat tashkilotchisi, g‘oyalar generatori, hamkorlikdagi faoliyat natijalarini rasmiylashtiruvchi va h.k.). Ushbu maqola ta’lim va tarbiyaning zamonaviy tizimi maqsadlariga erishish imkonini beradigan eng samarali metodlardan biri, kimyo fanini o‘qitishda talabalarni loyiha ustida ishlashga tayyorlash masalalariga bag‘ishlanadi. Talabalarni loyiha faoliyatiga tayyorlashga imkon beradigan pedagogik sharoitlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, o‘qitish metodikasi, kimyo, loyihalash metodi, pedagogik faoliyat, ta’lim jarayoni, pedagogik sharoitlar, mustaqil ish, kompetensiya.

CONDITIONS FOR THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY FOR THE IMPLEMENTATION OF PROJECT ACTIVITIES

Alimova F.A. - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Pedagogical Sciences

Annotation. The project method refers to high pedagogical technologies and requires special training, both on the part of the teacher and on the part of the students, and no less careful coordination of all the activities of the children in the process of working on the project. In the course of working on the project, students

learn to perform various social roles (leader or performer, organizer of joint activities, generator of ideas, designer of the results of joint activities, etc.). This article is devoted to the preparation of students for project activities in teaching chemistry, as one of the most effective methods to achieve the goals of the modern system of education and upbringing. The pedagogical conditions contributing to the preparation of students for project activities are considered.

Key words: pedagogy, teaching methodology, chemistry, project method, pedagogical activity, educational process, pedagogical conditions, independent work, competencies.

В связи с происходящими в мире событиями, наиболее востребованными в науке становятся специалисты сферы биологии, химии и медицины. Правительством Узбекистана планируется организация расширения, усиления и качественного обновления взаимодействия данных отраслей, а также подготовки нового поколения специалистов, которые внесут вклад в развитие естественнонаучной исследовательской деятельности республики.

Согласно постановлению Президента РУз «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям «химия» и «биология», в стране планируется кардинально повысить качество и уровень преподавания этих предметов в школах, повысить уровень обучения в вузах, приобщить учащихся к исследовательской деятельности на фоне непрерывного взаимодействия учебных заведений с научно-исследовательскими организациями и производственными учреждениями, тем самым обеспечив трудоустройство студентов в будущем [1].

Сфера образования регулирует развитие общества и личности. Требования к личностным и профессиональным качествам выпускника, формирование гармонично развитых профессионалов-специалистов определяет его успешность в дальнейшем трудоустройстве и ценность на рынке труда. Разработка новых методов, средств, форм обучения и воспитания личности на разных ступенях образования является приоритетным направлением в педагогической деятельности. Целостность образовательного процесса в высшей школе позволяет развивать необходимые качества личности и формировать компетенции студентов в вузе. Одним из приоритетных направлений современного образования является организация проектной (проектно-инновационной, проектно-исследовательской) деятельности как способ (совокупность и порядок действий) и метод формирования компетенций [2].

В основу метода проектов положена идея о направленности учебно-познавательной деятельности студента на результат, который получается при решении той или иной практически или теоретически значимой проблемы.

Метод проектов находят все большее распространение в системе образования [3, 4-10 стр.]. Причин тому несколько, и корни их лежат не только в сфере педагогики, но, главным образом, в сфере социальной:

-необходимость не столько передавать студентам сумму тех или иных знаний, сколько научить приобретать эти знания самостоятельно, уметь пользоваться приобретенными знаниями для решения новых познавательных и практических задач;

-актуальность приобретения коммуникативных навыков и умений, т.е. умение работать в разнообразных группах, исполняя разные социальные роли (лидера, исполнителя, посредника и пр.);

-актуальность широких человеческих контактов, знакомства с разными культурами, разными точками зрения на одну проблему;

-значимость для развития человека умения пользоваться исследовательскими методами: собирать необходимую информацию, факты, уметь их анализировать с разных точек зрения, выдвигать гипотезы, делать выводы и заключение.

Проектная деятельность обучающихся является одним из методов развивающего обучения, направлена на выработку самостоятельных исследовательских умений (постановка проблемы, сбор и обработка информации, проведение экспериментов, анализ полученных результатов), способствует развитию творческих способностей и логического мышления, объединяет знания, полученные в ходе учебного процесса и приобщает к конкретным жизненно важным проблемам

Проектная деятельность содержит:

-анализ проблемы;

-постановка цели;

-выбор средств ее достижения;

-поиск и обработка информации, ее анализ и синтез;

-оценка полученных результатов и выводов.

Проектная деятельность в образовательных учреждениях, в том числе и при обучении химии становится сегодня все более востребованной и актуальной, соответственно, на преподавателей ложится дополнительная нагрузка и ответственность, так как применение данной педагогической технологии требует от них новых знаний и умений [4, 1041-1046]. Преподаватель - руководитель проекта - должен обладать высоким уровнем общей культуры, творческими способностями, развитой фантазией, быть

генератором идей, инициатором их реализации. В определенном смысле учитель перестает быть «предметником», а становится педагогом широкого профиля. В связи с этим подготовка студентов, в частности, будущих преподавателей химии к проектной деятельности с учащимися является сегодня актуальной задачей системы высшего педагогического образования.

Для реализации в полной мере развивающего потенциала школьного курса химии помогает **метод проектов**, учитывающий потребность сегодняшнего дня – смену приоритетов с усвоения готовых знаний на активную самостоятельную, познавательную деятельность ученика [5, 135-140 стр.].

Однако, для того, чтобы эффективно использовать данную технологию необходимо подготовить будущих преподавателей химии к организации проектной деятельности.

Подготовка будущих преподавателей химии к проектной деятельности в образовательном учреждении должна осуществляться с учетом следующих условий.

1. При отборе содержания подготовки будущего преподавателя к проектной деятельности должно учитываться, что данная подготовка происходит в единой образовательной среде, в процессе изучения всех дисциплин учебного плана, непрерывно, с первого по четвертые курсы. Первоначальные теоретические знания студенты получают при изучении предметов общая педагогика, педагогические технологии, где знакомят студентов с современными образовательными технологиями в целом, с сущностью и особенностями проектной деятельности и методикой проектного обучения в частности. На третьем и четвертых курсах изучая предметы методика преподавания химии, современные технологии при обучении химии, проходя педагогическую практику студенты теоретические знания увязывают с практической деятельностью, создаются предпосылки для приобретения профессиональных умений и навыков.

2. Второе условие: использовать метод проектов для самостоятельной работы

студентов, не только по предмету «Методика преподавания химии», но и других дисциплин. У студентов должны сформироваться навыки самостоятельной деятельности по поиску информации в библиотеке, в Интернете, уметь анализировать информацию, выделять в ней главное. В последние годы отдельное внимание уделяется проблеме самообразования и самостоятельной работе студентов, увеличилось количество часов учебного времени, отводимого на нее, и, соответственно, возросла ее роль в учебном процессе. Поэтому о навыках самостоятельной работы студентов, технологиях

самообразования можно говорить, как о важнейших элементах профессиональной компетентности преподавателя.

3. Применение личностно-ориентированного подхода при отборе содержания, форм и методов подготовки студентов к проектной деятельности. Н.Ю.Пахомова, определяет метод учебного проекта как одну из личностно-ориентированных технологий, способ организации самостоятельной деятельности студентов, направленный на решение задачи учебного проекта, интегрирующий в себе проблемный подход, групповые методы, рефлексивные, презентативные, исследовательские, поисковые и прочие методики [6, 30 -35.]. Личностно-ориентированный подход к организации и осуществлению проектной деятельности состоит в признании уникальной сущности каждого студента и его индивидуальности. Студент является организатором, инициатором, творцом, он берет на себя ответственность за качество и результат проекта. Метод проектов можно определить, как совместную деятельность студента и преподавателя, направленную на индивидуальную самореализацию студента и развитие его личностных качеств в ходе выполнения проекта [7, 30 -35.].

4. Организация деятельности субъектов педагогического процесса на основе позитивного межличностного взаимодействия. Ничто так не влияет на активную работу студентов, как благоприятный психологический климат: доброжелательные деловые отношения, творческий настрой, т.е. такие условия, которые повышали бы трудоспособность, удовлетворенность работой, обстановкой, которые устраняли бы ненужные отрицательные и порождали бы положительные эмоции. Одним из важных факторов, влияющих на успешность проектной деятельности студентов, является создание «ситуации успеха», когда студент испытывает чувство радости, эмоционального подъема от процесса познания. Задача преподавателя - создать «ситуацию успеха» на занятии. Студентам важно внушить уверенность в своих силах, настроить их на успешную работу, преодолеть неуверенность, страх.

5. В условиях информатизации образования в подготовке будущего преподавателя химии к проектной деятельности ИКТ имеют самые широкие возможности. В процессе работы над проектом используются различные виды информационных ресурсов сети Интернет: электронные публикации, блоги, социальные сервисы, интерактивные ресурсы и др. В ходе групповой работы составляется общий перечень ресурсов, которые могут оказаться полезными при выполнении проекта. Данный список может включать текстовые материалы, графические иллюстрации (карты, схемы, фотографии), звуковые файлы, анимационные рамки, видеофрагменты, мультимедийную энциклопедию и т.д. Важным и, как правило, заключительным этапом работы

над проектом является создание его электронной презентации. Этот этап проектной деятельности максимально способствует формированию информационных компетенций и навыков работы с компьютером, так как при подготовке презентаций, как правило, используются различные мультимедийные средства и методы.

Итогами проектной и учебно-исследовательской деятельности следует считать не столько предметные результаты, сколько интеллектуальное, личностное развитие студентов, рост их компетентности в выбранной для исследования или проекта сфере, формирование умения сотрудничать в коллективе и самостоятельно работать, уяснение сущности творческой исследовательской и проектной работы, которая рассматривается как показатель успешности исследовательской деятельности.

Участие студентов в проектной исследовательской деятельности позволяют сформировать у обучающихся активную и самостоятельную позицию в обучении, готовность к саморазвитию. Умение осуществлять поиск и анализ информации, необходимой для решения поставленных задач; использование информационно-коммуникационных технологий, способность работать в глобальных компьютерных сетях; способность работать в коллективе, толерантно воспринимая социальные, этнические, конфессиональные и культурные различия; ставить перед собой цели и принимать на себя ответственность за результат выполнения заданий, направлено на формирование общекультурных компетенций.

Литература

1. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 12.08.2020 г. № ПП-4805 https://lex.uz/ru/docs/4945474

2. Закирова Т.И. Проектная деятельность студентов как метод формирования компетенций студентов вузов // Современные проблемы науки и образования.– 2017. – № 5.; URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=27080

3. Храплюк А. В. Методические рекомендации по организации проектной деятельности студентов. Серия методических изданий., 2014 год стр.4-10

4. А.Л. Бусыгина, А.А. Сараева. Педагогические условия эффективной подготовки будущих учителей к проектной деятельности. Известия Самарского наужного еентра Российской академии наук, т. 13, №2(5), 2011 1041-1046

5. Камынина Т. П. Формирование учебно-проектной деятельности студента в образовательном процессе: дис. ... канд. пед. наук. - Оренбург, 2006. – 135-140 с.

6. Пахомова Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении: Пособие для учителей и студентов педагогических вузов. 3-е изд. - М.: 2008. - С. 30 -35.

7. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.П. Педагогика: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. - М.: 2002. - С. 125-140

8.Виштынецкий, Е.И., Кривошеее, А.О. Вопросы информационных технологий в сфере образования и обучения // Информационные технологии. - 1998. № 2. - С. 32.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY QAYTA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ishbayeva N.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘qituvchilarni qayta tayyorlash orqali sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash muammosi yuzaga kelgach, eski metodlar bilan ta’limni takomillashtirishga intilishlar zoye ketishi, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish yordamida ijodiy yondashuv ta’lim samarasini yanada oshirishi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limdan keyingi ta’lim, malaka oshirish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, pedagogik ta’lim, uzluksiz ta’lim, boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini qayta tayyorlash.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕРЕПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Ишбаева Н.А. - соискательТашкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Эта статья посвящена устранению пробелов в переподготовке учителей. В статье также исследуются проблемы подготовки высококвалифицированных учителей, потери усилий по улучшению образования с использованием старых методов и творческого подхода за счет использования инновационных педагогических и информационных технологий для дальнейшего повышения эффективности образования.

Ключевые слова: послевузовское образование, повышение квалификации, переподготовка учителей, педагогическое образование, непрерывное образование, переподготовка учителей начальных классов.

IMPROVING PROFESSIONAL RETRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Ishbaeva N.A. – Applicant of the Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article focuses on bridging the teacher retraining gap. The article also ehamines the problems of training highly qualified teachers, the loss of efforts to improve education using old methods and a creative approach through the use of innovative pedagogical and information technologies to further increase the effectiveness of education.

Key words: postgraduate education, professional development, retraining of teachers, teacher education, continuing education, retraining of primary school teachers.

Bugungi kunda jahondagi barcha mamlakatlarda ta’limdan keyingi ta’limni va o‘quv rejalarini rejalashtirish bo‘yicha mutaxassis-o‘qituvchilarning malakasini oshirish omili muhimligini ta’kidlamoqdalar. Ta’lim va o‘qituvchilar tayyorlashga hissa qo‘shish sarmoya kiritishning eng samarali turi bo‘lib hisoblanadi, sababi o‘qituvchilarni har qanday ta’limiy islohotlarning ilgari undovchi, eng kuchli turtkisi deb hisoblaydilar. Ta’lim muassasasini endigina tugatgan o‘qituvchi malaka va ko‘rikmalarga ega bo‘lishi, soha yutuqlari, kasbiy muvaffaqiyatlarni o‘zlashtirishi hamda ta’limning yuksak darajadagi talablariga muvofiq bo‘lishi shart. Hech kimga sir emaski, o‘qituvchilarning malaka oshirganligi ta’siri ostida ta’lim tizimining sifati tobora o‘sib bormoqda va shu sababli ham fan o‘qituvchilari shu sohadagi erishilayotgan yutuqlar asosida, muntazam ravishda, malaka hamda kasbiy salohiyatlarini oshirib borishlari juda muhim bo‘lib sanaladi.

Yaponiyaning Kaluki instituti o‘qituvchisi Shonmcher Umatoni Osiyoda mehnat unumdorligi masalalariga bag‘ishlangan seminarda shunday degandi: “Ta’lim – bu xodimlar bilim va malakasini chuqurlashtirish uchun eng samarali va munosib vositadir. Hech bir ilmiy hujjat amal qilish davridan besh yil o‘tgach, agar qayta ko‘rib chiqilmasa, ayniqsa, joriy kun ilm-faniga muvofiqlashtirilmasa, butunlay ahamiyatga ega bo‘lmaydi”.

Hozirgi davrda, aslida, ko‘pchilik mamlakatlarda, o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘qitishga katta mablag‘ sarflanadi va o‘quv kurslariga katta e’tibor qaratiladi, biroq budjet munosabati bilan mazkur kurslar bo‘yicha izlashni soddalashtiruvchi, cheklovli ta’lim siyosati amal qiladi [1].

Ilm-fan va texnologiyalar nuqtayi nazaridan, yangi ehtiyojlar sababli dastur yoki o‘quv adabiyotlari, shuningdek, yangi metodlarga muvofiq, o‘zgartirilib boradi. Fan va yangi texnologiyalar nuqtayi nazaridan, yangi ehtiyojlar yuzaga kelishi sababli dasturlar va darsliklar yangi uslub (metod)larga muvofiq ravishda o‘zgarib boradi.

Ta’lim islohotida va sifatli ta’lim rivojida eng muhim omil ta’lim tizimida, xususan, yangi malaka va axborotlarga ega bo‘lishga sabab bo‘luvchi o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, ilmiy-texnik sohasida hamkorlik zarurati masalasidir. Biroq bu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari ko‘p jihatdan mavjud pedagogik ta’lim qator kamchiliklarga ega va ularni bartaraf etib, yaxshilashga ehtiyoj katta.

Tadqiqotimiz davomida o‘qituvchilar malakasini baholash bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, shubhasiz, o‘qituvchilar uchun uzluksiz ta’lim va o‘qitishning maqsad va vazifalari bilan muvofiqlashtirib, o‘qitishda ayrim strategiyalarni yangilash, amaliy malakalarni egallashga zarurat mavjud. Nazariya va amaliyot bilan bog‘liq dastur va xizmatlarni muvofiqlashtirish sohalari eskirgan va ko‘rib chiqilishi zarur. Shu sababli o‘qituvchilarni qayta tayyorlash orqali sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rilishi zarur. Shu sababli quyidagilarni amalga oshirish muhimdir:

- boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini qayta tayyorlash mavjud metodlarining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rib chiqish va aniqlash;
- o‘qitishning yangi metodlari va modellarini aniqlash va joriy etish;
- boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarining ishlarini isloh qilish bo‘yicha qaror qabul qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;
- boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilarini tayyorlash sohasining o‘ziga xos xususiyatlari va talablarini tushunish;
- o‘qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini yaxshilash uchun model yaratish.

Anketa-so‘rovnomalari ma’lumotlarining tahlili ko‘rsatishicha, o‘qituvchilarning so‘zlariga qaraganda, sifatli ta’lim rivojining eng zarur omili o‘qituvchilarni qayta tayyorlashda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan ilmiy-texnik sohada hamkorlik bo‘lib hisoblanadi. Bu qayta tayyorlash uchun yangi axborotlar va malakalarga ega bo‘lish uchun zarurdir.

Bugungi kunda o‘qituvchilar oldiga qo‘yilgan ta’limiy talablarga muvofiq, mazmun nuqtayi nazaridan, qiyinchiliklarni yengib o‘tish zarur. Kurslarda o‘qituvchilarni an’anaviy o‘qitish metodlaridan foydalanib, fundamental o‘qitish masalalarini e’tiborga olish zarur, chunki kurslarning ijodkorlik yo‘liga o‘tish uchun bazaviy malakalarga tayanib, o‘qitish samaradorligi juda past. O‘qituvchilar mehnat unumdorligiga hech bir ijobiy ta’sir mavjud emas. Ta’lim resurslarining zaif tomonlari o‘qituvchilarda ta’lim dasturlari va darsliklari mualliflari bilan aloqalari

mavjud emas, yangi texnologiyalar sohasida ta’limning cheklanganligi, o‘qituvchilik faoliyatining asosiy kamchiligi bo‘lib hisoblanadi.

Ilg‘or va rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash malaka oshirish kurslarining roliga juda muhim soha sifatida qaralishini ta’kidlash zarur. Bugungi kunda ta’lim sohasida, jumladan, pedagogik ta’lim sohasiga global kuch yo‘naltirilganligi kuzatilmoqda. Shu tariqa, pedagogik ta’lim, jumladan, mutaxassislikka ega bo‘lishdan keyingi ta’lim, milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan, (jumladan, hayotiy muhim zarur elementlarni saqlagan holda) birinchi darajaning bir qismini taqdim etadi[2].

Sarkaranining fikriga muvofiq, samarali ta’lim va o‘qitish o‘qituvchilardan olamga nafaqat madaniy meroslar nuqtayi nazaridan, balki hayotiy pozisiyalardan yondashishni talab etadi. Yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash muammosiga duch keluvchi mamlakatlarda eski metodlar bilan ta’limni takomillashtirishga intiladilar hamda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish yordamida ijodiy yondashuv ham ta’lim samarasini yanada oshirishini ta’kidlaydilar [3].

Yuqori malakali o‘qituvchilar shunday bo‘lib tug‘ilmaganlar, balki shunday mutaxassisga aylanganlar, bunga erishishda esa, albatta, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakalarini oshirish kurslarining o‘rni kattadir.

Buning uchun qayta tayyorlash jarayonlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan keng hajmli bilim va malakalardan foydalaniladi. Biroq hozirga qadar o‘qituvchilarni qayta tayyorlash uchun yetarli darajada e’tibor qaratilayotgani yo‘q.

Ko‘plab mamlakatlarda o‘qituvchilar ishini aniqlash, baholash tizimini shu darajada tashkil etilganki, o‘qituvchilar o‘quv kurslarida ishtirok etishlari va aksincha holatda, o‘z ish o‘rinlarini bo‘shatib qo‘yishlari shart. Bundan tashqari, o‘qituvchilar iltimosiga ko‘ra murabbiylar sertifikatga ega bo‘lishlari shart [4].

O‘qituvchilar uchun “Ta’lim – amaliyot va ilm-fan metodlarini, texnika va madaniyat, iqtisodiy, jumladan, iqtisodiy-ijtimoiy talab-ehtiyojlarga rioya etishning istiqbolli ta’lim dasturini qo‘llash usuli bo‘lib hisoblanadi” [5]. Bunday ta’rifda asosiy urg‘u o‘qituvchilarni qayta tayyorlash jarayoniga qaratiladi.

Bu borada Genri Pern shunday degandi: “O‘qitish – organizm xulq-atvoridan nusxa olish, atrof-olamga muvofiq bo‘lish uchun o‘zgarishlarga atrof-olamning adaptatsiyasi(moslashuvi) o‘zgarishlardan tashkil topadi.

Shu tariqa, zamonaviy jamiyat katta yoshdagi odamning imkoniyatlarini nafaqat kengaytiradi, balki uning qisqa va uzoq muddatli reja doirasida takomillashib boradigan ta’lim olishi zarurligini ta’kidlaydi”.

Boshqa yondashuvda esa: ta’lim tizimli va doimiy vaziyatda(pozisiyada) xodimlarning bilim va malakalarini, ularning o‘z holatlari va shakllanishlariga yordam beruvchi jihatlarga bo‘lgan munosabatlarining doimiy takomillashtirilishidir.

Olimlardan Allan Ganiyexning ta’kidlashicha, o‘qitish ta’lim olishni osonlashtirish, vaziyatni yengillashtirish uchun muammolarni hal etish jarayonini ifodalaydi. O‘qituvchi o‘qitish, ta’limiy va tarbiyaviy tadbirlarga mas’ul bo‘lib hisoblanadi, ularni boshqaradi. Ta’lim sohasida qabul qilingan choralar ta’lim jarayonini osonlashtirish, o‘quv materiallar samarasini oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar va masalalar yechimidir [6].

Yuqorida keltirilgan ta’riflarni hisobga olib, asosiy maqsad ta’lim, bilim va malakalarning rivojlanishi bo‘lib hisoblanadi deb xulosa chiqarish mumkin. Bu yakuniy natijaga erishishga, qobiliyatlar, salohiyat, shaxsiy xislatlarni takomillashtirishga, shuningdek, shaxsiy ravnaq topishga bo‘lgan munosabatda uzluksiz ta’lim va imkoniyatlarni kengaytirish jarayonidir.

Adabiyotlar

1. Зарин Фард Реза. Взгляд на управление образованием. Ежесезонник «Управление обучением». -1994. -с. 97.
2. Арани Мохаммадреза. Культурный подход к образованию, повышение квалификации преподавателей. -2010. 28 (250). -с. 4-12.
3. Ashton D, Green F., James D., & Sung J. (1999). Education and Training for Development in East Asia. London, England: Routledge.
4. Эшраф Алгалаи Ахмад Реза. Применения в управлении. Тегеран. Издательство «Басир». -1998. -с. 11.
5. Аббас Задеган Мохаммад. Образовательные потребности в организации. Тегеран. Акционерная издательская компания. -2002. -с. 12.
6. Шаукат Мухаммад Хусейн. Потребности в обучении учителей начальной школы города Карадж. -2002. -с. 56.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Nuraliyeva K.I. – Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirish hozirgi zamonaviy davrning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni shakllantirishning ayrim pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, kreativlik, idrok, xotira, sezgi, tafakkur, pedagogik mahorat, maktab, o‘quvchilar, jamoa, ta’lim-tarbiya.

НЕКОТОРЫЕ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Нуралиева К.И. - преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация. Создание творческих способностей у младших школьников - одна из важнейших задач современности. В статье рассматриваются некоторые педагогические и психологические особенности формирования творческих способностей младших школьников.

Ключевые слова: начальная школа, творчество, познание, память, интуиция, мышление, педагогические навыки, школа, учащиеся, сообщество, образование.

SOME PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF CREATIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Nuralieva K.I. - Lecturer at Namangan State University

Annotation. Creating creativity in primary school students is one of the most important tasks of the modern era. This article discusses some of the pedagogical and psychological features of the formation of creativity in primary school students.

Key words: elementary school, creativity, cognition, memory, intuition, thinking, pedagogical skills, school, students, community, education.

Hozirgi kunda yurtimizda ta’limga e’tibor oldingi yillarga qaraganda juda ham ortib bormoqda. Ta’lim jarayonida katta natijalarni qo‘lga kiritishda tegishli huquqiy baza shakllantirilib, takomillashtirilib borilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi barcha soxalarda chuqur tafakkurga ega, zamonaviy fikrlaydigan, yuqori texnologiyalardan xabardor mutaxassislarning yangi avlodini kamol toptirishga xizmat qilyapti. Oliy Majlis Senati ta’lim, mutaxassislar tayyorlash, jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan qonun hujjatlari ijrosi ustidan parlament nazoratini muntazam amalga oshirib kelmoqda.

“Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan

ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin [1].

Muhtaram Prezidentimizning Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston-maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” deb ta’kidlab o‘tdilar. Yurtimizning barcha hududlarida, shaharlardan tortib, chekka-chekka qishloqlargacha ko‘rkam ziyoli yuzlab umumta’lim maktablar, kasb-hunar maktablari, litseylar barpo etildi. Ekilgan niholning ertaga qanday meva berishi uning qayerga ekilgani va qanday parvarish qilinganiga bog‘liq. Xuddi shunday davlat kelajagi ham yoshlarga berilayotgan ta’lim va tarbiyaga uzviy bog‘liqdir. Bu ayniqsa mamlakat aholisining 50 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadigan mamlakatimiz uchun hayot-mamot masalasi hisoblanadi.

Hech bir farzand dangasa, uquvsiz, qobiliyatsiz yoki tartibsiz holatda tug‘ilmaydi. Ulardagi ijobiy va salbiy fazilatlar, yoki bo‘lmasa yaxshi ishlarni bajarishga va yomon ishlar bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ichki intilish, xohish, qiziqish va moyilliklar ularning u yoki bu fazilatlarni namoyon etishga bo‘lgan ichki psixologik yondashuv olishidan boshlanadi. Bunda insondagi idrok, diqqat, xotira, xayol, tafakkur, qiziqish, motivlar, tasavvur va qobiliyatlar kabi psixologik xususiyat hamda jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berishda ularning yuqoridagi kabi psixologik xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi. Chunki bu yoshdagi o‘quvchilarning yangi bilim va tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirishlari, ya’ni bilish faoliyatining ortishi va ularning ta’lim-tarbiya olishlari aynan ushbu omillarga bog‘liqdir.

Psixologiyada turli xil qiyinchiliklarni mustaqil holatda bartaraf eta oladigan, salohiyatli va shaxsiy sifatlar tizimi, o‘ziga xos g‘oyalar majmui kreativlik tushunchasi bilan ifodalanadi. Maxsus tayyorgarlik negizida kreativlikni rivojlantirish mumkin. Kreativlik deganda, shaxslarning o‘ziga xos g‘oyalarni yaratish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini chuqur anglash jarayoni tushuniladi.

Hozirgi kunda ta’lim mazmuniga qo‘yilgan asosiy muhim talab ma’lum chegaralardan chiqib ketadigan, nostandart qarorlar qabul qila oladigan, yangilik yaratish bilan ajralib turadigan ijodiy shaxsni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ijodkorlikni ta’riflashda psixologlar qobiliyat atamasiga alohida urg‘u beradilar va juda ko‘p holatda kreativlikni umumiy ijodiy qobiliyat, bilimlarni o‘zgartirish jarayoni deb bilishadi. Bundan tashqari, ular kreativlik xayolot rivojlanishi va gipotezalarni shakllantirish bilan bog‘liq deb ta’kidlashadi. Kreativ fikrlash jarayonida turli xil fikrlar va g‘oyalarda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z tasavvurlari va tushunchalarini olg‘a surish hamda buyuk ajdodlarimiz tajribasini umumlashtirish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Faktlarni taxlil qilish, voqealar rivojini kuzatish, tadqiqot

mavzusi bilan bog‘lik bo‘lgan bilimlarni o‘zaro bog‘lash va ijodiy farazni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars jarayonida yoki jamoada va tasodifan yangilik paydo bo‘lishiga olib keladigan har qanday harakat ijod deb ataladi. Yaratilgan narsa moddiy, aqliy yoki xissiy konstruktsiya bo‘ladimi bundan qat’iy nazar, faqat shu insongagina tegishli ijodiy mahsulot hisoblanadi. Ijodkorlik, ijodiy jarayonlar o‘quvchilarda juda erta bolalik davrlaridan boshlab xatti-harakatida, intiluvchanligida, ko‘p savollar berishida, so‘zamolligida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy jarayonlarini ularning o‘yin faoliyatida kuzatish lozim. O‘yin faoliyati davomida o‘quvchi o‘zini erkin, jasoratli, qahramon sifatida his qiladi. Milliy o‘yinlardan misol keltirilsa, oq terakmi ko‘k terak bu o‘yin davomida ismi chaqirilgan o‘quvchi o‘rtoqlari oldida mag‘rurlanadi qolaversa katta shijoat bilan harakat qiladi. Agar g‘olib bo‘lsa o‘zini lider deb hisoblaydi. Hamda o‘quvchida mas’uliyat va qiziqish ortadi. Turli xil o‘yinlar davomida bola o‘qituvchi, tarbiyachi, shifokor, qaroqchi, askar yoki dengizchi bo‘ladi, bu jarayonlarning hammasi eng haqiqiy, chinakam kreativlikning namunasidir. Bolalar o‘yin orqali kattalarga taqlid qiladilar. Hamda kasb va hunarga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘ladi. Lekin bolalar o‘yinlari-bu shunchaki takrorlash emas, ular kattalarning qanday ish bilan shug‘ullanayotganliklarini ko‘radi va eshitadi, ammo bu harakatlarni o‘z taassurotlaridan kelib chiqib ijodiy elementlar bilan boyitadilar. Maktab bolalarining hayotida o‘yinlar juda muhim rol o‘ynaydi. Agar mashg‘ulotlar to‘g‘ri tarzda amalga oshirilsa, o‘yin davomida ham ko‘plab bilimlarga ega bo‘lish mumkin. O‘yin shaklida bilim berish, bolalarga ijobiy ta'sir qiladi. O‘yin davomida o‘quvchi yangi tushuncha va g‘oyalar bilan tanishadi va yana ko‘p o‘ziga kerakli bo‘lgan jihatlarni oladi. Boshlang‘ich sinflarda 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar quyidagi o‘yinlardan bahramand bo‘lishlari mumkin:

Musiqiy o‘yinlar muhim ahamiyatga ega**.** Ular o‘quvchilarda ritm, e’tibor, xotirjamlik va sezgirlik hissini rivojlanishiga hissa qo‘shadilar. Xususan, maktab o‘quvchilari uchun ushbu o‘yin juda mosdir. Bolalar juft bo‘lib, ritmik tarzda harakat qilishadi. To‘satdan musiqa to‘xtaydi va o‘qituvchi tananing ma’lum bir qismini chaqiradi, har bir juftlik ishtirokchilari bir-biriga tegishi kerak. Musiqa yana boshlanganda, bolalar aylanada davom etadilar.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun sinfda **psixologik o‘yinlar** o‘tkazish foydali bo‘ladi**.** Ularning yordami bilan, bola uyatchanlikni yengishga, o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonchni oshirishi mumkin. Bu holatda eng yaxshi variantlardan biri “Mening yaxshi fazilatlarim” o‘yini. Bu yerda, har bir ishtirokchi ma’lum bir vaqt ichida o‘zi haqida gapirishlari, barcha yaxshi sifatlarini aytib berishlari kerak.

E. Torrens shunday deb yozgan edi: Yuqori darajadagi kreativ fikrlovchi bolalar guruhda yolg‘iz ishlashadi, guruh liderini tan olishmaydi va rahbarlik qilishni xohlamaydilar. Kreativlik diagnostikasida Amerikalik psixolog E. Torrens yaratgan metodikalar keng qo‘llaniladi. E. Torrens testi ijodkorlik psixodiagnostikasi sohasida asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodika foydalanuvchining professionalligini talab qiladigan kuchli psixodiagnostika vositasidir. Sinovning “kuchi” uning o‘lchash qobiliyatiga bog‘liq. Puxta tanlangan vazifalarning xilma-xilligi mavzuni ijodiy imkoniyatlar bilan ta’minlaydi va natijalarning ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi. E.Torrens testi 2 qismdan iborat: og‘zaki batareya (7 subtest) va obrazli batareya (3 subtest). Bu nafaqat og‘zaki va obrazli ijodiy tafakkurning rivojlanish darajasini baholash, balki turli odamlarda ijodiy individual tuzilishlarning sifati, o‘ziga xosligi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Shunisi qiziqki, og‘zaki ijodkorlikning rivojlanish darajasi asosan ijtimoiylashuv sharoitlari va tashqi muhitning ta’siri bilan qolaversa, xayoliy ijodning rivojlanish darajasi ko‘proq odamning tug‘ma biologik xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Maktab amaliyotida kreativ fikrlovchi bolalarni aniqlash alohida ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki bunday bolalar o‘zlarining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun alohida ajralib turadigan o‘quv uslubiga muhtojdir. Bundan tashqari, test, eksperimental o‘quv dasturlari nafaqat o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga yordam beradigan, balki ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan va shaxsiy ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga imkon beradigan dasturlarni ham ishlab chiqarishga yordam beradi. Yuqori darajada kreativ fikrlaydigan o‘quvchilar quyidagi xususiyatlarni: voqealarni erta bolalik davidan eslash qobiliyati, o‘zlarinng “men”ini chuqur anglash, hazil tuyg‘usi, havotirlanish kabi tuyg‘ularni namoyish etadilar. Ijodiy qobiliyatli o‘quvchilar g‘ayritabiiy, tezkor, xayoliy javoblarni namoyish etadilar, ko‘pincha o‘zlarining va yaqin insonlarining rasmlarini jonlantirdilar. Kreativ fikrlovchi bolalar noaniq vazifalarni juda yaxshi uddalaydilar. Kreativ fikrlovchi o‘quvchilarning chizgan rasmlari yaqqol ajralib turadi. Biroq ustozlari va sinfdoshlari uchun ularning g‘oyalari ko‘pincha g‘alati va axmoqona ko‘rinadi.

Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga turli xil ijodiy o‘yinlar, topshiriqlar va jumboqlar taklif qilinadi. Bolalar o‘yindagi topshiriqlarni bajarishlari va yangi g‘oyalar ishlab chiqishlari kerak bo‘ladi. Har bir guruhda beshtadan bittasi ijodiy fikrlovchi o‘quvchilardan iborat bo‘ladi. Garchi g‘oyalarning 70% kreativ fikrlovchi o‘quvchi tamonidan ilgari surilgan bo‘lsa-da, guruhning qolgan a‘zolari ishning jamoaviy natijalariga qo‘shgan hissasini deyarli butunlay e’tiborsiz qoldirishadi.

O‘ziga xos fikrlashi uchun yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘zlaridagi quyidagi fazilatlarni ajratib ko‘rsatishlari lozimdir. Masalan, qiziquvchanlik, fikrning mustaqilligi, hazil tuyg‘usi, tavakkal qilish va ishbilarmonlik qobiliyatlari. Ular kamtarlik, hotirjamlik va konformizm kabi xususiyatlarni rad

etishdi. Kelajakda ular noan'anaviy ijodiy kasbga ega bo‘lishni xohlashadi, masalan, aktyor, jurnalist va boshqalar. G‘oyasi yuqori ko‘rsatgichlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarini boshqalardan kuchli, kamtar, quvnoq, qo‘rqmas, tavakkalchilik va sezgirliklari bilan boshqalardan ustun deb bilan ta'riflashadi. Ular yolg‘izlikni yoqtirmaydilar va o‘zlarini hissiyotga beriluvchan deb hisoblamaydilar. Bundan tashqari, bunday o‘quvchilar diqqat markazida bo‘lishni, boshqalardan ustun bo‘lish istagi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. G‘oyalarni rivojlantirish uchun yuqori ball to‘plagan qizlar ham tegishli guruhdagi o‘g‘il bolalar kabi xususiyatlarni namoyon etadilar, ammo ulardan farqli o‘laroq, ular o‘zlarini xissiyotga beriluvchan va ta`sirchan deb bilishadi. Ularning kelajakdagi faoliyati turli-xil, insoniy qadryatlar bilan bog‘liq va ijtimoiy soxaga tegishli bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Hayotda kreativ saloxiyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar ko‘proq mukammallikka erishadilar. Ota-onalar va o‘qituvchilar, odatda, bunday o‘quvchilarga ko‘proq ishonch bildirishlari lozim. Kreativ saloxiyatga ega bo‘lgan o‘quvchilar muvaffaqiyatsizliklardan va boshqalarning ishonchini oqlay ololmasliklaridan qo‘rqishadi. Ushbu savollarni berish orqali ulardagi vaziyatni aniqlash mumkin. “Qanday xayotiy vaziyatlar sizni bezovta qiladi?” , “Siz yoqimsiz vaziyatlarda qanday yo‘l tutasiz? va xokazo. Hamda ko‘prok yangi g‘oyalar va xatti-harakatlar strategiyasi yordamida stressni yengishga ijodkorlik bilan yondashadilar. Ular ichki muammolarni mustaqil xal qiladilar. O‘zlarining kelajakdagi orzulari haqida mexnatning ijodiy tabiati, yuqori yutuqlarga intilish va noan'anaviy faoliyat turlariga jalb qilinishlari lozim.

Albatta, kreativ saloxiyatga ega bo‘lishda idrokning o‘rni juda muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z idroklarining aniqligi, ravonligi, sofligi, o‘tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin ravishda farqlanadi. O‘quvchilar har bir narsaga qiziqish bilan, o‘ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har qanday obyekt, subyekt va vokelikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi, uni atrof muxitning sirli olami, sexri, jilolanishi, jozibasi o‘ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko‘zga tashlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrokning salbiy xususiyatlarini ham ko‘rish mumkin. Masalan, obyektlarni bir-biridan farqlashdagi zaiflikdir. Ular ko‘pincha o‘rganiladigan materialni noaniq, xatto, noto‘g‘ri idrok qiladilar. Buning oqibatida aynan o‘xshash harflar, so‘zlar, narsalar tasviri, shakli, fazoviy joylashuvlarining farqini to‘la tasavvur qila olmaydilar. Masalan, “k” bilan “q” harflarini “o‘qish” bilan “uqish” so‘zlarini bir-biridan farqlamaydilar. Ba'zan esa ular kattalarning idrok ko‘lami qamrab olmaydigan narsalarni payqaydilar.

Bolalarda tartibli, maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati zaifligi uchun ular ta'lim jarayonida ko‘pincha xatoga yo‘l qo‘yadilar. Odatda zarur va

muhim alomatlar bir yoqda qolib tasodifiy belgilarga e’tibor beradilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida predmetlarni yaxlit, aniq idrok qilish imkoniyati ancha chegaralangandir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idroki ayni bir xususiyati xilma-xil, yorqin bo‘yoqlar, yaqqol tasvir va his-tuyg‘uga boyligidir. Shuning uchun ular, avvalo, yorqin his-tuyg‘u uyg‘otadigan narsa va hodisalarni idrok qiladilar. Ana shu sababli ramziy va shartli belgilar, chizmalar, diametrik shaklga ko‘ra, jonli jozibador tasvirlar yorqin his-tuyg‘u tarzida aks etadi. Ko‘p fiziolog va psixologlarning fikricha, yorqin rangli tasvirlarni idrok qilish ramziy va shartli chizmalarni idrok qilishni vaqtincha to‘xtatib qo‘yadi yoki ularning mohiyatini chalkashtirib yuboradi.

Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idroki maqsadga muvofiq boshqariladigan pertseptiv faoliyat darajasiga ko‘tariladi. O‘quvchi o‘qituvchining rahbarligida shaxsiy idrokni tashkil etish, o‘z oldiga vazifa qo‘yish, idrok mahsulini nazorat qilish va xakozalarni o‘rgana boradi. O‘quvchi ta’limning dastlabki bosqichida oqilona idrok etish uchun, keyinchalik esa o‘sha narsani to‘g‘ri idrok etish uchun harakat qiladi. Bunda idrok etish asosiy maqsad bo‘lsa, harakat qilish idrokning shartli vazifasi hisoblanadi. Harakat qilish mobaynida o‘quvchilarning kreativ salohiyati shakllanadi. Ta’lim jarayonida idrok maqsadga muvofik pertseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada o‘quvchida kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati oshadi. Shu sababli 1-sinfda so‘z biron narsani atash bilan chegaralangan bo‘lsa, keyinchalik u o‘rganilayotgan obyektning umumiy ma’nosini anglata boshlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning har tomonlama kamol toptirish ongi va xulq-atvorini shakllantirishda ularning kreativ salohiyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish davr talabidir. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya samaradorligini rivojlangan xorijiy davlatlar qatorida zamon talablari darajasida muntazam oshirib borish, yuksak ma’naviyatli va bilimli, yetuk, barkamol, jismonan sog‘lom shaxsni ta’lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish, ma’naviy-axloqiy sifatlarini uyg‘unlikda rivojlantirishni amalga oshirish uchun qizg‘in islohotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. - Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T: “Ma’naviyat” 2008.

2. Azizxo‘jayeva N.N. - Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003

3. Egamberliyeva N., Xodjayev B. - Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. - T.: ―Fan va texnologiya, 2013.

4. Xasanboyev J., Sariboyev X., Niyozov G., Xasanboyeva O., Usmonboyeva M. - Pedagogika. - O‘quv qo‘llanma. – T: Fan, 2006.

5. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. – Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. - T., 2013.

6. Sharipov Sh. - O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012.

TEXNIKA TA’LIMI YO‘NALISHLARIDA ELEKTRON TA’LIM JARAYONINI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Mamadaliyev B.M. - Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ta’lim tizimi rivojlanishida an’anaviy shakllarning o‘rniga elektron ta’lim elementlari kirib keldi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli - masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, elektron darsliklar, multimedia vositalari, elektron axborot-ta’lim resurslari, virtual ta’lim, LMS (Learning Management Systems), CMS (Content Management Systems).

ЭТАПЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ ПО НАПРАВЛЕНИЯМ ТЕХНИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мамадалиев Б.М. - научный сотрудник Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. На смену традиционным формам обучения пришли элементы электронного обучения. Внедрение современных информационных и коммуникационных технологий в образовательный процесс привело к созданию новой формы обучения - дистанционного обучения - в дополнение к традиционным методам обучения. При дистанционном обучении ученик и преподаватель находятся в постоянном общении друг с другом с помощью специально созданных учебных курсов, форм контроля, электронных коммуникаций и других технологий Интернета, отделенных друг от друга в пространстве.

Ключевые слова: электронное обучение, передовые педагогические технологии, электронные учебники, мультимедийные инструменты, ресурсы

электронного обучения, виртуальное образование, LMS (системы управления обучением), CMS (системы управления контентом).

STEPS FOR IMPLEMENTATION OF ELECTRONIC EDUCATION PROCESS IN TECHNICAL EDUCATION

Mamadaliyev B.M. - Freelance researcher, Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The traditional forms of education have been replaced by e-learning elements. The introduction of modern information and communication technologies in the educational process has led to the creation of a new form of teaching - distance learning - in addition to traditional teaching methods. In distance education, the student and the teacher are in constant communication with each other using specially created training courses, forms of control, electronic communication and other technologies of the Internet, separated from each other in space.

Key words: e-learning, advanced pedagogical technologies, e-textbooks, multimedia tools, e-learning resources, virtual education, LMS (Learning Management Systems), CMS (Content Management Systems).

Elektron ta’lim o‘qitish sifatini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya va ilg‘or pedagogik texnologiyalar, elektron darsliklar, multimedia vositalari keng joriy etilayotgani o‘qitish sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda [1]. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzurida Multimedia-umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida tuzilgan Markazimiz ham ana shu maqsad yo‘lida faoliyat yurityapti.

Bu yerda multimedia dasturlarini yaratish, rivojlantirish hamda ommalashtirish, ularni tizimga samarali tatbiq etishga alohida e’tibor qaratiladi.

Chunonchi, Respublika ta’lim markazi hamda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishga ixtisoslashtirilgan hududiy korxonalar bilan hamkorlikda umumta’lim maktablari uchun multimedia vositalari, o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarning elektron nusxalari amaliyotga joriy etilmoqda. Xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb-sayti (www.uzedu.uz) yangilandi. Natijada uning “Ta’lim” bo‘limida maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, musiqa va san’at, sport maktablariga qabul qilish uchun kerakli hujjatlar ro‘yxati hamda ariza shakllarining elektron ko‘rinishlarini yuklab olish imkoniyati yaratildi. Bolalar musiqa va san’at maktablari, sport maktablari hamda “Barkamol avlod” markazlari uchun “Maktabdan tashqari ta’lim”

axborot tizimi ishga tushirilib, u “E-Maktab” yagona axborot tizimiga joylashtirildi [2].

Bugungi kunda xalq ta’limi tizimida jami 493 nomdagi elektron axborot-ta’lim resurslari amaliyotga joriy etilgan. Jumladan, 374 nomdagi elektron darslik, video hamda audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari, testlar hamda boshqa qo‘shimcha resurslar Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi tomonidan tayyorlandi. Mazkur metodik qo‘llanmalar va axborot-ta’lim resurslari vazirlikning www.eduportal.uz axborot-ta’lim portalining “Elektron kutubxona” bo‘limiga joylashtirilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun darsliklar hamda metodik qo‘llanmalarning elektron nusxalari saytga joylashtirilgani, har yili yangi avlod darsliklari bilan almashtirib borilayotgani ham foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratmoqda. O‘z navbatida, soha mutaxassislari ishtirokida seminar-treninglar, video o‘quvlar tashkil etilayotgani ularni ilg‘or tajribalar bilan tanishtirish imkonini beryapti.

Yana bir yangilik shuki, o‘quv muassasalari faoliyatiga keng jamoatchilikni jalb etish, amalga oshirilayotgan ishlar bilan ota-onalarni tanishtirib borish maqsadida “Xalq ta’limi tizimidagi eng yaxshi veb-saytlar” ko‘rik-tanlovi ham o‘tkazib kelinmoqda. Bu esa o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘z shaxsiy veb-saytlarini yaratishga qiziqishni kuchaytirish, axborot texnologiyalaridan yanada samarali foydalanilishini ta’minlash, o‘g‘il-qizlarda AKT bilan bog‘liq kasblarga havas uyg‘otishga xizmat qilishi, shubhasiz [3].

Elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

• mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

• virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

• ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Barchamizga ma’lumki, har bir universitet yoki ta’lim muassasi o‘z ta’lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o‘zining virtual axborot ta’lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta’lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta’lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta’limga yo‘naltirilgan fondlar tomonidan qo‘llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar yaratilgan [4].

Bu o‘quv modulimizda masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi.

O‘quv modulida keltirilgan dasturiy majmualar tahlili ko‘p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

O‘quv muassasasida masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirishga qo‘yiladigan texnik va dasturiy talablar MT jarayonini amalga oshirishda quyida ko‘rsatilgan bosqichlar bajarilishi mumkin:

1-bosqich: Tahlil

2-bosqich: Loyihalashtirish

3-bosqich: Joriy qilish

4-bosqich: O‘quv kontentlarini yaratish

5-bosqich: Ishga tushirish

6-bosqich: Rivojlantirish

1-bosqichda o‘quv muassasining masofaviy ta’lim jarayoniga bo‘lgan ehtiyojlari, ta’lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarning soni, o‘qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishda kerak bo‘ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko‘lami va texnik topshiriq loyihalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmua tegishli serverda o‘rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo‘llab-quvvatlovchi ishchi xodimlarni o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy ta’lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bo‘lmish o‘quv kontentlar o‘quv bo‘limi va soha mutaxassislari bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan o‘quv kontentlar eskpertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quv jarayoni doimiy nazoratda bo‘lib turadi. Tizimdagi xavfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘rilanadi, yangi o‘quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo‘lgan ishlar ko‘lami bajariladi.

1.Web-xosting xizmatini tanlash. Web-xosting xizmatini tanlashlash biz UZINFOCOM Markazining texnologik maydonchasidan foydalanishni tavsiya etamiz[14]. UZINFOCOM Markazining texnologik maydonchasi milliy foydalanuvchilar va birinchi navbatda, davlat boshqaruvi va hokimiyati organlari, hamda ta’lim va notijorat muassasalariga zamonaviy darajadagi sifatli xosting xizmatini ko‘rsatish maqsadida 2006-yilda tashkil etilgan. Xizmatlar axborot xavfsizligini ta’minlashning barcha xalqaro standartlariga to‘liq mos ravishda

ko‘rsatiladi, shu bilan birga, axborot resurslari egalariga o‘z resurslarini saqlash va ma’lumotlar bilan ishlashda maksimal qulaylikni ta’minlaydi.

Ushbu texnologik maydoncha shu kabi komplekslarga qo‘yiladigan barcha talablarga javob beradi. Xususan, ma’lumotlarni saqlash va ularning yaxlitligini ta’minlash, ma’lumotlar saqlashni zahiralash, 24 soat davomida doimiy texnik xizmat ko‘rsatish.

Foydalanuvchilarning texnologik maydonchada joylashtirilgan resurslari uning infratuzilmasidan foydalanadilar. Yagona tekshirilgan dasturiy ta’minotdan foydalanish esa mijozlarga dasturlarni yaratish zaruriyatidan ozod etib, ularni axborot resurslarini joylashtirish va faoliyat yuritishi bilan bog‘liq muammolardan holi etadi. Bunday kompleks yechim mijozlar uchun mavjud bo‘lgan turli dasturiy modullardan foydalanish orqali o‘z kuch va resurslarini axborot xizmatlarini shakllantirish va jadallashtirishga yordam beradi [5].

Bundan tashqari, UZINFOCOM Markazi tarkibidagi kompyuter hodisalariga chora ko‘rish xizmati UZCERT, texnologik maydonchada joylashgan resurslarni yetarli darajada xavfsizligini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda texnologik maydonchada Agentlik sayti aci.uz; UZ-CERT serverlari; ZiyoNET tarmog‘i moslamalari, www.ziyonet.uz portali; Milliy qidiruv tizimi www.uz serverlari; UZ domen zonasining yuqori bo‘g‘in o‘zak serverlari joylashgan. Shu bilan birga texnologik maydonchada 80 tadan ortiq tashkilotlarning saytlari, shu qatorda davlat organlarining saytlari, ijtimoiy yo‘naltirilgan loyihalarning saytlari va ularning miqdori doimiy ravishda o‘smoqda. Texnik maydoncha uskunalarining umumiy quvvati hozirgi kunda 11 ta server, jami chastotasi 42Gs bo‘lgan 14 ta protsessor, 26 Gbayt operativ xotira moslamasi va 4 Tbayt bo‘lgan disk makonidan iborat.

Veb-xosting xizmati ta’riflari[1]

UZINFOCOM kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish Markazi yuridik va jismoniy shaxslarga quyidagi tariflar bo‘yicha veb-xosting xizmatini ko‘rsatadi:

1-jadval

Veb – xosting xizmati ta’riflari

Tarif rejalari	**Standart**	**Lux**	**Vip**	**Maxi**
Izoh	**Tasniflar**			
Oylik obonent to‘lovi (so‘m)	4000	6000	12000	17000
Diskdagi umumiy kvota, Mb	50 gacha	100 gacha	250 gacha	500 gacha
Oylik ta’rif, Mb	unlimited	unlimited	unlimited	unlimited
1 pochta manzili uchun kvota, Mb	5	5	5	5
Pochta manzillari soni	10	20	40	80

3-daraja domenini ro‘yhatga olish va qo‘llab-quvvatlash	3	4	5	7
FTP orqali kirish	+	+	+	+
CGI-BIN, PERL (mod_perl)	+	+	+	+
MySQL ma’lumotlar ombori soni	1	1	1	1
Oylik diskdagi kvotaning ko‘payib ketishida 1 Mb narxi (so‘m)	200	200	200	200

Domen olish asosiy tushunchalar [6-8]. Domen - nomli mezon bo‘yicha ajratilgan va uni qo‘llab-quvvatlash uchun javob beradigan tashkilotga egalik qilish uchun taqdim etilgan Internet tarmog‘ining qismi; “UZ” domeni - O‘zbekiston Respublikasining mamlakat kodini ifodalovchi, maxsus vakolatli tashkilot tomonidan boshqariladigan va muvofiqlashtiriladigan hamda O‘zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi ostidagi yuqori daraja domeni, shu jumladan, keyingi darajalarning domen nomlari;

Domen nomi - nomlarning domen tizimiga muvofiq kompyuter tarmog‘i uzeliga biriktirilgan noyob belgili nom.

Domen (o‘z navbatida xostingni ham) olish uchun ActiveCloud kompaniyasi orqali amalga oshirishni tavsiya qilamiz.

Domenni ro‘yhatdan o‘tkazish (xosting) olish shartlarini sayti orqali barcha ma’lumotlarni olishingiz mumkin.

Adabiyotlar

1. E-learning: concepts, trends, applications. Corporation Trust Center by Epignosis LLC 2013.

2. The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Siân Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education Academy, 2013.

3. Evaluation of Evidence - Based Practices in Online Learning: A MetaAnalysis and Review of Online Learning Studies. U.S. Department of Education Office of Planning, Evaluation, and Policy Development Policy and Program Studies Service, 2010.

4. Arafeh, S. The implications of information and communications technologies for distance education: Looking toward the future / S. Arafeh. — Arlington, VA: SRI International — Final Report. — 2004.

5. Bates, A.W. - Distance education in a knowledge-based society / A.W. Bates // A keynote address in the ICDE Conference on The Metamorphosis of Distance Education in the Third Millennium — Toluca, Mexico. — 2007.

6. Bullen, M. - Digital Learners in Higher Education: Generation is Not the Issue / M. Bullen, T. Morgan, A. Qayyum, // Canadian Journal of Learning Technology – 2011 — № 37(1).

7. Donhue, B. Faculty and administrators collaborating for e-learning courseware / B.Donhue, L. Howe-Steiger // EDUCAUSE Quarterly — 2005 — №28 (1). — p.20-32.

8. Henri, P. E-learning technology, content and services / P. Henri // Education and Training — 2001 — №43(4) — p.249-255.

9. Ishmuhamedov R.J., Mirsoliyeva M. - O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. 60-b.

GRAFIKA TARIXIDAN BA’ZI GEOMETRIK YASASHLAR

Azimov A.T. - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti – dotsenti
Raximov R.S. - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti – assistent

Annotatsiya. Ushbu maqolada geometrik yasashlar orqali masalalarni yechish, qadimgi Misr, Vavilon, Hindiston va boshqa xalqlarni ilmiy yondashuvlari va amaliy geometriya fani tarixi yoritilgan. Platon maktabidagi geometrik yasashlarga qadimgi grek geometriklarining munosabatlari va ularni ijodidan ba’zi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ri chiziqlar, to‘g‘ri burchak, oddiy geometrik masalalar, amaliy geometriya kvadrat, sirkul, chizg‘ich, teorema, maktab, mashhur qadimgi grek olimlari, konus kesimlari, to‘g‘ri burchakli, o‘tmas burchakli, o‘tkir burchakli, parabola ellips, giperbola, kub, perpendikulyar, uchburchak, tenglama.

НЕКОТОРЫЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИЕ КОНСТРУКЦИИ ИЗ ИСТОРИИ ГРАФИКИ

Азимов А.Т. – доцент Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова
Рахимов Р.С. – ассистент Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова

Аннотация. В данной статье дано решение задач Древнего Египта, Вавилона, Индии, а также научных аппроксимаций других народов по геометрическому построению, освещена история прикладной геометрии. Геометрические построения в школе Платона ведутся от наших древнегреческих геометров и приведены решения некоторых их работ.

Ключевые слова: прямая, прямой угол, простые геометрические задачи, прикладная геометрия, квадрат, цикл, линейка, теорема, школа, известные древнегреческие ученые, конические сечения, прямоугольник, остроугольный, тупоугольный, парабола, эллипс, гипербола, куб, перпендикуляр, треугольник, уравнение.

SOME GEOMETRIC CONSTRUCTIONS FROM THE HISTORY OF GRAPHICS

Azimov A.T. - Tashkent State Technical University named after Islam Karimov - Associate Professor.
Rahimov R.S. - Tashkent State Technical University named after Islam Karimov – assistant

Annotation. In this article, the solution of the tasks of ancient Egypt, Babylon, India and also scientific approximations of other peoples is given by geometric construction, the history of applied geometry is highlighted. Geometric construction in the school of Plato is from our ancient Greek geometers and solutions of some of their works are given.

Key words: straight line, right angle, simple geometric tasks, applied geometry, square, cycle, ruler, theorem, school, famous ancient Greek scientists, conic sections, rectangular, acute-angled, obtuse-angled, parabola, ellipse, hyperbola, cube, perpendicular, triangle, equation.

Geometrik yasashlarga doir dastlabki masalalar qadim zamonlarda insoniyatning xo‘jalik ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Qadimgi me’morlar va yer o‘lchovchilar o‘zlarining ish faoliyatidan kelib chiqib, yasashga doir oddiy masalalarni yechgan. Yerlarni o‘lchashga doir eng birinchi yasashga oid masalalar to‘g‘ri chiziqlarni o‘tkazishga tegishli bo‘lgan. To‘g‘ri burchakni yasashga doir masalalar tomonlari 3, 4 va 5 ga teng bo‘lgan “Misr uchburchagi” orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, yasashga doir masalalar bilan qadimgi muhandislar u yoki bu inshootning loyihasini tuzishda va ularga chiroyli geometrik shakl berish uchun shug‘ullanganlar.[1] Oddiy geometrik masalalarni yasash usullari bilan yechish odamlar hayotida uchraydigan xo‘jalik masalalarni hal qilishda qo‘llangan.

Mana shu kabi masalalarni yechish bilan qadimgi Misr, Vavilon, Hindiston va boshqa xalqlarda amaliy geometriya fani paydo bo‘lgan. Ammo qadimgi yer o‘lchovchilar, me’morlar, astronomlarning oddiy geometrik yasashlari, geometriya fani yasashlarining nazariyasi va isbotini bera olmas edi.

Kubni ikkilantirish masalasini sirkul va chizg‘ich yordamida yechishdagi ayrim tadqiqotlar. Qadimgi greklar kvadratni ikkilantirish masalasini onson yechganlar. Buning uchun chizg‘ich va sirkul yordamida $\sqrt{2}$ ni yasash kerak bo‘lgan. Haqiqatdan ham, berilgan kvadratning tomoni **a** bo‘lib, noma’lum kvadratning tomonini **x** deb belgilansa, masala shartiga asosan $\mathbf{x^2=2a^2}$ bo‘ladi, bundan $x = a\sqrt{2}$ aniqlanadi. [1]

$\mathbf{a\sqrt{2}}$ sirkul va chizg‘ich yordamida yasash uchun katetlari **a** ga teng bo‘lgan tekis yonli to‘g‘ri burchakli uchburchak yasash kifoya. Bu uchburchakning gipotenuzasi Pifagor teoremasiga asosan $\mathbf{a\sqrt{2}}$ ga teng bo‘ladi.



(1-rasm)

Platonning fikricha, har qanday murakkab masalalarni analitik-sintetik usul bilan yechish mumkin. Buning uchun yechiladigan har qanday masalani, avvalo, analiz qilib, so‘ngra, sintez qilish yordamida yechish lozim.

Platon maktabida yasashga doir masalalarni yechish jarayonida “Nuqtalarning geometrik o‘rni” aniq ma’lum bir shartni qanoatlantiruvchi uzluksiz nuqtalar qatori ekanligi isbotlanadi. Masalan, qadimgi grek geometrlari tomonidan turli davrlarda kashf qilingan sissoida, konxoida , kvadratrisa egri chiziqlarni eng qiziqarli geometrik o‘rinlar hisoblanadi. Platon va uning o‘quvchilari sirkul va chizg‘ich yordamida to‘g‘ri chiziq va aylanalar chizish bilan yechiladigan masalalarni geometrik yasashlarga kiritganlar. Agar biror masalani yechish jarayonida boshqa chizmachilik asboblari yoki vositalar ishlatilsa, bu yasashlar geometrik yasashlar hisoblanmagan. Qadimgi grek geometrlari Platonning geometrik yasashlarga bunday qarashlarini ideal sifatida qabul qilganlar [2].

Qadimgi greklar yuqorida keltirilgan kvadratni chizg‘ich va sirkul yordamida ikkilantirish masalasini hal qilgandan so‘ng, kubni ikkilantirish masalasini chizg‘ich va sirkul yordamida hal qilishga kirishdilar. Bu holda kubni ikkilantirish masalasi $\sqrt[3]{2}$ ni chizg‘ich va sirkul yordamida geometrik yasashga to‘g‘ri keladi.

Agar berilgan kubning qirrasi **a** bo‘lganda, yasaladigan kubning qirrasi **x** bilan belgilansa, unda kubni ikkilantirish sharti asosan $\mathbf{x^3=2a^3}$ bo‘lib, $\mathbf{x=a\sqrt[3]{2}}$ bo‘ladi.

Ammo $\sqrt[3]{2}$ ni sirkul va chizg‘ich orqali yasash mumkin bo‘lmagan. Bu masalani yechishga asrlar davomida yer sharining ko‘pgina olimlari izlanishlar olib borganlar. Nihoyat XIX asrda $\sqrt[3]{2}$ ni yordamchi vositalarsiz sirkul va chizg‘ich yordamida yasash mumkin emasligi isbotlandi.

Kubni ikkilantirish masalasini yechish bilan mashhur qadimgi grek olimlaridan Menexm (er. Avv. IV asr) ham shug‘ullangan. U Evdoksning shogirdi bo‘lib, matematika va astronomiya sohasida katta kashfiyotlar qilgan. Menexm

tomonidan konus sirtini har tomonlama o‘rganish, konus kesimlarini hosil bo‘lish masalasini hal qilishi, ko‘pgina geometrik masalalarni yechishga yordam berdi. Menexm konus kesimlari yordamida Doles (Egay dengizidagi orol nomi) masalasi bo‘lgan kubni ikkilantirish masalasini yechishga qo‘lladi.[2]

Ma’lumki, konus kesimlari berilgan aylanma konusni tekislik bilan kesish natijasida hosil bo‘lgan kesim yuza shakli hisoblanadi. Menexm aylanma konusni uning o‘qi bo‘yicha kesimi uchidagi burchagi bo‘yicha o‘rganib, uni uchta kategoriyaga bo‘ladi: uchidagi burchagi to‘g‘ri bo‘lsa, to‘g‘ri burchakli konus, uchidagi burchagi o‘tmas bo‘lsa, o‘tmas burchakli konus, uchidagi burchagi o‘tkir bo‘lsa, o‘tkir burchakli konus deb nomlangan.

Konus kesimlarini hosil qilish uchun kesuvchi tekislik konus yasovchisiga perpendikulyar qilib olingan. Bunda to‘g‘ri burchakli konusni tekislik bilan kesganda kesimda parabola, o‘tkir burchakli konusni tekislik bilan kesganda kesimida ellips, o‘tmas burchakli konusni tekislik bilan kesganda kesimida giperbola hosil bo‘lishini isbotlagan. Bu konus kesimlarini XVII asrda birinchi marta R.Dekart kashf qilgan, koordinata o‘qlariga joylashtirilsa, ularning tenglamalari quyidagicha bo‘ladi.



1). $y^2=2px$ parabola.

2). $y=\frac{a}{x}$ giperbola

3). $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{в^2}=1$ ellips

Menexm kubni ikkilantirishni ikki usulda yechadi. (2 rasm)

Birinchi usul. Qirrasi **a** ga teng bo‘lgan kubni ikkilantirishni ikkita parabola orqali yechish. Uchi **O** nuqta va o‘qi **OY** bo‘lgan parabola $\mathbf{x^2=ay}$ (1) va uchi **O** nuqtada va o‘qi **OX** bo‘lgan parabola $\mathbf{y^2=2ax}$ (2) bo‘lsin.

Bu tenglamalarni bitta sistemaga keltirib, $\begin{cases} x^2 = ay \\ y^2 = ax \end{cases}$ **x** bo‘yicha yechganda yoki bu parabolalarni kesishtirganda (1) ning har ikki tomonini kvadratga ko‘tarib hosil bo‘lgan ifodaga $\mathbf{y^2=2ax}$ (2) ifodasi qo‘yilsa $\mathbf{x^4=a^2\ y^2\ =2a^3x}$, hosil bo‘ladi. Natijada, $\mathbf{x^4\ -2a^3x=0,\ x(x^3\ -2a^3)=0}$ bo‘ladi. Bundan $\mathbf{x_1=0}$ **ва** $\mathbf{x_2=a\sqrt[3]{2}}$ ildizlarga ega bo‘linadi. Birinchi ildiz masala shartini qanoatlantirmaydi. Ikkinchi ildiz ikkilangan kubning qirrasi bo‘lib, u $\mathbf{a\sqrt[3]{2}}$ ga teng bo‘ladi. Yuqoridagi ikki parabolalarning grafiglari yasalib, ularning kesishgan nol nuqtasidan tashqari yana bir nuqtasining $\mathbf{x=a\sqrt[3]{2}}$ abtsissasi izlangan ikkilangan kubning qirrasiga teng bo‘ladi.

Ikkinchi usul. Kubni ikkilantirish masalasi giperbola va parabola tenglamalarini yechish orqali aniqlangan. [3]

$\mathbf{y=\frac{2a^2}{x}}$ (3) teng tomonli giperbola va uchi **O** nuqtada o‘qi **OY** bo‘lgan parabolani $\mathbf{x^2=ay}$ (4) ifodalar orqali aniqlash mumkin.



(3расм)

Bu tenglamalarni **x** ga nisbatan yechilsa, ya'ni **y** ning qiymatini (3) ifodadan (4) ga qo'yilsa, $x^2=\frac{2a^3}{x}$ yoki $x^3=2a^3$ bo'ladi.

Demak, ikkilangan kub qirrasi $x=a\sqrt[3]{2}$ ga teng bo'ladi.

Bu egriliklarning grafigini yasash bilan parabola va giperbolalarni kesishgan nuqtasining absitsasi ikkilangan kubning qirrasiga teng bo'ladi. $x^2=ay$ parabola o'rniga $y^2=ax$ parabolani grafigini olish mumkin. (4 rasm)



Platon yechimi. Kubni ikkilantirish masalasi Platon tomonidan quyidagicha yechilgan. Uning yechimi quyidagicha lemmaga asoslangan [4]. Lemma diagonallari o'zaro perpendikulyar bo'lgan har qanday to'g'ri burchakli trapetsiyaning diagonallar bo'laklari (kesmalari) geometrik progressiyani tashkil qiladi, ya'ni 1-rasmga asosan bo'ladi.

Isbot: **ABCD** to'g'ri burchakli trapetsiya bo'lsin, uning **<A=<B=90°** va **AC** ⊥**BD** < **ABC** va < **BAD** lar to'g'ri burchakli uchburchaklar va **OB OA** ularning balandliklari bo'lgani uchun $\frac{OC}{OB}=\frac{OB}{OA}$ (1)$\frac{OB}{OA}=\frac{OA}{OD}$ (1) bo'ladi. Lemma isbot bo'ldi. Berilgan kubning qirrasi **a** bo'lsa unga ikkilangan kubning qirrasi **x** ni aniqlash uchun $x^2=2_a{}^3$ tenglamani yechilishi va yasalishini ko'ramiz.

Yuqorida keltirilganga asosan, **OC=a**, **OB=x**, **OA=y**, **OD=2a** belgilashlar kiritilsa, geometrik progressiya $\frac{a}{x}=\frac{x}{y}=\frac{y}{2a}$ bo'ladi.

Bundan $x^2=ay$ (4) va $y^2=2ax$(5) ni hosil qilishi mumkin. (4) va (5) larni birga yechganda $x^2=2a^2x$ hosil bo'ladi. Bundan $x^3=2a^3$ demak, **x=OB** ikkilangan kubning qirrasi bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Murodov Sh.K, Urishev A, Toshimov N.E. Qiziqarli geometrik yasashlar, Jayxun 2010, 2-son.

2. Murodov Sh.K, Toshimov N.Э. Grafik tasvirlash asoslari. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent-2013, 221-bet.

3. Azimov T.D., Mirzaraimova V.T. Chizma geometriyadan shaxsiy uy vazifalarini bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar. I qism. — T.: ToshDTU, 2003.

4. Azimov T.D. Fayziyev T.R., Alimova D.K., Mirzaraimova V.T. "Chizma geometriya" fanidan oraliq nazorat savollari to'plami. ~ T.: ToshDTU, 2007. '

GEOGRAFIYA DARSLARINI MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH

Abdullayeva D.N. – Toshkent davlat pedagogika universiteti “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti v/b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (*PhD*).

Annotatsiya. Maqolada muammoli ta’lim, muammoli o‘qitish tushunchasi, muammoli ta’limning nazariy asoslari hamda muammoli ta’limning maqsad va vazifalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, muammoli ta’limning didaktik maqsadlari, geografiya darslarida muammoli vaziyatlar hosil qilish, muammoli vaziyatlarning sifatlari hamda muammoli ta’lim metodlarining geografiya faniga tatbiqi bo‘yicha namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim, muammoli vaziyat, muammoli dars, geografiya ta’limi, geografik tushunchalar, tabiiy geografiya, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, tabiat va jamiyat munosabatlari.

ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ ГЕОГРАФИИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Абдуллаева Д.Н. - доктор философии *(*PhD*) по* педагогическим наукам, и.о. доцента кафедры «География и методика ее преподавания» Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье представлена информация о проблемном обучении, концепции проблемного обучения, теоретических основах проблемного обучения, целях и задачах проблемного обучения. Приводятся также примеры дидактического назначения проблемного обучения, создания проблемных ситуаций на уроках географии, качества решения задач, применения проблемных методов обучения к географии.

Ключевые слова: проблемное обучение, проблемная ситуация, проблемный урок, географическое образование, географические понятия, естественная география, социально-экономическая география, отношения природы и общества.

ORGANIZATION OF GEOGRAPHY LESSONS BASED ON PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY

Abdullaeva D.N. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Acting Associate Professor of the Department of Geography and Methods of Teaching, Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article provides information on problem-based learning, the concept of problem-based learning, the theoretical foundations of problem-based learning, and the goals and objectives of problem-based learning. Ehamples are also given of the didactic purpose of problem-based learning, the creation of problem-solving situations in geography lessons, the qualities of problem-solving, and the application of problem-based learning methods to geography.

Key words: problem education, problem situation, problem lesson, geography education, geographical concepts, natural geography, socio-economic geography, nature and society relations.

Muammoli ta’limning nazariy asoslari. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin olishi uchun ma’naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularning bilim salohiyatlarini jahon andazalariga mos ravishda oshirish hamda kelajakda xalqimizga astoydil xizmat qiladigan kasb egasi bo‘lib yetishishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

Bu borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish vazifasi qo‘yilgan [3; 21-bet]. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta’lim tizimi oldiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Ta’lim jarayonlarining sifat-samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadga erishishda ta’lim jarayonlarida innovatsion, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bu o‘rinda muammoli ta’lim texnologiyasi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Muammoli ta’lim – ta’lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. Shuningdek, muammoli ta’lim mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o‘quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta’lim va o‘qitishning ilgari ma’lum bo‘lgan usullarini qo‘llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta’lim ko‘proq o‘quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e’tiqodining shakllanishini ta’minlaydi.

Muammoli o‘qitish yangi yo‘nalish sifatida XX asrning 70-80 yillarida paydo bo‘ldi. An’anaviy ta’limda butun e’tibor o‘qituvchi faoliyatiga qaratilib, ta’lim jarayoni deyilganda asosan o‘qitish jarayonini ko‘zda tutgan edi. Zamonaviy ta’limda esa o‘quvchilarning mustaqil – o‘quv – bilish faoliyatiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarning yaratilishi va ularning yechimini aniqlash o‘quvchilarning faol fikrlash faoliyatini hamda mustaqil qarorlar qabul qilish kabi ijodiy xislatlarining rivojlanishiga olib keladi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko‘rish asosida muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi aniqlanadi: muammoli ta’limda bilimning deyarli katta qismi o‘quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Muammoli ta’limning maqsad va vazifalari. Muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi masalalarni hal qilish:

1. O‘quv dasturi bo‘yicha mavzularni muammoli dars shaklida o‘tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo‘yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;
3. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta’minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish yo‘llarini belgilash zarur.

1-rasm.

Muammoli ta’limning didaktik maqsadi



Muammoli ta’lim – bu o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo‘lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqarvchi muayyan shaxsiy subyektiv yo‘llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

1) o‘quvchilarning tushunchalar tizimini o‘zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.

2) insonning his-tuyg‘usi va emotsiyasiga ta’sir etish, uning bilimini e’tiqodga aylantirish.

2-rasm.

Muammoli ta’imning asosiy vazifalari



O‘quv jarayonida muammoli vaziyat – bu ta’lim oluvchining oldin o‘zlashtirgan bilimlari va ayni paytdagi intellektual darajasi o‘rtasidagi tafovut yoki ziddiyatlar tizimi. Muammoni yechish uchun o‘quvchi o‘zida mavjud bilim va malakalari yetarli emas ekanligini va o‘z intellektual yuksalishi yo‘lida qo‘shimcha izlanishi, o‘qishi, o‘rganishi, tajriba orttirishi lozimligini tushunib yetadi. Yoki bo‘lmasa ta’lim oluvchiga yangi bilimlar negizida o‘z imkoniyatlari darajasini sinab ko‘rish, o‘z-o‘zini tashxislash va baholash uchun sharoit yaratiladi. Eng muhimi o‘quv muammosini o‘rganishda va hal qilishda ta’lim oluvchida intellektual va ma’naviy-madaniy rivojlanishga nisbatan kuchli motivatsiya yuzaga keladi.

Muammoli vaziyat quyidagi sifatlar bilan harakterlanadi:

- o‘quvchi uchun o‘quv axborotida noma’lumlikning mavjudligi;
- o‘quv muammosini hal qilishga bo‘lgan birlamchi ichki va tashqi motivatsiyaning shakllanishi;
- o‘quv muammosi va o‘quvchi bilim, ko‘nikma va malakalari tizimi o‘rtasidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishi;
- muammoni yechish uchun kasbiy-intellektual yuksalishga bo‘lgan shaxsiy ehtiyoj negizida ikkilamchi motivatsiyaning yuzaga kelishi;
- muammo asosida o‘quvchining mustaqil ijodiy-izlanuvchanlik faoliyatga yo‘naltirilganligi.
- qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab qiladi.
- muammoli ta’limni tashkil kilish natijasida madaniyatli, intellektual malakali mutaxassislarni tarbiyalash maqsadlarini amalga oshirish muvaffaqiyatli kechishi mumkin.

Muammoli dars strukturasi. Struktura – bu butun predmet, hodisa, jarayon tomonlari, qismlari, elementlarining mustahkam, nisbatan barqaror aloqasi (munosabati) va o‘zaro hamkorligidir.

Zamonaviy muammoli dars strukturasida uning tipi va turidan qat’iy nazar har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masalani ko‘ramiz:

1) o‘quvchilar oldingi bilimlari va harakat usullarini o‘zlashtirish.
2) yangi bilimlar va harakat usullarini o‘zlashtirish.
3) ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish.

Didaktikada muammoli dasrlarni muammoli vaziyatlarning tipiga qarab harakterlashga oid tadqiqotlar mavjud. Shu o‘rinda G.V.Artyomova o‘z izlanishlari assoida muammli darslarni tashkil etishning bir necha variantlarini taklif etadi.

Bular: 1. Versiya harakteridagi dasr.
2. Qiyosiy-umumlashtirish harakteridagi dars.
3. Ma’naviy-axloqiy muammoli dars.

3-rasm.

Versiya harakteridagi dars strukturasi



Qiyosiy-umumlashtirish harakteridagi dars strukturasi



Geografiya ta’limida muammoli ta’lim. Geograf olimlar S.N.Abduvoxidov va Z.A.Ganiyevlarning fikricha muammoli ta’lim metodining nazariy asoslari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassalalari oldida turgan bosh maqsad ta’lim oluvchilarni har tomonlama barkamol avlod bo‘lib rivojlanishini ta’minlashdan iborat [4; 116-bet]. Demak, geografiya darslarida muammoli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchi rahbarligida geografik voqea va hodisalarga hamda tabiat va jamiyat hodisalariga oid muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o‘quvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko‘nikma va malkalarni ijodiy o‘zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

Muammoli ta’limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog‘liq:

1. O‘quv materialini muammolashtirish;
2. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta’lim jarayonini o‘yin, mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirish;
4. O‘qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o‘quvchilarga bayon etish.

Geografiya ta’limida muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o‘quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko‘nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo‘naltiradi. Zero geografiya o‘qitish metodikasining rivojlanishi yangi o‘qitish metodlarini ishlab chiqish, majmualarni takomillashtirish, ilg‘or metodlarni qo‘llash bilan bog‘liq [10; 215-bet].

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy qismlardan iborat bo‘lganligi uchun unda tabiat va jamiyatdagi barcha muammolar mujassamlashgan. Geograf-olimlar X.Vahobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultanovalar geografik muammolarni chiqishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratadilar:

-tabiiygeografik muammolar;
-iqtisodiy-ijtimoiy muammolar;
-geoekologik muammolar;

-ta’limiy va tarbiyaviy muammolar.

Tabiiy geografiya kursida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Ta’lim oluvchilar ushbu kursda muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish orqali quyidagi geografik tushunchalar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘ladilar: tabiatdagi hodisalari, tabiat va undagi komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zgarishi, tabiatning moddiyligi, qonuniyatlarning obektivligi, global, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar, tashqi muhit bilan bog‘liq bo‘lgan antropogen tassurotlar, tabiiy muhit va resurslarning inson xo‘jalik faoliyatidagi ahamiyativa bu bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, va b.

Shuningdek, tabiiy-geografiya darslarida quyidagi muammolarni o‘rtaga tashlab uni yechish namunasini ko‘rsatish mumkin: [10; 126-bet].

- Orol va Orol atrofi muammosi, bundan o‘qituvchi Orol dengizining qurishi sabablari va oqibatlarini hamda Orol muammosini yechish yo‘llarini ilmiy asoslab berishi lozim;

- atmosferani ifloslanishi va u bilan bog‘liq ravishda Yer yuzasida o‘rtacha haroratni muntazam ortib borishi va uning oqibatlarini ochib berishi lozim;

- o‘rmonlarni kesilishi va u bilan bog‘liq ravishda tabiiy sharoitni o‘zgarishini asoslab berishi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kursida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Ushbu kursda ta’lim oluvchilar jahon mamlakatlarining siyosiy haritasi, xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti, dunyo tabiiy resurslaridan foydalanish, zamonaviy ekologik muammolar va ularni bartaraf qilish, jahon energetikasi, sanoat tarmoqlari va ularning atrof-muhitga salbiy ta’siri, xalqaro iqtisodiy aloqalar, dunyo aholisi va ularning joylashuvi, fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta’siri kabi bir qator masalalari bilan bog‘liq muammolarni hal etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Geografiya ta’limida muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning egallagan bilimlaridan amaliy faoliyatda foydalanishlariga, ularning dunyoqarashlarini yanada kengayishiga hamda atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi.

O‘quvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtayi nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo‘ladi.

Quyida geografiya fanidan muammoli ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha namunalar keltiramiz.

1. “Muammo” texnologiyasi - o‘quvchilarga mavzudan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni

yechishning ba’zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechiщda mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatishda qo‘llash tavsiya etiladi.

4-rasm.

Zamonaviy ekologik muamolar mavzusi misolida

Muammoning turi	**Muammoni kelib chiqish sabablari**	**Muammoni yechish yo‘llari va sizning harakatlaringiz**
Zamonaviy ekologik muammolar	Insoniyatda ekologik madaniyatning yetarlicha shakllanmaganligi	Atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga oid tadbirlar o‘tkazish

2. “Qarorlar shajarasi” strategiyasi (“Qaror qabul qilish texnologiyasi”) - metodi geografiya fanidagi murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan metod hisoblanadi.

5-rasm.

Okean boyliklari va ulardan foydalanish va muhofaza qilish muammosi mavzusi misolida

Muammo: Dunyo okeanini muhofaza qilish muammosi		
1-g‘oya	**2-g‘oya**	**3-g‘oya**
Dengiz transportida tashiladigan neft va neft mahsulotlarini tashiydigan maxsus kema — tankerlarning halokatga uchrashini oldini olish.	Dunyo okeanini muhofazasi bo‘yicha milliy, regional va xalqaro ko‘lamda tadbirlar amalga oshirish.	Dunyo okeanini tadqiq etish va foydalanish hamda muhofaza qilish maqsadida ko‘plab xalqaro tashkilotlar sonini ko‘paytirish va ularning faoliyatini yaxshilash.
QAROR: Dunyo okeani boyliklaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ularni muhofaza qilish, tiklash va ekologik sharoitini yaxshilash borasida INSONIYAT ibratli faoliyat ko‘rsatishi lozim.		

3. “Rezyume” texnologiyasi - bu texnologiyani fandagi murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishda qo‘llash tavsiya etiladi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi [7; 38-bet].

Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

6-rasm.

O‘rta Osiyo tabiiy-geografik o‘lkasi mavzusi misolida

O‘rta Osiyo tabiiy-geografik o‘lkasi							
Geografik o‘rni		*Iqlimi*		*Suvlari*		*Tuproqlari*	
Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.	Afzal.	Kamchil.
Xulosa:							

Xulosa: Muammoli ta’lim o‘quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta’limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo‘llari va usullarini tushuntiradi. Geografiya ta’limida muammoli vaziyatlardan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarda: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli darslarda o‘qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o‘quvchilar oldiga o‘quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo‘yish, darsda mazkur o‘quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o‘quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 5-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.

4. S.N.Abduvoxidov., Z.A.Ganiev. Geografiya ta’limi metodikasi, Samarqand-2021.

5. Tolipov U.. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot asoslari.-T.,2005.

6. Farberman B.L. Ilgor pedagogik texnologiyalar.-T., 2002.

7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod – 2008.

8. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: 2006

9. Qurbonniyozov R. Geografiyadan o‘quvchilar bilimini tekshirishning shakli va metodlari. T.1993.

10. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o‘qitish metodikasi. “Nodirabegim”, T.: 2021.

Internet saytlari:

11. http.//www.ziyonet.uz
12. http.//www.pedagog.uz
13. http.//www.geografiya.uz
14. http.//www.hozir.org

YOSH AVLODNI DINIY BAG‘RIKENGLIK ASOSIDA TARBIYALASHDA OILA VA MAHALLANING O‘RNI

Toshmurodov M.I. – Toshkent davlat pedagogika universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bag‘rikenglik – ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, filologiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri ekanligi, yosh avlodni diniy bag‘rikenglik asosida tarbiyalashda oila va mahallalarning o‘rni muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida firlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tolerantia, sotsiologiya, filologiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik, e’tiqod.

РОЛЬ СЕМЬИ И МАХАЛЛИ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Тошмуродов М.И. - студент магистратуры Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье толерантность является одним из понятий, широко используемых в различных областях научной деятельности и общественной жизни, включая политику и политологию, социологию, филологию, теологию, социальную этику, излагается мысль о том, что в воспитании молодого поколения на основе толерантности место семьи махалли имеет важное значение.

Ключевые слова: толерантность, социология, филология, теология, социальная этика, сравнительное богословие, вера.

THE ROLE OF THE FAMILY AND MAHALLA IN EDUCATING THE YOUNGER GENERATION ON THE BASIS OF RELIGIOUS TOLERANCE

Toshmurodov M.I. - Master's student of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. In this article, tolerance is one of the most widely used concepts in various fields of scientific activity and social life, including politics and political science, sociology, philology, theology, social ethics, comparative religion, family and firms have stated that the role of neighborhoods is important.

Key words: tolerance, sociology, philology, theology, social ethics, comparative theology, faith.

Bizga yaxshi ma’lumki, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do‘stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag‘rikenglikka da’vat etadi.

Shuningdek, bag‘rikenglik – ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, filologiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri. Lotincha “tolerantia”, ya’ni sabr qilmoq, chidamoq ma’nolarini beradigan bu so‘z, asosan, bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildiradi. Bag‘rikenglik bu boshqa kishining diniy e’tiqodiga nisbatan toqatli bo‘lish, uning e’tiqodiga qarshi kurashmaslikdir. Demak, aytish mumkinki, bag‘rikenglik – hayot zaruratidir.

Diniy bag‘rikenglik tushunchasining mohiyati xususida so‘z yuritar ekanmiz, shu o‘rinda “e’tiqod” tushunchasining mohiyatiga ham to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muvofiq. Chunki, “din” iborasini qo‘llash jarayonida bu tushunchaga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. “E’tiqod” arabcha so‘z bo‘lib, “ishonch” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, e’tiqod insonning oldida turgan maqsad yoki g‘oya haq ekaniga to‘la ishonchi bilan bog‘liq holatdir.

O‘z o‘rnida dinning kompensatorlik (ovutuvchi), jipslashtiruvchi va boshqa xususiyatlari e’tiqodning o‘ziga xos ko‘rinishlaridandir. E’tiqod erkinligi insonning eng ahamiyatli huquqlaridan biridir. E’tiqod hurlik, o‘z ixtiyori bilan tanlangan bo‘lishi kerak. E’tiqodni majburiy ravishda singdirib bo‘lmaydi. Bu birovga yoki biror narsaga muhabbatni majburan uyg‘otish emas. Shu sababli Alloh taolo diniga bandalari majburan emas, balki chin ixlos bilan kirishini istaydi.

Alloh taolo payg‘ambarlarning vazifasi faqatgina ogohlantirish, tushuntirish ekanini, majburlash mumkin emasligini uqtirgan: “Bas, (ey Muhammad! Ummatingizga) eslating! Zotan, Siz (hozircha) faqat eslatuvchidirsiz. Ularning ustidan zo‘ravonlik bilan hukm yurgizuvchi emassiz” *(G‘oshiya, 21-22)* [9].

Diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligi ma’naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yo dinga hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari e’tiqodida aqidaviy farqlar bo‘lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashini anglatadi.

Dinlararo bag‘rikenglik yana shu bilan ham tavsiflanadiki, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik va xalqchillik g‘oyalariga asoslanadi, yaxshilik, to‘g‘rilik, tinchlik, birodarlik, do‘stona munosabat, insonparvarlik kabi tushunchalarga tayanadi. Din yer yuzidagi barcha insonlarni halol va pok yashashga, nopok narsalardan tiyilishga, gunohkor bo‘lishdan saqlanishga, zulm-sitamdan yiroq bo‘lishga, mehr-shafqatli va bag‘rikeng bo‘lishga da’vat etib keladi.

O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega bo‘lib, dunyoviy davlat va din orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan.

Faylasuf olim Q.Nazarovning qayd etishicha, qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yaxudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharimizda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat ko‘rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bO‘lgan xalqlar, qavmlar O‘z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og‘ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo‘lgan emas. Bu – yurtimiz xalqlarining diniy bag‘rikenglik borasida katta tajribaga ega bo‘lganidan dalolat beradi[8].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 16 diniy yo‘nalishga mansub 2220 dan ortiq diniy tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Ularning 2050 tasi, ya’ni 92 foizini musulmon diniy tashkilotlari tashkil etadi. Respublikada, shuningdek, 159 ta nasroniy diniy tashkilotlari, 8 ta yahudiylar va 6 ta bahoiylar jamoalari, bittadan krishnachilar jamiyati va buddaviylar ibodatxonasi mavjud. Respublikada diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Vazirlar Mahkamasi 1998 yil 20 iyunda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy Qonunimizning 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb alohida ta’kidlangan[1]. Ushbu moddani amalga oshirish mexanizmi 1998 yil 1 mayda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunida keng yoritib berilgan. Uning 3-moddasiga ko‘ra, Vijdon

erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir” [2].

Keltirilgan asoslardan ham ko‘rinib turibdiki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, bugungi kunda “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan” [4].

O‘z o‘rnida o‘sib kelayotgan yosh avlodni diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla,ayniqsa, ota-onalarning zimmasida juda katta mas’uliyat bor.

Oila-haqiqiy ma’naviyat o‘chog‘i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an’analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, imon-e’tiqod, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko‘nikmalari shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o‘rni va vazifasini, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o‘zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt takqiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an’analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo‘lgan “jangari” o‘yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik, ana shunday seriallar berilayotgan vaqtda ularni boshqa yumushlar bilan band qilib qo‘yish lozim. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o‘yinlar, o‘yinchoqlar, rasmli kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to‘g‘ri shakllanishida qo‘l keladi. Masalan, bolalar o‘rtasida mashhur bo‘lgan “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh”, “Xo‘ja Nasriddinning sargzashtlari” kabi qator ertaklar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nafrat tuyg‘ularini tarbiyalash, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg‘otishi mumkin.

O‘z o‘rnida oilalardagi ma’naviy muhitni, farzandlar tarbiyasini mahalladan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan mahalla institutini rivojlantirish, barkamol avlodni voyaga yetkazishda, yoshlarni tolerantlik tarbiyalab, mamlakatimizda diniy bag‘rikenglikni ta’minlashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rni katta. 2021 yil mamlakatimizda ilk bor nishonlangan “Mahalla tizimi xodimlari kuni” munosabati bilan O‘zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga yo‘llagan tabrigida qayd

etilganidek, “Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz.

Ayni paytda, yurtimizda yashayotgan har bir inson, millati, tili va dinidan qat’i nazar, o‘z hayotini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi” [5].

Mahallaning ma’naviy tarbiyadagi, mafkura va madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida alohida to‘xtalib o‘tgan: “Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish albatta o‘rinlidir. Malumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va marakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz “Mahalla – ham ota, ham ona” degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz” [7].

Chindan ham azaldan mahalla tarbiya maskani, milliy an’ana va qadriyatlarni rivojlantiruvchi va saqlovchi ijtimoiy institut sifatida amalda namoyon bo‘lib kelgan. Ya’ni mahalla tarbiya maktabi, axloq va ma’naviyat markazi, ta’sirchan mafkura o‘chog‘i vazifasini bajargan. Mahallaning ushbu vazifalari bugungi kunda ham, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla O‘zbekistonga xos davlat bilan fuqarolarni bog‘lovchi islohotlar amaliyotini ta’minlovchi siyosiy-huquqiy vosita bo‘lib, bu orqali davlat va jamiyat munosabatlari tartiblashtirilgan. Shu bois ham ota-bobolarimiz kadimdan mahallaga hurmat bilan qaraganlar, uning yozilmagan, ammo har bir mahalladoshning qon-qoniga singib ketgan tartib qoidalarga so‘zsiz amal qilish shart, deb bilganlar.

Mahalla xalq ma’naviyati bilan chambarchas tushuncha. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida yozilganidek: “Mahallaning xalq ma’naviyati bilan bog‘liq jihatlari haqida so‘z yuritib, ularni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazib, atroflicha tahlil vilar ekanmiz, hech ikilanmasdan aytish kerakki,Yu biz har qaysi xonadon, butun el-yurtimizdagi ma’naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bo‘lsa, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz.

Shu sababli biz ma’naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e’tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an’analarimizni asrab avaylash, ma’naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, yubularning barchasi mahalla idorasiga yanada ko‘proq imkoniyat berish, uning huquqiy va amaliy vakolatlarini kengaytirish bilan bevosita aloqador ekanini o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Shu orqali biz o‘zimizning ezgu maqsadimiz bo‘lmish erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida, hech shubhasiz, ulkan qadam qo‘ygan bo‘lamiz” [7]

Oila, mahalla ta’lim muassasasi hamkorlik konsepsiyasida ilgari surilgan g‘oyalar amalga oshirilsa, u davlat miqyosidagi eng katta vazifa bo‘lmish yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, yurtimiz taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir sog‘lom va barkamol avlod shakllantirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning eng qulay yo‘li- avvalo ota-onalarning ma’naviy bilim saviyasini oshirish, ularda sog‘lom tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ota-onaning farzand oldidagi, el-yurt oldidagi burchining to‘g‘ri anglashni insonning dunyoga kelishi va kamol topib rivojlanishiga oid qonuniyatlarni puxta bilishini, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an’analarimizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga mehr-muhabbat uyg‘otish, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqazo etadi. Binobarin, ota-onalik shunday mas’ulyatli vazifaki, uning jamiyatimiz manfaatiga mos tarzda amalga oshirilishi uchun inson ham ma’naviy jihatdan, ham psixologik jixatdan tayyor bo‘lishi kerak.

Ezgulik dini bo‘lgan islomda ham sog‘lom turmush tarzining tayanchi bo‘lgan oila muqaddas hisoblanib, farzandning ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki bola navnihol kabidir. Uni qay tomonga egsa, shunga moyil bo‘lib o‘sadi. Shu bois, bolaga go‘zal tarbiya berib kamolot sari yetaklashda, uni turli salbiy tashqi ta’sirlardan asrashda ota-onaning o‘rni beqiyos. Zero, ota-onaning farzand ne’matiga bo‘lgan shukronasi ham aynan uning qanday tarbiya berishi orqali namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, g‘oyalar kurashi avj olgan bugungi kunimizda yosh avlod ma’naviyatiga tajovuz solayotgan tahdidlar qatorida, dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Bunday kuchlar farzandlarimiz ongi va qalbini zabt etish maqsadida har qanday qabih yo‘llardan foydalanishga urinmoqda. Din bayrog‘i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo‘poruvchilik harakatlarini sodir etayotgan, jamiyatga har tomonlama zarar yetkazayotgan bunday harakatlar voyaga yetmagan yoshlar orasida millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Islom dini azaldan insoniyatga asl muruvvatni, hatto o‘zga din vakillariga ehtirom hamda bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatib, ular bilan tinch-totuv yashashga, fitna va turli adovatlarga barham berishgachaqirgan. Xususan, Qur’oni karimning “Baqara” surasi 205-oyatida “Alloh buzg‘unchilik – fasodni sevmaydi”deyilgan[9]. Hadislardaham “Sendan maslahat so‘ragan kishiga to‘g‘ri (yo‘l) ko‘rsat, aks holda, unga xiyonat qilgan bo‘lasan” hamda “Yaxshilikka undovchi odam, yaxshilik qilgan kabidir”, deb ta’kidlangan.

Shuningdek, kelajak avlodni insonparvarlik, ezgulik ruhida tarbiyalashda diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg‘unlashuvi, oiladagi va jamiyatdagi muhitning tarbiyaviy ta’siri beqiyos o‘rin tutadi. Ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida shakllantirilgan va asrlar osha sayqallanib kelayotgan ma’naviy merosimiz bo‘lgan diniy qadriyatlar yoshlar dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Yuqorida qayd etilganidek, diniy qadriyat juda keng ma’noga ega bo‘lib, o‘z ichiga ijtimoiy va diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, o‘zaro hamkorlik, olijanoblik, saxiylik kabi ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni qamrab oladi. Aynan diniy bag‘rikenglik, ya’ni har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarash, sabr-bardosh va toqatli bo‘lish o‘z navbatida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ko‘pgina ixtiloflarning oldini olishga xizmat qiladi. Zero, bag‘rikenglik ruhida tarbiya topgan farzand ongida o‘zga madaniyatlardan hurkib turish emas, balki ularga kengfe’llik bilan qarash va qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, o‘zaro tushunish instinkti shakllanadi.

Shu bois 2017 yilning 15 iyun kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan anjuman ham “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusiga bagishlangan edi. Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik” mavzusida nutq so‘zlab,o‘z nutqida jumladan shunday degan edi: “Kun tartibiga qo‘yilgan masala, ya’ni, ijtimoiy-ma’naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo‘q” [6].

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugun aynan shu masalalar Vatanimizning, yoshlarimizning bugungi va ertangi kunini, ularning taqdirini, bir so‘z bilan aytganda, hayot-mamotini hal qilishi hech kimga sir emas.

Aslida ham Alloh taolo inson zotini dini, millati, irqidan qat’iy nazar mukarram ekanligini ta’kidlab: “Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik va ularni quruqligu dengizda (ulov-la) ko‘tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni O‘zimiz yaratgan ko‘p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo‘ydik” (Isro, 70), deya marhamat qilib olamdagi odam bolalarini u kim bo‘lishidan qat’i nazar aziz va mukarram qilganini xabarini bergan[9].

Xulosa sifatida aytish mumkiknki, o‘z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo‘lgan intellektual va ma’naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik” deb nomlangan nutqidagi quyidagi fikrlarini yuqoridagi fi kr mulohazalarning yakuni sifatida keltirib o‘tmoqchimiz: “Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir”, deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas. Biz, ko‘pincha bolam maktabda, o‘qishda yoki chet elda ishlayapti, deb xotirjam yuribmiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorlik bilan foydalanmoqda. Bizning jonu jahonimiz bo‘lgan farzandimiz dushmanlar qo‘lida qurolga aylanib qolsa, buning uchun avvalo kim aybdor? O‘zimiz emasmi?

Keyingi yillarda xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan “O‘z uyingni o‘zing asra!” degan da’vatga bugun “O‘z bolangni o‘zing asra!” deb qo‘shimcha kiritish vaqti keldi, deb o‘ylayman. Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo‘lsa, jazoni o‘tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag‘riga, to‘g‘ri yo‘lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman” [6].

Demak, bu borada ham yana mas’uliyat birinchi navbatda oila, mahalla zimmasiga tushadi. Shu o‘rinda 2022 yilning mamlakatimizda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilinishi ham bu institutlar zimmasidagi mas’uliyatni yanada oshirdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mohiyatan olib qaraganda, yilning bunday nomlanishi zamirida ham bag‘rikenglik tamoyili mujassam. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Inson qadrini ulug‘lash — yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Mahalla obod bo‘lsa mamlakat obod bo‘ladi” [3].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalqimizning azaliy an’analari, urf-odatlari, udumlari, tili, dini, ruhiyati, umuman milliy qadriyatlarimiz asosan ildiz otib, tub qo‘yib, palak yozib rivojlanayotgan maskanlar – bu oila va mahallalardir.

Oilada ota-onalar, bobo-buvilar, mahallalarda oqsoqollar, faollar, mahalla kengashlari a'zolari o'zlarining jamiyatimizda tutgan o'z imkoniyatlaridan, ortib borayotgan nufuzlaridan samarali foydalanib, milliy mafkuramiz oldida turgan muhim, dolzarb vazifalarni amalga oshirishga munosib hissa qo'shishga astoydil bel bog'lab, jiddiy kurashishlari darkor.

Yuqoridagi tahlil va xulosalarga tayangan holda ushbu taklif va mulohazalarni tavsiya etishni o'rinli deb topdik:

- Eng avvalo, mahallaning keng xalq ommasi, shu jumladan o'quvchi yoshlar hayotiga yaqin borish imkoniyatlaridan to'la foydalanishga erishish, buborada yangi uslub va shakllarini ishlab chiqish;
- Ta'lim muassasalarida ijtimoiy tadqiqot guruhlarini tashkil etib, ta'lim muassasasiga biriktirilgan mahalla faollari bilan hamkorlikda ushbu guruhlar faoliyatini jonlantirish;
- Doimiy ravishda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasining tuman va shahar bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi, "Nuroniy", "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla" jamg'armalari mutasaddilari, imom -xatiblar bilan hamkorlikda ta'lim muassasalarida iymon-e'tiqod, diniy bag'rikenglik, mehr-oqibat, or-nomus, o'zbekona tartiblar, jamoa – mahalla bo'lib yashash qoidalari, o'zbekona urf-odatlar, an'anaviy hamda umuminsoniy qadriyatlar, milliy tafakkur va mafkura, tarbiya, axloq, ma'rifat va ma'naviyat masalalarida maxsus dasturlar asosida muntazam suhbatlar, tadbirlar o'tkazib borish;
- Mahallalarda yashovchi turli dinga va millatga mansub bo'lgan tabarruk yoshdagi faxriylarning uylariga muntazam o'quvchilarning tashrifini uyushtirish;
- Diniy bag'rikenglikni amalda ta'minlash aqsadida faqat ta'lim muassasalari tashabbusi bilangina emas,balki, mahalla fuqarolar yig'inlari tashabbusi bilan mahalla yoshlarining turli tarixiy qadamjonlarga tashrifini uyushtirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –Б. 8.

2. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни.//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 52-сон, 513-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон)

3. Шавкат Мирзиёев. Ўзбекистон халқига янги йил табриги//Халқ сўзи, 2022 йил, 1 январь, №1(8063) сон.

4. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б.303.

5. Шавкат Мирзиёев.Ўзбекистон маҳалла тизими ходимлари ва фаолларига /Халқ сўзи, 2021 йил, 22 март, №58-сон.

6. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнда бўлиб ўтган “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. – //Халқ сўзи, 2017 йил, 16 июнь.

7. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил. Б. 59,60.

8. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати/Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти; таҳрир ҳайъати: Х. Суотонов ва бошқ.; тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – Б. 66.

9. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. –T.: Toshkent Islom universiteti, 2001 . –B. 34,128.

TABIATNING SHOIRONA TASVIRI

Yoqubova S.I. – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid she’riyatidagi tabiat tasviri bilan bog‘liq ramziy ifodalar tadqiq etilgan. Unda jadid adabiyotining yetuk vakili Cho‘lpon she’riyatidagi tabiat tasviri, uning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Jadid shoirlari ijodida tuyg‘u va kechinma ifodasida tabiat tasviri bilan bog‘liq ramziylikning o‘rni atroflicha o‘rganiladi. Shu orqali muallif peyzaj, poetik ifoda, o‘ziga xoslik singari masalalar haqida muayyan fikr-mulohazalarni ilgari suradi. Maqolada ilgari surilgan fikrlar muxtasar holda umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: she’riy asar, adabiy janr, tuyg‘u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, o‘ziga xoslik.

ПОЭТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПРИРОДЫ

Якубова С.И. - базовый докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье рассматриваются символические выражения, связанные с изображением природы в джадидской поэзии. Анализируются образ природы в поэзии Чолпона, ведущего представителя

джадидской литературы, и его содержание. Подробно исследуется роль символики в выражении эмоций и переживаний в произведениях современных поэтов. Таким образом, автор выдвигает определенные идеи по таким вопросам, как пейзаж, поэтическое выражение, оригинальность. Кратко изложены идеи, выдвинутые в статье.

Ключевые слова: поэтическое произведение, литературный жанр, эмоции и переживания, лирический герой, искусство, образ, выражение, образность, символ, оригинальность.

POETICAL DESCRIPTION OF NATURE

Yakubova S.I. - Basic doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Annotation. This article deals with the symbolic expressions associated with the depiction of nature in Jadid poetry. The image of nature in the poetry of Cholpon, the leading representative of the Jadid literature, and its content are analyzed. The role of symbolism in the expression of emotions and experiences in the works of modern poets is studied in detail. Thus, the author puts forward certain ideas on issues such as landscape, poetic expression, originality. The ideas put forward in the article are briefly outlined.

Key words: poetic work, literary genre, emotions and experiences, lyrical hero, art, image, expression, imagery, symbol, originality.

Sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotining an’analari mavjud bo‘lib, har bir ijodkor bu an’analarni o‘ziga xos tarzda davom ettiradi va muayyan darajada rivojlantiradi. Shulardan biri peyzaj tasviri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida peyzaj masalasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Erkinov (7), N.Yo‘ldoshev (2) kabi olimlarning monografik harakterdagi ilmiy ishlarida bu masala maxsus o‘rganilgan.

Tabiat tasviri bilan bog‘liq obrazlarning adabiyotimizga kirib kelishi uzoq davrlв arga borib taqaladi. Bunday obrazlar dastlab xalq qo‘shiqlari, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida uchraydi. Yozma adabiyot taraqqiy etgach, shoirlarimiz peyzajga shunchaki manzara sifatida qarash bilan cheklanmay, o‘z davrining turli masalalarini, olam va odamga munosabatini ifodalovchi vosita sifatida qarashdi va ular ijodida tabiat tasviri alohida ahamiyat kasb eta boshladi. “Peyzaj tasviri mohiyatsiz o‘z-o‘zicha bir hodisa emas, balki u falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g‘oya, maqsadni ifoda etish uchun o‘ziga xos vosita rolini o‘taydi” (3.23).

Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy kabi shoirlarimiz ijodida tabiat tasvirining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy “Hamsa”da Farhod, Layli, Majnun, Bahrom, Iskandar kabi qahramonlarining ruhiyatini ochishda peyzajdan mahorat bilan foydalangan [9]. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonida tabiat tasviri va Iskandarning tuyg‘ulari o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanadi. “Qish va bahor tasvirlarining dostonga olib kirilishi Navoiyning Iskandarga bo‘lgan ikki jihatdan munosabati bilan ham bog‘langandir. Navoiy Iskandarning ijobiy ishlarini quvvatlaydi, unga bahorni hamroh etadi, uning ishlaridan ko‘ngli to‘lmaganida esa qish vositasida unga monelik qiladi“ (8. 42).

Muhammad Rizo Ogahiy ham peyzaj yaratish an’anasini mahorat bilan davom ettiradi, ayniqsa, uning fasllar vasfiga bag‘ishlangan she’rlari e’tiborga molikdir:

Navbahor ayyomi bo‘lsa har kim aysh-u bog‘siz,
Loladek bir lahza g‘amdin ko‘ngli ermas dog‘siz.

Kimsa bo‘lsa bog‘-u bo‘stonsiz, agar fasli bahor,
O‘yla nahlidurki bo‘lg‘oy shoha-u yafrog‘siz. (6. 220).

Ogahiyning bahor tasviriga bag‘ishlangan mazkur g‘azalida g‘amginlik ruhi mujassamdir. Undagi navbahor, lola, bog‘, bo‘ston, shox, yaproq so‘z-tushunchalari orqali g‘amginlik, mahzunlik, shuningdek, muayyan darajada norozilik tuyg‘ulari ham ifodalanadi. She’rda tabiatning bahor ayyomidagi go‘zal manzarasi-yu, jamiyatdagi iqtisodiy nochor insonlar hayoti bir-biriga qarshi qo‘yiladi. Tabiat manzarasi va inson taqdiri bog‘liqlikda aks ettiriladi (5. 85).

Mumtoz she’riyatda uzoq asrlar davom etib kelgan peyzaj bilan bog‘liq an’analar XX asrda ham ijodkorlarimiz tomonidan davom ettirilgan. Bu davrda o‘zbek she’riyatida asosan, inson dardini tabiat voqea-hodisalariga bog‘lab tasvirlangan she’rlarni uchratamiz. Bu an’analar jadid shoirlarining ko‘pchiligi qatori Cho‘lpon she’riyatida ham ijodiy davom ettirildi. Bunga Cho‘lponning “Somon parcha”, “Yorug‘ yulduzga”, “Ko‘klam qayg‘usi”, “Po‘rtana”, “Binafsha”, “Kuz”, “Tun” she’rlarini misol qilishimiz mumkin.

“…Cho‘lpon she’rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatinigina emas, qay bir darajada g‘oya va maslagini ham o‘zida namoyon etadi. 1921-1923 yillarda yozilgan she’rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi“ (11.289). Bu fikrlar tasdig‘ini shoir ijodidan ko‘plab misollar orqali kuzatishimiz mumkin. Cho‘lponning “Sharq nuri”deya atalgan she’ridagi quyidagi misralarga ga e’tibor qaratamiz:

Sharqning kuni kirsa bulut ostiga,
Sening so‘nuk kunlaringni o‘ylayman.
Botib borgan oyga qarab:”Ay yo‘qsul,

U ulug‘ nur senmasmu?”- deb so‘rayman (12. 378).

Ushbu satrlarda bulut, nur, oy kabi an’anaviy ramzlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.Tilimizning jozibasi, ranginligi, naqadar boyligini namoyon etgan shoir millat boshiga kelgan qora kunlardan chuqur iztirob chekadi. Shoir yurtining qayg‘uli kunlarini botayotgan kunga, ya’ni, quyoshga, bulutga to‘la osmonga qiyoslaydi. Shoir lirik qahramoni taqdir oldida taslim bo‘lishni istamay ulug‘ nurdan ya’ni vatanining yorug‘ kunlaridan umidvorlik tuyg‘usini hamisha his qilib yashaydi.

To‘g‘rilik quyoshi chiqqanda bo‘shalib,
O‘z uchmohimga o‘zim kirayin!... (12. 381).

“Mening tovushim” she’ridan olingan misralarda esa shoir quyosh ramzidan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Shoir qachonlardir, to‘g‘rilik quyoshi chiqishini, millat o‘z orzusidagi hayotga erishishini chin yurakdan tilaydi va ana shu kunlar kelganda o‘zini jannatdagidek his qilishiga ishonadi. U o‘zini xalqdan ajratmaydi, uning bir zarrasi deb biladi.

Cho‘lponning tabiat tasviriga bag‘ishlangan she’rlarining ko‘pchiligining botinida ham erk haqidagi orzularini ko‘rishimiz mumkin:

Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri,
Bu yerdan ko‘klarga uchgil (12. 452).

Cho‘lpon tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik va hamohanglik zarur ekanligini, bu jamiyat va insoniyat uchun tabiiy ehtiyoj ekanligini kuyinib yozadi. “Somon parcha” she’rida ham shu holat yaqqol namoyon bo‘ladi:

Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho‘pidek oqib boraman
Har amal, har ishni “haq” deb boraman,
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha (12.481).

“Binafsha” she’ridan farqli o‘laroq “Somon parcha” she’rida taslimlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ya’ni kurashlardan charchab, o‘zini muhit erkiga topshirgan inson qiyofasini somon parcha misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Barg” she’rida esa:

O‘pmayman shu chog‘da farishta malakni,
O‘paman butoqda titragan bir bargni (12. 436).

deya go‘zal misralarni bitadi. Cho‘lpon go‘zallikda farishtalardek malaklardan ko‘ra butoqda titrab turgan bargni afzal ko‘radi. Barg - tiriklik, yasharish faslining, umrning gullagan paytining ramzi. Lekin kuz shamoli nashtarini sanchib bargni yaproqqa aylantiradi. Yaproq esa xazon bo‘lish, inson umrining boqiy emasligi ramzidir. Tabiat sirlarini tushunish insonga hayot hodisalarining mohiyatini anglashda ham katta yordam berishini yaxshi tushungan shoir o‘z she’rlarida xilma-xil betakror tabiat lavhalarini yaratadi [4].

Cho‘lponning peyzaj lirikasida “Ko‘klam qayg‘usi” she’ri alohida ajralib turadi. Qish xayolidan endigina qutila boshlagan lirik qahramon ko‘klam payti uqubatli uzun qish kechalarini eslashniyam xohlamaydi. Ammo orziqib kutgan ko‘klam ham unchalik quvonchli emas[10]. Shoir bu holatni “Ko‘klam chog‘i … Sayroq bulbul sayramas, Na uchunkim, tanburimning tili yo‘q” – deya tasvirlaydi. She’rning keyingi misralari nafaqat g‘oyaviy o‘nalishi? Balki obraz va ifodalarga boyligi bilan ham e’tiborga molikdir.

Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?
Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?
Yolg‘iz menmi ko‘kragimni tig‘lagan?
Yolg‘iz menmi sevinch bilan bo‘lmagan?
Ey ko‘klamning ko‘z tortg‘uvchi kelini,
Nima uchun yig‘latasan bir meni? …(12. 451)

She’rda bir jihatdan ko‘klam paytidagi tushkun holat, ikkinchi tomondan esa bahorning betakror go‘zalligi mahorat bilan tasvirlangan. Iztirob, yig‘i, aldanish singari tuyg‘ular lirik qahramon qalbiga azob beradi. Ko‘klamdan katta umidlar kutgan lirik qahramon o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Uning orzusi xalqini erkin va ozod ko‘rishdir. Mazkur o‘rinda ko‘klam, qish ramzlari orqali shoir o‘z qarashlarini shoirona ifoda etgan. Tajohilu orif san’ati mahorat bilan qo‘llanilgan[1].

Umuman, Cho‘lpon qaysi mavzuda qalam tebratmasin millatparvar lirik qahramon siymosini mohirona chizadi. Uning peyzaj lirikasida ham bu jihat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Akramov B. Cho‘lpon chindan murakkabmi? / O‘z. A. S. , 1990, 13- iyul
2. Yo‘ldoshev N. Cho‘lpon she’riyatida peyzaj. Filologiya fanlari nomzodi…diss. avtoreferati. - T., 1994
3. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T., 1983
4. Karimov N. Cho‘lpon. – T., 1991
5. Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2010
6. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va san’at, 1971
7. Turdiyev Sh. Tong yulduzi qismati. Yoshlik, 1991. № 3
8. Erkinov A. Navoiyning peyzaj yaratish mahorati. – T., 1990
9. Erkinov A. Navoiy - peyzaj ustasi. – T.: Fan, 1988
10. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. – T., 1991
11. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004
12. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 1991

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA’LIMNING VAZIFALARI VA UNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Xakimova Y.T. – Qo‘qon davlat pedagogika instituti informatika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy o‘qitishning vazifalari, ta’lim jarayonini boshqarish tizimlari va masofaviy o‘qitishni tashkil etishning pedagogik, psixologik, didaktik va ijtimoiy jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy o‘qitish, pedagogik, psixologik, ijtimoiy, didaktik, LMS, individual tezlik, sharhli o‘qitish.

ЗАДАЧИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЕГО ОРГАНИЗАЦИИ

Хакимова Ю.Т.- преподаватель кафедры информатики Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. В статье описаны задачи дистанционного обучения в высших учебных заведениях, системы управления учебным процессом и педагогические, психолого-дидактические и социальные аспекты организации дистанционного обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, педагогическое, психологическое, социальное, дидактическое, LMS, индивидуальная скорость, комментарное обучение.

TASKS OF DISTANCE LEARNING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF ITS ORGANIZATION

Khakimova Yo.T. - Teacher of Informatics Department of Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. The article describes the tasks of distance learning in higher education institutions, educational process management systems and pedagogical, psychological, didactic and social aspects of the organization of distance learning.

Key words: distance learning, pedagogical, psychological, social, didactic, LMS, individual speed, commentary learning.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni [1] qabul qilindi va bu qaror asosida aytish mumkinki, oliy ta’lim muassalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish ahamiyatli yangilik bo‘ldi. Pandemiya sharoitida 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish kutilmagan va ko‘p jihatdan majburiy tezlashuvni qamrab oldi. Muammolarga yetarlicha javob berish uchun butun ta’lim tizimini, shu jumladan, nafaqat oliy ta’limni, balki o‘rta maktabni va hatto maktabgacha ta’lim muassasalarida ham zudlik bilan masofaviy ta’limni joriy qilish kerak edi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekistonning ta’lim tizimi raqamli va masofaviy ta’lim tamoyillari asosida qayta qurilmoqdi hamda ishga tushirilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda masofaviy o‘qitish jarayonini tasvirlashdan uni qurishga o‘tish jarayoni jadal rivojlanmoqda, va bunda didaktikaning konstruktiv-texnik funksiyasi amalga oshirilmoqda. Har ikkala funksiya bir biri bilan o‘zaro bog‘liqligi shubhasiz fakt hisobdanadi biroq asosiy e’tibor masofaviy ta’limning oliy ta’lim muassasasi talabalarini o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy funksiyalariga qaratilishi lozim.

Oliy ta’lim muassalarida masofaviy o‘qitishning asosiy funksiyalari (vazifalari):

- masofaviy ta’lim tizimida bilim darajasi va o‘qitish statistikasi dinamikasini aks ettirilishi kerak;
- masofaviy ta’lim tizimi o‘qituvchiga dars rejalari, didaktik materialni va boshqalarni yaratish uchun sharoitlarga moslashuvchan va rivojlangan vositalar bo‘lishi kerak;
- masofaviy ta’limda o‘rganiladigan barcha fanlar bo‘yicha tahsil oluvchilar bilimini tekshirish funksiyasi zarur;
- axborot-texnologiyalari va virtual portal yordamida bilimlarni mustaqil tekshirish funksiyasi zarur;
- masofaviy ta’lim tizimi jamoaviy ish, mahalliy va global tarmoq ishtirokchilarining muloqotini qo‘llab-quvvatlashi kerak;
- boshqaruv funksiyasi: masofaviy ta’limning tematik rejalari, o‘quv dasturlari, dars jadvallarini tuzish, pedagogik yuklamani hisoblash.

Masofaviy ta’limningning har qanday tizimi – bu barcha masofaviy ta’lim tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish uchun, ko‘pincha kunduzgi, sirtqi va kechki dasturlar bilan birgalikda foydalaniladigan tizimli axborot majmuasidir. Chet elda bunday tizimlar odatda “Ta’limni boshqarish tizimi” LMS (Learning Management System) deb nomlanadi, bu ularning kengaytirilgan funksionalligini va butun ta’lim muassasasi ishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonini boshqarish tizimi LMS (Learning Management System) quyidagilarga imkon beradi:

ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha tizimni tashkil etish;

o‘quv ishlarini tashkil etish va korporativ markazlarda, tijorat tashkilotlarida ishlash uchun xodimlar va talabnoma beruvchilarning malakasini sinovdan o‘tkazish;

talabalar ma’lum bir kurslarga obuna bo‘lganlarida, o‘qituvchilardan uslubiy ko‘rsatmalar va maslahatlarni olganlarida va test topshiriqlarining ma’lum bir to‘plamini bajarganlarida masofadan o‘qitishni o‘tkazish;

ta’lim markazlari, kurslar va universitetlardagi o‘quv jarayonini boshqarish, sinovdan o‘tkazish va malaka oshirish, ta’lim sifatini oshirish, bir vaqtning o‘zida o‘qitiladigan talabalar sonini ko‘paytirish.

Oliy ta’lim muassalarida masofaviy o‘qitish tizimi quyidagi vazifalarni bajarish va shu maqsadlarga erishish uchun ishlatiladi:

- ta’lim jarayonini boshqarishni avtomatlashtirish va markazlashtirish;

talabalarga kursga kirish imkoniyatini ta’minlash uchun o‘quv materiallarini joylashtirish;

- masofaviy o‘qitish texnologiyalarining standartlari dolzarbligini saqlash;
- o‘quv materiallarini qayta ishlatilishini ta’minlash, ta’lim mazmunini shaxsiylashtirish;
- ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyatlari va vositalarini kengaytirish;
- ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quv harajatlarini kamaytirish. Ta’lim jarayonini tezlashtirish;
- ta’lim dasturlarini amalga oshirish samaradorligi monitoringini soddalashtirish[3].

Oliy ta’lim muassasasida talabalar uchun masofaviy o‘qitish jarayoni doirasida o‘qitishni tashkil qilish talabalarning mustaqilligi, ijodiy harakatlari va imkoniyatlarini faollashtirishga qaratilgan. Bunday o‘qitish asosida tarmoqning axborot resurslari manbasi bo‘lmish bilimlarni uzatish tizimi yotadi. Talabalarni tayyorlash ikki komponentdan iborat bo‘lib ularni shartli ravishda doimiy va o‘zgaruvchan deb atash mumkin. Doimiy tarkibiy qism o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari, materialni o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar va o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollarni o‘z ichiga oladi. O‘zgaruvchi komponent nazorat savollariga javoblar yuzasidan yozishmalar, turli izohlar, fikrlar va mulohazalarni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim muassasasida masofaviy o‘qitish jarayonidagi talabalarni masofaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanishdagi ustunlik jihatlari quyidagilardan iborat: bilim olishning individual tezligini ta’minlash; sharhli o‘qitish usulidan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish; bilish faoliyatini

individuallashtirish, kompetentlikka asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil qilish.

Masofaviy o‘qitish jarayonida talabalarni o‘qitishdagi masofaviy ta’limning samaradorligiga ijtimoiy, psixologik, pedagogik va didaktik jihatlarni birlashtirish orqali erishish mumkin.

Ijtimoiy jihat tarkibiga ekologiya, global iqlim o‘zgarishi, ekologik biznes va O‘zbekiston iqtisodiyoti va ekologik siyosati rivojlanishining hozirgi an’analarini sohalardagi bilimlarni kiritish mumkin.

Psixologik-pedagogik jihatdan pedagog va tahsil oluvchilarning o‘zaro munosabatlari, o‘quv jarayonidagi obyekt-subyekt munosabatlari hamda talabalarni o‘qitishdagi didaktik ta’minotining amalga oshirilishi aks ettiriladi.

Masofaviy ta’limning didaktik jihatiga talabalarning masofaviy o‘qitish jarayonini metodik ta’minoti, ta’limda axborot-telekommunikatsiya tizimlari va vositalaridan foydalanish (interfaol ma’lumotnomalar, kompyuter modellari, tarmoq amaliyotlari (praktikumlari), test olish tizimlari, axborot portallari va boshqalar) kiradi[2].

Talabalarga masofaviy ta’lim berishni tashkil qilishda operasion komponentning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ko‘p bosqichli mustaqil ishlarni, shuningdek, glossariy, ma’lumotlar bazalari, test nazorati, individual test treninglarini ishlab chiqish va hokazolarni qo‘llashga alohida e’tibor beriladi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalaridagi tajribalar, oliy ta’lim muassasasida talabalarni masofaviy o‘qitishdagi metodologik va texnologik ta’minlanganlik darajasini yaxlit konsepsiyasining mavjudligi, tahsil oluvchilarni o‘qitishning turli bosqichlarida masofaviy ta’limning boshqaruvini takomillashtirish, masofaviy makon subyektlarini birlashtirishni amalga oshirish imkonini beradi, deb xulosa chiqarish mumkin [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-son farmoni O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi tub o‘zgarishlarning huquqiy asoslari markaziga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qaroriga binoan, hududlarda yangi oliy o‘quv yurtlarini yaratish, kadrlar tayyorlash bo‘yicha zamonaviy ta’lim va ixtisoslashtirish sohalarini, shuningdek, sirtqi va kechki ta’lim bo‘limlarini ochish, oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalarini ko‘paytirish muhim islohotlardan bo‘lib qoldi. Endi ta’lim sohasida zamonaviy aralash shakllarni o‘z ichiga olgan o‘qitishning zamonaviy shakllarini joriy etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Samarali innovatsiyalarni kuchaytirish, tartibga solish tomonidan ta’lim berish ham dolzarb vazifadir.

Yurtimizda axborot-texnologiyalari kirib bormagan soha qolmadi. Bu esa, O‘zbekiston Respublikasida ham, informatika yo‘nalishiga bo‘lgan ehtiyojni faol rivojlanayotganligini aks etiradi [6]. Xususan, 2020 yilning “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlanishi bilan isbotlandi. Binobarin, axborot-texnologiyalarga qaratilgan ko‘plab tadbirlar mamlakat fuqarolarining axborot madaniyatini ta’minlaydi va qaysi bir jabhani olmaylik qulaylik, oshkoralik va tezkorlik bobida zamonaviy axborot-texnologiyalari yangilanishlarning muhim omiliga aylanib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bois, yurtimizda iqtisodiy-barqarorlik, ijtimoiy farovonlikni ta’minlash, aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun barcha jabhaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, eng avvalo, sohaning huquqiy asoslarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Xususan, o‘tgan davrda “Axborotlashtirish to‘g‘risida” “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”, “Elektron hukumat to‘g‘risida” bir qator qonunlar qabul qilingani buning tasdig‘idir. Axborot-texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo‘llash davlatimizning yaqin hamda uzoq muddatga mo‘ljallangan muhim strategik vazifalari qatorida turganini alohida qayd etish joiz [4].

Biroq, oliy ta’limda o‘qitish tajribasi so‘nggi yillarda fundamental ta’limga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga, ayniqsa, hozirgi zamonda, odamlarning yashash sharoiti doimiy dinamikada bo‘lgan sharoitda, har doim ham tayyor emasligini ko‘rsatdi. Maktab o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy tafakkuri va tarbiyasi hamon past darajadaligicha qolmoqda. Buning natijasida, ular hayotga umuman oqilona munosabatda bo‘lmaydilar. Bizning tadqiqotlarimiz uchun bu juda muhimdir, chunki bugungi kunda insoniyat tafakkuri, ayniqsa, u tarixiy ong bilan to‘qnashgan holda, dolzarb hisoblanadi va shuning uchun talabalar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olganidan keyin o‘z malakalarini oshirish uchun ixtiyoriy va muntazam ravishda masofaviy o‘qishlari kerak [5]. Ular Qonunchilik, standartlar va qoidalarni puxta bilishlari hamda raqamli texnologiyalar, kompyuter grafikasi, hamda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan jarayonlar haqidagi bilimlar darajasini oshirishlari lozim; bilimlarni baholash tartibini bilishi va uni amalda qo‘llay olish, o‘qitish monitoring usullarini egallashi; AKT sohasidagi zamonaviy, xorijiy va mahalliy tajribani tushunish, shuningdek, AKT bo‘yicha zarur hisobot va hujjatlarni tuza olishi; kompyuterda modellashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; eng yangi axborot-texnologiyalari bilan ishlashni bilishlari zarur [7].

Kompetentli axborot-kommunikatsion texnologiyalari mutaxassisi o‘zini tuta bilish, moslashuvchanlik, fuqarolik jasorati (mansabdor shaxslarning harakatlariga

qarshi turish uchun), ichki intizom, mas’uliyat, aniqlik, tahliliy fikrlash, jamoada ishlay olish qobiliyati, mustaqillik kabi kasbiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” фармони.
2. Арипов М., Тиллаев А. Масофавий таълим // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2002 – №2. – Б. 12-18.
3. Абдуқодиров А.А. Масофали ўқитиш моделлари ва уларнинг синфлари // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2000. – №5. – Б. 50-56.
4. Боқиев Р.Р. Электрон-ўқув методик материалларни ишлаб чиқариш ва қўллашнинг дидактик ва психофизиологик жиҳатлари // Педагогик маҳорат. – Тошкент, 2005. – № 2. – Б. 62-65.
5. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Пед.фан.док. ...дисс. – Т., 2007. – 305 б.
6. Маматов Д.Н. Электрон ахборот муҳитида касбий таълим жараёнларини педагогик лойиҳалаштириш: Дис. ... пед. фан. бўйича фал. док. – Тошкент, 2017. – 150 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 22.

BUYUK SIYMOLAR TOMONIDAN YARATILGAN TARIXIY, ILMIY VA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TA’LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYALASH

Yuldasheva N.S. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Hamidova N.T. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vatani tarixini yaxshi bilishi lozimligini yoshlar adabiyot orqali chuqur anglaydilar va buyuk siymolarning tarixiy qadriyatlaridan foydalanishning didaktik tizimi, pedagogik-psixologik imkoniyatlarini o‘rganish orqali ko‘zlangan maqsadiga erishadilar. Shu bois badiiy adabiyotda tarixga murojaat qilish doimo dolzarb hisoblanadi, buning ustiga istiqlol davrida adabiyotda yosh avlodni o‘z o‘tmishi bilan tanishtirish, undan faxrlanish tuyg‘usini o‘stirish imkoniyati ko‘pligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ajdodlar merosi, buyuk siymolar, pedagogik-psixologik imkoniyatlar, didaktik tizim, tarixiy qadriyatlar.

ИНТЕГРАЦИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ИСТОРИЧЕСКИХ, НАУЧНЫХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ, СОЗДАННЫХ ВЕЛИКИМИ ДЕЯТЕЛЯМИ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

Юлдашева Н.С. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета
Хамидова Н.Т. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В этой статье молодые люди получат более глубокое понимание необходимости познания истории Родины через литературу, и достигнут своей цели, изучая дидактическую систему, педагогические и психологические возможности использования исторических ценностей великих деятелей. Именно поэтому всегда актуально обращение к истории в художественной литературе, а в период независимости в литературе было много возможностей познакомить подрастающее поколение со своим прошлым и воспитать чувство гордости за него.

Ключевые слова: наследие предков, великие деятели, педагогические и психологические возможности, дидактическая система, исторические ценности.

INTEGRATION INTO THE EDUCATIONAL PROCESS OF HISTORICAL, SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL VALUES CREATED BY GREAT FIGURES ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES

Yuldasheva N.S. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University
Hamidova N.T. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. In this article, young people will gain a deeper understanding of the need to know the history of the Motherland through literature, and will achieve its goal by studying the didactic system, pedagogical and psychological possibilities of using the historical values of great figures. That is why it is always relevant to refer to history in fiction, and during the independence period, there were many opportunities in literature to acquaint the younger generation with their past and to develop a sense of pride in it.

Key words: ancestral heritage, great figures, pedagogical and psychological possibilities, didactic system, historical values.

Mustaqillik xalqimizning milliy tiklanishini ta’minlab berdi, ommani birlashtirib, xalq sifatida milliy istiqlol g‘oyasi sifatida milliy istiqlol g‘oyasi atrofida jipslashtiradi - deb yurtboshimiz, biz yoshlarga yangi ijodiy va ilmiy yangiliklar,

izlanishlar olib borishimiz. Milliy yuksalish g‘oyasi islohotlar kim uchun va nima uchunligini, ahamiyatini ochib beradi. Oliy ta’lim tizimida, muassasalarida buyuk siymolarimizning tarixiy qadriyatlaridan foydalanishning didaktik tizimini va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to‘liq moslashtirishga ko‘maklashuvchi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ta’lim oluvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan. Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri - ularda kasbiy faoliyatga nisbatan kreativ yondoshuvni rivojlantirishdan iborat[1].

Didaktik tizimning o‘zi nima? - degan savolga biz quyidagicha javob berishimiz mumkin. Didaktika (ta’lim nazariyasi: yunoncha so‘z bo‘lib, “didaktikos” “o‘rgatuvchi”, “didasko” esa – “o‘rganuvchi” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolar)ni o‘rganuvchi fan[2].

Pedagogika fani ta’lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o‘rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko‘rsatadilar. Hozirgi davrda didaktika o‘qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi[3].

Oliy ta’lim muassasalarida yoxud bo‘lajak o‘qituvchilarga buyuk siymolarning ilmiy-pedagogik qarashlarini o‘rgatishning didaktik tizimini takomillashtirishda bugungi kunda qanday yangi ilmiy yangiliklar qilishimiz kerak. Ularning salohiyatini yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda bu tizimlar asosida ishlash ta’limning asosiy maqsad va vazifalariga aylanib bormoqda. Hozirgi o‘sish, rivojlanish davrida sharqona ta’lim –tarbiyaning insonparvarlik mohiyati, uning ma’rifiy - madaniy roli va rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda o‘rganish hamda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda buyuk siymolar xalqimizning boy madaniy- ma’naviy merosidan ta’lim tarbiya tizimini yanada rivojlantirish hamda me’yoriy uslubiy ta’minotini kengaytirishga zamin yaratadi. O‘zbek pedagogikasi tarixini nazariy asoslari va uning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilganligi, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik g‘oyalar, ta’limiy-axloqiy qarashlar mazmuni tahlil qilinganligi, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida vujudga kelgan o‘qitish shakllari, vositalari, metodlarining mazmuni va pedagogik ahamiyati hamda o‘zbek xalqi pedagogik merosining ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilganligi, o‘zbek pedagogikasining ko‘p asrlik rivojlanish yo‘li pedagogik jihatdan tavsiflanganligi bilan izohlanadi. So‘nggi yillarda pedagogik-psixologik kuzatuvlarning asosiy yo‘nalishi sifatida ta’limni

insonparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘qitishni individuallashtirish, ta’lim shakllarini optimallashtirish, ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish, bu jarayondagi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasiga alohida urg‘u berilmoqda. Pedagog olimlar tomonidan talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi bilan bog‘liqlikda ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari, kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarini tadqiq etish; interfaol ta’lim texnologiyalari va metodlari vositasida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish; talabalarda kreativlik potensialining rivojlanganlik darajasini prognostik va kvalimetrik metodlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan sanaladi. Darhaqiqat, jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta’sirini tahlil etganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta’lim tizimi, metodologiyasi va o‘quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o‘qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o‘z-o‘zidan bo‘lajak pedagoglarda kreativ qobilyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish o‘qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya’ni ta’limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta’lim jarayoniga innovatsiyalar kirishining muhim shartlaridan biri esa, o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo‘lajak o‘qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi. Bugungi kunda o‘qituvchining shaxsiyati va faoliyatiga bo‘lgan talablar bilan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajalari orasida sezilarli ziddiyatlar kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchilar tayyorlashning mavjud tizimi bilan bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatining kasbiy-ijodiy tavsifi orasida ham nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Buning natijasida o‘qituvchilar bilan ta’lim oluvchilar orasida to‘siqlar va bo‘shliq vujudga keldi, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi yakka hukmronligi qaror topdi. Shu bilan bir qatorda, ular aksariyat hollarda asosan o‘quv dasturlari va darsliklarga bog‘lanib qoldilar, ularning kreativ

faoliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy mavqei va obro‘siga putur yetkazdi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi jamiyat ehtiyojlari va uning o‘tkir muammolaridan uzoqlashgan edi. Shu nuqtai-nazardan, erkin va shaxsga yo‘naltirilgan interfaol ta’lim muhitini shakllantirish, bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanmoqda[4].

Oliy ta’lim muassasalarida buyuk siymolarimizning tarixiy qadriyatlaridan foydalanishning didaktik tizimi va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelinadi. Yurtboshimizning ta’kidalaganlaridek, “Uyg‘onish va yuksalish har bir fuqaroning o‘ziga ham bog‘liq. Buning uchun o‘zgarishni, uyg‘onishni o‘zimizdan boshlashimiz kerak. Yuksalish uchun “Mening hissam qanday bo‘ladi?” degan savolni o‘zimiz uchun shior qilsak bo‘lgani[5]. Ya’ni, har birimiz daxldorlik hissini qo‘shish harakatida bo‘lishimiz shart. Shuni tushunib, hamjihatlikda harakat qilsakkina, maqsadga tezroq erishamiz. Zero, amalga oshirilgan ilmiy-pedagogik rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish aynan axborotlashgan jamiyat xususiyatlaridan kelib chiqib, pedagog kadrlarning madaniyati, buyuk siymolarga bo‘lgan hurmat va ehtirom “Tarixiy o‘tmishsiz – kelajak yo‘q” degan g‘oyani ilgari surishimiz bilan iborat bo‘lib qolmay, balki shaxsning madaniyati va malakalarni egallash, mediakreativlikni ham nazarda tutadi[6]. Bu esa o‘qituvchi mediakompetentligining mazmunini kasbiy pedagogik faoliyat bilan bog‘lanib, mediasièsatni amalga oshirish; o‘quv dasturlarga mediatushunchalarni joriy etish; o‘quv-tarbiya jaraènida mediatexnologiyalardan foydalanish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish tendensiyalari asosida takomillashtirib borishga zamin yaratadi [5].

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish bosqichlari va darajalari aniqlanib, mediabilim va uni qo‘llash darajasi, mediatahlil, mediakreativlik darajalari ilmiy-metodik jihatdan asoslandi.

Adabiyotlar

1. Абдукаримов Х. Касбий педагогик фаолият. – Т.: “O‘qituvchi” НМИУ, 2010.-160 б.

2. Абдуқодиров А.А. ва бошқ. Таълимда инновацион технологиялар. “Истеъдод” жамғармаси, 2008.-Б.145.

3. Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

4. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед. фан.док.дис. автореферати.– Тошкент: 2003. – 44 б.

5. Азизходжаева Н.Н. Ўқитувчи мутахассисларни тайёрлаш технологияси. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2000. – 52 б.

KOVRAKNING XOMASHYO SANOATIDA QO‘LLANILISHI

Norboyev Z.N. - ToshDAU “Ekologiya va botanika” kafedrasi dotsenti
Sulaymonov X.N. – O‘zRFA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktoranti, ToshDAU “Ekologiya va botanika” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Respublikamiz hududi shifobaxsh, dorivor, ozuqabop, yem-xashak, asalchil o‘simliklarga boy o‘lkadir. Ulardan oqilona foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammosidir. Shifobaxsh o‘simliklar ichida kovrak (Ferula L.) turkumi turlari alohida o‘rin tutadi. Kovrak o‘simligining yer yuzida 200 ga yaqin turi, shundan O‘zbekistonda 55 ta turi uchraydi. Kovrak turkumi turlari monokarp va polikarp o‘simliklardir.

Kalit so‘zlar: shifobaxsh, dorivor, ozuqabop, yem-xashak, asalchil o‘simliklar, Ferula foetida, monokarp va polikarp, ildiz, barg, novda, poya.

ПРИМЕНЕНИЕ КОВРАКА В СЫРЬЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Норбоев З.Н - доцент кафедры «Экология и ботаника» Ташкентского государственного аграрного университета
Сулаймонов Х.Н. - базовый докторант Института генетики и экспериментальной биологии АНРУЗ, ассистент кафедры « Экология и ботаника » Ташкентского государственного аграрного университета

Аннотация. Территория нашей республики богата лекарственными, лечебными, питательными, кормовыми и медоносными растениями. Их разумное использование - актуальный вопрос сегодня. Среди лекарственных растений особое место занимают виды рода Ferula L. В мире насчитывается около 200 видов растений Коврак, в том числе 55 видов в Узбекистане. К семейству Коврак относятся растения монокарпий и поликарп.

Ключевые слова: лекарственный, питательный, корм, медоносы, Ferula foetida, монокарпий и поликарп, корень, лист, веточка, стебель.

APPLICATION OF FERULA IN THE RAW MATERIALS INDUSTRY

Norboev Z.N. - Associate Professor of the Department of Ecology and Botany, Tashkent State Agrarian University
Sulaymonov Kh.N. - basic doctoral student of the Institute of Genetics and Experimental Biology of the ANRUz, assistant of the department "Ecology and botany" of the Tashkent State Agrarian University

Annotation. The territory of our republic is rich in medicinal, medicinal, nutritious, fodder and honey plants. Using them wisely is a topical issue today. Among the medicinal plants, the species of the genus Ferula L. have a special place. There are about 200 species of Kovrak plants in the world, including 55 species in Uzbekistan. The Kovrak family includes monocarp and polycarp plants.

Key words: medicinal, medicinal, nutritious, fodder, honey plants, Ferula foetida, monocarp and polycarp, root, leaf, twig, stem.

Respublikamiz hududi shifobaxsh, dorivor, ozuqabop, yem- xashak, asalchil o‘simliklarga boy o‘lkadir. Ulardan oqilona foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammosidir. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-yanvardagi № 5 –sonli “2015-2017-yillarda o‘rmon xo‘jaliklari tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o‘simliklar xomashyosini yetishtirish, tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi majlis bayonnomasida xalq xo‘jaligi sohalarini xomashyo bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratish kerakligi, manzarali, oziq-ovqat sanoatida qo‘llaniladigan va yuqori hosil beruvchi o‘simlik turlarini introduksiya qilishni kuchaytirish zarurligi alohida qayd qilindi.

Yuqoridagi qaror ijrosini ta’minlash uchun tez fursatda cho‘l va adir mintaqalarida tabiiy holda o‘sadigan oziq-ovqat sanoatida qo‘llaniladigan o‘simliklarni, yo‘qolib ketish arafasida turgan kamyob turlar monitoringini tashkil qilish, ularning dorivor, yem-xashak, ozuqabop turlarini introduksiya qilish sohasidagi izlanishlarni yanada kuchaytirishni talab etadi.

Shifobaxsh o‘simliklar ichida kovrak (*Ferula L.*) turkumi turlari alohida o‘rin tutadi. Kovrak o‘simligining yer yuzida 200 ga yaqin turi, shundan O‘zbekistonda 55 ta turi uchraydi. Kovrak turkumi turlari ko‘p yillik monokarp va polikarp o‘simliklardir. Ferula foetida-sassiq kovrak o‘simligi O‘zbekistonning cho‘l va adirlardagi turli o‘simliklar guruhida uchrab, qizilqum sahrolari, Mirzacho‘l, Samarqand, Jizzax, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpoqiston Respublikasi hududlarida tarqalgan. Uning bo‘yi 1,0-1,5 metrgacha yetadi, poyasi tik o‘suvchi, ichi biroz g‘ovak, yuqori qismidan shoxlangan, ko‘pincha bir (ba’zan 2-3) generativ novda qosil qilib, 7-9 yilda bir marotaba gullaydi. Ildizi baquvvat, yo‘g‘on, tuproqning 1,5 metr chuqurligigacha boradi.[1] Ildizining asosiy qismi 0,5 metr chuqurlikkacha borib, uning shakli silindrsimon, bochkasimon yoki tuxumsimon shaklda bo‘ladi. Uning barglari yumshoq, tez so‘liydigan, ustki tomoni tuksiz, pastki qismi esa biroz tukli, ildiz bo‘g‘zidagilari qisqa, yo‘g‘on bandli, poyadagilari maydaroq bo‘lib, uchki qismdagilari barg navini hosil qiladi. Ildiz bo‘g‘zida barglarining shakli piramidasimon, barg plastinkasi ikkilamchi qirqilgan, barg bo‘laklari lantsetsimon, chekkalari tekis bo‘lib, uzunligi 14,0-18,0 sm, eni 5-7 sm gacha boradi [2]

O‘simlik vegetatsiyasi fevral oyi oxiridan boshlaydi. Aprel oyida gullab, may oyining oxirida urug‘laydi. Mevasi may oyining oxiri va iyun oyining birinchi yarmida pishib yetiladi.

Mart oyi o‘rtasidan boshlab generativ novda intensiv ravishda sutkasiga 12,0-15,0 smgacha o‘sadi. Mart oyining oxirida generativ novda balandligi 45,0-50,0 smgacha borib, parakladiy va ulardagi soyabonlar aniq ko‘rinib, markaziy va yon soyabongullar to‘liq shakllanadi. Poyasining pastki qismida joylashgan parakladiy markaziy soyabonda joylashgan gullari g‘unchalay boshlaydi. Bu davrda o‘simlikning to‘pbarglari maksimal o‘lchamga yetib, bo‘yi 18,0-25,0 smga, eni 15,0-20,0 smgacha boradi. Ularning soni 3 ta, ba’zan 4 ta. Poyadagi o‘simlik vegetatsiya davrining boshlanishida to‘pbarglar sutkasiga 3,0-5,0 smgacha o‘sadi. Barglarining o‘sishi o‘simlikning gullash fazasigacha davom yetadi. Generativ novdaning o‘sishi uning gullash davrida sekinlashib, gullash davrining oxirida umuman to‘xtaydi. May oyining boshlariga kelib o‘simlik mevalash paytida barglari quriy boshlaydi. Barcha monokarpik turlari kabi 35-40 kun ichida dastlab tubbarglar, so‘ngra poyadagi barglar quriydi. Vegetatsiya davrning 40-45-kunlari o‘simlik ommaviy gullash davriga o‘tadi. Urug‘lar yetilgach hasharotlar, qushlar va shamol yordamida tarqaladi [4]

Ekilgan maysalar vegetatsiyasining 5-6-yillari saraton boshlanishidan iyun oyi boshlaridan ildiz bo‘g‘zi atrofida 10-20 sm kenglikda va chuqurligi 10-15 sm atrofida kovlanib, ildiz bo‘g‘zidagi o‘tgan yilgi va yangi barg qoldiqlari tozalanib, karton va boshqa materiallar bilan qoplanadi. So‘ngra saraton boshlangach maxsus afg‘on pichog‘i bilan kesiladi. Spiral shaklda yupqa qilib kesiladi. Kesilgan joydan chiqqan smola 2-3-kunda bir marta qirib olinadi. Bu jarayon bitta o‘simlikda mavsum davomida 25-30 marta takrorlanadi. Bitta o‘simlikdan mavsum davomida 25-30 marta takrorlanadi (oktyabr oyi oxirigacha). Bitta o‘simlik ildizidan o‘rtacha 35-40 grammgacha smola olish mumkin. Smolaning dastlabki olingan qattiq qismi bozorda yuqori baholanadi. Saratonning issiq kunlarida qotgan qismi keyingi olingan suyuq qismiga qaraganda yuqori baholanadi. Bir kunda smola yig‘uvchilar o‘rtacha 500-600 grammgacha smola olish mumkin. Ferula foetida o‘simligi tarkibida smola (yelim) va efir moylari saqlab, ular tibbiyotda, lak-bo‘yoq, ziravor modda sifatida qo‘llaniladi. Uning ildizidan olinadigan yelim nastoyka, emulsiya holida o‘ta charchashning oldini olishda, isteriyada, yel haydovchi, balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Eron va Hindistonda, O‘rta Osiyoda *F. foetida* o‘simligidan preparatlar yaratilgan hamda oziq-ovqat mahsulotlariga xushbo‘y ta’m beruvchi moddalar ham olinadi. Hindistonda bu o‘simlik smolasidan oziq-ovqat mahsulotlariga ta’m kiritish uchun undan foydalaniladi [3]. Nepal aholisi o‘zlarining kundalik hayotida o‘simlikdan dieta sifatida qabul qilib, siydikni haydashda foydalanadilar (Eigner, Schol, 1990; Bandyopadhay va b., 2006). Bu o‘simlikdan turli kasalliklar astma, tutqanoq, qorin

og‘rig‘i, grippni davolaydilar va ichak parazitlarini yo‘qotishda foydalaniladilar (Zargari, 1996; Takeota, 2001; Evans 2002; Lee va b., 2009).

O‘simlikdan ajratib olingan barcha birikmalar 3 guruhga; kumarinlar, murakkab efirlarning terpenoid va seskviterpenli spirtlari, seskviterpen laktonlariga ajratiladi. Kimyoviy tarkibini o‘rganish natijasida undan 70 dan ortiq biologik faol moddalar ajratib olingan.

O‘zbekistonda bu o‘simlikdan olingan smola nastoyka, emulsiya, plastir holida astma, asab kasalliklari, turli yaralar, oshqozon ichak kasalliklarini davolashda, o‘sma kasalliklarini davolashda foydalanilgan (Xolmatov, 1976; Cherepanov, 1981).

Olimlarning so‘nggi farmakologik, biologik tekshirishlari bu o‘simlik moddalari antioksidant, antivirus, antidiabet va antigripp xususiyatlarga ega ekanligi, ulardan rakka qarshi, gipotenziv vositalar sifatida foydalanish mumkinligi haqida materiallar e’lon qilingan (Salim va b., 2001; Fatehi, 2004; Singh, 2007; Sitara va b., 2008; Dehpour va b., 2009).

Ferula L. turkumi vakillarining farmakologik xususiyatlari XIX asr oxirlarida Osiyo qit'asining Hindiston, O‘rta Osiyo, Pokiston, Eron shuningdek, AQSh, Yevropa mamlakatlaridan Shvetsiya, Germaniya, Portugaliya mamlakatlarida o‘simlikdan olinadigan moddalar shu davlatlarning rasmiy farmakopeyasiga kiritilgan [5].

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlari, jumladan, Respublikamizda ham parhezbop, shifobaxsh oziq-ovqat turlarini ko‘paytirish, ayniqsa, vitamin va minerallarga boy, dori-darmonlar olish ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Shuning uchun tadqiqiotlarimiz asosida olingan kovrak o‘simligining turli botanik organlari, ya’ni bargi va poyasini qayta ishlash, quritish, har xil holda ishlatish, o‘simlik ildizidan olingan smola (yelim)dan oziq ovqatda ziravor sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Shuning uchun tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida kovrak o‘simligining poyasi va barglaridan konservalash, o‘simlikning xuddi shu qismlarini quritib, ziravor sifatda foydalanishni amalga oshirishga lozim topdik. Binobarin mamlakatimizning kovrak o‘simligi o‘sadigan hududlarda marinadlangan konservasi oziq-ovqat va gazakbop sifatida iste’mol qilinadi.

Kimyoviy tarkibining tahlili asosida yangi dietik ozuqa mahsulotlari, shifobaxsh moddalar, ayniqsa, homilador ayollar va bolalar uchun biologik faol qo‘shilmalar olish maqsadida kovrak o‘simligining bargi va poyasidan konserva tayyorlandi.

Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobida kovrak smolalari bo‘g‘in og‘rig‘ida, ovqat hazm qilish jarayonini kuchaytirish, gijjani haydash va homilani tushirishda qo‘llanilishi ta’kidlangan [6].

Chet mamlakatlarda *Ferula foetida* o‘simligining smolasiga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda *F. foetida, F. kuhistanica* o‘simliklarining ildizlaridan yelim (smola) olinib, har yili yuzlab tonna xomashyo tayyorlanib chetga eksport qilinmoqda. Bu holat o‘simlik zahiralarining kamayib ketishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Абдурахимов Х., Рахмонкулов У. О прорастании семян трех видов Ферул. Узб. биол. журн. 1966. 6. – С. 33-35.

2. Bagheri S.M., Sahebkar A., Gohari A.R., Saeidnia S., Malmir M., Iranshahi M., 2010. Evaluation of cytotoxicity and anticonvulsat activity of some Iranian medicinal Ferula species. Pharmaceutical Biology 48, 242-246.

3. Bandyopadhyay D., Basak B., Chatterjee A., Lai T.K., Banerji A., Banerji J., Neuman A., Christensen L.P., Brandt K., 2006. Bioactive polyacetylenes in food plants of the Apiaceae family: ooccurrence, bioactivity and analysis. Journal of Pharmaceutical and Biomedical Analysis 41, 683-693.

4. Iranshahi M., Arfa P., Ramezani M., Jaafari M.R., Sadeghian H., Bassarello C., Piacente S., Pizza C., 2007. Sesquiterpene coumarins from Ferula szowitsiana and in vitro antileishmanial activity of 7-prenyloxycoumarins against promastigotes. Phytochemistry 68, 554-561.

5. Kwon E,Y., Cho Y.Y., Do G.M., Kim H,J., Jeon S,M., Park Y.B., Lee M.K., Min T.S., Choi M,S., 2009. Actions of ferulic acid and vitamin E on prevention of hypercholesterolemia and atherogenic lesion formation in apolipoprotein e-deficient mice. Journal of Medicinal Food 12, 996-1003.

6. Мелибаев.С. Биология и ресурсы *Ferula tenusecta* и F.kuhistanika-источников эстероген.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA DARSNI OQILONA TASHKIL ETISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH VAZIFALARI

Uralova G.O‘. - Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida darsni to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirish, yangilanayotgan boshlang‘ich ta’lim nazariyasi o‘qituvchisining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati va bilim darajasini diagnostika qilish asoslarini ishlab chiqish haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: dinamik stereotip, kasbiy salohiyat, ma’naviy qiyofa, morfologik rivojlanish, kichik maktab yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlar.

ЗАДАЧИ ФОРМИРОВАНИЯ УМЕНИЯ РАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Уралова Г.О. – самостоятельный исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование умения правильно организовывать уроки у будущих учителей начальных классов, излагается разработка основ диагностики личностных качеств, профессиональных умений и знаний учителя обновленных идей теории начального образования.

Ключевые слова: динамические стереотипы, профессиональный потенциал, духовность, морфологическое развитие, младший школьный возраст, психологические, физиологические особенности.

TASKS FOR THE FORMATION OF THE ABILITY TO RATIONALLY ORGANIZE A LESSON IN FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

Uralova G.O. - Freelance researcher at Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the formation of the ability to organize lessons correctly in future primary school teachers, the development of the basics for diagnosing the personal qualities, professional skills and knowledge of the teacher of the updated primary education theory ideas are stated.

Key words: dynamic stereotypes, professional potential, spirituality, morphological development, early school age, psychological, physiological characteristics.

Davlatimiz rahbari jamiyatda o‘qituvchi kasbi eng nufuzli va obro‘li kasb bo‘lishi lozim, deb alohida ta’kidladi. Yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish chora tadbirlari dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Mamlakatimizda o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aql salohiyati hamda kasbiy mahoratiga jiddiy talablar qo‘yilgan. Zero, o‘qituvchi-ustoz bo‘lishi yosh avlod savodini chiqarishi o‘qituvchidan anchayin mukammal fidoiylikni talab etadi.

Hozirgi davrda o‘qituvchi, xususan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisida ota-onalarcha g‘amxo‘rlik, fidoiylik, kasbiy mahorat kabi fazilatlar bo‘lishi ta’lim sifatini

oshiradi. Zero, har qanday jamiyatning kelajagi o‘sayotgan yosh avlod, ularning sog‘ligiga, xalqparvar va vatanparvar bo‘lib yetishishiga, jismonan va ruhan barkamol va yetukligiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ko‘pgina jihatlarga e’tibor qaratmog‘i lozim.

Kichik maktab yoshidagi bola (7 yoshdan 10-11 yoshgacha) bu davrda skeletning suyaklanishi davom etadi. Tana proporsiyasi o‘zgaradi. Bu yoshda muhim ichki organlar murakkablashib boradi. Ayniqsa, oliy nerv sistemasi faoliyati takomillashadi. Aqliy mehnat qilganda, bo‘yin, gavda mushaklari, xat yozganda esa yuqori kamar va qo‘l mushaklari taranglashadi [1, 30-b]. O‘qituvchining o‘quvchiga beradigan yuklamasi uning yoshi, sog‘lig‘i, idrok qilish qobiliyati, nerv tipi va o‘qitish sharoitiga qarab aniqlanadi. Yuklama me’yorini asta-sekin oshira borish va o‘quvchilarni faol aqliy mehnatga jalb qilish lozim.

Har bir darsda badantarbiya mashqlarining o‘tkazilishi o‘quvchilarning aqliy charchashini oldini oladi. Badantarbiya mashqlari 2-3 daqiqa bajariladi. Badantaribiya mashqlarini o‘tkazishdan maqsad shuki, mushak va qon aylanish organlarini bir vaziyatda tutib zo‘r berib aqliy ish bajarayotgan o‘quvchilarni aktiv faoliyatga ko‘chirishdir.

Maktab yoshidagi bolalarda bosh miya yarimsharlar po‘stlog‘ida dinamik stereotip hosil bo‘lishida dinamik jarayonlarni tekshirish faqatgina nazariy emas, muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘quv kunini fiziologik asosda tashkil etish, o‘quvchilar kun tartibini tuzish, ovqatlanish, mehnat va dam olish kabilar o‘quvchilarning nerv sistemasida dinamik stereotipni vujudga keltirish asosida hosil qilinadi [1, 71-b].

Bola o‘qishning dastlabki kunlarida yangi kun tartibiga moslashib, yangi jamoaga o‘rganishi ancha qiyin bo‘ladi. Maktab yoshi bu morfologik, ruhiy, ijtimoiy jihatdan rivojlanish davri bo‘lib, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya talablariga javob berishini talab qiladi. 7 yashar bolalarni 45 daqiqalik dars charchatib qo‘yadi, shuning uchun ham birinchi sinfda 35 daqiqa dars o‘tib, qolgan 10 daqiqasida turli ko‘rgazmali qurollarni ko‘rsatish tavsiya etiladi [3, 28b].

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolalarni rivojlantiruvchi harakterga ega bo‘lgan ta’lim tizimi tadbiq qilinadi. Unda kichik maktab yoshidagi bolalar o‘z yosh xususiyatlari va tafakkuri, ruhiy taraqqiyot darajalarini o‘zlashtirish imkonini beradigan ta’limiy faoliyatga kirishadilar. Bu faoliyat o‘quvchilar uchun yetakchi faoliyat bo‘lib hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘qish va o‘rganishda, qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o‘quv predmeti bo‘yicha nazariy bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi va tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o‘z harakteriga ko‘ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish

natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo‘lib, bolaning jadal taraqqiy etishini, dunyoqarashining rivojlanishini ta’minlaydi.

Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ta’lim olishga, o‘rganishga qaratilgan faoliyatni shakllantirish asosida ularni tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishdan iborat.

Buning uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

-Bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo‘lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish;

-Kichik maktab yoshidagi bolalarda ta’limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni shakllantirish; bunday yangi imkoniyatlar o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishigagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi;

-O‘quvchilarda o‘rganish hamda ta’lim jarayoniga nisbatan jonli qiziqishni shakllantirish. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim uchun istiqbolli , ustuvor yo‘nalishlardan biri bu yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir, ya’ni har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan tarbiya jarayonidir.

Bugungi kunda o‘zida ta’lim-tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘qitish va ularga milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo‘li amaliy jihatdan tatbiq qilinishi lozim. Bu o‘rinda milliy axloq tarbiyasi, ma’naviy, ruhiy hamda milliy nafosat va shu bilan birga, jismoniy tarbiya boshlang‘ich ta’lim bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Bunda o‘quv materiali shaklida berilgan ta’limiy matnlarda o‘quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma’naviy tarbiya va milliy nafosat me’yorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich ta’limning vosita va metodlari.

1-2-sinflar uchun tanlangan o‘quv materiallari kitob shaklida emas, balki o‘quv daftari shaklida berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu ham iqtisodiy, ham texnologik jihatdan qulay. Shu bilan bir qatorda, topshiriqlarni kartochkalar vositasida berish bir qator qulayliklar tug‘diradi. Bu bolaning mustaqil faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi, o‘quvchini o‘qituvchi bilan va sinfdoshlar bilan muloqot qilishga, mustaqil faoliyat ko‘rsatishga undaydi. O‘yin boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning muhim metodlaridan biri sifatida qurilishi shart. Mazkur ta’lim tizimida kompyuter texnologiyasini o‘zlashtirish jarayoni o‘yin mashg‘ulotlarida ta’limning asosiy vositasi sifatida qadrlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining salomatligi**.** Bolaning salomatligi ta’limning samaradorligini ta’minlaydi. Ularning o‘qishi va dam olishini tashkil

etishda o‘quv dasturlari va ta’lim vositalarining mazmunini aniqlashda, bolaning yoshi bilan bog‘liq tarzda jismoniy hamda aqliy rivojlanishida morfofunksional hamda psixofizologik xususiyatlarni aniq hisobga olish lozim.

Shu bilan bir qatorda 6-7 yoshli bolalar o‘zining psixologik, jismoniy rivojlanishi, fiziologik xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayonida ularga alohida yondashuvni taqozo etadi. Shu asosga ko‘ra haftalik o‘quv yuklamasi maksimum quyidagicha bo‘lishi lozim: hafta davomida faqat ikki marta kuniga 5 soatdan, qolgan uch kun esa 4 soatdan oshmasligi kerak bo‘ladi. O‘quv sinflari sanitariya gigiyena me’yoriga qat’iy amal qilgan holda jihozlanishi, yorug‘lik, issiqlik, tozalik, muntazam shamollatib turish kabilarga rioya qilish shart. Barcha o‘quv binolarda mebel bolalarning bo‘yiga, ularning o‘tirish va harakatlanish me’yoriga mos kelishi kerak [4, 68-b].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zamonaviy ta’lim nazariyasi, o‘qituvchini o‘quv-biluv jarayonining rahbari sifatida baholaydi. Demak, o‘qituvchi, shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi jarayonga to‘g‘ri rahbarlik qilish uchun chuqur bilimga, yuksak kasbiy mahoratga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchi uchun o‘rnak hisoblanadi. Shuning uchun ham u birinchi navbatda bolani o‘ziga jalb eta olishi lozim.

Yangilanayotgan boshlang‘ich ta’lim nazariyasi o‘qituvchisining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati va bilim darajasini diagnostika qilish asoslarini ishlab chiqishi lozim. Tekshirish natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash asoslari yaratilishi, ta’lim amaliyotiga joriy etilishi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan hisoblanadi.

Pedagoglarni quyida berilayotgan vazifalarni samarali hal etishga o‘rgatish uchun ular tayyorligining samarali ekologik-valeologik boshlang‘ich ta’limga yo‘nalganligini hisobga olish zarur: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zi bilan, boshqa odam, kishilar ijtimoiy guruhlar (jamiyat), yaqindagi tabiat va ijtimoiy-tabiiy muhit bilan oqilona ekologik-valeologik munosabatlarni aniq maqsadga yo‘naltirilgan ravishda, uzluksiz va samarali shakllantirish bo‘yicha zarur va yetarli darajadagi bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasasining tarbiyalovchi muhitini bolalarni sog‘lomlashtirishning kompleks vositasi sifatida sog‘lomlashtirishga o‘rgatish;

o‘quvchilarning shaxsi va yoshiga oid qobiliyatlari va xususiyatlariga muvofiq ravishda, ularning imkoniyatlarini faollashtirish va rivojlantirishni ta’minlay bilish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning eng maqbul jismoniy faolligi uchun shart-sharoitlarni tashkil etish va yaratish, kam harakatlilikning oldini olish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning qattiq charchashiga olib keladigan ortiqcha yuklamalarni o‘z vaqtida kamaytirish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilar biror kasallik yoki turmush qiyinchiliklarini boshidan o‘tkazganda, uning organizmidagi zaiflashib borayotgan asosiy funksiyalarni qayta tiklash;

- bolalar salomatligiga zararli ta’sirlarning oldini olish;

- bolalar salomatligining ruhiy jihatini muhofaza qilish va mustahkamlash (stresslar va zararli odatlar tarqalishining oldini olish);

- bolalar salomatligi madaniyatini shakllantirish – rivojlanayotgan pedagoglar, bolalar ota-onalari va oilalarining salomatlik madaniyati asosida;

- bolalarda hayotga, salomatlikka va atrofdagi tabiatga qadriyatli munosabatlarini, shuningdek, bu munosabatlarni oqilonalashtirish ehtiyojini shakllantirish[2].

- Aytib o‘tilgan vazifalarni hal etish zarurati tufayli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish jarayonining tuzilmasini, mazmunini va texnologik ta’minotini modellashtirishning obyektiv-predmetli asoslari aniqlanadi.

Adabiyotlar

1. Sodiqov Q. - Kichik maktab yoshidagi bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi. Toshkent: “Ilm Ziyo”. 2016.

2. Konferensiya materiali: Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishda ingliz tili va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish: muammo va yechimlar. Toshkent. 2014.

3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent-2008

4. Nishonova Z., Alimova G. - Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent, - 2006.

TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xolnazarova D.M. - Guliston davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquqiy tarbiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidan dadil qadam tashlayotgan O‘zbekistonda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bugungi kundagi dolzarb muammodir. Vatanimizning rivojlanishi va istiqboli, mamlakatimizda keng ko‘lamda o‘tkazilayotgan iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma’naviy o‘zgartirishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bugungi kun yoshlarining huquqiy ongi, bilimi hamda huquqiy madaniyat darajasiga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan

ayon. Ushbu maqolada talabalarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari borasida tahliliy fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: talabalar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, o‘qitish metodikasi, huquqiy davlat, huquqiy bilim darajasi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Холназарова Д.М. - преподаватель кафедры национальной идеи, основы духовности и правового воспитания Гулистанского государственного университета

Аннотация. Повышение правового просвещения и правовой культуры в Узбекистане, которое предпринимает смелые шаги по дальнейшему углублению демократических реформ и развитию гражданского общества, является сегодня актуальной задачей. Очевидно, что развитие и перспективы нашей страны, успехи масштабного экономического, политического, государственного строительства, правовой системы и духовного преобразования общества в нашей стране во многом зависят от уровня правосознания, знаний и правовой культуры сегодняшнего дня. В статье представлены аналитические взгляды на теоретические основы развития правовой культуры у студентов.

Ключевые слова: студенты, правовое сознание, правовая культура, правовая грамотность, методы преподавания, правовое состояние, уровень юридических знаний.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE AMONG STUDENTS

Kholnazarova D.M. - Lecturer at the department "National idea, the foundations of spirituality and legal education" of the Gulistan State University

Annotation. Raising legal awareness and legal culture in Uzbekistan, which is taking bold steps towards further deepening democratic reforms and developing civil society, is a pressing issue today. It is obvious that the development and prospects of our country, the success of large-scale economic, political, state building, legal system and spiritual transformation of society in our country largely depend on the level of legal awareness, knowledge and legal culture of today's youth. This article provides analytical views on the theoretical foundations of the development of legal culture in students.

Key words: students, legal consciousness, legal culture, legal literacy, teaching methods, legal state, level of legal knowledge.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi[3]da yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaati mazmunida ham oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni ijtimoiy faol fuqaro sifatida kamol toptirish pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir[3].

Mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlarning bir yo‘nalishi sifatida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlash borasidagi vazifalar ham diqqatga sazovordir. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni asosida yaratilgan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilayotgan vazifalarni tubdan yangilab berdi.

Konsepsiyada inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar sanab o‘tiladi va ularni bartaraf etish bo‘yicha maqsad va vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoevning tashabbuslari bilan bugungi kunda yoshlarni huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun davlatimiz tomonidan ulkan imkoniyatlar yaratib berilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad xalqimizning, yoshlarimizning, qolaversa talabalarimizning o‘z huquqlarini anglashi va undan hayot faoliyatida to‘g‘ri foydalana olishlari, ya’ni huquqiy madaniyatga ega bo‘lishlari uchundir.

Davlatimiz rahbari SH. Mirziyoev tomonidan imzolangan 2019-yil 9-yanvardagi “[Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonga ko‘ra huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va

uzviy olib borilishi, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondoshish lozimligi, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanish kerakligi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish lozimligi ta’kidlanadi [1; 1-b.]. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa bir qancha vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish;

- yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

- huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish. Shu sababli ham bugungi kunda jamiyatimizning asosini tashkil etgan yoshlar, talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bu vazifalarni amalga oshirishda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilab berildi. Huquqiy madaniyatni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda:

- 2019-2020-o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta’minlash mexanizmini joriy etish, shuningdek, o‘quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

- 2019-yil 1-martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish;

- yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ta’lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish choralarini ko‘rish vazifalari belgilab berildi[1; 2-b]. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amaliy ilmiy-texnik loyihalar va innovatsion ishlanmalar tanlovida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning tashkiliy-huquqiy, pedagogik-psixologik jihatlarini ilmiy-amaliy tadqiq etishga oid mavzularni muntazam e’lon qilib borish belgilandi va davlat boshqaruvi organlari jamiyatda huquqiy madaniyatni targ‘ib qilish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda nodavlat notijorat tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berishi mumkinligi ta’kidlandi.

Prezidentimiz farmoni asosida qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”da esa ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni rivojlantirish borasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” va “Inson huquqlarini o‘rganish” maxsus o‘quv kurslarini barcha ta’lim turlari bo‘yicha tizimli o‘rgatish nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish va o‘rgatilishini tashkil qilish, maxsus o‘quv kurslari yakuni bo‘yicha o‘quvchi va talabalar orasida sinovlar tashkil qilish, o‘quvchi va talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan Konstitutsiyani va inson huquqlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘rgazmali qo‘llanmalarni tayyorlash va chop etish lozimligi ta’kidlangan[2; 8-b]. Shuningdek, Oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida huquq fanidan Respublika miqyosida “Huquq bilimdonlari” ko‘rik tanlovini tashkil qilish va tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish, yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o‘tkazish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish asosiy vazifa qilib belgilandi. Yoshlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, huquq asoslarini,

Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me’yorlarni yoshlarning, talabalarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o‘z ahamiyatiga ko‘ra huquqiy ta’lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi.

Jumladan, biz jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilash, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Zero, faqat erkin, o‘z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan yoshlargina o‘z huquqlaridan to‘laligicha foydalana oladi.

O‘zbekiston bugun barcha sohada ulkan islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni talab qiladi. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Unda kishilar qanchalik madaniyatli bo‘lsa, qanchalik huquq normalari va qonunlarni bilsa, yuridik adabiyotlarni bilib ularga amal qilsa, shunchalik huquq buzilishi kam bo‘ladi. Shuning uchun Respublikamizda kishilarning, ayniqsa talaba yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining demokratik davlat qurish davrida, qonunchilikni mustahkamlashda va turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazish uchun ertangi kunimiz bo‘lgan talaba yoshlarni huquqiy jihatdan tarbiyalash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish muhim rol o‘ynadi. Shuning uchun hukumat tomonidan huquqiy tarbiyani yaxshilash, huquqshunos kadrlarni tarbiyalash va jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida maxsus qonun xujjatlari qabul qilindi. Bu me’yoriy xujjatlarda Respublika miqyosida aholini, talaba yoshlarni huquqiy tarbiyalash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri deb belgilandi.

Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi, huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga e’gadir.

Bu borada yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida: “aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik

huquqiy davlat qurishning garovidir!” [1; 2-b.] degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalaridan etib belgilangan.

Ta’lim tizimida talabalarning huquqiy tarbiyasi va ta’limini takomillashtirish, ularda huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun ta’lim va tarbiyaning hali foydalanilmagan mexanizmlarini yaratish, tarbiya va ta’limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish moddiy texnika negizini kuchaytirish yo‘li bilan erishiladi. Talaba-yoshlarning huquqiy tarbiya va ta’limni takomillashtirishning asosiy choralari quyidagilardan iborat:

1-rasm



1-расм. Talaba-yoshlarning huquqiy tarbiya va ta’limini takomillashtirishning asosiy choralari

Shu jihatlarni e’tiborga olgan holda bugun oliy ta’lim muassasalari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor berish lozim. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va

uzviy tashkil etish, ta’lim muassasasida huquqiy madaniyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, yangi usul va metodlarni joriy etish davr talabidir [4].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Huquqiy ta’lim berish asosida biz talabalarda quyidagilarni shakllantirishimiz lozim:

birinchidan, asosiy huquqiy ko‘rsatmalar tizimini bilish, ularning mazmuni va mohiyatini ilg‘ab olish, to‘g‘ri tushunish;

ikkinchidan, huquqni, qonunlarni, qonuniylik va huquq tartibotni chuqur hurmat qilish;

uchinchidan, huquqiy bilimlarni amalda mustaqil qo‘llay olish, muayyan borliqqa nisbatan shaxsiy munosabat va kundalik fe’l-atvorni hamda o‘z amaliy faoliyatini jamg‘arilgan va olinayotgan huquqiy bilimlar bilan moslashtirish;

to‘rtinchidan, o‘z odatlarini olingan huquqiy bilimlar bilan aniq moslashtirish;

beshinchidan, huquqiy normalarning har qanday buzilishlarga nisbatan mustahkam va barqaror ma’naviy huquqiy ko‘nikmasini hosil qilish va rivojlantirish.

Talaba yoshlarni huquqiy tarbiyalash va huquqiy madaniyatini rivojlantirish butun bir murakkab ko‘p qirrali jarayonni tashkil etib, uning asosini huquqiy ma’rifatparvarlik, qonunchilik asoslariga o‘rgatish, huquqiy faoliyat to‘g‘risidagi huquqiy bilimlarni singdirish hamda huquqiy o‘z-o‘zini tarbiyalashda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish tashkil etadi. Buning uchun esa tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi va tarbiyalanuvchilarda huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish uslubiyotini puxta egallashi lozim.

Adabiyotlar

1. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2019 yil 9 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-son farmoni.

2. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi (Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, 06/19/5892/4134-son; 09.10.2020 y)

3. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 25 yanvar №-19 son.

4. Norqulov D.T., Babayarova N.D. Jamiyat ma’naviy hayoti va huquqiy ong. “Globallashuv sharoitida falsafa va milliy g‘oyaning dolzarb masalalari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Toshkent, 2017 y.

TIL BIRLIKLARINING MADANIY SEMANTIKASINI O‘RGANISH - LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING ASOSIY YO‘NALISHLARIDAN BIRI

Duysabayeva D.U. – Toshkent davlat pedagogika universiteti Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “kompetensiya” va “lingvomadaniy kompetensiya” tushunchalari muammolari haqida so‘z boradi. Shuningdek, bo‘lajak qozoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarini tayyorlashda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kasbiy va didaktik kompetensiya, lingvomadaniy kompetensiya, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi.

ИЗУЧЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ СЕМАНТИКИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ - ОДНО ИЗ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Дуйсабаева Д.У. - доцент кафедры казахского языка и литературы Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье говорится о проблемах понятия «компетенция» и «лингвокультурная компетенция». Также рассматриваются современные подходы формирования лингвокультурной компетенции в подготовке учителей казахского языка и литературы.

Ключевые слова: компетенция, профессионально-дидактическая компетенция, лингвокультурная компетенция, профессиональная подготовка учителей.

THE STUDY OF THE CULTURAL SEMANTICS OF LANGUAGE UNITS IS ONE OF THE MAIN AREAS OF LINGUOCULTUROLOGY

Duysabayeva D.U. - Associate Professor of Kazakh Language and Literature, Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article talks about the problems of the concept of "competence" and "linguocultural competence". The modern approaches to the formation of linguocultural competence in the preparation of teachers of the Kazakh language and literature are considered.

Key words: competence, professional and didactic competence, linguocultural competence, professional training of teachers

Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikda nisbatan yangi fan hisoblansa-da, madaniyatning tildagi aksini o‘rganishning o‘ziga xos yo‘llari va usullariga ega. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri - til birliklarining madaniy semantiqasini o‘rganishdir. Bu mavzu bilan bog‘liq masalalarni o‘rganib chiqib, biz ma’lum bir jamiyat madaniyatining yaratuvchisi, davomchisi va rivojlanish sub’ekti bo‘lgan til qonunlarini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Bu, shuningdek, o‘quv jarayonida va jamiyatimizda odamlarning ta’lim darajasini belgilashda samarali omillar bo‘lishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlarni aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun, bizning tadqiqotlarimiz uchun tilni bilish darajasini nafaqat lingvistik tushunish va baholash, balki har bir til birligining madaniy va milliy komponentlarini tushunish va bilish ham muhim ahamiyatga ega. A.Yu.Apresyanning so‘zlariga ko‘ra, tilni bilish quyidagilarni anglatadi: a) berilgan ma’noni har xil (ideal holda, berilgan tilda mumkin bo‘lgan har qanday usulda) ifoda eta olish (perifrazalash qobiliyati), b) ma’lum bir tilda aytilganlardan ma’noni ajratib olish, xususan, tashqi tomondan o‘xshash, ammo ma’no jihatidan farq qiladigan (omonimiya farqi) va tashqi tomondan har xil gaplarda umumiy ma’no topa oladigan (sinonimiyadan xabardorlik); lingvistik jihatdan to‘g‘ri jumlalarni noto‘g‘ri so‘zlardan ajrata olish [1, 767-b.].

Ma’noni turli yo‘llar bilan ifoda etish qobiliyati va gapni so‘zma-so‘z talaffuz qilish qobiliyati yuqori darajadagi tilni bilishni anglatadi va hatto bu sohada yetarlicha yuqori tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan yuqori ma’lumotli odamlar orasida ham sinonimiya va omonimiyani farqlash kam uchrashi kuzatilgan. Bu esa albatta, ma’lum mutaxassislik(tilshunoslik) bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan odamlarga “bo‘ysunadi”. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, jamiyatimizning “o‘rtaxol” a’zosi uchun tilni bilish quyidagilarni anglatadi: a) tilning asosiy lingvomadaniy birliklarini bilish; b) jumlalar va gaplar tuzishning asosiy grammatik tuzilmalariga ega bo‘lish; v) kommunikativ vosita va texnikaga ega bo‘lish (gapirish qobiliyati va aytilganlardan ma’no chiqarib olish qobiliyati).

Mashhur filolog D.S.Lixachev “insonni tanishning ya’ni uning aqliy rivojlanishi, axloqiy qiyofasi, harakterini bilishning eng yaxshi usuli – – uning aytganlarini tinglashdir. Agar biz insonning o‘zini tutish uslubi, uning yurish-turushi, xatti-harakatini sezsak, unda inson tili uning insoniy fazilatlari, madaniyatining yanada aniq ko‘rsatkichidir. Shunday qilib, uning madaniyatining belgisi sifatida xalqning tili va shaxsning tili, uning shaxsiy fazilatlarining belgisi - xalq tilidan foydalanadigan insonning fazilatlaridir” [2, 355-b.].

Shunday qilib, xalqning tili ham, shaxsning tili ham madaniyatning aksi bo‘lib, xalq madaniyatining ko‘rsatkichlari hisoblanadi. “Til madaniyati” atamasiga kelsak, u “til” va “madaniyat” tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha “til madaniyati”, “nutq madaniyati” yoki bu tushunchalarni almashtirish uchun sinonim

sifatida ishlatiladi va bu atamalarning uyg‘unligiga qarab ularning ma’nosi o‘zgaradi. Shuning uchun mazkur atamalardan foydalanish uchun ularning ta’riflarini to‘g‘ri aniqlash kerak. Lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, “til madaniyati” iborasining ta’riflari juda ko‘p emas. Shunday qilib, Ye.O.Oparina til madaniyatini “til tizimiga ham, nutqga ham, nutq xatti-harakatlarining ijtimoiy-madaniy jihatdan asosli xususiyatlariga ham taalluqli keng doiradagi hodisalar” deb ta’riflaydi [3, 89-b.].

Ona tilini o‘qitishda ham lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirish - madaniy savodxonlikni rivojlantirish, qadr-qimmatini hurmat qilish va til ko‘nikmalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan ta’lim mazmunini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy maqsadi - til birliklarining madaniy semantiqasini o‘rganish.

Til birliklarining madaniy semantiqasini o‘rganish, ya’ni so‘z ma’nosini ajrata bilish - fikrni bayon qilishda gap tuzish jarayonining asosiy vazifalaridan. Professor S.Kenesbayev: “So‘z qanday murakkab bo‘lsa, so‘z ma’nosi ham shuncha murakkab” degan edi [5, 608-b.]. So‘z ma’nolarini tahlil qilish murakkab jarayon hisoblanadi, chunki so‘zlarning matnda turli ma’nolarni ifodalashi mumkin. Qozoq tilidagi *қара(qora)* sifatini olsak, bu so‘zning insonga nisbatan ishlatilgan va *qora sigir, qora kuya, qora ruchka* kabi so‘z birikmalaridagi ma’nosi bir xil deb aytish mumkin emas.

Qora so‘zi qadimgi turkiy tillarda *mol* degan so‘zining o‘rnida qo‘llanilganligini XIV asrning yodgorligi Rabg‘uziyning “Qissas-ul Anbiyo” asaridan ko‘rish mumkin. Bu yerda *qora* so‘zi ko‘p uchraydi. Turkiy xalqlar yodgorligi Kultegin toshbitigida *qora* so‘zi *budun* so‘zi bilan birikib *qora budun* deb yozilgan bo‘lib, qora xalq *(қара халық)*, ya’ni xon (qag‘an) avlodidan boshqalar degan ma’noni bildirgan.

Vaqt o‘tishi bilan qora so‘zining ma’nosi predmet nomi tushunchasidan sifat ma’nosiga almashgan. Xozirgi paytda qora leksemasining qozoq tilida bir qancha ma’nolari bor. Birgina M.Maqatayevning “Райымбек, Райымбек” dostonidan olingan parchaga nazar solsak:

Қара таудың басынан көш келеді,
Қара жорға шайқалып бос келеді.
Қара күнді жамылып, *қара* қазақ,
Қара түнді басынан кешкен еді.
Қара қайғы көрсетпей ештеңені,
Қара жауы қанатын кескен еді.
Шұлғау болып қыздардың төсектері
Талай *қара* шаңырақ өткен еді.

Ushbu misolda *qora (қара)* so‘zi sakkiz marta takrorlangan, ammo bir-biriga uxshamagan yangi ma’noda qo‘llanilgan, hech birining ortiq bo‘lib turgani

payqalmaydi. *Қара таудың* degan so‘z birikmasida qora so‘zi tog‘ning rangi emas, balki toponimik nomidan kelib chiqqan.

Turkiy tillardagi toponimik nomlarda quyoshning nuri tushgan tomon *ақ(oq),* uning teskari tomoni esa *қара (qora)* so‘zining birikmasidan yasalgan. Masalan, Aqtau, Qaratau, Aqsu, Qarasu, va boshq. *Қара жорға* ochlik va uzoq yurishlarga chidamli ot ma’nosida, *қара күнді* degan so‘z birikmasi og‘ir qiyinchiliklarga uchragan payt ma’nosida, *қара қазақ* - oddiy chorvadan chiqqan, mehnat bilan voyaga yetgan odam ma’nosida, *қара түнді* – yovuzlik simvoli ma’nosida, *қара қайғы* – og‘ir qayg‘u-xasrat belgisi ma’nosida, *қара жауы* – ashaddiy, anchadan buyon dushman ma’nosida, *қара шаңырақ* - avlodlarga meros bo‘lib qolgan otaning yoki boboning katta uyi, ya’ni xalq qadrlaydigan uyi kabi ma’nolarida berilgan.

Қыздарын теңге бермей, малға беріп, Қазақты қара көңіл аң қылғаның. (С.Торайғыров. Қамар сұлу.) Абай ауылы бүгін қаралы болып отыр. (М.Әуезов. Абай жолы.) – kabi misoldarda ham bu so‘zning ma’nosi bir-biridan o‘zgacha. Birinchi misoldagi *қара* vijdonsiz, noinsof ma’nosida, keyingi misoldagi *қаралы* – aza to‘tgan ma’nosida berilgan.

Bundan tashqari qozoq tilida *qora* so‘ziga yoki ushbu so‘zdan yasalgan so‘z birikmalariga bog‘liq bir qancha ma’nolar mavjud: **қара көйлек – qora ko‘ylak, *қара топырақ - qora to‘proq, *қара шаш/көз – qora soch/ko‘z, *қара нан – qora non, *қара тамақ – yog‘siz, oddiy qilib tayyorlangan taom, *қара ала ат – qora-chipor ot, *қара күш – qudratli kuch, *қара нөпір – odamlar yig‘ini, *қара тер – qattiq terlash, *қара албасты – yovuz alvasti, *қара қол – ko‘p sonli askar, *қара орман – cheksiz boylik, mol-mulk, *қара өрт – kuchli yong‘in, *қара жауын – kuchli jala, *қара дауыл - kuchli dovul, *қара суық – kuchli quruq sovuq, *қара боран – kuchli bo‘ron, *қара тұман – quyuq tuman, *қара өзек жақ – qishning oxiri, *қара ет – yog‘siz go‘sht, *қара шай – sutsiz oddiy choy, *қара жарыс – chavandozlarning sovrinsiz baxsi, *қара жаяу – oddiy(insonga qarata), *қара жұмыс – jismoniy ish, *қара өлең – qozoq xalq ijodiga tegishli she'riy asar, *қара дүрсін киім – oddiy kiyim, *қара сөз – proza,nasriy asar, *қара жүрек – yovuz, *қара ниет- yomon niyatli, *қара көңіл – vijdonsiz, noinsof, *қара бет, жүзі қара-sharmanda bo‘lgan, *қара шаңырақ – ota-bobolari va ularning avlodlariga meros bo‘lib qolgan uy(ota uyi), *қара үй – o‘tov, kulba, *қара саба – qimiz turadigan teridan ishlangan katta idish, *қара қазан – oila simvoli, *қара қоныс – ona vatan, yurt,, *қара сабын – xo‘jalik sovuni, *қара қағаз – nusxa ko‘chirish qog‘ozi, *қара кемік – oriq (molga qarata), *қара нар – chidamli tuya* [4, 89-б.].

Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda *qora (қара)* so‘zining matndagi asosiy ma’nolarini tahlil qiladigan bo‘lsak, qo‘yidagilar kelib chiqadi:

Qora (қара) - sigir, tuya, yilqi kabi yirik molga aytiladi;

Qora (қара) - uzoqdan bildirab ko‘rinadigan jonli-jonsiz zot;

Qora (қара) - yog‘siz, t’amsiz tayyorlangan taom;
Qora (қара) - aybdor, gunohkor inson;
Qora (қара) - noo‘rin ayblash;
Qora (қара) - jin-shayton, jodugar kabilar;
Qora (қара) - a) o‘lim, qayg‘u-xasrat belgisi;
б) *qora qog‘oz (қара* қағаз) - o‘lim, qazo haqidagi xabar;
с) *qora yopinish (қара* жамылу*)* - aza tutish;
Qora (қара) - oddiy so‘z, prozadagi asarlar so‘zi;
Qora (қара) - og‘ir, zil botmon;
Qora (қара) - yovuz, ikki yuzlamachi;
Qora (қара) - yozuv-chizuv, xat, harf tanish;
Qora (қара) - yerning beti, to‘proqqa tegishli tushuncha;
Qora (қара) - kuchli (qora dovul, qora kuch);
Qora (қара) - qish kunlaridagi qattiq sovuq, ayoz;
Qora (қара) - oddiy chorvadan chiqqan, mehnat bilan voyaga yetgan odam;
Qora (қара шаңырақ) – katta, xurmatli (otaning yoki boboning, ya’ni yel qadrlaydigan uyi) va boshqalar kabi ma’nolari bor.

Yuqorida berilgan misollarda birgina *qora (қара)* so‘zidan yasalgan so‘z birikmalarining xilma-xilligi, ularning matndagi(konteskdagi) ma’nosi jihatidan bir-biridan yiroq bo‘lishlari mumkinligini tahlil qildik, lingvomadaniy mohiyatini anglashga harakat qildik.

Til va madaniy kompetentsiya - bu lingvistik va madaniy elementlardan kontekstda foydalanish, madaniy, tarixiy va maxsus milliy ma’lumotlardan lingvistik aloqada foydalanish, lingvistik bilimlar tizimi, millat tarixi, an’analari va madaniyati haqidagi bilimlardan oqilona foydalanish, nutq madaniyatini rivojlantirish.

Nafaqat chet tili, balki, ona tilini chuqur o‘zlashtirish uchun ham dunyoning etnomadaniy qiyofasi, lisoniy ongi, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari to‘g‘risidagi tushuncha shakllanishi kerak.

Shu sababli, “til va madaniyatni birgalikda o‘rganish” prinsipi ona tilida til birliklarining madaniy semantiqasini o‘rganishda ham joriy etila boshlandi. “Madaniyat va til”ni lingvomadaniy birliklar (lingvokultural) majmui sifatida ko‘rib chiqish doirasida lingvomadaniy yondashuv natijasida ona tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalarida ham lingvomadaniy kompetentsiyani rivojlantirish maqsadida konkretlashtirilgan vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni kafolatlash bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

Til birliklari yordamida moddiy va ma’naviy madaniyatni anglash, uning mazmun va mohiyatni tushunish kerak. Til birliklari yordamida madaniyatning milliy tabiati ham ifodalanadi, chunki har bir millat dunyodagi o‘ziga xos mentaliteti va nuqtayi nazariga ega. Til birliklari va til vositalari milliy individuallik, xalq ruhini aks

ettiradi. Til - madaniyat ombori. Unda til va madaniy qadriyatlar: so‘z boyligi, frazeologiya, grammatika, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, yozma va og‘zaki nutq aks ettirilgan.

Adabiyotlar

1. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т. II. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М. : Языки рус. культуры, 1995. – 767 с.
2. Лихачев Д.С. Русская культура. – М.: Искусство, 2000. – 440 с.
3. Опарина Е.О. Язык и культура. Языковая культура как предмет общественного интереса [Электронный ресурс]. Сб. обзоров – М.: ИНИОН, 1999. – 109 с.
4. Сыздықова Р.Г., Хусайын К.Ш. Қазақша-орысша сөздік. - А.: -2001.

TALABALARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI

Maxmudova D.M. – Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, p.f.f.d.*(PhD)*

Annotatsiya. Maqolada talabalarning salohiyatini obyektiv o‘rganish uchun kreativ faoliyatni quyidagi tarkibiy qismlari mavjud bo‘lishi ilmiy asoslab berilgan: kognitiv-kreativ, motivatsion-shaxsiy, faoliyatga doir, korreksion-baholovchi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ salohiyat, motivatsion-shaxsiy komponent, kognitiv komponent, faoliyatga doir komponent, refleksiv-baholovchi komponent.

СТРУКТУРА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Махмудова Д.М - преподаватель Чирчикского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук.

Аннатоция. В статье научно обосновано наличие следующих компонентов креативной деятельности для объективного изучения креативных способностей студентов: когнитивно-креативный, мотивационно-личностный, деятельностный, коррекционно-оценочный.

Ключевые слова: креативность, креативный потенциал, мотивационно-личностный компонент, когнитивный компонент, компонент деятельности, рефлексивно-оценочный компонент.

THE STRUCTURE OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY IN STUDENTS

Maxmudova D.M - ***(PhD)*****Chirchik State Pedagogical Institute**

Annotation. The aticle scientifically substantiates the existence of the following components of creative potential for the objective study of students creativity: cognitive-creative, motivational-personal, activity-oriented, correctional-evaluative.

Key words: creativity, creative cpotential, motivational-personal component, cognitive component, activity component, reflexive-evaluative component.

Dunyo miqyosida jamiyat rivojining zamonaviy bosqichida talabalarda innovatsion-kreativ salohiyatni rivojlantirish tizimini takomillashtirish, informatika fanini o‘qitishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish, informatika fanlarini o‘qitishda nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari talablari asosida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish, yangi ta’lim paradigmalari imkoniyatlarini kengaytirish asosida talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda tadqiqotchilar tomonidan kreativ faoliyatning 30 ga yaqin komponenti aniqlashtirilgan. Ularni bir qancha mantiqiy bloklarga ajratish mumkin: motivasion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga doir, mazmunli va refleksiv, shuningdek, yana alohida ajratib ko‘rsatilgan qator komponentlar ham borki, ular sanab o‘tilganlari tarkibiga ham kirmaydi.

N.F.Yefremova kompetentlikni loyihalashning to‘rtta jihatini ajratib ko‘rsatgan [1; 416-b.]:

1. Bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash (kognitiv jihat).
2. Bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashga tayyorlik (motivasion jihat).
3. Turli vaziyatlarda kompetentlikni namoyon etish (xulqiy jihat).
4. Faoliyat natijasi uchun mas’uliyat (axloqiy jihat).

A.V.Xutorskiyning talablarini, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik kreativlik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli mualliflarning yuqorida ta’riflab o‘tilgan mavjud jihatlarning kreativ kompetentligini (kompetensiyani) loyihalashtirishga yondashuvlarini tahlil qilib chiqamiz.

Chunonchi, D.A.Xalilova pedagogning kreativ kompetentlik strukturasiga motivasion-maqsadli komponentni (pedagogning kasbiy fikrlashini maqsad deb bilish va motivatsiyaning spesifikatsini, kasbiy amaliyotda pedagogik faoliyatning muhimligini aks ettiradi), kognitivli komponentni (bo‘lajak o‘qituvchining fikrlash xususiyatlarini, fikrlashning u yoki bu komponentlarini hamda yuzaga kelgan muammo va masalalarni yechish yo‘llarini tanlashda ko‘rinadigan asosiy kreativ xususiyatlarini ko‘rib chiqishga imkon beradi);

- faoliyatga doir komponentni (pedagog tomonidan uning oldida yuzaga kelgan kasbiy masalalarni hal etish jarayonida izlanuvchanlik faoliyatining maxsus usullari tizimi bilan evristik foydalanish jihatlarini aks ettiradi; o‘qituvchi tomonidan umumlashtirilgan pedagogik amaliyotda ishlab chiqilgan kasbiy masalalarni yechish yo‘llarini aks ettiradi) va shaxsiy komponent (pedagog faoliyatida namoyon bo‘luvchi shaxs xususiyatlari, harakteri, hayotiy tajribasi, o‘qituvchining qimmatli ko‘rsatmasiga bog‘liq individual tasniflarini aks ettiradi) turlarini ko‘rsatib o‘tgan.

E’tirof etish kerakki, mazkur tizimda muallif yaqqol ko‘rinishda bizning qarashimizcha, o‘qituvchi pedagogik kompetentligining asosi hisoblangan refleksiv komponentni ajratib ko‘rsatmayapti, chunki pedagogning o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilishi, o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayonlarini refleksiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

M.M.Kashapova, T.G.Kiseleva va T.V.Ogorodova o‘z tadqiqotlarida ta’kidlab o‘tadilarki, yuqori refleksiv darajadagi o‘qituvchi o‘z faoliyatini va o‘quvchilarning javob xatti-harakatlarini aniq tahlil etadi. Oqibatda, o‘qituvchilar shunday qobiliyat bilan, kreativ iqtidorli bolalarni ko‘proq holis baholaydilar [2; 392-b.]. Yu.R.Varlakova tadqiqotlarida refleksiyani bo‘lajak bakalavr o‘qituvchilarda kreativlikning mustaqil komponenti sifatida qaramaydi, faqat qo‘yidagilarni ajratib ko‘rsatadi [3; 39-44-b.]:

- motivasion-qadriyatli – subyektning o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallash va ta’lim jarayonida qo‘llash, bo‘lajak kasbini qadrlash uchun shaxsiy ko‘rsatmasi;
- kognitiv – bo‘lajak o‘qituvchining o‘zlashtirish faoliyatini aniq xususiyatlari, uning samaradorligi va kreativlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi bilim va malakalar tizimi; - praksiologik – kasbiy faoliyatni tadbiq etishga ijodiy yondashish qobiliyati.

I.Ye.Bryakova tomonidan tavsiya etilgan kreativ kompetentlik ta’rifida aksiologik (inson shaxsiga ijodiy munosabat, qadriyat sifatida motivasion) o‘zaro ijodiy faoliyatga extiyoj (ushbu extiyojni o‘quvchiga berishga intilish), kognitiv dialog orqali o‘zaro ijodiy faoliyatga qobiliyat (u o‘zining shaxsiy ijodiy mahsulotlarini yaratishida namoyon bo‘ladi); tanlab olingan axborotdan ijodiy foydalanish va uni ijodiy masalalar tizimi sifatida tizib chiqish malakasi; bilimlarni

kasbiy ijodiy vazifalarni hal etish uchun ishlatish malakasi, operasional (to‘plangan tajribani ijodiy qo‘llash va yangi metodikalarni yaratish malakasi), refleksiv (shaxsiy ijodiy faoliyat bo‘yicha refleksiya; ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘z roli bo‘yicha refleksiya) komponentlari tavsifini to‘liqroq deb hisoblaymiz [4; 52-b.].

I.Ye.Bryakova bo‘lajak filolog o‘qituvchilarning kreativ kompetnentligini tadqiq etganini ta’kidlaymiz. Chunonchi, kreativ kompetnentlik tizimida qator maxsus komponentlar aniqlangan: adabiyotshunoslik, lingvistika, til, madaniyatshunoslik va boshqalar. Shuning uchun I.Ye.Bryakova tomonidan ta’riflangan kreativ kompetnentlik komponentlari mutaxassislik yo‘nalishiga ega va pedagogik ta’lim tayyorgarligining barcha yo‘nalishiga birdek universal hisoblanmaydi.

Kreativ kompetentlikning tarkibiy asoslari bo‘yicha kontent-tahlil shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘rganilayotgan kategoriyaning tuzilmasida quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatishadi: motivasion-qadriyatli, emotsional, kognitiv va jarayonli-faoliyatga doir. Biroq kreativ kompetentlik dinamik tavsifga egaligini hisobga olib, uning samarali rivojlanishi uchun shaxs faoliyatini muntazam baholab borish zarur. Shuning uchun kreativ kompetentlik tuzilmasiga refleksiv-baholovchi komponentni kiritish zarur, deb hisoblaymiz.

Tahlil natijalari asosida tadqiqot doirasida kreativ kompetentlikning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi:

- motivasion-shaxsiy komponent – kreativ faoliyatga ehtiyojr, kreativ faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatining anglanganligi, kreativ jarayon va uning natijalariga qiziqishning faol namoyon bo‘lishi, doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga ehtiyojning anglanishi;

- kognitiv komponent – kreativ fikrlash operatsiyalari va kognitiv usullar (analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tasniflash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, abstraktlash, modellashtirish); kreativ faoliyat algoritmlari va strategiyalari;

-faoliyatga doir komponent – kreativ faoliyatni amalga oshirishda muammoli-izlanishli usullarga tayanish; kreativ faoliyat algoritmlari va strategiyalarini qo‘llashga shaxsning tayyorligi;

- refleksiv-baholovchi komponent – kreativ faoliyatning produktiv usullarini belgilab olish maqsadida o‘zining imkoniyatlarini baholashga shaxsning tayyorligi va keyingi amalga oshiriladigan harakatlarga tuzatishlar kiritish.

Kreativlik tuzilmasiga doir J.Gilford – Ye.P.Torrens, A.N.Luka (kreativlikning kognitiv jihati ijodiy fikrlashga tayanadi), shuningdek, Ye.Ye.Tunik, V.A.Molyako va D.Lefbrijlarning (kognitiv-affektivlikka asoslanadi va mazmunan shaxsiy va xulq-atvor komponentlaridan iborat) qarashlari keng tarqalganligi aniqlashtirildi.

Kreativlikning tarkibiy asoslarini talqin qilishga doir bir nechta variantlar ko‘rib chiqildi va mualliflik nuqtayi nazaridan kreativ kompetentlik tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish tuzilmasi

Tahlil natijalari asosida talabalarning kreativligini obyektiv o‘rganish uchun quyidagi tarkibiy qismlar mavjud bo‘lishi lozimligi belgilandi: kognitiv-kreativ (kreativ fikrlash va tasavvur), motivasion-shaxsiy (bilishga ehtiyoj, mustaqillik va tanqidiylik), faoliyatga doir (ijodiy faollik, qat’iylik va tirishqoqlik), korreksion-baholovchi (kreativ faoliyatga tayyorlikni baholash va tuzatishlar kiritish)

Adabiyotlar

1. Ефремова Н.Ф. Компетенции в образовании: формирование и оценивание / Н.Ф. Ефремова. – Москва, Издательство «Национальное образование», 2012. – 416 с.

2. Креативность как ключевая компетентность педагога: монография / Под ред. проф. М.М. Кашапова, доц. Т.Г.Киселевой, доц. Т.В.Огородовой. – Ярославль: ИПК «Индиго», 2013. – 392 с.

3. Варлакова Ю.Р. Теория и методика педагогического моделирования развития креативности будущих педагогов в профессиональном образовании // Современные исследования соцеальных проблем, 2017, Том 8, № 6-2. – С.39-44.

4. Брякова, И.Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического ВУЗа: автореф. дис. док. пед. наук: 13.00.02 / Брякова Ирина Евгеньевна, 2010. –52 с.

5. Makhmudova D.M. Issues of optimal management in the development of creative competence in students // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 6, June 2020. – P. 619-624.

6. Makhmudova D.M., Sodikova Sh.M, Dusmurodova G.H. Formation of creative thinking of students of a pedagogical university by means of information technology in learning mathematical disciplines // International Journal of Psychological Rehabilitation, Vol.24, Issue 07, 2020. – P. 8097-8103.
https://www.psychosocial.com/article/PR270785/18958/

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNI PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ergasheva S.T. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy-metodologik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, o‘qish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tadqiq qilingan. Bundan tashqari aniqlangan muammolar bo‘yicha xorijiy tajriba o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, xalqaro baholash, PISA, TIMSS, PIRLS, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, matn, nutq.

ТЕОРИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Эргашева С.Т - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье раскрываются теорико-методологические основы педагогической поддержки развития читательской грамотности учащихся начальных классов. Также изучаются проблемы с чтением. Кроме того,

изучается зарубежный опыт по выявленным проблемам. В исследовании даны рекомендации по развитию читательской грамотности.

Ключевые слова: грамотность чтения, международная оценка, PISA, TIMSS, PIRLS, анализ, синтез, сравнение, обобщение, текст, речь.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF READING LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Ergasheva S.T. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article reveals the theoretical and methodological foundations of pedagogical support for the development of reading literacy of primary school students. Reading problems were also studied. In addition, foreign experience on the identified problems was studied. The study provides recommendations for the development of reading literacy.

Key words: reading literacy, international assessment, PISA, TIMSS, PIRLS, analysis, synthesis, comparison, generalization, text, speech.

Ma‘lumki, Respublikamizda ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan OECD hamda IEA tashkilotlari o‘rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O‘zbekiston Xalqaro o‘quvchilarni baholash PISA-2022 (avvalgi PISA-2021) da ishtirok etishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish vazifalari belgilangan. PISA xalqaro baholash dasturi 15 yoshdan yuqori yoshdagi o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan.

Shaxsning hayotida tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi yani hayotiy muommoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlarni mustaqil ravishda hal eta oladi. Bu turdagi topshiriqlar PISA topshiriqlarining asosi bo‘lmish kontekst deb yuritiladi. Kontekstlar uchta darajada bo‘ladi: shaxsiy, mahalliy – milliy, global [4; 65-bet].

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi [5; 64-bet].

Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS, PIRLS va boshqalar)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta’minlanadi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun; boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan obyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchilarning ta’lim olishga oid qarashlari, o‘qitish usullari hamda uy sharoitida o‘quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma’lumotlar to‘planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi [3; 167-bet].

Ta’lim tizimida o‘qish fanidan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish zarurati mavjud. Ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash shartligi, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash kerakligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash asosida rivojlantirish bo‘yicha tajriba almashish zaruriyati mavjud. Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish jarayonida bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturini amalga oshirish borasida bir qancha muammoli masalalar ham mavjud:

- o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish fani bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash;

- o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta’minlash dasturini ishlab chiqish sohasida xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish fanidan o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

- xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish;

- xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo‘nalishlaridagi savollarni o‘zida mujassam etgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratish;

- umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik ta’minoti nazariy jihatdan asoslab berilsa va amalga oshirilsa quyidagilar muvaffaqiyatli amalga oshadi:

1) o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qish savodxonligi bilan ishlash ijodiy faoliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini tizimlashtirishga yordam beradi;

2) tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishning aqliy operatsiyalari asosida o‘qish savodxonligini rivojlantirishga imkon beruvchi muloqot, loyiha usullari va metodlarini integratsiyalashga asoslangan texnologiya orqali amalga oshiriladi;

Xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o‘qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta’lim jarayonida o‘qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o‘zgartirish zarur. Buning uchun biz o‘qituvchilarni tayyorlashimiz, rivojlantiruvchi ta’limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o‘qituvchilarni ta’lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta’minlashimiz kerak. Bugungi kungacha PISA va PIRLS tadqiqotlari topshiriqlari xususiyatlarini ochib beruvchi materiallar, maqola, dissertatsiyalar, to‘plamlar chop etildi. Endi esa bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirib, paydo bo‘layotgan muammolarni hal qilish ustida ishlash kerak bo‘ladi [2; 462-bet].

Respublika miqyosida olib borilayotgan ta’lim va fan sohasidagi islohotlardan kelib chiqqan holda ilg‘or o‘quvchi har ikki guruh ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak:

-To‘liq matnga asoslangan holda, matndan ma’lumot olish va uning asosida eng -oddiy hukmlarni tuzish qobiliyati;

-Ma’lumot topish va oddiy xulosalar chiqarish qobiliyati:

O‘qilgan narsalar haqida o‘z fikrlashiga asoslangan ko‘nikmalar:

- matn ma’lumotlarini o‘quvchining o‘z bilimi konteksida birlashtirish, talqin qilish va baholash;
- muallif tomonidan bevosita ifoda etilmaydigan aloqalarni o‘rnatish;
- matnning umumiy g‘oyasi bilan bog‘liq holda ularni talqin qilish;

O‘qish savodxonligi - bu odamning o‘z maqsadiga erishish, bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun yozma matnlarni tushunish va ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish va o‘qish bilan shug‘ullanish qobiliyati. Nima uchun “o‘qish” atamasi o‘rniga “o‘qish savodxonligi” atamasi ishlatilgan? O‘qish (ayniqsa, pedagogik kontekstda) ko‘pincha dekodlash - harflarni tovushlarga tarjima qilish deb tushuniladi. O‘qish ko‘pincha ovoz chiqarib o‘qish bilan bog‘liq. O‘qish savodxonligi keng ko‘lamli vakolatlarni o‘z ichiga oladi: asosiy dekodlashdan, so‘zlarni bilishdan, grammatikani bilishdan, matn tuzilishini bilishdan dunyo haqidagi bilimgacha.

Yuqori darajali o‘qish savodxonligi o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichida keyingi o‘qishga tayyorligini ko‘rsatadi. Bunday talabalarga nutq va kundalik tajriba va bilim chegaralaridan tashqariga chiqmaydigan badiiy va axborot matnlarining xabarlarini tushunish va baholash uchun deyarli yordam kerak emas. Yuqori darajali o‘quvchilar yozma ravishda yetkazilgan yangi ma’lumotlar, fikrlar, tajribalar yordamida o‘z tajriba va bilimlarini kengaytirish va o‘zgartirishga imkon beradigan o‘qish komponentlarini o‘zlashtirishga tayyor.

O‘rtacha darajasi matnlarni tushunish o‘qish asoslarini hali to‘liq o‘zlashtirmagan o‘quvchilarga xosdir. Matn xabarlarini o‘qish va undan o‘z qadriyatlarini yaratish uchun ularning barchasi yordamga muhtoj. Bu o‘z tajribalariga zid bo‘lmagan matnli xabarlarni tushunishga yordam beradi va hayotiy tajribasi va dunyoqarashi ularnikiga zid bo‘lgan suhbatdoshlar bilan yozma muloqot va hamkorlikni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Past darajali matnlarni tushunish talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun insonning his-tuyg‘ulari, fikrlari va bilimlari haqida yozma muloqot shakllaridan foydalanishda o‘qituvchining yordamini qabul qila olmaydi.

Bugungi kunda maktabda o‘qish va yozishni o‘rgatish faqat ilmiy maqsadlar bilan chegaralanib qolmaydi, u kundalik hayot va ish bilan bog‘liq funktsional va operatsion maqsadlarni o‘z ichiga olishi kerak. Yangi davlat o‘quv dasturi o‘qituvchilarni o‘quvchilarning funktsional savodxonligini rivojlantirishga qaratadi. Ona tilini o‘qitishda matnshunoslikka katta e’tibor beriladi, kommunikativ yondashuv yangilanadi va ko‘p madaniyatli muhitning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Maktab o‘z o‘quvchilarini olgan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. “O‘qish savodxonligi” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv jarayonida alohida o‘rinni matn egallaydi. U nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy vazifalarni ham bajarishga yordam beradi. Shaxsning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda.

Badiiy matn izchil nutqni rivojlantirishda mashqlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Matnni idrok etish qobiliyatini yaxshilashning asosiy usuli bu matnni tahlil qilishdir [6; 32-bet].

Hozirgi sharoitda matn bilan ishlashning ko‘plab usullari mavjud. Masalan, munozara usulini 3-4-sinf o‘quvchilari bilan ishlash amaliyotiga kiritish mumkin. Katta yoshda tavsiya etilgan usul boshqa, chunki u har qanday suhbatdosh bilan aloqa qilish va muloqotda bo‘lish qoidalariga rioya qilish, suhbatdoshni tinglash, suhbatdoshni muloqotni davom ettirishga rag‘batlantirish, o‘zgartirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [1; 365-bet].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish ularning dunyoqarashlarini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar har bir matn ustida ishlash jarayonida uni faqatgina o‘qib qolmasdan, ma’nosini anglagan holda ijtimoiy hayot bilan bog‘lasalargina samarali va kutilgan natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Husanboyeva Q. - Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.

2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari.–Toshkent: Kamalak, 2016. – 462 b.

3. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.167-b.

4. Tashkenbayeva U.N. “O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‟ljallangan Axborotnoma” Toshkent 2020 yil. 65-bet

5. Tashkenbayeva U.N. “O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma” Toshkent 2020-yil. 64-bet

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. –T., 2019. – 32-b.

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING TUTGAN O‘RNI

Nurbaeva H.B. - Toshkent tibbiyot akademiyasi iqtidorli talabalar ilmiy faoliyatini tashkil qilish bo‘limi xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba yoshlarda milliy qadriyatlarni rivojlantirish, tarixiy-madaniy merosni keng targ‘ib etish, talabalarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini, ajdodlar merosiga aksiologik munosabatni qaror toptirish, talabalarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, ajdodlar merosini o‘rganish haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, talaba-yoshlar, ota –ona, mahalla, milliy - an’analarimiz, urf odatlarimiz, komil inson, barkamol yoshlar.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Нурбаева Х.Б. - сотрудник отдела организации научной деятельности одаренных студентов Ташкентской медицинской академии

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется развитию национальных ценностей студенческой молодежи, широкой пропаганде историко-культурного наследия, чувству национальной гордости у студентов, определению аксиологического отношения к родовому наследию, поддержке инициативы студентов по изучению родового наследия.

Ключеве слова: национальные ценности, учащиеся, родители, соседство, национальные традиции, обычаи, совершенный человек, гармонично развитая молодежь.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

Nurbaeva H.B. - Employee of the Department of Organization of Scientific Activities of Gifted Students of the Tashkent Medical Academy

Annotation. This article focuses on the development of national values of students, the widespread promotion of historical and cultural heritage, a sense of national pride in students, the determination of the axiological attitude to ancestral heritage, the support of students' initiative to study ancestral heritage.

Key words: National values, students, parents, neighborhood, national traditions, customs, perfect man, harmoniously developed youth.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri-yuksak ma’naviyati, zamonaviy bilim va kasb-hunarga, o‘z mustaqil fikirga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz” [2]. Shuningdek, yoshlar masalasi eng katta bizning oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ma’naviyat (arab –ma’nolar majmui)-kishilarning falsafiy huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalar majmui. Birinchi prezidentimiz I.Karimov “Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, avvolo, Insonni ruhiy poklanish va yukaslishiga davat etadigan, insoni ichki olamini boyitadigan, uning imon irodasini e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman” degan fikrlari diqqatga sazovardir [1, 72 b.]

Ma’naviyatimizning o‘zagi - milliy an’analarimiz oila bag‘rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan bo‘lib, asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida yetib kelgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an’analarimiz ham milliyligimiz ramzi bo‘lib, katta qadrga egadir.

Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni har doim kuzatib, nazorat qilish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Hozirgi davrda taraqqiyotimiz uchun xavfli bo‘lgan, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir etuvchi, yoshlarni dushmanlik ruhida tarbiyalaydigan buzg‘unchi g‘oyalarga qo‘shimcha ta’sirlar sifatida quyidagi vositalardan ham foydalanilmoqda, bular: internet, sputnik aloqalari, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, san’at (tasviriy san’at, haykaltaroshlik, kino, seriallar, musiqa, raqs) orqali salbiy ta’sir o‘tkazishdir. Bunday tahdidlarning turlari, ularning xususiyatlari ba’zan oshkora va ba’zan o‘ta maxfiy, ichki, yashirin bo‘ladi, bu maqsadlarni bilish va o‘z vaqtida anglash hamda unga qarshi javob berish uchun, yoshlar yuksak ma’naviyatli, g‘oyaviy ongli, ma’naviy barkamol bo‘lishlari shart.

Faqat shunday yoshlargina bunday ta’sirlardan himoyalanishga qodir bo‘ladi. Hozirgi kundagi mavjud bo‘lgan mazkur mafkuraviy va ma’naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o‘z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Milloddan avvalgi 551-479-yillar Xitoy faylasufi Konfutsiy shunday deya o‘z fikrini bildiradi.

Agar xalqingni bir yil boqmoqchi bo‘lsang, bug‘doy ek, agar o‘n yil boqmoqchi bo‘lsang daraxt ek, agar asrlar davomida boqmoqchi bo‘lsang, bilim ek.

Qadimiy va zamonaviy yangi o‘zbekona qadriyatlar inson va uning ijtimoiy faoliyatiga sa’y –harakatlari bilan bog‘liq an’analar, mehnat va mehnatsevarlikka oid ma’naviy an’analar, ta’lim tarbiya va axloq-odob, pand-u nasihatlar bilan bog‘liq madaniy madaniyat; oila, sevgi nikoh, sunnat to‘y, o‘lim dafin, avlodlarimizni xotiralash va boshqa marosimlar bilan bog‘liq tarix, til, ustoz shogird an’analariga sodiqlik, muqaddas tabarruk joylar, qadamjolarni asrash, atrof-muhit, tabiatni asrash bilan bog‘liq ma’naviy va nomoddiy qadriyatlar va boshqalarni kiritish mumkin. Shunday ekan qadriyatlar inson hayotida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek qadriyatlari xalq an’anaviy madaniyatining o‘ziga xosligi, muqaddasligi ayni vaqtida mustaqilligi, har birining maqsad-vazifasi, yo‘nalishlari, xususiyatlari, fazilatlari va tabiati barcha qadriyatlarning o‘zida-teran ma’no bor. Milliy qadriyatlar insonni o‘z-o‘zini anglashi, milliy g‘ururga ega bo‘lishi, o‘z millati va uning tarixi bilan faxrlanuvchi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o‘tmish ajdodlar va keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt

taqdirini o‘z taqdiri bilan bir deb hisoblovchi shaxs bo‘lib yetishishi uchun xizmat qiladi.

Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo‘lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko‘rsatuvchi izoh, ya’ni, bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi.

Chunki, ma’naviy barkamol yoshlarni o‘ziga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug‘vorlik, sabrlilik kabi ma’naviy fazilatlar, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, bolajonlilik, oqko‘ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat an’analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo‘shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g‘oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’minlashga ko‘maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma’naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo‘lib hisoblanadi.

Yoshlarimizning ma’naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi. Oldimizdagi turgan ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va faravon hayotimizdir. Avvalambor yosh avlod, unib – o‘sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir.

Yoshlar tarbiyasida doimo ogoh va sergak bo‘lish, hamda milliy qadriyatlarimizni ularning ongiga singdirish biz ota onalarning burchimizdir.

O‘zbek xalqi azaldan bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta farzandlariga mehr qo‘yish ularning qornini to‘q, ustini but qilish, o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, ahloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida tarbiyalash biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Milliy qadriyat diniy qariyatlar bilan hamohangdir. Ular mehr-oqibatlilik, halolik, poklik, adolat, Vatanni, elni e’zozlash mehnatkashlik, kamtarlik va qo‘ni-qo‘shnichilik, mardlik, to‘g‘rilik, saxiylik, hayr-ehsonlik, iqtisod va tejamkorlik, tozalik, ozodalik va boshqa insoniy fazilatlar uyg‘unligidir.

Inson uchun qora dog‘ hisoblangan adolatsizlik nodonlik, tamagirlik,

sabrsizlik, o‘g‘irlik, ilmisizlik, bir-birini ko‘ra olmaslik, xiyonat kabi salbiy holatlar qoralanadi.

Inson yashar ekan faqat ezgulik sari intilishi kerak. Milliy umumbashariy qadriyatlar avlodlar kamolatida katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, hayotiyligi,

umrboqiyligi, asrlar davomida qayta-qayta muvaffaqiyat bilan davr, hayot sinovlaridan o‘tishi ularni nafaqat milliyligi bilan umumbashariy ma’no-maqsad ustunligidir. Biz yoshlarni ota-bobolarimiz yaratgan milliy qadriyatlarga sodiq va ulardan maqsadga muvofiq foydalana olish bizning burchimizdir.

Ota-boblarmizning pand-u nasihatlari har birimizning komil inson bo‘lib yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilishga chorlaydi.

Bugungi kunda har qanday ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko‘rishi zarur. Shundagina oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandimizni mustaqil va keng fikrlash qobilyatiga ega bo‘lgan, ongli komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta’lim tarbiya salohiyatining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz lozim.

Bu esa ta’lim tarbiya ishini uyg‘un holda olibishimizni talab etadi.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqida Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yosaodat, yo falokat masalasidir” deya ta’kidlab o‘tadilar.

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy ta’lim-tarbiya haqida o‘z fikrlarini shunday ifoda etadi: “Adabiy va ilmiy merosi boy bo‘lib, falsafa, etika, pedagogika, tilshunoslik, adabiyot, nazariya, tarix va boshqa sohalarni qamrab oladi” [3].

“Bahoriston”, “Silsilat uz-zahob”, “Xiradnomai Iskandariy” va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim –tarbiya, kasb-hunar tanlash yaxshi xislat va odob egallash borasida ko‘plab fikrlarni bayon etadi. “Silsilat uz-zahab” asarida tarbiyaning roli katta baho beradi.

Agar-chi olov boshidadir bemajol

Biroq tarbiyadan bo‘lur barkamol.

Jomiy tarbiyaning kuchiga ishonsa ham ayrim kishilarni tarbiyalab bo‘lmaydi, deb hisoblaydi. Uningcha, ba’zi odamlar tabiatan qobiliyatli va ayrimlari esa uquvsiz, noqobil bo‘ladi. Naqobil kishilarga tarbiyaning hech foydasi bo‘lmaydi. Bunday kishilarni qurib qolgan tikonga o‘xshatadi.

Yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash har birimizning oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Каримов.И.А.Юксак маънавият –енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз.Т.: Ўзбекистон, 2017.

3. Жомий ва Давоний. Таълим-тарбия ҳақида Т.: Ўқитувчи, 1981.

MAKTAB BIOLOGIYASIDA O‘QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Haqberdiyeva Sh.T. - Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti asistenti

Annotatsiya. Maqolaning asosiy mazmunida kopetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishida va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fani o‘qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, biologiya fanini o‘qitish shakllarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Biologiya, o‘qitish shakllari, interfaol, faol, vosita, shakl, metod, jarayon va h.k.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДМЕТНОЙ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В ШКОЛЬНОЙ БИОЛОГИИ

Хакбердиева Ш.Т. - ассистент Педагогического института Термезского государственного университета

Аннотация. Основное содержание статьи заключается в совершенствовании методики обучения биологии, развитии навыков организации форм обучения биологии, возможности использования современных педагогических технологий при применении современных педагогических технологий в общеобразовательной школе на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: биология, формы обучения, интерактивные, активные, средство, форма, метод, процесс и др.

FORMATION OF SUBJECT COMPETENCES OF STUDENTS IN SCHOOL BIOLOGY

Hakberdieva Sh.T. - Assistant of the Pedagogical Institute of Termez State University

Annotation. The main content of the article is to improve the methodology of teaching biology on the basis of a competency-based approach and the possibility of using modern pedagogical technologies in the application of modern pedagogical technologies and in secondary schools, the organization of forms of teaching biology on the basis of a competency-based approach is to develop skills.

Key words: Biology, forms of teaching, interactive, active, tool, form, method, process, etc.

O‘qituvchilarning biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, faol va interfaol metodlar, ularni qo‘llash haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; biologiya darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablardan iborat:

- biologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘qitishning faol, interfaol metodlarini;
- biologiya fanini o‘qitish shakllari (dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalar)ni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;
- dars ishlanmalarini ishlab chiqishga qo‘yilgan zamonaviy talablarni bilishi;
- biologiya fanini o‘qitishda faol, interfaol metodlarini qo‘llay olish;
- biologiya fanining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta’minlash;
- zamonaviy talablar asosida dars ishlanmasini ishlab chiqish;
- biologiyadan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini baholash uchun o‘quv topshiriqlarini tuzish;
- laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- biologiyadan masalalar yechish;
- darslarni kuzatish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga;
- biologiya fanini o‘qitishda darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish;
- laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- biologiyadan masalalar yechish malakalariga;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- zamonaviy talablar darajasida darslarni tashkil qilish va o‘tkazish kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim [1].

Biologiya fanining kopetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar;

- “biologiya fanini o‘qitish metodikasi”ni tashkil etish va takomillashtirish, mashg‘ulotlar nazariy va amaliy shaklda olib boriladi.

• nazariy mashg‘ulotlarda biologiya fanidan yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualar mazmuni, dars ishlanmalariga qo‘yilgan talablar, biologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va fanni o‘qitish metodikasi haqida ma’lumotlar beriladi.

• amaliy mashg‘ulotlarda dars ishlanmalarini zamonaviy talablar asosida yaratish, o‘quvchilar bilimini baholash, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalarni o‘tkazish, darslarni kuzatish va tahlil qilish o‘rgatiladi.

• mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi [2].

Biologiya fanini o‘qitish metodikasi “Ta`lim-tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat”, “Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash”, bloklari, “Biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” kabi modullar bilan uzviy bog‘liklikda o‘qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi [3].

Biologiya bo‘yicha darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda:

• darsdan tashqari ishlarni (ekskursiyalar, maktab tajriba maydonchasi va o‘quv-tadqiqot ishlari) kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish usullarinini tahlil qilish.;

• sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning shakllarini (ayrim o‘quvchilar bilan olib borqiladigan, o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan, ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar) kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish yo‘llarini tahlil qilish.

• shu asosda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar ishlanmasini yaratish

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan “Biologiya (zoologiya)” darsligi O.Mavlonov muallifligida yaratilgan, 2017-yil “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotida chop etilgan bo‘lib, 208 ta sahifadan iborat. Darslikdagi mavzular 8 ta bob, 59 ta paragrafdan iborat:

I bob. Hayvonlar to‘g‘risida umumiy ma’lumot;

II bob. Bir hujayralilar, ya’ni sodda hayvonlar;

III bob. Ko‘p hujayrali hayvonlar: bo‘shliqchilar tipi;

IV bob. Yassi va to‘garak chuvalchanglar tiplari;

V bob. Halqali chuvalchanglar tipi;

VI bob. Mollyuskalar tipi;

VII bob. Bo‘g‘imoyoqlilar tipi;

VIII bob. Xordalilar tipi.

Darslikdagi har bir mavzuda biologik obyektlarning rangli rasmlari, atamalar, ularning izohi, mavzu matnidan o‘quvchilarning bilimini nazorat qilish uchun savollar, o‘quvchilarni javoblarini aniqlash, juftlab yozish uchun topshiriqlar,

jumboqni yechish, topishmoqni topish kelitirilgan. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning fanga qiziqishini orttiradi. Darslikka yettita laboratoriya mashg‘uloti kiritilishi ham shular jumlasidandir [4].

Xulosa qilib aytganda, moddalar va energiya almashinuvi bo‘yicha masala va mashqlar yechishning o‘ziga xos usullari o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda hamda fanga oid kompetensiyalar egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, o‘quvchilar ma’lum qonuniyatlar va algoritmik izchillik orqali masala va mashqlarning mazmun-mohiyatini to‘liq idrok etadilar. Bundan tashqari, biologiya fanining matematika, fizika va kimyo fanlari bilan integratsiyasi amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Tursunov Q.Sh. Toshpo‘latov Ch.X, Qorjovov M.J ”Fizika ta’limi texnologiyasi”. Toshkent 2013. Niyozov Q. Biologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanishida innovatsion texnologiyalarning o‘rni. – Toshkent shahar XTXQTMOIda tashkil etilgan “Xalq ta’limi tizimidagi “Mahorat maktablari” faoliyatini tashkil qilishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani materiallar to‘plami. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2017.

2. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017.

3. Tolipova J., G‘ofurov A., Umaraliyeva M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. “Biologiya”. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. -T.: “Sharq”, 2017.

4. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent-2014 y.

5-6-SINF O‘QUVCHILARIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AYRIM JIHATLARI

Abdullayeva S.M. - Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu mavzuda quyidagi muammolar va ularni hal etish metodikasi, amaliyotga joriy etish va uning samaradorligi yoritib berilgan. 5-6-sinf o‘quvchilarida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli-faoliyat va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va

ijtimoiy faoliyatlarida amalda qo‘llay olishi, kompetensiyalarini shakllantirishiga yo‘naltirilganligi, o‘zaro ta’limni amaliyot bilan integratsiyasiga imkoniyat yaratish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, axborot, axborot texnologiyalari, imitatsiya, integrativ yondashuv, kompetensiya, kompetentlik, elektron jurnal, modellashtirish, ma’lumotlar bazasi, intellektual.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ 5-6 КЛАССОВ

Абдуллаева С.М. - ассистент Термезского инженерно-технологического института

Аннотация. В данной теме освещены следующие проблемы и методы их решения, реализации и эффективность. Процесс развития информационной компетентности учащихся 5-6 классов организован на основе компетентностного, личностно-ориентированного, системного и интегративного подходов. В развитии информационной компетентности студенты способны применять свои знания, умения и навыки на практике в своей личной, профессиональной и общественной деятельности, ориентироваться на формирование своих компетенций, создавать возможности для интеграции взаимного обучения с практикой.

Ключевые слова: интеграция, информация, информационные технологии, имитация, интегративный подход, компетенция, электронный журнал, моделирование, база данных, интеллектуальный.

SOME ASPECTS OF THE METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE OF STUDENTS IN GRADES 5-6

Abdullayeva S.M. - Assistant of Termez Institute of Engineering and Technology

Annotation. The following problems and methods of solving them, their implementation and effectiveness are covered in this topic. The process of developing information competence in students in grades 5-6 is organized on the basis of competency-based, person-centered, system-based and integrative approaches. In the development of information competence, students are able to apply their knowledge, skills and abilities in practice in their personal, professional and social activities,

focus on the formation of their competencies, to create opportunities for integration of mutual education with practice.

Key words: integration, information, information technology, imitation, integrative approach, competence, competence, electronic journal, modeling, database, intellectual.

Axborot eng muhim va bebaho resurs bo‘lgan axborotlashgan jamiyatda mamlakatning rivojlanish darajasi uni axborotlashtirish darajasi bilan baholanmoqda. Axborotlar bilan ishlashda o‘quvchilar mustaqil hayotiy faoliyatlari kabi dastlab axborotlarni tahlil qilish, ularni sintez qilish, axborotlarga baho berish asosida zarur axborotlarni eslab qolish, axborotlarning ahamiyatini tushunish va axborotlarni qo‘llash orqali axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va yakuniy xulosani sintezlash mumkin. Faqat shundagina bilim asosli bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar xuddi hayotiy faoliyatlar kabi gipotezalar yaratishadi, tajribalar o‘tkazishadi, ulardan xulosa chiqarishadi va kerak bo‘lsa xulosalarni qayta ko‘rib chiqishadi. Ta’lim jarayonida hayotiy faoliyatlar jarayoni kabi axborotlar bilan ishlashga o‘rgatishda muhim jihat bu o‘quvchilarning fundamental axborotlar zaxirasini yaratish. O‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishiga yordam beruvchi muhim jihatlardan biri o‘quvchining fundamental bilimlar bilan qurollanganligidir. Ularning fundamental axborotlar zahirasini yaratish ta’lim jarayonini doimiy yangi axborotlar bilan ta’minlash va o‘quvchilar tomonidan mustaqil axborot zahiralarini yaratish asosida amalga oshiriladi.

Doimiy yangi axborotlar bilan ta’minlashda o‘quv jarayoni tadqiqot shaklida bo‘lsa, o‘qituvchilar o‘quvchilar izlayotgan tushunchaga yo‘l ko‘rsatish uchun qo‘shimcha axborotlar bilan ta’minlanishlari lozim. Faollashtiruvchi axborotlar muammo yechimining yangi yo‘llarini ochib beradi va yangi g‘ oyalar yaratilishiga zamin bo‘ladi. O‘quvchilar tomonidan mustaqil axborot zahiralarini yaratishda o‘quvchilar mustaqil qatnashadigan darslar o‘zlashtirilgan axborotlarni tahlil qilish, ularni sintez qilish, axborotlarga baho berish, eslab qolish, tushunish va qo‘llashga yordam berib, axborotlar ma’nosini tadqiqot o‘tkazish, kashf qilish asosida anglash, axborotlarni interpretatsiya qilishga o‘rgatadi. 5-6-sinf o‘quvchilarida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini: kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, tizimli-faoliyat va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish, kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim sifatida ko‘rinib turibdiki, o‘zaro ta’limni amaliyot bilan integratsiyasiga imkoniyat yaratadi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv va integrativ yondashuv o‘zaro ta’limda kutilayotgan natijani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuvga “belgilangan maqsad va erishilgan natija oralig‘ida shakl, mazmun, vosita va usullarni mantiqiy ketma-ketlikda qo‘llashni ifodalaydigan tushuncha” sifatida berilgan ta’rifidan kelib chiqib qaralganda, uning pog‘onaviylik xususiyati, tizimning jarayonni to‘liq qamrab olishi asosida o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga imkoniyat yaratishi ko‘rsatildi. Har qanday ko‘nikmalar unga sharoit yaratib beruvchi sharoitdagina shakllanadi. Kompetensiyalarni shakllantiruvchi va uni mustahkam ko‘rinishga olib keluvchi omil bu - tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonining uzluksiz, tizimli tashkil etilishi hisoblanadi. Bu muntazamlilikni, davomiylikni anglatib, kompetensiyalarni shakllantirishda ta’lim va tarbiya jarayonining bir butunligini, ko‘zlangan maqsadlar sari ketma-ketlikni, muntazamlilikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda faoliyatli yondashuv muhim ahamiyat kasb etib, bilim sifatida o‘zlashtirgan axborotlarning hayotiy faoliyatlari davomida muvaffaqiyatga erishishida tutgan o‘rni va ahamiyati bilan yaqindan tanishadilar hamda amaliy o‘zlashtirib boradilar.

Motivatsion bosqichda o‘quvchilarning hayotiy faoliyatlari davomida o‘quv axborotlarining ahamiyatini anglab yetishlari uchun o‘quv materialini tanlash yoki tayyorlashda hayotiyligi va tasvirlar asosida berilgan axborotlarning ta’sirchanligidan kelib chiqib, ko‘rgazmaliligiga ahamiyat bergan holda topshiriqlar ishlab chiqilgan. Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun “Informatika” darsligini yaratishda foydalanilgan quyidagi topshiriqni keltiramiz [6]. Quyida berilgan rasmlar yordamida axborotni turlarga ajrating: Analog (uzluksiz) axborot bu tovush, kamalak ranglari, tabiat manzarasi, havo harorati, vaqt, rasm.

1-rasm

Diskret (uzlukli) axborot: turli fotolar, musiqa.

Motivatsion bosqichda o‘quvchilar tomonidan o‘quv faoliyatini anglash asosida ishtirok etish va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish asosida ta’limning yangi sharoitlariga moslashuv jarayoni yuz beradi [2]. O‘quvchilarning fanlardan o‘quv axborotlarini o‘zlashtirishlari uchun nazariy bilimlar hamda zarur tayanch tushunchalarning mazmun – mohiyatini anglashlariga erishish, o‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini faollashtirish, axborotlashgan

jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash nuqtayi nazaridan kelib chiqib o‘quv materiallari tanlanishi asosida bosqichda belgilangan vazifalar amalga oshiriladi. Masalan: Tenglik hosil bo‘lishi uchun nuqtalar o‘rniga nima qo‘yish kerak?

a) 7 bayt =....bit; b) 5 Mbayt = ...Kbayt ; d) 24 bit = ... bayt .

O‘quv jarayonini tashkil etishning darsdan tashqari shakllarida o‘quv materialini tanlashda o‘quvchilarning qiziqishlari e’tiborga olinadi. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning tashkiliy shakllari sifatida jamoa, guruhlar, yakka tartibda ishlash ko‘rsatib o‘tilgan. O‘quvchilarning o‘quv muhitida axborotlar ustida ishlash jarayonida individual yoki guruh bo‘lib faol ishtirok etishini ta’minlashga xizmat qilishiga ahamiyat qaratilib, frontal, guruh, individual ishlash maqsadida mavzu yuzasidan “Case-study”, “Klaster”, “Loyihalash”, “Didaktik o‘yinlar” “Bahs-munozara”, “Charxpalak”, “Venn diagrammasi” metodlaridan foydalanish mumkin [2].

Ta’limning frontal, guruh va individual tashkiliy shakllari yuzasidan ko‘plab ilmiy adabiyotlarda pedagogik izlanishlar natijalari bayon etilgan. Biz ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishda klasterlarni o‘zaro bog‘ langan guruhlar va jarayonda ma’lum ish faoliyatiga ixtisoslashgan tegishli tarmoqdagi guruhlar sifatida o‘rgandik. Ta’lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterdan foydalanishning samarali metodik va axborot – maslahat bilan ta’minlanishi o‘qituvchi (kordinator, moderator, tarbiyachi va b.q. lar) tomonidan amalga oshiriladi [1]. Ta’lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterning shakllanishi ko‘pincha barcha qolgan ishtirokchi (guruhlar)larni birlashtiruvchi integrator (o‘qituvchi, moderator, kordinator va h.k) atrofida yuz berishi tufayli samadorlikni baholash integratorning faoliyati doirasida bo‘ladi. Ta’lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterning asosiy xususiyatlari: butun tizimni bosh strategiyasini belgilab beruvchi boshqaruvchi (o‘qituvchi, moderator, kordinator va h.k) ning mavjudligi; umumlashtiruvchi xususiyatlarning mavjudligi; aloqalarning barqarorligi va ushbu aloqalarning aksariyat ishtirokchilar uchun katta ahamiyat kasb etishi; ishtirokchilar o‘zaro hamkorligining uzoq muddatli muvofiqlashtirilganligi; axborotlarni keng yoyish maqsadida klasterlar o‘rtasida guruhlarning shaxsiy harakatchanligi; o‘zaro bog‘liq boshqa klaster tarmoqlarining maqsadga muvofiq hamkorligi ta’minlanganligi; klasterda ishtirokchilarning o‘zaro (vertikal va gorizantal) aloqalarining maqsadga muvofiqligi va faolligi; ishtirokchilar faoliyatining xususiyati bo‘yicha faoliyatlar tashkillashtirilganligi; kommunikativ muhitning mavjudligi [1].

Ta’lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterlarni tuzishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Klasterni tashkil etish texnologiyasining mavjudligi: klaster rivojlanishining shart-sharoitlari; klaster ishtirokchilari bajaruvchi vazifalarining umumiy maqsadga qaratilganligi; klasterda ishtirokchilarning o‘zaro umumiy maqsadlarga asoslangan aloqalarining kuchayishi; klasterda kreativ jarayonlarni rag‘batlantirish; ishtirokchilar muvaffaqiyatining bog‘liqligi; klaster ishtirokchilarining mustaqilligi va jipsligi; ishtirokchilar o‘rtasida muloqot va ishonch muhitining mavjudligi; axborot va tajriba almashish imkoniyati; ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tuzulmasining tarkib topganligi; ishtirokchilar o‘rtasidagi majburiyatlarning bajarilishi.

2. O‘zaro hamkorlik muhitining mavjudligi: o‘zaro munosabatlarni saqlash; umumiy axborot resurslaridan foydalanish.

3. Qisman yetakchilik: ishtirokchilar o‘rtasida liderlikning paydo bo‘lishi; markaz faolligining namoyon bo‘lishi.

4. Moslashuvchanlik: klasterning doimiy “harakati” – uzluksiz shakllanish va rivojlanish jarayonlari; doimiy o‘zgarib turuvchi muhit va talablarga moslashib borish [1].

Ta’lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterning asosiy vazifalari: klaster ishtirokchilarining o‘z o‘quv faoliyatini o‘zi tashkil etishiga imkoniyat berish; klaster ishtirokchilarining maqsadga olib boruvchi umumiy vazifalarni amalga oshirib borishiga sharoit yaratish; klasterda ishtirokchilarning o‘zaro aloqador faoliyatlarini kengaytirish va aloqalarini kuchaytirish; klaster ishtirokchilari o‘rtasida sog‘lom raqobatga sharoit yaratish; ishtirokchilarning faoliyatlarining kreativ darajasini oshirish va rag‘batlantirish; ishtirokchilarning umumiy maqsadlariga asoslangan aloqalarini samarali yo‘lga qo‘yish; klaster ishtirokchilarining mustaqilligi va jipsligini saqlash; klaster ishtirokchilarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish: qarama-qarshi fikrlarni rag‘ batlantirish, tanlash huquqini ishtirokchilarda saqlab qolish, tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yishga sharoit yaratish; ishtirokchilar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini, ishonch muhitining mavjudligini ta’minlash; klaster ishtirokchilarining muntazam axborot, tajriba almashish va hamkorligini yo‘lga qo‘yish; umumiy axborot resurslarini yaratish va klaster ishtirokchilarining foydalanishini ta’minlash [5].

Klaster inglizcha so‘z bo‘lib (kluster) bosh, bir shingil, popuk ma’nosini anglatadi. Klaster - bu ma’lum mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir. Klasterni tuzish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylana (ellips) shaklidagi chizma ichida yoziladi; o‘quvchilarga axborot ustida amallar bajarish deganda ko‘z oldingizga kelgan fikrlarni chiziqchalar yoniga yozish taklif etiladi (bunda o‘quvchi rasmini chizsa ham ruxsat beriladi); taqdimot o‘tkaziladi (bunda o‘quvchilar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi); yangi mavzu o‘rganiladi; darsni mustahkamlash bosqichida

o‘quvchilarga quyidagicha topshiriq berish mumkin: qizil rangli ruchkalaringizni (yashil, qora bo‘lsa ham bo‘ladi) olib yangi o‘rganilgan tushunchalar bilan boyiting; guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi hamda doskada (boshqa rangli bo‘r bilan) yoki plakatda boshqa rangli flolmasterlar bilan o‘quvchilarning qo‘shimcha aytgan fikrlari yozib boriladi; o‘qituvchi umumlashtiradi, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda klasterga yana qo‘shimcha kiritishi mumkin (bu o‘qituvchining mahoratiga bog‘ liq). Bu o‘zgartirishlar ko‘p hollarda ta’lim beruvchi tomonidan o‘quvchining bilim darajasi va boshqa individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Eng muhimi, bu o‘zgartirishlari ta’lim oluvining didaktik matn (axborot) ni qabul qilishini osonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, axborot va raqamli texnologiyalar mavzusidagi klasterni mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘llash mumkin.

2-rasm



(2-rasm)

Axborot ustida amallar bajarish

O‘quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini samarali ravishda rivojlantirish uchun yordam beradigan didaktik shart-sharoitlar, o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiruvchi zarur o‘quv axborotlarini tanlash va o‘quv materiali sifatida strukturalashtirish va tizimlashtirish, qayta ishlash asosida taqdim etilish imkoniyatlari ta’lim sifatini baholashning xalqaro dasturlariga uyg‘ unlashtirish asosida o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi dinamikasini tadqiq qilish va olingan natijalarga asoslangan holda o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritish imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar

1. Ruzikulova N.SH. Klaster texnologiyalari vositasida o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish. A. Qodiriy nomidagi Jizzax

davlat pedagogika instituti. // “Boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari: muammo va yechimlar” Respublika ilmiy–amaliy anjuman tameriallari to‘plami. – Jizzax. 2019. – B. 214-216

2. Ruzikulova N.SH. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini uzviy tashkil etish // “Uzluksiz ta’lim”. – Toshkent. 2018. – №6. – B. 44-48

3. Zaxidov G.E. Ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish uslubiyoti. – Toshkent: O‘zFA “Fan” nashriyoti, 2016. – 157 b.

MEDIATEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TALABALARNING MILLIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI, USULLARI VA VOSITALARI

Raxmatullayeva G.I. - Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” mutaxassisi

Annotatsiya. Maqola talabalarda mediatexnologiyalar vositasida milliy tarbiyani rivojlantirishning shakl, metod va vositalari kabi masalalariga bag‘ishlangan. Talabalarga mediatexnologiyalar vositasida milliy tarbiyaga oid bilim berishning ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada milliy tarbiyaning umumiy metodlari haqida to‘xtalingan. Shuningdek, tarbiya usullari haqida ham batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: mediakompetentlik, texnologiya, metod, axborot va mediamatn.

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ

Рахматуллаева Г.И. - специалист Центра духовности и просвещения Министерства высшего и среднего специального образования

Аннотация. Статья посвящена таким вопросам, как форма, методы и средства развития национального воспитания учащихся посредством медиатехнологий. Приводится информация о важности ознакомления учащихся с национальным образованием посредством медиатехнологий. Кроме того, в статье уделяется внимание общим методам народного воспитания. Также предоставляется подробная информация о методах воспитания.

Ключевые слова: медиакомпетентность, технология, метод, информация и медиатекст.

FORMS, METHODS AND MEANS OF DEVELOPING NATIONAL EDUCATION OF STUDENTS USING MEDIA TECHNOLOGIES

Rakhmatullaeva G.I. - Specialist of the Center of Spirituality and Education of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education

Annotation. The article focuses on issues such as forms, methods and tools for the development of national education of students through media technologies. Students were introduced to the importance of teaching national education through media technology. The article also discusses general methods of national education. There is also detailed information on parenting methods.

Key words: Media competence, technology, method, information and mediate text.

Talabalarga mediatexnologiyalar vositasida milliy tarbiyaga oid bilim berishning ahamiyati to‘g‘risida so‘z borganda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida: —”Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdil va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”, degan so‘zlarini ta’kidlash o‘rinlidir. Agar jamiyat ma’rifatli bo‘lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug‘ligini anglatadi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi ta’lim sifati o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Tadqiqot doirasida talabalarda mediatexnologiyalar vositasida milliy tarbiyani rivojlantirishda milliy tarbiyaga oid ma’ruzalar, videoroliklar, seminar mashg‘ulotlari hamda mustaqil ta’lim jarayonida, ommaviy tarbiyaviy tadbirlarda audio va video vositalardan, elektron ta’lim resursidan foydalaniladi.

Milliy tarbiyaning umumiy metodlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1) ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar;

2) faoliyat jarayonida odob-axloq, xulq tajribalarini rivojlantirish metodlari;

3) videoroliklar orqali kirish va o‘rgatish metodlari;

4) o‘zini-o‘zi tarbiyalash metodlari;

5) targ‘ib qilish metodlari.

Tarbiyachidan tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratish talab etilmaydi, ammo mavjud metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘z imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani

boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Tarbiyada usullar deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi.

Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika (so‘zlovchi va tinglovchi nutqlari, birinchi shaxs tomonidan suhbatga tortish, murojaat), taqqoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi.

Shuningdek, metodning tuzilishida usullar va vositalar, albatta, mavjud bo‘ladi. Metodlar bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qo‘llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud.

Masalan, metodlarning samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi videoroliklar, tanlov va ko‘rgazmali buyumlar, kitoblar, ommaviy axborot vositalari, multimedia vositalari shular jumlasidandir.

Shunday saytlar borki, ularning mazmuni foydalanuvchilarni o‘zi o‘ziga zarar yetkazishga undaydi (masalan, o‘z joniga qasd qilishni, anoreksiyani(ishtaha yo‘qolishi va o‘ta ozg‘inlik kasali) yoki turli sektalarni targ‘ib qiluvchi saytlar). Internetda axborotlarni e’lon qilish tartibi soddalashgani sayin zararli kontent ta’siriga tushib qolish ehtimoli ortib boradi. Bolalar va yoshlar esa bunday saytlarda e’lon qilingan ko‘rsatma va axborotlar o‘zida qanday xatarlarni tashishini to‘g‘ri baholash salohiyatiga ega bo‘lishmaydi [2; 60-64-b.].

Talabalarni milliy ruxda tarbiyalashda pedagogikaning umumiy metod va vositalaridan foydalanish lozim. Jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya talabaga o‘quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati talabani qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. Shu bois o‘quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni talabaga taklif etish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini milliy ruxda tarbiyalash shakllari quyidagicha tasniflanadi:

Suhbatlar: Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda milliy tarbiya mavzudagi suhbatlarni tashkil etish talabalarning erkin, mustaqil fikrlashini yuksaltiradi, tafakkurini boyitadi, o‘qituvchi bilan hamkorligini mustahkamlaydi.

Tarbiyaviy ishlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ya’ni milliy tarixiy yodgorliklarimiz, O‘zbekiston madaniy me’rosi, yurtimizdagi turizm istiqbollari kabi suhbatlarni tashkil etish mumkin.

Suhbatlar qiziqarli va jonli o‘tishi uchun uni tashkil qilishdan bir necha kun oldin mavzu talabalarga e’lon qilinadi. Tadqiqot doirasida suhbatlar oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan murabbiylik soatlari hamda darsdan tashqari mashg‘ulotlar davomida guruh rahbarlari, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutasaddilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Suhbatlar davomida milliy tarbiyaga oid, mavzuni yorituvchi mediatexnologiya vositalaridan foydalaniladi.

Mediatexnologiyalar: Bunda mediatexnologiyalar orqali yaratilgan videoroliklar milliy tarbiyani rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur videoroliklarda, milliyligimiz, o‘zligimiz, tarixiy obidalarimiz, buyuk mutafakkirlarimiz va o‘zbekona urf-odatlarimiz, kiyinish madaniyati va o‘zini tutish madaniyatini tasvirlangan bo‘lib, mazkur videoroliklar talabalar e’tiboriga havola etiladi. Ko‘rish va eshitish orqali talaba yoshlarning milliy tarbiyasini shakllantirish va yuksaltirish asosiy maqsaddir. Darslarni audio, video, animatsiyalarga boy multimediali materiallar, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida o‘tish talabalarni mediaga qiziqishini oshiradi. Elektron axborot-ta’lim resursi (EATR) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil ta’lim olishning samarali usullarini qo‘llash orqali o‘quv materiallari va ilmiy ma’lumotlarni chuqur o‘zlashtirishga mo‘ljallangan manbadir. U talabalarda mustaqil ta’lim olish, ijodiy fikrlash malaka va ko‘nikmalarini, media bilimlarini shakllantiradi [3]. Ayni vaqtda respublikada mustaqil ta’limni tashkil etish borasida muayyan tajriba to‘plangan bo‘lsa-da, biroq, uni yanada boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud.

Milliy tarbiyani rivojlantirishning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalaridan kelib chiqib ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1.Vatanparvarlik tarbiyasi: “Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish”, “Vatanimizning milliy madaniy me’rosi”, “Vatanimizdagi milliy tarixiy yodgorliklarimiz”, “Vatanimizdagi turizm istiqboli”, “Ajdodlar yodi–ilmga chorlar”, “Mehribonlik – insonparvarlik, odamiylik, oliyjanoblik, mardlik, saxovatlilik” va boshqalar.

2. Milliylik sifatlarini yuksaltirish tarbiyasi: “Talabaning muomala madaniyati”, “Talabaning tashqi ko‘rinishi va uning ichki dunyosi”, “Shaxsning eng yuksak fazilatlari – axloqiy madaniyatning muhim elementi”, “Kitoblar – milliy qadriyatlar, urf-odatlar, komillikga yetaklovchi ilm”, “Talabalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish” va boshqalar.

3. Milliy merosimizni ulug‘lash tarbiyasi: “Ajdodlar merosi – ma’naviyatimiz sarchashmalari”, “Milliy madaniy meros”; “Yuksak madaniyat va ma’naviyat –

jamiyat taraqqiyotining poydevori”, “Tarix – millat ma’naviyatining negizi” va boshqalar.

4. Oila tarbiyasi: “Oila va oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy-falsafiy qarashlar rivoji”, “Oila tarbiyasida axloqiy madaniyatning namoyon bo‘lish xususiyatlari”, “Oilada farzand tarbiyasi”, “Oilada ota-onaning o‘rni”, “Farzandning ota-ona oldidagi burchlari”, “Oiladagi axloqiy madaniyat”, va boshqalar.

5. Aqliy tarbiya: “Intizomlilik”, “Iste’dodlilik”, “To‘g‘rilik”, “Halollik”, “Yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati”, “Zamonaviy ilm-fan yutuqlari”, “Innovatsion g‘oya – taraqqiyot kaliti” va boshqalar.

Kvintilian (er.av.30-96 yil) insonning aqli mustaqil faoliyat ta’sirida rivojlanadi, shuning uchun tarbiya o‘quvchidagi mustaqil fikrlash va tanlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi [4; 719-b.].

Talaba-yoshlar milliy tarbiya kamolotini ta’minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy tarbiyaviy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to‘g‘ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o‘rgatish hamda e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi. Munozara o‘y-fikrlarni tartibga soladi, odob-axloq qoidalari, kiyinish madaniyati borasida fikrlashadi, o‘z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda hikoya qilishga, ayni chog‘da, o‘z xatolarini tan olishga o‘rgatadi.

Talabalar o‘rtasida “Milliy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli”, “Mustaqillik va ta’lim-tarbiya”, “Yoshlarning ichki va tashqi qiyofasi”, “Yoshlarning kitobxonlikka munosabati”, “Urf-odatlarda madaniyat va ma’naviyat”, “Tabiat va inson”, “Sharq mutafakkirlari axloqiy qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati” mavzularida bahs-munozaralar olib boriladi. Ushbu tadbirlarda oliy ta’lim muassasalari talabalari ishtirokchi sifatida qatnashadilar. Bu orqali ularning ma’naviyatini yuksaltirish hamda milliy tarbiya sifatlarini rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda.

Mediatexnologiyalar vositasida videoroliklar tanlovi; Talabalar o‘rtasida “Milliy madaniy merosimiz” mavzusida ijodiy ishlar tanlovi o‘tkazildi. Mazkur tanlovda videoroliklar “Milliy tarixiy yodgorliklarimiz”, “O‘zbekiston madaniy marosi yoshlar nigohida”, “Madaniy merosimiz dunyo nigohida”, “O‘zbekistonda turizm istiqboli” mavzularda o‘tkazildi. Tanlov 2020-yilning dekabr oyida tashkil qilindi va talabalar tomonidan tayyorlangan videoroliklar 18-dekabr kuniga qadar @vuz24bot orqali qabul qilindi. Barcha qabul qilingan videoroliklar @talaba_vuz telegram kanaliga joylanib borildi. G‘oliblar ovoz berish orqali 20 nafar eng ko‘p ovoz yig‘gan ishtirokchi aniqlab olindi va bu ishtirokchilarning videoroliklari tashkiliy guruh tomonidan ko‘rib chiqildi. G‘oliblar aniqlanib Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan I,II,III darajali diplomlar va eng sara kitoblar balan taqdirlandi.

Suhbatlar, uchrashuvlar va bahs-munozaralar, tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish orqali talabalarda ijobiy ma’naviy-axloqiy munosabatlar va fazilatlar tarkib toptirilgani olib borilgan so‘rovnomalar asosida aniqlanib, qayd etib borildi. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan har bir metod asosida talabalarda fan yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilishi, ijtimoiy kompetensiyalar hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarning rivojlanganligiga alohida e’tibor qaratildi. Talabalar ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ta’lim mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz har bir dars mashg‘ulotida mediatexnologiyalardan foydalanib videoroliklar orqali kirib borilsa, talabada ma’lum bir ijobiy sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib faoliyat olib borilsa, yuqori natijaga erishish mumkin. Talabalarda miliy tarbiya sifatlarni rivojlantirishning mazkur metod va shakllarini amalga oshirishda albatta vositalar muhim o‘rin tutadi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarini miliy tarbiyasini rivojlantirish texnologiyasi va vositalari xususida ishning keyingi qismlarida batafsil fikr yuritiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi va ularning o‘zaro bog‘liqligi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta’lim-tarbiya deganda talaba shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta’lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlari (ta’lim va tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar)ning o‘zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo‘naltirilganligi tushuniladi.

Tadqiqotchilar Ye.S.Gromova va V.A.Molyako talabalar kreativligining yettita belgisini ko‘rsatib o‘tadilar: o‘ziga xoslik, yaratuvchilik, fantaziya, faollik, maqsadga yo‘nalganlik, aniqlik, ta’sirchanlik [5; 238-b.].

M.M.Rubinshteyn esa ta’limning sust metodlarini inkor etib, ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashga da’vat etganlar [6; 106-b.]

Ta’lim-tarbiyada bosh maqsadimiz talabani bilim olish va yuqori madaniyatli bo‘lishga o‘rgatish, undagi-buyuklik hislatlari va qobiliyatlarini uyg‘otish, tashabuskorlik va tadbirkorlik, jamoada faollik va liderlikka loyiqlik imkoniyatlari borligiga ishontirishdan iborat. Ushbu maqsadning amalga oshishi esa talabaning Vataniga sodiq, yuksak e’tiqodli va zamonaviy bilimli qilib tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalariga fanlarni mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar taklif qilinadi:

1) oliy ta’lim muassasalari talabalariga fanlarni o‘qitish samaradorligini yanada oshirish maqsadida mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minoti imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;

2) boshqa fanlar bo‘yicha ham mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini ishlab chiqish hamda ularning o‘qitish jadalligini oshiruvchi va yangi imkoniyatlarga boy dasturiy ta’minotlarni joriy etish;

3) ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion yondashuvlari joriy etib borilayotgan sharoitda mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning dasturiy ta’minotini jamiyatning zamonaviy ta’lim talab va ehtiyojlariga muvofiq yanada mukammallashtirish va uni boshqa fanlarda ham qo‘llash borasida rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanishni kengaytirish;

4) oliy ta’lim muassasalarida mediata’lim markazlarini tashkil etish hamda fanlar kesimida interfaol dasturiy ta’minot asosida tayyorlangan elektron o‘quv majmualar bandini tashkil etish va undan talabalarning mediasavodxonligini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanadi:

-jarayonni o‘zaro bog‘liq bosqichlarga taqsimlash;

-izlanayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;

-qo‘yilgan maqsadga mos natijaga erishishning zaruriy sharti hisoblangan texnologik muolaja va amallarning bajarishning alohida ahamiyat kasb etishi bilan bog‘liq.

Pedagogik texnologiyaning yana bir muhim tarafi ta’lim jarayonidagi talaba-yoshlarning o‘rni va unga kattalarning munosabatidir. Pedagogik texnologiyani loyihalashtirishda talaba shaxsining individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, — “O‘zbekiston ilm – fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart” deb fikr bildirganlar.

Mediakompetentlikni shakllantirish (rivojlantirish) —ijtimoiy madaniy kompetentlikning muhim qismi hisoblanadi. Mediakompetentlik pedagogning media sohasidagi faoliyatining turli bosqichlarida axborot va mediamatnlarning har xil turlariga nisbatan o‘rin tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy tarbiyani targ‘ib qilish va takomillashtirishda mediatexnologiyalardan foydalanishda tarbiyaviy tadbirlarning maqsadi va o‘quv dasturining mazmuni va o‘quv materiallaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shuni nazarda tutgan holda, oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirishda mashg‘ulot va dars maqsadini aniqlashda tahsil oluvchilarning o‘quv materiallari bilan ishlashga oid faoliyatlarining tasnifi, tashkil etiladigan o‘quv vaziyatlari ham aniq hisobga olinishi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan. —”Xalq so‘zi”, 2017-yil, 4-avgust
2. Mamatova Ya., Sulaymanova S. - O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. – T.: Extremum-rress, 2015. 60-64-b.
3. http://marifat.uz
4. Nazarov Q. G‘arb falsafasi. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 719 b.
5. Моляко В.А. Психология творческой личности. М., Высшая школа. 1978. - 238 с.
6. Рубинштейн С.Л. Принцип творческой самодеятельности (к философским основам современной педагогики)//Вопросы психологии. -№ 4.- 1986. с.106.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TUTGAN O‘RNI

Babayeva M.A. - Termiz muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati muhim hisoblanib, fanlar integratsiyasidan va xalqaro baholash dasturlaridan foydalanilsa, bir nechta fanni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi o‘z bilim, malaka, ko‘nikmalarini amalda qo‘llash natijasida uzviylikni tushunibgina qolmasdan, balki qolgan fanlarni ham tushuna boshlaydi, fanlarga qiziqishi uyg‘onadi, o‘zidan qoniqish hissidan zavqlanadi, mustaqil va mantiqiy fikrlashi o‘sadi. Shu bois maqolada bir nechta matematik harakatga, proporsionalikka, qismga oid masalalar taqqoslanib, kompetensiyaviy yondashuv shakllantirilgan holda xalqaro baholash tizimining ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati to‘la yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, xalqaro baholash, OECD, PISA, IEA, PIRLS, TIMSS, TALIS, kontekst, o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy savodxonlik, tadqiqot, yuza, tayanch ko‘nikmalar, innovatsiya.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ СИСТЕМЫ ОЦЕНИВАНИЯ В РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА И ЕЕ РОЛЬ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ

Бабаева М.А. - преподаватель Термезского инженерно-технологического института

Аннотация. Важно значение международных оценочных программ в развитии компетентностного подхода, а также в пробуждении у учащихся интереса к науке, чувства самоудовлетворения, формировании самостоятельного и логического мышления. Поэтому в статье полностью сопоставлены задачи нескольких математических движений, пропорций и частей, а также всесторонне разъяснено значение международной системы оценивания в повышении эффективности образования, формировании компетентностного подхода.

Ключевые слова: компетентность, международная оценка, OECD, PISA, IEA, PIRLS, TIMSS, TALIS контекст, читательская грамотность, математическая грамотность, естественная грамотность, исследование, поверхность, базовые навыки, инновации.

THE IMPORTANCE OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT SYSTEM IN THE IMPLEMENTATION OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH AND ITS ROLE IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING

Babayeva M.A. - Lecturer at the Termez Institute of Engineering and Technology

Annotation. The importance of international assessment programs in the development of a competence approach is important, and also awakens students' interest in science, a sense of self-satisfaction, independent and logical thinking grows. Therefore, the article fully compares the tasks of several mathematical movements, proportions and parts, as well as comprehensively explains the importance of the international assessment system in improving the effectiveness of education, the formation of a competence-based approach.

Key words: competence, international assessment, OECD, PISA, IEA, PIRLS, TIMSS, TALIS context, reader literacy, mathematical literacy, natural literacy, research, surface, basic skills, innovation.

O‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni shakllantirish masala yechishga doir ma’lumotlarni qabul qilishi, masala yechishga doir materiallar tuzilishini anglashi, masala yechishga doir ma’lumotlarni qayta ishlashi (sonli, belgili simvoliklar doirasida mantiqiy hamda matematik simvolikalar bilan fikrlash, obyektlar, munosabatlar va harakatlarni tez umumlashtirish, mulohaza jarayoni va shunga mos harakatlar tizimini qisqartirish qobiliyatlari), umumiy sintetik komponent (aqlning fizik, tabiiy-ilmiy yo‘nalganligi) kabi pedagogik psixologik jarayonlarga bog‘liq. Xalqaro baholash dasturlaridagi kontekstlar turlicha bo‘lib, mohiyatini tushunish

fanlararo uzviylikni hamda fandagi qaysi nazariyadan foydalanishni, hayotdagi qaysi yo‘nalishlarga mos kelishini tushuna olish qobiliyatiga bog‘likligini ko‘rish mumkin, umumta’lim maktablari o‘quvchilarini kelajakda o‘z o‘rnini topadigan, o‘z kasbining yetuk mutaxassislarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning xalqaro baholash tizimi orqali metodik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan, uning metodikasini yaratishdan va takomillashtirishdan iborat. 7-sinf darsligining “Bir noma’lumli birinchi darajali tenglamalar” bobidagi “Masalalarni tenglamalar yordamida yechish”[1] mavzusida fanlararo integratsiya mavjud bo‘lib, ularni kompetensiyaviy, xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta’lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud. Dunyo mamlakatlari qatorida O‘zbekistonning ham ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari jahon hamjamiyatida umume’tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta’lim olishini ta’minlash va olgan bilimlarini amalda samarali qo‘llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xalqaro tashkilotlarga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o‘tkazilayotgan PISA (The Programme for International Student Assessment), ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA–International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan PIRLS va TIMSS kabi dasturlarni misol qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yurtimizning dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini, nufuzini oshirishga xizmat qiladi va quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi: 2030-yilga kelib PISA - o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash hamda xalqaro dastur reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishdan iborat.

Dars davomida tuzilgan loyihalar 5 bosqichli rivojlanish strategiyasiga ega:

1. Barcha darslarda o‘qish (mantiqiy o‘qish dasturi va o‘lchov materiallari);
2. Darsdan tashqari faoliyat (jonli klassika, maktab hayotining xronikasi);
3. Ta’lim muhiti (erkin o‘qish uchun joy);
4. Oilada o‘qish: oilaviy kutubxonalar, “Kitobxon ona” dasturi;
5. Malaka oshirish dasturlari: kitobxon o‘qituvchi, kutubxonachilarni tayyorlash va boshqalar.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish,berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo‘llay olish va

olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir[2]. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar,algoritmlar, faktlar va vositalarni o‘z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o‘rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o‘zini o‘zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo‘lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Tayanch ko‘nikmalar. O‘quvchilar kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal qilishda qanday tayanch ko‘nikmalardan foydalanadilar?

1. O‘qish va yozish ko‘nikmalari.
2. Matematik savodxonlik.
3. Tabiiy-ilmiy savodxonlik.
4. AKT savodxonligi.
5. Moliyaviy savodxonlik.
6. Madaniy va fuqarolik savodxonligi.

Kompetensiyalar. O‘quvchilar murakkabroq muammolarni qanday hal qilishadi?

1. Tanqidiy fikrlash.
2. Kreativlik (ijodiy fikrlash).
3. Muloqot qilish ko‘nikmalari.
4. Jamoada ishlash ko‘nikmalari.

Shaxsiy fazilatlar. O‘quvchilar atrof-muhit o‘zgarishlari muammolarini qanday hal qilishadi?

1. Qiziquvchanlik.
2. Tashabbuskorlik.
3. Qat’iylik.
4. Moslashuvchanlik.
5. Yetakchilik-qobiliyatlari.
6. Ijtimoiy va madaniy savodxonlik.

Matematik savodxonlik 8 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha ko‘nikmalarni baholaydi.

1. Tanqidiy fikrlash
2. Ijodkorlik, kreativlik;
3. Tadqiqot va tahlil qilish;
4. Mustaqillik, tashabbuskorlik va qat’iylik;
5. Ma’lumotlardan foydalanish;
6. Tizimli fikrlash;
7. Muloqot qilish;
8. Mulohaza yuritish

PISA dasturi topshirig‘idan namunalar tuzilmasi: quyidagi masalalar xalqaro baholash dasturlarida ko‘rilgan bo‘lib, matematika darslarida perimetr, yuza kabi mavzularni mustahkamlashda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, bu maktab o‘quvchisida kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi, pirovardida egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarini kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati rivojlantiriladi[3].

Masalan, shaklning yuzini topish unga nechta birlik kvadrat joylashtirish mumkinligini aniqlash demakdir. Bunda o‘quvchiga tayyorlangan shaklga birlik kvadratlarni joylashtirib shakl yuzini topish yoki shaxmat doskasidagi kvadratni birlik kvadrat sifatida qarab shaxmat doskasining yuzini hisoblash kabi masalalarda ko‘rish mumkin. Demak, yuza tushunchasini quyidagicha tushuntiraylik: o‘quvchilarga yuza bu pol, yerimiz, xonamiz.

Bundan tashqari yuza o‘lchov birliklari tushunchasi ham muhim tushunchalardandir. Agar yuza va yuza o‘lchov birliklarini tushunchasini tushuntirgach, uyga mustaqil ish sifatida dars tayyorlaydigan stol, xona, to‘liq uy, yer, ekin maydoni o‘lchamlarini o‘lchang va yuzini hisoblang, hamda ar va ga da ifodalang, bobongizni uyi necha sotixligini aniqlang, ekin maydoni qanchaligini, pomidor ekiladigan yer maydoniga nechta agat joylashtirish mumkinligini, har qancha yuzaga pomidor ko‘chati joylashishi, ko‘chatlar orasidagi masofa haqidagi topshiriqlar berilsa va albatta javoblar solishtirilib, tekshirilsa , xotolar to‘g‘irlansa, to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar rag‘batlantirilsa, ular nafaqat bilim oladilar, balki yerda ishlash malakasiga ham ega bo‘ladilar[4].

Masalaning matematik mazmuni: fazo va shakl, miqdorlar, o‘zgarishlar va munosabatlar, ma’lumotlar va noaniqliklar.

Kontekst: shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy, ilmiy.

Bog‘bon kvadrat shakldagi maydonga olma ko‘chatlarini ekdi. Ko‘chatlarni shamoldan himoyalash uchun ularning atrofini ignabargli daraxtlar bilan o‘radi. Quyidagi chizmada olma ko‘chatlari va shu ko‘chatlarning ixtiyoriy sondagi (n) qatorini himoyalash uchun ekilgan igna bargli daraxtlar tasvirlangan.

n = 1; n =2; n = 3; n = 4.



x – ignabargli daraxt ko‘chatlari;

• – olma ko‘chati.

Jadvalni to‘ldiring:

	Olma ko‘chatlari soni	Ignabargli daraxt ko‘chatlari soni
	1	8
	4	

Matematikaga oid mazmun sohasi: o‘zgarish va munosabatlar.

Kontekst: kasbiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

SOUS

Siz salat uchun sous tayyorlamoqchisiz. Quyida 100 ml sous tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan mahsulotlar ro‘yxati berilgan.

Mahsulotlar ro‘yxati	
O‘simlik yog‘i:	60 ml
Sirka:	30 ml
Soya sousi:	10 ml

1-SAVOL

150 ml sous tayyorlash uchun necha millilitr o‘simlik yog‘i kerak bo‘ladi?

1-savol to‘g‘risida ma’lumot

Savol tavsifi: sous tayyorlash uchun bitta mahsulotni qancha miqdorda kerak ekanligini nisbat tushunchasidan foydalanib hisoblash.

Matematikaga oid mazmun sohasi: miqdorlar.

Kontekst: shaxsiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

90 ; 60+30

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi: Javob noto‘g‘ri bo‘lsa, 1,5 marta ko‘proq [kerak bo‘lgan miqdorni hisoblash talab qilinadi]; javob berilmagan bo‘lsa.

Izoh: Bu proporsionallikka oid standart arifmetik masala. Bunday turdagi masalalar 5–6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yechish usuli ularga ma’lum. Biroq 7–9-sinf o‘quvchilari algebra kursi davomida bunga o‘xshash masala va topshiriqlarga duch kelmaydilar. Savol bo‘yicha natijalari yuqori emas: OECD tarkibidagi davlatlar o‘quvchilarining 64 foizi, Rossiya davlatining o‘quvchilari 33

foizi mazkur masalaga to‘g‘ri javob topishgan. Yetakchi mamlakatlarning o‘quvchilari tomonidan ushbu masalaga bergan javoblarining eng yuqori natijasi 85 foizni tashkil etgan.

7-sinf, 111-masala. Idishda qanchadir litr suv bor. Agar idishga 3 litr suv quyilsa, idishning yarmi to‘ladi. Agar 3 litr suv to‘kib tashlansa, qolgan suv idishning 1/8 qismini egallaydi.

Savol: Dastlab idishda necha litr suv bo‘lgan?

Savol tavsifi: idishda necha litr suv bo‘lganligini nisbat tushunchasidan foydalanib hisoblash.

Matematikaga oid mazmun sohasi:miqdorlar.

Kontekst: shaxsiy.

Aqliy faoliyat turi: ifodalash.

1-savolning baholash mezoni

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to‘liq qabul qilinadi va to‘liq kredit beriladi:

5 litr

O‘quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi: Javob noto‘g‘ri bo‘lsa: 3,2 marta ko‘proq [kerak bo‘lgan miqdorni hisoblash talab qilinadi]; javob berilmagan bo‘lsa.

Izoh: Bu proporsionallikka oid standart arifmetik masala. Bunday turdagi masalalarni yechishda 7 sinf o‘quvchisida tenglamalar sistemasi haqida tushuncha bo‘lmaganligi sababli, o‘qituvchi quyidagicha mulohaza yuritishi mumkin. Agar 3 litr suv quysak idishning yarmi to‘ladi, bu esa idishning 4/8 qismidir (masalaning 2 sharti bilan bog‘laymiz), agar undan 3+3 litr suv to‘kib tashlansa, idishda 1/8 qismicha suv qoladi. Demak, 6 litr suv idishning 3/8 qismi ekan. Masalani yechishning bu usuli o‘quvchida proporsionallikka va qismga oid tushunchalarni qo‘llashga olib keladi, demak, masalani turli usullar bilan ishlash orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Yechish: Idishning sig‘imi u litr, ichida esa x litr suv bor deylik. U holda

$$x+3=\frac{y}{2}$$

$$x-3=\frac{y}{8}$$

$$\frac{y}{2}-3=\frac{y}{8}+3$$

$$y=16; \qquad x=5$$

117-masala(7-sinf). Qayiq daryo oqimi bo‘yicha *2,4 soat* va oqimga qarshi *3,2 soat* suzdi. Qayiqning oqim bo‘yicha bosib o‘tgan yo‘li oqimga qarshi bosib o‘tgan yo‘lidan *13,2 km* ortiq bo‘ldi.

1-savol: Agar daryo oqimining tezligi *3,5 km/soat* bo‘lsa, qayiqning turg‘un suvdagi tezligini toping.

1-savolga berilgan javobning baholanishi

Savolning maqsadi:

Tavsifi: Bosib o‘tilgan masofalarga sarflangan tezlikni va vaqtni taqqoslash

Matematikaga oid mazmun sohasi: O‘zgarish va bog‘liqlik.

Qo‘llash sohasi: Umumiy faoliyat

Bilish faoliyati: Qo‘llash

1-savolga izoh: Bu masalani bir nechta usulda yechish mumkin. Masalan, buning eng sodda va samarali usuli bosib o‘tilgan har ikkala yo‘l uzunligining sarflangan vaqt o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratishdir. Buni masofalarni tenglashtirish orqali amalga oshirish mumkin, ya’ni:

$2{,}4(x+3{,}5)=3{,}2\ (x-3{,}5)+13{,}2$

$2{,}4x+2{,}4*3{,}5=3{,}2x-3{,}2*3{,}5+13{,}2$

$0{,}8x=5{,}6*3{,}2-13{,}2$

$0{,}8\ x=4{,}72$

$x=5{,}9$

Masalani yechishda o‘quvchilardan masofa, tezlik va vaqt o‘rtasidagi bog‘liqlikka e'tibor qaratishlari talab etiladi, shuning uchun mazkur savol o‘quvchilarning “O‘zgarish va bog‘liqlik”ga doir matematik tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi. Masalani yechish uchun qiymatlar o‘rtasidagi nisbatni topish yoki tezlikni topish formulasidan foydalanish talab etiladi, shu sababli bilish faoliyati “Qo‘llash ” kategoriyasiga tegishlidir.

O‘quvchilar bilan birgalikda masalani yechish jarayonida fanlar integratsiyasining nechog‘li ahamiyatli ekanligini anglash mumkin. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv va fanlar integratsiyasi asosida baholash tizimining chuqur mazmunini ochib beradi.



O‘quvchilar bilan birgalikda masalani yechish jarayonida fanlar integratsiyasining nechog‘li ahamiyatli ekanligini anglash mumkin. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv va fanlar integratsiyasi asosida baholash tizimining chuqur mazmunini ochib beradi.

ABC uchburchakning *BD* medianasi davomida *D* nuqtadan keyin medianaga teng *DE* kesma qo‘yilgan. *C* uch orqali *AB* to‘g‘ri chiziqqa parallel *p* to‘g‘ri chiziq o‘tkazilgan. *p* to‘g‘ri chiziqning *E* nuqta orqali o‘tishini isbotlang.

Berilgan: $CF||AB$, *BO* mediana bo‘lgani uchun $AO=OC$, $BO=OE$.

Isbot qilish kerak: *p* to‘g‘ri chiziqning *E* nuqta orqali o‘tishini.

Isbot: Faraz qilaylik *p* to‘g‘ri chiziq *E* nuqtadan o‘tmasin, *p* to‘g‘ri chiziqning *BE* to‘g‘ri chiziq bilan kesishish nuqtasi F bo‘lsin. *AOB*, *COF* va *COE* uchburchaklarni qaraymiz. $CF||AB$ bo‘lgani uchun *AC* kesuvchi uchun $<BAC=<FCA$ (ichki almashinuvchi), $<BOA=<FOC$ (vertikal), $AO=OC$ (*BO* mediana tushgan

tomonni teng ikkiga bo‘lgani uchun) bo‘ladi. Demak, $\Delta AOB=\Delta COF$ *(BTB)*. Bundan $BO=OF$ ekanligi kelib chiqadi, lekin shartga ko‘ra $BO=OE$, bundan F nuqta E nuqta bilan ustma-ust tushishi kelib chiqadi. Demak, farazimiz xato ekan.

Masalani tushuntirgach, o‘quvchiga quyidagi shunga o‘xshash masalani berib, tushuntirilgan mulohazalarni mustahkamlash mumkin.

ABC uchburchakda *CD* mediana davomida bu medianaga teng *DE* kesma qo‘yilgan. AG‘ mediananing davomida *AF* medianaga teng *FH* kesma qo‘yilgan. *B, H, E* nuqtalar bitta to‘g‘ri chiziqda yotishini isbotlang [5].

Xulosa. Maktab o‘quvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o‘zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim ekanligi maqolada o‘z aksini topdi.

Adabiyotlar

1. M.A.Mirzaahmedov va boshq. Algebra. Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. “O‘qituvchi”, Toshkent. 2019. 24-30 b.

2. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi axborotnoma-1 (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami)

3. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi axborotnoma-2 (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami)

4. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi axborotnoma-3 (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami)

5. N.Turdiev va boshq. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarga kompitensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Toshkent. 2017, “Niso Poligraf”. 88-93 b.

ЕВРОПЕЙСКАЯ СЕМЬЯ И СЕМЕЙНАЯ ХРОНИКА В ТВОРЧЕСТВЕ АМЕРИКАНСКОГО ПИСАТЕЛЯ Г. ДЖЕЙМСА

Локтева Н.М. - докторант (DsC) Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. Статья посвящена определению особенности жанра семейной хроники в творчестве Г. Джеймса на раннем этапе. Основное содержание исследования составляет анализ одного из его первых романов «Американец» (1877) в основе сюжета лежит история о бесхитростном и прямолинейном американском миллионере, который пытался войти в семью высокомерных французских аристократов. В ходе развития действия романа показано, что европейская сословная кастовость становится непреодолимой преградой на его пути. Научная новизна работы заключается в подходе к изучению произведений Г.Джеймса с точки зрения их жанрового своеобразия, показано состояние одинокой личности, подавленной нарушением общечеловеческих ценностей. В результате выявлено, что в семейных хрониках Г.Джеймса исследуются столкновения характеров, положительными исходными данными, и высоким «призванием» в момент назревающего кризиса.

Ключевые слова: мир, родина, род, титул, семья, счастье, семейная хроника.

AMERIKALIK YOZUVCHI G.JEYMS IJODIDA YEVROPA OILASI VA OILA XRONIKASI

Локтева Н.М. - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti докторанти (DsC)

Annotatsiya. Maqola G. Jeyms ijodidagi oilaviy xronika janrining dastlabki bosqichdagi xususiyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy mazmuni uning birinchi romanlaridan biri bo‘lgan “Amerikalik” (1877) tahlili bo‘lib, sujet to‘g‘ridan-to‘g‘ri amerikalik millionerning mag‘rur va zukko fransuz aristokratlari oilasiga kirishga harakat qilgan hikoyasiga asoslangan. Roman harakatining rivojlanishi jarayonida Yevropa sinfiy kasta tizimi uning yo‘lidagi yengib bo‘lmaydigan to‘siqga aylanishi ko‘rsatilgan. Ishning ilmiy yangiligi G.Jeyms asarlarini janriy o‘ziga xosligi nuqtayi nazaridan o‘rganishga yondashishdadir. Asarda umuminsoniy qadriyatlarning poymol etilishi natijasida oyoq osti qilingan yolg‘iz odamning holati ko‘rsatilgan. Natijada, G. Jeymsning oilaviy yilnomalarida harakterlarning to‘qnashuvi, ijobiy dastlabki ma’lumotlar va pivo inqirozi davridagi yuqori “chaqiruv” o‘rganilganligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: dunyo, ona yurt, uru, unvon, oila, baxt, oila xronikasi.

THE EUROPEAN FAMILY AND FAMILY CHRONICLE IN THE WORK OF THE AMERICAN WRITER G. JAMES

Lokteva N.M. - Doctoral student of the Uzbek State University of World Languages (DsC)

Annotation: The purpose of the research is to determine the features of the family chronicle genre in the work of G. James at an early stage. The main content of the study is an analysis of one of his first novels, "the American" (1877). the plot is based on the story of an artless and straightforward American millionaire who tried to enter a family of arrogant French aristocrats. In the course of the development of the action of the novel, it is shown that the European class caste becomes an insurmountable obstacle in its path. The scientific novelty of the work consists in the approach to the study of G. James's works from the point of view of their genre originality.the author shows the state of a lonely person who is depressed by the violation of universal values. As a result, it is revealed that the family Chronicles of G. James explore the clash of characters, positive initial data, and high "vocation" at the time of an impending crisis.

Key words: world, motherland, clan, title, family, happiness, family chronicle.

Многие известные американские писатели, их предшественники и последователи, отправлялись в Европу в поисках тех мест, где на свет появились их родители или прародители, осуществляя своеобразное паломничество к храмам, историческим и памятным местам. Одни из них приезжали сюда учиться, получить лучшее образование, а другие оставались тут жить надолго. Родители Генри Джеймса ставили перед собой все эти цели, которые затем отразились в лучших произведениях писателя.

Генри Джеймс родился (Henry James, 1843-1916) в Нью-Йорке в доме на площади Вашингтона. Ко времени появления на свет будущего писателя прошло не более полувека с тех пор, как Джеймсы поселились в Америке. Первым американцем в роду был его дед, Уильям Джеймс, англичанин из Ирландии, эмигрировавший в США сразу же по окончании Революции. Уильям Джеймс Первый, оказался человеком предприимчивым и, занимаясь земельными спекуляциями, банковским делом и торговлей, нажил огромное состояние, оставив наследство в три с лишним миллиона долларов. Отец будущего писателя, Генри Джеймс - старший, получив огромное наследство, до конца дней освободился от необходимости трудиться. Благосостояние, обеспеченное дедовскими капиталами, в свою очередь, открыло перед его детьми, в том числе и Генри, одного из одиннадцати детей, такие возможности,

каких не выпадало на долю ни одного американского писателя, ни до, ни после него.

Генри Джеймс-старший, религиозный философ, считал, что дети не могут получить в Америке достойного образования, и поэтому в те годы, на которые приходятся детство и юность Генри-младшего, семья, подолгу жила за границей. Будущему писателю довелось жить в Париже, Лондоне, Ливерпуле, Лионе, Женеве, Бонне - это лишь некоторые из европейских крупных городов, где он жил и учился в различных престижных учебных заведениях, часто меняя их. После возвращения семьи в Америку, Генри продолжил учебу в Нью-Йоркском и в Гарвардском университете. Изучая в Гарварде право, Джеймс пришел к решению не связывать свою судьбу с профессией юриста, а заняться литературой. Он глубоко всесторонне изучал отечественную и европейскую литературу. «Осмысление опыта предшественников своего американского, и чужого, который надлежало сделать своим тех путей и принципов, что расширяют горизонты авторского видения и литературы в целом и ведут к ее обновлению, к открытию новых художественных миров, явилось для Джеймса первостепенной творческой задачей, основой всей его деятельности, определившей ее направление и характер».[6: 447]

Г.Джеймс начал писать рассказы и печататься в периодических изданиях еще в студенческие годы. Первый его роман «Опекун и опекаемая» (Watch and Ward, 1870). В 1871 в «Атлантик мансли» ("Atlantic Monthly") появилась его первая значительная новелла «Пламенный пилигрим» (A Passionate Pilgrim). В 1875 г. Джеймс переселился в Европу и в годы Первой мировой войны (1916) он перешел в британское подданство. Обосновавшись в Англии, Генри Джеймс более двадцати лет прожил в Лондоне, а в 1898 г. приобрел загородный дом — Лэм Хаус в городке Рай в графстве Сассекс. Там были написаны его поздние романы. Среди наиболее известных крупных произведений писателя следует назвать роман «Американец» (1877), «Женский портрет» (1881), а из числа новелл критики выделяют «Поворот винта» (1898).

Обосновавшись в Европе, Г.Джеймс отправился в Париж, где в те годы находился И.С.Тургенев. Он встретился с русским писателем, который живя по большей части за границей, сохранял с Россией крепкие связи и оставался во всем русским писателем. Его тема - сопоставление соотечественника с другим по своим социальным, культурным и психологическим особенностям национальным типом крайне интересовала и Джеймса с самых первых шагов его в литературе. Вот как пишет Джеймс о Тургеневе: «Все свои темы Тургенев заимствует из русской жизни и, хотя действие его повестей иногда перенесено в другие страны, действующие лица в них всегда русские. Он рисует русский тип человеческой натуры, и только этот тип привлекает его, волнует, вдохновляет.

Как у всех великих писателей, его произведения отдают родной почвой…»[7]. Эту же задачу ставил себе в своих беллетристических творениях Джеймс: показать своих соотечественников - американский «тип человеческой натуры» - в сравнении и противопоставлении с представителями Европы. Его произведения относящиеся к раннему периоду творчества, такие как повести «Европейцы» (The Europeans, 1878) и «Дейзи Миллер» (Daisy Miller, 1879), романы «Родерик Хадсон» (Roderick Hudson, 1875), «Американец» (The American, 1877) и «Женский портрет» (The Portrait of a Lady, 1881), и романы последнего периода - «Крылья голубки» (The Wings of the Dove, 1902), «Послы» (The Ambassadors, 1903) и «Золотая чаша» (The Golden Bowl, 1904), посвящены этой интересной теме. Действие в них происходит в странах Европы, а главными их героями, как у Тургенева русские, являются американцы, соотечественники автора, В его книгах исходной точкой конфликта является несоответствие духа и образа жизни на разных континентах – столкновение двух цивилизаций, сложившихся по разные берега Атлантического океана. В них события происходят то в Америке, то в Европе. Американцы, попавшие в Европу, смотрят на вещи глазами человека Нового Света, а представители Старого Света, прибывшие в Новую Англию, не воспринимают нормы жизни американского общества.

Роман Генри Джеймса «Американец» вышел отдельным изданием в Бостоне в 1877 г., почти сразу после того, как до этого (1886-1887) печатался в американском журнале «Атлантик мансли» (The Atlantic Monthly). Хотя Джеймс опубликовал свои первые работы в Америке, лучшие были написаны в Европе, где он жил подолгу, переезжая из Англии в Италию, с остановками в Женеве или Париже. Его родина, которая видит его так мало, уже давно держит обиду на его добровольное изгнание, а также на блестящую творческую деятельность, которая обеспечила ему репутацию за рубежом. Американские девушки восстали против Дейзи Миллер, казавшаяся им слишком дерзкой, которая чрезмерно флиртует на берегу озера Лиман или под деревьями парка Пинчио, за которой следует толпа влюбленных, когда она не идет ни с одним из них восхищаться Колизеем при лунном свете.

- В тот самый момент, когда мы увидели большой и законный успех, достигнутый в Англии новыми американскими писателями, Quarterly Review (Ежеквартальный обзор), называет это преувеличением и с определенной суровостью, заходит так далеко, и заявляет, что для завоевания романом любви английского читателя достаточно теперь чтобы его автор был из Бостона или Нью-Йорка. Этот строгий критик, который приводит имена Купера, Ирвинга и Готорна, чтобы уменьшить успехи их преемников, таких как Уильям Хауэллс и Генри Джеймс, совершенно справедливо возмущен

высказываниями, где эти молодые реалисты сравниваются с таким мастером слова, как Ч.Диккенс и заявляет о своем высоком предпочтении Бальзака и, несомненно, не ошибается. Но оправдано ли его упреки в адрес этих современных писателей за их заядлый вкус психологического анализа, описание ярких приключений и непредвиденных катастроф? Кажется, он удивлен тем, с какой невероятной свободой некоторые американцы осуждают своих соотечественников. Может быть, следует считать иностранную критику виновной в этом? Возможно, в конце концов, г-н Джеймс, если говорить только о нем, виновен в том, что иногда он оставляет Америку в стороне. С большой трудностью ему простят то, что он не пощадил ни англичан, ни других европейских типов которые, ему близки из-за бродячей жизни, которую он ведет, так же как и свои соотечественники. .[1: 120] (перевод наш – Л.Н.)

Жизнь экспатриантов стала ведущей темой не только для романа «Дези Миллер», «Послы», «Крылья голубки», «Золотая чаши» но и многих других произведений Джеймса, в которых трагедия личности, оторванной от родины, решается хоть и по-разному, но все герои одинаково ощущают «одиночество ссылки», «отрезанность» от Америки или Европы, причиной которой являются вступающие в противоречие разные типы современной цивилизации.

В романе «Американец», нувориш Ньюмен, заработав баснословное состояние, хочет жениться на французской аристократке Клер де Сентре, но получает решительный отказ лишь за то, что он не дворянин значит, по ходу развития сюжета драма неизбежна, из-за невозможности преодолеть сословные предрассудки европейских аристократов.

Биограф писателя Ф.У.Дюпе определяет роман «Американец» как первый великий роман Джеймса, противопоставляя его «Родрику Хадсону»: последний, по его мнению, - всего лишь «музейный экспонат, ... обладающий несколькими весьма большими достоинствами, но мертвый в сердцевине».[2: 74] «Американец» был первым романом, созданным после переезда писателя в Европу. В новой для Джеймса ситуации контраст Европы и Америки, оставшийся за бортом «Родрика Хадсона», приобрел особую остроту, определив имеющую программный характер главную тему романа. Ее значимость про акцентирована самим заглавием книги. Этот контраст подчеркнут также именем героя - Кристофер Ньюмен. Если мужское имя «Кристофер» довольно широко распространено как в Америке, так и в Европе, то смысл фамилии «Ньюмен» вряд ли ускользнет от внимания читателя. По замыслу Джеймса, герой появляется в Европе именно как представитель нового мира, сложившийся в условиях «американского эксперимента», как «новый человек», свободный от груза традиций, носитель не отягощенного предрассудками Старого Света «нового» сознания.

В свете заданного контраста можно увидеть определенный символический смысл в провале попытки героя, которым завершается роман, вступить в брак с наследницей старинного аристократического рода, французского по отцу и английского по матери. Союз Ньюмена, «нового человека», и Клер де Сентре, вскормленной традициями, берущими начало из далекого прошлого, - союз Америки и Европы - оказывается невозможен. Писатель представлял центральный конфликт обобщенно - не как столкновение отдельных личностей, а как противостояние общественных систем. В этом плане его отношение к наследственной аристократии согласуется в целом с воззрениями отцов-основателей США и современной ему демократической позицией.

Главный героя романа «Американец» и отдельные его персонажи имеют автобиографический характер, Так, Кристофер Ньюмен такой же предприимчивый как его дед и богат как отец, который «получил огромное наследство, до конца дней освободившего его от необходимости всякого труда». Ему 36 лет, как и автору, во время создания произведения, он любит живопись (будущий писатель этим занимался в школьные годы)[6: 449].

По прибытию в Париж на площади Лувр знакомится с юной художницей Ноэми Ниош, занимающейся копированием картин, известных всему миру художников прошлого. В тот же день он покупает у нее копию одного произведения и заказывает для себя еще множество новых копий произведений известных художников. Его возлюбленная Клер Сентре напоминает автору девушку, на которой он не женился на родине, узнав, что она младше его на четырнадцать лет. Так один за другим появляются все образы героев произведения. И прав тот, который сказал, что «под предлогом человеческих документов каждый пускается рассказывать свою жизнь или чужую, точно последнее слово искусства – это автобиография. Никто больше не умеет ни любить, ни страдать, не крича об этом с крыш».[4: 219]

Кристофер Ньюмен, главный герой романа, покинул Запад с «пугающим запасом» долларов, которые он намерен потратить в Европе на свои удовольствия. До сих пор, за исключением четырех лет, которые он провел на гражданской войне, он зарабатывал деньги, с начала на хлеб, потом заработал и миллионы. Движение, усилие и предприимчивость для него также естественны, как и дыхание; он сделал своими руками и головой все, что человек может сделать с ними; он прилагал руки и ум к великому множеству дел - занимался предпринимательством в буквальном смысле этого слова, шел на риск, зачастую безрассудный, познал блестящий успех и горечь поражения, но, будучи прирожденным экспериментатором, умел извлекать радость даже из сознания необходимости. Вполне очевидно, что в те дни Кристофер Ньюмен

считал добывание денег единственной целью в жизни; по его собственному убеждению, он для того и пришел в этот мир, чтобы отвоевать у строптивой судьбы богатство, и чем больше оно будет, тем лучше. В Париже (у музея Лувр), Кристофер встречает американца Тома Тристрама и его супругу, которые проживают здесь уже шесть лет. Супруги приглашают его к себе в гости, где Кристофер хвастается тем, что у него имеется, и тем, чего он хочет, но не знает, как этого достичь. И когда Тристрам спрашивает Ньюмена о степени серьезности его намерений, он отвечает, что действительно его намерения вполне серьёзны.

«Of course I'm in earnest. I know the best can't be had for mere money, but I'm willing to take a good deal of trouble. I haven't the least idea—I must see. I want the biggest kind of entertainment a man can get. People, places, art, nature, everything! I want to see the tallest mountains, and the bluest lakes, and the finest pictures, and the

handsomest churches, and the most celebrated men, and the most elegant women.»[3]

- Конечно, серьезные. Я хочу взять от Европы все самое лучшее. Я знаю, просто за деньги самое лучшее не купишь, но подозреваю, что деньги могут многое. Я и шуму хочу наделать много, хочу получить все, что возможно. Посмотреть людей, города, искусство, природу - все! Самые высокие горы, самые синие озера, самые лучшие картины, самые красивые соборы, самые известные мужчины и самые красивые женщины.[5] (выделено нами – Л.Н.)

В гостях Том Тристрам и его супруга в дружеской беседе, узнают о его вкусах, интересах, готовя его к встрече с мадам Клер Сентре. Знакомство с ней предложил М.Тристрам: «Хорошеньких девушек мы, слава Богу, знаем много, но прекрасные женщины встречаются не так уж часто».

И в ответ ему Ньюмен говорит:

«-Против иностранок я ничего не имею. — У меня нет предрассудков. — Я женюсь на японке… и на прекрасней черкешенке с кинжалом за поясом если она мне понравится.» То есть Ньюмен с самого начала заявил себя как современный не отягощенный социальными и национальными предрассудками.

Однако, после похвалы в адрес мадам Клер Сентре мистером Тристрамом, он останавливает свой выбор на прекрасной парижанке и спрашивает:

«– А она красавица?»

-"She's not a very great beauty, but she's very, very beautiful; two quite different things. A beauty has no faults in her face; the face of a beautiful woman may have faults that only deepen its charm."

– «У красавицы все черты абсолютно правильны, а у прекрасной женщины - нет, но это только усиливает ее очарование. Она не красавица, она - прекрасна, а это вещи разные.» (выделено нами – Л.Н.)

— А она добрая? Умная?

«She's perfect! I won't say more than that. When you're praising a person to another who's to know her, it's bad policy to go into details. I won't exaggerate, I simply recommend her. Among all the women I've known she stands alone; she's of a different clay.»

— Она - само совершенство! Больше мне нечего добавить. Расхваливать особу, с которой предстоит знакомство, входить в подробности — дело неблагодарное. Я не стану ее превозносить. Я просто рекомендую ее вам. Среди женщин, которых я знаю, она стоит особняком.[5] (выделено нами – Л.Н.)

Мадам Клер Сентре гордая, прелестнейшая женщина в мире, та, к кому инстинктивно старался приблизиться Ньюмен, соглашается их принять. Американец всегда любил общество женщин, а теперь, живя вдали от родных краев, без привычных занятий, охотно восполнял образовавшийся пробел. У него была своеобразная манера вести себя с женщинами. Он не отличался галантностью в обычном смысле этого слова - не расточал комплименты, не сыпал любезностями, не произносил речей., и со стороны дамы требовалась известная проницательность, дабы понять, что он ею восхищается. В разговорах с женщинами он, садясь на диван рядом с дамой, преисполнялся величайшей серьезностью. Он не был застенчив, а так как неловкость возникает в борьбе с застенчивостью, не был и неловким; серьезный, внимательный, смиренный, часто молчаливый, он попросту таял от восторженной почтительности. Такое отношение к прекрасному полу не объяснялось какими-либо теориями, не было в нем и особой сентиментальности. Ньюмен никогда не задумывался о «положении женщины в обществе», а к образу «президента в юбке» не испытывал ни симпатии, ни антипатии. Подобные мысли вообще не приходили ему в голову. В отношении к женщине проявлялись все лучшие черты его доброго характера; оно проистекало из инстинктивной и истинно демократической убежденности, что каждый имеет право жить, как ему хочется. Более того - Ньюмен в жизни не прочел ни одного романа, и потому ставшие уже традиционными представления о женщинах он составил для себя сам. Его поражала их проницательность, их глубина, их такт, меткость их суждений. Они казались ему утонченно мыслящими созданиями. [5]

Роман «Американец» очень похож на роман «Вашингтонская площадь» (Washington Square, 1881): в них похожая проблема, но разрабатывается по-разному. Однако их объединяет одно - герой и героиня борются за свое человеческое счастье. Так, героиня повести «Вашингтонская площадь» Кэтрин

Слоупер стремится к личному счастью и вынуждена расплатиться за это горькими итогами несостоявшейся жизни. Ее отец, солидный нью-йоркский доктор Слоупер, выходит против брака Кэтрин с человеком низкого сословия, «проходимцем» по его словам, и сделает свою дочь навеки несчастной.

Как видно, в семейных хрониках Г.Джеймса родители, в основном матери, выступают против счастья собственных дочерей. Такое в основном происходит в аристократических семьях разных национальностей на обоих континентах. Противопоставляя различные типы сознания, обусловленные особенностями национального бытия, Джеймс сделал эту проблему не только стержневой в своем творчестве, но и выдвинул её на первый план в литературе второй половины XIX века. Своеобразие семейных хроник Г.Джеймса и заключается именно в этом.

Литрература

1. Betzon Th. Les Nouveaux romanciers américains.//Revue des Deux Mondes, 3e période, tome 57. – Paris, 1883.

2. Dupee F.W. Heniy James. - N.Y., William Morrow, 1974.

3. The_Novels_and_Tales_of_Henry_James/Volume_2/ The_American/ Chapter_26. https://en.wikisource.org/w/index.php?

4. Вестник иностранной литературы. №11, 1891г., цитируется по Иностранной литературе, №6, 2002, с.219.

5. Генри Джеймс. Американец. Перевод, примечания и предисловие М.А.Шерешевской. hhtp:BooksCafe.Net

6. Коренева М.М. Генри Джеймс/История литературы США под ред. Засурского Я.Н. – М.,2003, том 4, С. 447.

7. Статьи Генри Джеймса. Тургенев. С.197. Сохраненная копия/mybiblioteka.su/5-14156.html 17.04.2020

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK MADANIYATINI INTEGRAL YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Karamatova.D. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarimizda tabiatni asrab-avaylash, uni parvarishlash va muhofaza qilish uchun zarur bo‘lgan ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: atrof-muhit, tabiat, ekologiya, ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, integratsiya, integratsion yondashuv, ekologik madaniyatni rivojlantirish.

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Караматова.Д. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы сохранения природы, воспитания экологической культуры, необходимой для ее сохранения.

Ключевые слова: окружающая среда, природа, экология, экологическое сознание, экологическое воспитание, экологические акции экологи, образование, экологическая культура, интеграция, комплексный подход, развитие экологической культуры.

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Karamatova.D. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article covers the issues of the development of ecological culture necessary for the preservation of nature, its care and protection of our youth.

Key words: Environment, Nature, Ecology, environmental consciousness, environmental education, environmental actions ecologists, education, environmental culture, integration, integrated approach, development of environmental culture.

Jahonda talabalarning ekologik madaniyati ijtimoiy xavf-xatar sharoitida rivojlantirish, samarali modellarni yaratish, tabiiy jarayonlarni boshqarish ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish, ekologik bilimlarni rivojlantirish, ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchalar integratsiyasini rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi PQ-2915-son “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘ risida”gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 13-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ekologik tarbiya, ekologik targ‘ibot, ekologik ta’lim, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish zarurligi bilan belgilanadi. Bunda “atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog‘lomlashtirilishini ta’minlash” kabi ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning ekologik-valeologik madaniyatini rivojlantirish, ekologik tarbiya va ta’lim tizimini tashkil etish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va biologik xilma-xillikni saqlab qolish sohasida bilimlarni targ‘ib qilish ishlarining olib borilishi ta’minlanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish tizimini yaratish, metodologik va texnologik jihatdan ishlab chiqish va asoslangan ravishda amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan tadqiqotning dolzarbligi biz tomonimizdan quyidagi darajalarda o‘rganilmoqda:

Pedagogik antropologiya darajasi, pedagogikaning yetakchisi K.D.Ushinskiy tomonidan alohida ajratilgan, B.M.Bim-Bad, O.F.Bolnov, B.A.Nikityuk, G.A.Novichkova, V.P.Kaznacheyev, A.I.Subetto, M.Sheler, N.Gartman, G.Plesner, V.Frank, V.V.Rozanov, M.M.Baxtin va boshqalar tomonidan keyinchalik ishlab chiqilgan bo‘lib, N.F.Reymersning sistemogenetik qonuniga muvofiq keladi. Antropologiya bo‘yicha chop qilingan asarlarni hamda insonning ijtimoiy guruhlar, tabiat, tabiat-ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarining ijtimoiy-tarixiy rivojini o‘rganish zaruratini tahlil qilish asosida, birinchidan, ijtimoiy-tarixiy munosabatlarning hozirgi davrda birgalikda moslashuv shakliga qaratilganligi munosabati bilan, bunday munosabatlarning bir bosqichidan boshqa bosqichiga tarixiy o‘tish izchilligi aniqlanadi, ikkinchidan, inson munosabatlarining ontogenetik rivojlanishi uning filogenetik rivojlanishi bilan munosabatdor qilinadi [1];

ijtimoiy-pedagogik daraja: yuqorida qayd etilgan, ta’limdagi inqiroz bilan jiddiylashadigan murakkab inqirozni yengib o‘tish zaruratiga bog‘liq bo‘ladi. Garchi aynan ta’lim (tipologik darajaviy ko‘rinishlarida) shaxsni shakllantirishga, binobarin, insonning atrof muhit va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa ham. Biroq, bunday munosabatlar sohasida pedagoglarni tizimli va aniq maqsadga qaratilgan tayyorlash yetarlicha samarali emas, ba’zan esa mavjud ham emas. Shu munosabat bilan o‘rab turgan tabiiy-ijtimoiy sharoitga va o‘zining farovonligiga, salomatligiga nisbatan o‘sib kelayotgan avlodning oqilona, mas’uliyatli munosabatlarini mo‘ljal qilgan pedagoglarning ekologik-valeologik tayyorligini oldindan shakllantirish zarur. Bundan jamiyat manfaatdor bo‘ladi, uning

ustiga ijtimoiy va ekologik-valeologik inqiroz davrida, undan tashqari, insonning o‘zi hayot va sog‘liqning yuksak qimmatini his etishi lozim;

ilmiy-pedagogik daraja: so‘nggi ikki o‘n yillik ichida o‘sib kelayotgan kishilarning tabiat va ijtimoiy-tabiiy muhit bilan (inson ekologiyasi) hamda o‘z-o‘ziga, o‘zining farovonligi va sog‘lig‘iga (valeologiya) munosabatini shakllantirish sohasida tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Uning ustiga, umumiy ta’lim tizimida ekologik va valeologik ta’lim konsepsiyasi ishlab chiqildi, biroq pedagoglarning kasbiy tayyorgarligining nazariy-amaliy ekologik-valeologik ta’minoti mavjud emas;

ilmiy-metodologik daraja quyidagilardan kelib chiqadi: birinchidan, aqliy, mulohazaviy, ijtimoiy xulq-atvor va kommunikativ faoliyat sohasidagi yirik kashfiyotlardan; chunki bu kashfiyotlar o‘sib kelayotgan avlodni o‘qitish, tarbiyalash va aniq maqsadga qaratilgan holda yanada rivojlantirishni, binobarin, bu jarayonlarni amalga oshiruvchi pedagoglarni tayyorlashni oldindan belgilab bermasligi mumkin emas; ikkinchidan, insonning tabiiy-ijtimoiy muhit (ichki va tashqi) bilan, o‘z-o‘zi bilan munosabatlarining filogenetik va ontogenetik dinamikasidan; uchinchidan, hozirgi zamon pedagogikasining va xususan, XX asr boshidan buyon pedagogik antropologiya g‘oyalarini chuqurlashtirib kelayotgan pedologiya ko‘rinishida amalga oshirilayotgan hamda hozirgi vaqtda o‘qitish, tarbiyalash va ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini yaratishga ilmiy-metodologik yondashuvlarda rivojlanayotgan ta’lim nazariyasining mos ravishda rivojlanishidan; to‘rtinchidan, qayd etilgan ilmiy-metodologik yondashuvlar oqimiga ekologik-valeologik ta’limni yuzaga keltiruvchi ekologiya-valeologiya ham tushadi [2].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning metodologik muammosi talabalarning umumiy kasbiy-pedagogik tayyorgarligi hamda kasbiy-pedagogik ta’limi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi; aytib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar mamlakatimiz va chet ellardagi taniqli olimlarning asarlarida aks etgan.

Shu munosabat bilan quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar o‘tkazilgan:

ekologiyaning rivojlanishi – uning valeologiya asoslari bilan bog‘ liqligida (J.Bryun, V.I.Vernadskiy, P.Dansero, J.Dorst, B.Kommoner, V.A.Kutiryov, O.Leopold, T.Maltus, E.Marton, D.P.Margi, Y.Odum, F.Ramada, N.F.Reymers va b.);

valeologiyaning rivojlanishi – uning ekologiya bilan o‘zaro aloqalarida (N.M.Amosov, K.Bayer, I.I.Brexman, P.F.Lesgaft, L.G.Martos, V.V.Kolbin, V.P.Petlenko, Y.B.Temper, V.A.Troyanovskiy, K.Fleyk-Xobson, R.Xabbart, V.Chimarov, D.Chopra va b.); [2]

ekololgiya-valeologiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqish (B.G.Ananyev, P.K.Anoxin, D.J.Bolduin, V.I.Vernadskiy, V.P.Kaznacheyev, K.Levi-Stros, E.Neyman, I.I.Mechnikov, N.N.Moiseyev, V.Preyer, V.P.Petlenko, N.F.Reymers va b.);

ekologik ta’limning konseptual va texnologik asoslarini ishlab chiqish va amalga oshirish – umumiy ta’lim tizimida (S.V.Alekseyev, S.N.Glazachev, E.V.Girusov, A.N.Zaxlebniy, I.D.Zverev, N.M.Mamedov, I.N.Ponomaryova, V.P.Solomin, L.V.Moiseyeva va b.), shuningdek, biolog talabalarning ekologik-biologik ta’limi tizimida va o‘qituvchilarning diplomdan so‘nggi ekologik-pedagogik ta’limi tizimida (S.V.Alekseyev, N.D.Andreyeva, S.D.Deryabo, V.A.Levin va b.) [2]

Shunday qilib, bir tomondan, o‘sib kelayotgan insonning boshqa kishi, ijtimoiy guruhlar (jamiyat), tabiat, ijtimoiy-tabiiy muhit va o‘z-o‘zi bilan haqiqiy munosabatlari, tahlillar ko‘rsatishicha, yetarli darajada aniq maqsadga qaratilmagan holda, ko‘pincha, tartibsiz ravishda, ya’ni yetarli bo‘lmagan darajada shakllantirilmoqda, ikkinchi tomondan esa pedagoglarda, ayniqsa, maktabgacha ta’lim pedagogik jamoalarida boshlang‘ich daraja sifatida mos keluvchi ekologik-valeologik tayyorlik mavjud emas.

Shu munosabat bilan quyidagilarga zarurat paydo bo‘ladi:

- o‘sib kelayotgan insonga ekologik-valeologik ta’lim berishning predmetga oid va metodologik mohiyatini hamda oldini oluvchi ijtimoiy-tarixiy tahlil bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lajak pedagoglar ekologik-valeologik tayyorligini shakllantirish metodologiyasini pedagogik antropologiya nuqtayi nazaridan, insonning o‘rab turgan tabiiy-ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zi bilan munosabatlari hamda bunday munosabatlarning rivojlanish istiqbollariga nisbatan munosabatlarining rivojlanishi nuqtayi nazaridan tahlil qilish (V.I. Vernadskiyga ko‘ra); [3]

- bir tomondan, ekologiya, valeologiya va ekologiya-valeologiya hamda ikkinchi tomondan, ekologik ta’lim, valeologik ta’lim va ekologik-valeologik ta’lim mohiyatlarining o‘zaro nisbatlarini baholash;

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishdek pedagogika hodisasini pedagoglarning mumkin bo‘lgan, ajratib olingan turdagi ekologik tayyorgarligi va valeologik tayyorgarligi bilan qiyoslagan holda, qat’iy, deduktiv tavsiflash uchun zarur va yetarli bo‘lgan tushunchalar qatorini ishlab chiqish;

- amaliy tatbiq etish uchun yetarli ilmiy asos va to‘g‘ri shart-sharoitlarga ega bo‘lgan tamomila yangi pedagogik tizimni yaratish metodologiyasini shakllantirish;

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish metodologiyasi muammolarini tadqiq etish dolzarbligi quyidagi *ziddiyatlarni* qayd etish imkonini beradi:

- pedagogika oliy ta’lim muassasalari tizimida pedagoglarning o‘ta zaif ekologik madaniyati hamda har xil turdagi va darajadagi ta’lim muassasalarida bolalar bilan malakali sog‘lomlashtirish ishlariga ulkan ehtiyoj o‘rtasida; bunga faqat tayyorgarlik ko‘rgan, bolaning rivojlanuvchi shaxsini shakllantiradigan pedagoglar jamoalarining qurbi yetadi;

- talabalarni va atrofdagi tabiiy-ijtimoiy muhitni ekologik-valeologik ta’lim vositalari bilan sog‘lomlashtirish sohasidagi tadqiqotlar sust muvofiqlashtirilishi hamda tizimli va rejali sog‘lomlashtirish ishlarini aniq maqsadga yetarlicha yo‘naltirgan holatda bajarishga qodir bo‘lgan ta’lim muassasalari tibbiy xodimlari, bolalar poliklinikalari tomonidan va oilalarda amalga oshirilayotgan sog‘lomlashtirishning aniq ifodalangan tibbiy yo‘nalishi o‘rtasida[3].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirish quyidagi holatlarda samarali bo‘ladi:

❖ insonning tabiat, ijtimoiy guruhlar (jamiyat), tabiiy-ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarining (o‘zaro munosabatlarining) ijtimoiy-tarixiy rivojini o‘rganish inson, pedagogik antropologiya rivojlanishining filogenetik va ontogenetik tarkibiy qismlari mutanosibligiga asoslangan bo‘lsa hamda rivojlanayotgan bola munosabatlari tabiatga mos shakllanishining bio-eko-ijtimoiy va shaxsga yo‘nalganligini ta’minlasa. Bu esa, o‘z navbatida, pedagoglarning ekologik-valeologik mohiyat kasb etadigan kasbiy tayyorgarligini ratsionallashtirish uchun asosga aylanadi;

❖ bir butun bo‘lib birlashgan ekologiya-valeologiyaning, ekologik-valeologik ta’limning (pedagoglar tegishli tayyorgarligining) sinergizmini ekologiya, valeologiya va tegishli ta’lim turlarining funksional-metodik imkoniyatlari bilan solishtirgan holda baholash bajarilgan bo‘lsa;

❖ bo‘lajak bolang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirishning avval mavjud bo‘lmagan tizimini yaratish jarayoni deduktiv jihatdan asoslangan va metodologik jihatdan izchil bo‘lsa;

❖ bo‘lajak bolang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lsa; ushbu pedagogik hodisaning tashkiliy, mazmuniy va texnologik ta’minoti bajarilgan bo‘lsa;

❖ bo‘lajak bolang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirishning tegishli bilimlarga erishish maqsadiga qaratilgan strukturaviy-funksional metodologik modeli ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan bo‘lsa;

❖ o‘rganilayotgan tizimni yaratish jarayoni har tomonlama tahlil qilingan va tegishli ravishda tuzatishlar kiritilgan bo‘lsa, strukturaviy-funksional metodologik modelni ishlab chiqish va amalga oshirish pedagogika nuqtayi nazaridan monitoring qilingan bo‘lsa, shuningdek, ushbu konseptual jihatdan ta’minlangan modelni va ushbu tizimni eksperimental amalga oshirish natijalarining verifikatsiyasi bajarilgan bo‘lsa.

Yuqoridagi tavsiya etilgan barcha ishlarni amalga oshirilshsa quyidagi natijalarga erishiladi;

- yoshlarimiz ongida tabiatni asrab-avaylash, parvarishlash va muhofaza qilish haqidagi fikrlash shakllanadi;

- bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik ongi, ekologik tarbiyasi hamda ekologik madaniyati rivojlanadi;

- atrof-muhitda tabiiy boyliklardan oqilona foydalash fikrlari shakllanadi;

- inson yashaydigan har qanday joylarga chiqindini tashlamaslikni, suvni befoyda oqizmaslikni, mahsulotlarni tejashni, ko‘chatlar ekishni, atrof-muhitni himoylashni o‘rganadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tabiat ham shu dunyoning bir qismi, tabiatsiz insonlar ham, insonlar tabiatsiz ham yashay olmaydi. Shundan kelib chiqib, tabiat inson uchun xizmat qilishini anglamog‘imiz lozim. Shunday ekan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham o‘zida shu tushunchalarni shakllantirib mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yosh o‘quvchilarimizga shu bilimlarni o‘rgatmog‘i lozim. Tabiat bor ekan uni asrab avaylash haqidagi bilimlar, ishlar amalga oshirilaveradi va bu hali-hanuz davom etmoqda.

Adabiyotlar

1. A.Ismoilov. R.Axadov. Ekologik ta’lim-tarbiya. – Toshkent. “O‘qituvchi” 1997.

2. Dusanova Sh. “Tabiatdan foydalanishda ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari” . Xalq ta’limi. – Toshkent, 2008, №2 son – B. 42-44

3. Ismoilova. G. Xalqimizning ekologik an’analari va ularni tiklashning nazariy va amaliy masalalari Xalq ta’limi. Toshkent, 2007, №1-2son – B. 97-98.

O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN TURIZM SOHASIDAGI HAMKORLIGI

Ismatullayev F.O.– Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik aloqalari yoritilgan. Muallif masala mohiyatini ochib berishda davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, huquqiy-meyoriy hujjatlar hamda arxiv materiallaridan ham unumli foydalangan.

Kalit so‘zlar: Turizm, hamkorlik, investitsiya, madaniy meros, turistik marshrut, badiiy ko‘rgazmalar, madaniyat kunlari, ilmiy aloqalar, memoriy obidalar.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С ЕВРОПЕЙСКИМ СОЮЗОМ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Исматуллаев Ф.О. – докторант Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат исторических наук, доцент

Аннотация. В статье освещены отношения между Республикой Узбекистан и Европейским Союзом в сфере туризма. Автор плодотворно использовал данные Госкомстата, нормативно-правовые документы и архивные материалы для раскрытия сути вопроса.

Ключевые слова: туризм, сотрудничество, инвестиции, культурное наследие, туристический маршрут, художественные выставки, дни культуры, научные связи, мемориальные памятники.

UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH THE EUROPEAN UNION IN THE FIELD OF TOURISM

Ismatullayev F.O. - doctoral student of the Tashkent State Pedagogical University Ph.D., Associate Professor

Annotation. The article covers the cooperation between the Republic of Uzbekistan and the European Union in the field of Tourism. The author used the data of state statistics, legal documents and archive materials to reveal the essence of the issue.

Key words: Tourism, cooperation, investment, cultural heritage, tourist itinerary, artistic sights, days of culture, scientific flames, memorial monuments.

O‘zbekiston – sayyohlik uchun zarur barcha resurslarga, salohiyatga ega. Qadimiy me’moriy yodgorliklar, o‘zbek madaniyati durdonalari, purviqor tog‘lar, uch ming yillik insoniyat tamadduniga guvoh shaharlar, betakror tabiatimiz – barchasi butun dunyodan minglab sayyohlarni jalb qilmoqda.

Yurtimizni yanada sayyohlik uchun qulay mamlakatga aylantirish maqsadida, hukumat darajasida yangi qonun va dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bunda Yevropa Ittifoqi davlatlari, ayniqsa, turizmni sanoat darajasiga ko‘targan mamlakatlar tajribasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida barcha sohalarni rivojlantirish masalalari ustuvor masala sifatida qo‘yilib, bunda turizm sohasini ham jadal rivojlantirish, qisqa yillar ichida yurtimizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar sonini 9 millionga, ichki sayyohlar sonini esa 12 millionga yetkazish nazarda tutilayotgani ham muhim ahamiyatga ega[1]. Bunda albatta, O‘zbekistonning jahondagi nufuzli sayyohlik tashkilotlari hamda ushbu sohada ulkan yutuqlarga erishgan mamalakatlar tajribalarini o‘rganish yaxshi samara beradi.

Turizm sohasidagi islohotlar va istiqbol rejalar hamda O‘zbekistonning turistik salohiyatini o‘rgangan ko‘plab ilmiy markaz va ekspertlar o‘zlarini prognozlarini berib kelmoqda. Jumladan, Fransiyadagi nufuzli “Radio France

internationale” markazi ekspertlarining 2019-yilgi hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston istiqbolli turizm yo‘nalishi sifatida yiliga 10 millionidan ortiq sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Respublikada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar buni reallikka aylanishiga xizmat qiladi[2] - deya ishonch bildirgan.

Demak, O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan jahonda ushbu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishgan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan turizm sohasiga alohida e’tibor qaratilib, xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ichki turizmni yanada takomillashtirish, ziyoratchilarga munosib shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha ko‘plab farmon va qarorlar qabul qilindi. Aynan turizm sohasini rivojlantirish uchun alohida yangi qonun qabul qilinganligi, ushbu sohani rivojlantirishga davlat darajasida e’tibor qaratilganligidan dalolat berib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi bo‘lgan turizm sanoati soxasidagi hamkorligi tadrijiy rivojlanib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 1993-yil Butunjahon sayyohlar tashkilotiga qabul qilindi. 1997-yildan tashkilotning ijroyi kengash a’zoligiga saylandi[4]. O‘zbekistonda sayyohlar uchun 1992-yilda 115 ta davlat tashkilotlari xizmat qilgan bo‘lsa, hozirda davlat va nodavlat xizmat ko‘rsatish tashkilotlari soni 400 dan ortiqdir[5].

Xususan, 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan “Turizm” to‘g‘risidagi qonun, “2005-yilgacha O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida[6]”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 2-sentyabr, 310-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizm va mehmonxona biznesini rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori”, Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmoni kabi qator hujjatlar turizm infratuzilmalarini rivojlantirish uchun muhim dasturul amal bo‘lmoqda[5].

Iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lgan turizmning dunyo miqyosidagi obro‘si yil sayin oshib borayapti. 2000-yilda jahon turizm harakatlarida 700 millionga yaqin sayyoh ishtirok etgan bo‘lsa, 2016-yil holatiga ularning soni 1,2 milliardga yetgan [5]. Bu raqamlar yildan-yilga sayyohlar soni ko‘payib borayotganligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishni istiqbolli ekanligiga va O‘zbekistonda rivojlantirishga asos bo‘ladigan yana bir muhim jihat shuki, hozirda jahon iqtisodiyotini 10 foizi aynan turizm sohasidan tushayotgan mablag‘lar hisobiga to‘ldirilayotganligidir.

Davlat Bojxona statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra 1997-yil davomida O‘zbekistonga 963,5 ming, 1998-yil., 710,5 ming, 1999-yil., 486,8 ming sayyoh tashrif buyurgan. BMT ning taraqqiyot dasturi ekspertlari fikricha 2005-yil

O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni 1 mln ga yetishi kerak edi[6]. Bu sohani rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida yuqoridagi ekspertlar fikri haqiqatga aylandi.

Ushbu yo‘nalishda tizimli islohotlar qisqa davrda o‘zining ijobiy samarasini berib, 2017-yilda yurtimizga qariyb 2 million 700 ming sayyoh tashrif buyurdi[5]. 2018-yili O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni 5,3 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, ularning soni 2019-yilda 6 748 500 kishiga yetgan. Demak, ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar o‘zining ijobiy samarasini berib, qisqa o‘n besh yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni deyarli o‘n barobarga oshganligida ko‘rishimiz mumkin.

Demak, raqamlarni o‘sish dinamikasini taxlil etadigan bo‘lsak, 1997-yilga nisbatan 5-6 marta, 2005-yilga nisbatan esa 4-5 martaga ko‘payganligini ko‘rsatmoqda. Bu albatta so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga qaratilayotgan katta e’tiborni natijasidir. Soha ekspertlari tomonidan O‘zbekistonning turistik imkoniyati 10-12 million sayyohni ham qabul qilishga yetishi ta’kidlanib, hozirda sayyohlar uchun zaruriy mehonxona va turli infrastrukturalarni yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Biroq, 2020-yilda butun dunyoni qamrab olgan pandemiya barcha sohalar kabi, turizm industriyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Buni oxirgi yillarda jahon miqyosida sayyohlar oqimini keskin kamayib ketganligida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston o‘zining turistik imkoniyati bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni, dunyo mamlakatlari ichida 10-15 davlatlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimizning diqqatga sazovor joylarida turizmni rivojlantirish, sayyohlarga xizmat ko‘rsatishni jahon talablari darajasiga yetkazish maqsadida Yevropa Ittifoqining Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Portugaliya, Avstriya, Gollandiya, Vengriya, Chexiya kabi qator davlatlari tajribasi o‘rganilib, amaliyotga keng tadbiq etilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar va hamkorliklar natijasida so‘nggi yillarda yurtimizga kelayotgan sayyohlar soni sezilari ortmoqda.

Ana shunday hamkor davlatlardan biri Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida o‘zining qadimiy madaniyatini jahon ommasiga targ‘ib etishda va o‘z navbatida hozirgi davr bilan uyg‘un rivojlantirishga uringan, doimiy ravishda dunyo sayyohlarini o‘ziga rom etib kelayotgan Italiya Respublikasi tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘hna Italiya ya’ni Rim ham insoniyat sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida dunyoga mashhur. Rim qadimgi davrlardayoq o‘zining betakror me’morchiligi, klassik adabiyoti, san’ati bilan qo‘shni va uzoq davlatlarga madaniy tasir etgan. Hozirgi Yevropa aynan shu Rim sivilizatsiyasi fundamenti ustiga

qurilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Italiya o‘zining qadimiy arxitektura va shaharsozlik madaniyatlarini hozirgi kungacha saqlab, butun insoniyatga taqdim etib, hamon madaniy aloqalar rivojiga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Albatta, bu turizmni rivojlanishiga imkon yaratib, ushbu yo‘nalish Italiya iqtisodiyotida munosib ulushga egadir.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy go‘zal shahri Samarqand ham – Sharq Rimi nomini olgani ham ramziy ma’noga ega. Chunki ikki yirik shahar qadimiylikda va jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi borasida bemalol bahslasha oladi. Ba’zi o‘rinlarda ushbu ikki madaniy markazlar bir-birini to‘ldiradi. Qadim Maroqand ya’ni Samarqand va Rim shaharlari o‘rtasidagi aloqalar antik davrdanoq, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab karvonlar qatnagan davrlarga borib taqalishini tarixiy manbalar tasdiqlamoqda[3]. Demak, hozirda jahon iqtisodiyotini muhim tarmog‘i hisoblangan turizm sohasida hamkorlikni o‘rnatish va rivojlantirish ikki davlat uchun ham birday manfaatlidir. Olimlarning hisob kitoblariga ko‘ra ko‘hna Samarqand va Rim shaharlari dunyo sayyohlari tomonidan eng ko‘p ziyorat va tomosha qilinadigan yirik ellikta shaharlar safiga kirgan. Shuni o‘zi ham ushbu yo‘nalishda hamkorlik qilish istiqbolli ekanligiga shubha qoldirmaydi.

O‘zbekiston va Italiya o‘rtasida so‘nggi yillarda turizmni turli sohalari, jumladan, arxeologiya sohasida hamkorlikda yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Izlanishlar natijasida aniqlangan yangi madaniy yodgorliklar va manzilgohlarda turistik obyektlar tashkil etilib, ularni turistik marshrutlar qatoriga kiritib borilmoqda. Va o‘z navbatida yangi marshrutlarga sayyohlarni jalb etish bo‘yicha ham aloqalar qamrovi kengayib, rivojlantirib kelinmoqda.

Ana shunday hamkorlikdagi izlanishlar natijasi haqida 2018-yil yozida Italiyaning Bolonya universitetida “Arxeologiya va turizm - O‘zbekiston va Italiya hamkorligi” mavzusida ilmiy seminar tashkil etildi. Ushbu ilmiy-amaliy seminarda O‘zbek – Italyan olimlari tomonidan Samarqand viloyatida hamkorlikda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari namoyish etilib, unda Kofirqala, Qo‘ytepa va Zarafshon vohasida amalga oshirilgan amaliy ishlar haqida ma’lumotlar berildi. Va aynan shu yo‘nalishlarda tarixiy turizmni rivojlantirishga oid takliflar bildirildi. Aynan shu marshutlar bo‘yicha turizmni rivojlantirish lozimligi ham ta’kidlandi. Shu bilan birga ushbu seminarning yana bir muhim jihati bevosita arxeologik izlanishlarda ishtirok etgan Italiyalik olimlar, jumladan, Bolonya universiteti professori M.Tozi, Neapol universiteti sharqshunos olimi professor B.Jenitolar ishtirok etib, O‘zbekistonda olib borilgan izlanishlar va ularning ilmiy ahamiyati haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tdilar. Demak, ushbu yo‘nalishdagi aloqalar ilmiy-tadqiqot bilan bog‘langan holda amalga oshirilayotganligi bu juda ijobiy holatdir.

Ushbu yo‘nalishdagi aloqalar Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari bilan ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular hozir rivojlanish pallasidadir. Shu bilan birga har

yili turli davlatlarda o‘tkazilib kelinayotgan xalqaro turizm yarmarkalarida ham O‘zbekisonning turli sayyohlik firma va agentliklari o‘zlarining yurtimizni sayyohlik imkoniyatlarini nomoyon etuvchi ko‘rgazmalari bilan munosib ishtirok etib kelishmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Buyuk Britaniyada o‘tkaziladigan “Word travel market” ya’ni “Jahon turizm yarmarkasida”, Germaniyaning Frankfurt shahridagi o‘tkazilgan turizm yarmarkalarida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, ko‘plab firma, mehmonxona vakillari muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Shu bilan birga soha rivojlanishining ilk davrlariga e’tibor qaratsak, ilk mustaqillik kunlaridanoq, turizm sohasini istiqboliga katta ishonch bilan qaralganligi, hamda mavjud imkoniyatlardan foydalanish, sohani rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator chora-tadbirlar, ko‘rgazma va seminarlar o‘tkazilganligida ko‘rish mumkin. Bunga misol qilib, 1994-yil O‘zbekistonda xalqaro “Ipak yo‘li – muloqot yo‘li” seminar o‘tkazilganligi va unda jahonning 20 ga yaqin mamlakatlaridan soha vakillari ishtirok etganligida ham ko‘rish mumkin. Albatta, iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi bo‘lgan Turizm sohasini rivojlantirishda Yevropa Ittifoqi va unga a’zo mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, erishgan tajribalaridan foydalanish mamlakatimizni dunyoni rivojlangan mamlakatlari qatorida munosib o‘rin egallashida ham muhim rol o‘ynamoqda.

Turizm sohasidagi aloqalar jahon turizimini poytaxti bo‘lgan Ispaniya bilan ham rivojlanib kelmoqda. Turizmni sanoat darajasiga ko‘targan Ispaniya tajribasidan foydalanish, O‘zbekiston uchun foydalidir. Ana shunday tajriba va texnologiya almashinish imkoniyati 2003-yil tashkil etilgan turizm yarmarkasi doirasida amalga oshdi. Ushbu ham madaniy ham iqtisodiy tadbirda O‘zbekistonning bir nechta turistik firma vakillari ishtirok etdi. Tadbir qadimiy rishtalarning zamonaviy rivoji mazmunida tashkil etilib, u qadimiy Ispaniyaning mashhur elchisi Rui Gonales de Klavixo nomi bilan ataladigan ko‘chada joylashgan binoda bo‘lib o‘tdi. Yana bir ahamiyatli jihat shuki, Madrid shahri merini aytishicha, Klavixo Sohibqiron Amir Temur huzuriga tarixiy safarga otlanganiga bu yil 600 yil (2003 yil nazarda tutilmoqda) to‘ladi[5], shu munosabat bilan shahar ma’muriyati mazkur safar va shu davr haqida ko‘rgazma tashkil etish niyatida ekanligini ma’lum qildi. Ko‘rgazmani keyinroq, Toshkent va Samarqandda ham o‘tkazish taklifini berdi. Va albatta ushbu taklif qabul qilinib, tadbirlar juda muvaffaqiyatli tashkil etildi. O‘zaro madaniy tabirlarni tez-tez o‘tkazilishi erishilgan yutuqlar va tajribalar almashish imkoniyatini yaratadi, albatta.

Ispaniya sayyohlik yuksak darajada rivojlangan davlatlar sirasiga kiradi. Birgina ana shu sohadan har yili mamlakat g‘aznasiga 34 milliard AQSh dollariga yaqin mablag‘ tushadi. Jahon sayyohlik tashkilotining (JST)bosh qarorgohi Madridda joylashgani ham bejizga emas.

Ushbu soha yurtimiz viloyatlarida ham rivojlanib, xalqaro andozalarga javob beradigan sayyohlik tashkilotlari tomonidan yuqori xizmat ko‘rsatayotganligi e’tirof etilmoqda. Ularga misol tariqasida Xiva shahridagi “Xorazm-Palas” mehmonxonasi 2005-yilda Shveysariyadagi “Ishbilarmonlik amaliyotida yuqori sifat uchun” xalqaro jamg‘armasining oltin medaliga, 2008-yilda esa Ispaniyaning Noshirlik guruhi hamda savdo liderlari klubi hamkorlikda ta’sis etgan “Turizm, mehmonxona ishi va gastronomiya” xalqaro mukofotiga sazovor bo‘lganligida ko‘rish mumkin. O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov 1999-yil 19-aprelda JST bosh kotibi Franchesko Frandjialini qabul qilgan chog‘ida, sohani rivojlanishiga qo‘shayotgan munosib hissasini qo‘llab-quvatlashini bildirdi hamda O‘zbekistondagi sayyohlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar xalqaro andozalarga mos kelishini alohida ta’kidlagan edi.

Jahon Sayyohlik Tashkiloti bosh kotibi Franchesko Frandjiali O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovni “Buyuk ipak yo‘lini tiklash” g‘oyasi va uning amalga oshirishga qo‘shgan munosib xizmatlari uchun tashkilotning oliy mukofotini topshirdi.

Sayyohlik sohasida band bo‘lganlar soni, dam olish maskanlari tobora ko‘paymoqda. Bu o‘z navbatida yurtimiz aholisini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga xususiy yo‘nalishdagi sayyohlik firmalari ko‘payib, jahon sayyohlarini o‘lkamizga qiziqishini orttirmoqda.

Bunda mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulayliklar, soliq imtiyozlari, sog‘lom raqobat va ishbilarmonlik muhiti muhim omil bo‘layotir. O‘lkamizga kelayotgan sayyohlar orasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatadiki, sayyohlarda Buxoro (35 %), Samarqand (22%), Xiva (20 %), Nukus va Termiz (9 %), Toshkent (4 %) va boshqalari (10 %) qiziqish uyg‘otgan. Jahon sayyohlik bozorida O‘zbekistonning nufuzi oshib bormoqda. Buning misoli sifatida 2008-yilning 15-22 aprel kunlari Turkiyaning Kappadokiya shahrida Xalqaro sayyohlik festivalida ishtirok etganligida ko‘rish mumkin. Unda yigirmaga yaqin mamlakatdan, jumladan, O‘zbekistondan, yuzga yaqin sayyohlik firma va kompaniyalari vakillari ishtirok etdi[7].

Kappadokiyada o‘tgan Xalqaro sayyohlik festivali mamlakatimizning sayyohlik borasidagi ulkan salohiyatini namoyish etish, jahon jamoatchiligini yurtimiz sayyohlik sanoati imkoniyatlari bilan keng tanishtirish hamda xorijiy sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikning mustahkamlash imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Ko‘p asrlik tarix, betakror madaniyat va an’analarga ega O‘zbekistonning jahon sayyohlik bozoridagi nufuzi tobora oshib borayotganligini, festivalda ishtirok etayotgan Turkiyaning Madaniyat va sayyohlik vazirligi vakili Ibrohim Yazar ham e’tirof etdi[8].

2019-yil mart oyida Germaniya poytaxti Berlin shahrida o‘tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasida O‘zbekiston turizm qo‘mitasi va yurtimizda faoliyat olib borayotgan bir nechta turistik firmalari ishtirok etdi. Ushbu yarmarkarda ishtirok etgan O‘zbekiston turistik firmalari ko‘plab Yevropa davlatlari jumladan, Italiyani bir qator turistik firmalari bilan shartnomala tuzib, ushbu yo‘nalishdagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarishga kelishib oldilar.

Hozirda sayyohlar oqimi oldingi yillarga nisbatan bir necha marotabaga ortganligini statistik ma’lumotlar tasdiqlamoqda. Albatta, bunga O‘zbekiston hukumati tomonidan 2017-yil 1-apreldan xorijiy davlatlar fuqorolariga vizasiz tartiblarni joriy etilishi ham ijobiy ta’sir qilmoqda[9].

Shunga qaramay, mavjud sayyohlik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti, nazarimizda. Davlat statistik qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra turizmning O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foiz tashkil qilmoqda[10].

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha ravishda sohani rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni olg‘a surish mumkin.

Birinchidan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir arxitektura namunalari mavjud. Ular barcha viloyat va shaharlarimizda joylashgan. Agar ana shu imkoniyatlardan kengroq foydalanib, turistik marshrutlarni ko‘paytirilsa, boshqa hududlarimiz maxalliy aholisini ish bilan ta’minlash imkoniyatlari ham yaratilgan bo‘lar edi. Hozir asosan yuqorida ta’kidlaganimizdek, sayyohlar oqimi asosan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm hududlariga tashrif buyurmoqda.

Ikkinchidan, yurtimizda bir nechta tabiiy qo‘riqxonlar mavjud bo‘lib, ularda noyob qushlar, kamyob hayvonot olami, so‘lim tabiat mujassamlashgan. Demak, ushbu yo‘nalishda ya’ni Ekoturizmni kengroq yo‘lga qo‘yilishi, yurtimizga keladigan sayyohlar oqimini qo‘payishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, har bir shahrimizni o‘ziga hos maxalliy urf-odatlari, san’ati va hunarmandchiligi mavjud bo‘lib, aynan shu yo‘nalishni ham rivojlantirish, yurtimizning ham ichki ham tashqi turizm salohiyatini oshirish imkoniyatini yaratib, chekka tuman va shaharlarimizni iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa bo‘lib qo‘shiladi.

To‘rtinchidan, Respublikamizning har bir viloyati o‘zining takrorlanmas maxalliy taomlari bilan dong taratgan, hozirda jahonda rivojlanib kelayotgan gastronomik turizmni ham yurtimizda rivojlantirish imkoniyati juda katta.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyo mamlakatlari ichida Italiya, Ispaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Indoneziya, Gresiya, Turkiya, Xitoy, Misr, Yaponiya sayyohlik tufayli milliardlab foyda ko‘rayapti. Demak, yaratilgan iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy asoslar ushbu sohani yanada rivojlantirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlarini oshirish, sayyohlar oqimini yanada ko‘paytirish imkoniyatini beradi. Zero, amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa davrda o‘zining

ijobiy samarasini berishiga va O‘zbekistonning sayyohlar ko‘p keladigan davlatlardan biriga aylanishi, shubhasizdir.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Президенти Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. ПФ-60-сон 28.01.2022. (lex.uz)
2. Мирзаев А. Франция оммавий ахборот воситалари: Ўзбекистон йилига 10 миллиондан ортиқ сайёҳларни қабул қилиш имкониятига эга // Халқ сўзи. – 2019.
3. ЦГА. РУз., ф.М-2., д.172, л.13.
4. Бобаходжаев М. Суверенный Ўзбекистан. Вопросы внутренней и внешнеэкономической политики.Тошкентский государственный институт востоковедение. – Т., 2005. – С. 238.
5. Гайбердиев Ш. Туризм – даромад манбаи // Ҳуқуқ ва бурч. Ижтимоий- ҳуқуқий журанал. 2017. №9. - Б. 26.
6. Ахмедов Х.И. Аллабергенов А.А. Туризм фаолиятини ташкил этиш. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий нашриёти. 2004. – Б. 5.
7. Туризм - имкониятлар майдони // Халқ сўзи. – 2009. – 23 январь.
8. Туризм – мамлакатимиз иқтисодиётининг эртанги куни // Халқ сўзи. – 2018. – 23 февраль.
9. Гулметов Ф.Е. Аллабергенов А.А. Туризм географияси. – Т.: Талқин. 2004. – Б. 3.
10. Ўзбекистоннинг жаҳон сайёҳлик бозоридаги нуфузи тобора ошмоқда. // Халқ сўзи. – 2008. – 24 апрель.

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KO‘NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Nazarov Q.N. - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarning adabiyot darsliklarida berilgan hikoyalarni o‘qib tushunish jarayonida zarur ko‘nikmalarni shakllantirishi yoritilgan. Shuningdek, hikoyalarni tahlil qilish uchun topshiriqlarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qib tushunish, idrok qilish, so‘z boyligi, lingvistik kompetensiya, kommunikativ vazifa, estetik vazifa, nostandart topshiriqlar, didaktik ashyolar, ravonlik, dekodlash, badiiy matn, nobadiiy matn

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НЕСТАНДАРТНЫХ ЗАДАНИЙ В РАЗВИТИИ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Назаров К.Н. - преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы формирования необходимых знаний и навыков в процессе понимания прочитанных рассказов, данных в учебниках по литературе. Также приводятся рекомендации по разработке заданий для анализа рассказов.

Ключевые слова: понимание прочитанного, декодирование, словарный запас, лингвистическая компетенция, коммуникативная задача, эстетическая задача, нестандартные задания, выразительность, беглость, дидактические материалы, художественный текст, нехудожественный текст.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF NON-STANDARD TASKS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SKILLS AND ABILITIES IN LITERATURE LESSONS

Nazarov Q.N. – teacher of Uzbekistan State World Languages University

Annotation. This article describes how school students develop the skills they need to read and understand stories in literature textbooks. Recommendations for developing assignments are also provided in the story analysis process.

Key words: reading comprehension, comprehension, vocabulary, linguistic competence, communicative task, aesthetic task, non-standard tasks, didactic materials, fluency, decoding, literary text, non-fiction text.

O‘quvchilarning o‘qib tushunish savodxonligini oshirish va o‘qilgan har qanday matnni tez va oson tahlil qilish, xulosa chiqarish va uni amaliyotda qo‘llash zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu talabni bajarish har bir o‘quvchidan yetarli darajadagi lingvistik kompetensiyalarni o‘zida shakllantirishni taqozo etadi. Matn deganda biz, albatta, faqat o‘qish orqali tushuniladigan birlikni emas, balki eshitib ham tushunish mumkin bo‘lgan birliklarni his qilishimiz lozim. Shu o‘rinda ,o‘zbek tilidagi matnlarni har qanday holatda to‘liq tushunish va anglab yeta olish uchun biz o‘quvchi va o‘qituvchilar qanday vazifalarni bajarishimiz kerak, degan savol yuzaga chiqadi.

Birinchidan, matn tuzuvchi – matnni qabul qiluvchi (retsipiyent) tushunchalarini to‘liq anglab olishimiz lozim. Matn tushunchasiga yuqorida ta’rifni keltirdik. Matn tuzuvchi uni qabul qiluvchi shaxsga to‘g‘ri, ravon, aniq yetkazib

beruvchi shaxsdir. Retsipiyent esa matnni qabul qiluvchi va uni idrok qila oluvchi shaxsdir. Ushbu uchlik asosida insonlar orasida muloqot jarayoni shakllanadi.

Ikkinchidan, matn tuzish yoki uni to‘g‘ri qabul qilish uchun bizda yetarli lingvistik ko‘nikma bo‘lishi lozim. Ya’ni tilimizdagi barcha so‘zlar, iboralar va birikmalarning ma’nosini bilish va adabiy til normalariga rioya qilish lozim.

Uchinchidan, keltirilayotgan matn mavzusi doirasida yetarli bilimga ega bo‘lish zarur.

Matn tasnifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tilshunos olim M. Yo‘ldoshev quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi. Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining - kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi - yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, ya’ni badiiy matn va nobadiiy matn [1,15]. Bugungi kunda adabiyot darsliklarida berilgan hikoyalarni o‘qish va uning tarbiyaviy, g‘oyaviy ahamiyatini tushunib yetish ham bevosita o‘quvchining yuqoridagi lingvistik ko‘nikmalari va shu bilan birga tilning estetik vazifasini chuqur anglash lozimligini talab etadi. Bizga ma’lumki, tilning estetik vazifasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi. Tilning estetik imkoniyatlaridan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishda badiiy matnlarni o‘qish muhim ahamiyatga ega. Demak , adabiyot darsliklarida turli yozuvchilar ijodidan hikoyalar keltirilgan va ularni o‘qib kerakli xulosa chiqara olish uchun nostandart topshiriqlar ishlab chiqish asarning mazmunini tushunish samaradorligini oshiradi. Nostandart mashq va topshiriq juda keng tushuncha. U ushbu turdagi vazifalarni an’anaviy (standart) vazifalardan ajratib olishga imkon beradigan bir qator xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Nostandart mashq va topshiriqlarning asosiy farqlash xususiyati ularning psixologiyada samarali deb ataydigan faoliyat bilan bog‘liqligi:

- o‘quvchilar mashq va topshiriqlarni bajarish yo‘llari va variantlarini mustaqil ravishda izlashi (taklif qilingan variantlardan birini tanlash yoki o‘z variantini topish va yechimni asoslash);
- noodatiy bajarish sharoitlari;
- olingan bilimlarni notanish sharoitlarda faol ravishda qo‘llash;
- amaliy nostandart mashqa va topshiriqlar bilan ishlash kabilar.

Nostandart mashq va topshiriqlar muammoli vaziyatlar (qiyin vaziyatlarda olingan bilimlardan foydalanib ushbu vaziyatdan chiqish yo‘lini topishi kerak), rol o‘ynash va ishbilarmonlik o‘yinlari, tanlovlar va musobaqalar shaklida taqdim etilishi mumkin. Nostandart topshiriqlar darsni jonlantirishga yordam beradi.

Nostandart mashq va topshiriqlarga qo‘yiladigan talablar:

– bolalar tomonidan o‘rganilgan tayyor qoidalarga ega bo‘lmaslik kerak;

– tarkib jihatidan qiziqarli bo‘lishi kerak;

– nostandart topshiriqlarni hal qilish uchun o‘quvchilarlar dasturda o‘zlari tomonidan yetarli darajada bilimga ega bo‘lishlari kerak;

– o‘quvchilar ikkala miya yarimsharlarini teng ishlatishga undovchi bo‘lishi kerak [2, 30].

Nostandart mashq va topshiriqlarni hal qilish o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradi. O‘quvchilarlar taqqoslashni, tasniflashni, umumlashtirishni, tahlil qilishni o‘rganadilar va bu bilimlarni yanada mustahkam va ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Nostandart topshiriqlarni ishlab chiqish hozirgi kunda PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash tizimida o‘quvchilarning yuqori natija ko‘rsatishi uchun ham tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu baholash tizimining asosiy maqsadi o‘quvchilarning turli sohada olgan bilimlarini o‘z hayoti davomida qay darajada samarali qo‘llay olishini tekshirishdir. Har bir o‘qilgan asardan hayotiy xulosa chiqarish, uni tahlil qila olish o‘quvchining fikrlash darajasini ham o‘stiradi. Nostandart topshiriqlar ham yuqoridagi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilishimaqsadga muvofiq.

Topshiriqlarning g‘ayrioddiyligi ularni amalga oshirish boshlanishida maktab o‘quvchilarida kutilmagan hodisalar, ish jarayonida quvonch, natijalarini ko‘rib zavqlanishni keltirib chiqaradi, nafaqat o‘rganilayotgan masalalarga, balki dars jarayonlariga ham qiziqish uyg‘otadi. Adabiyotshunos olimlarimiz darslikdagi materiallarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi matndan tashqari materiallardan biri asar mazmun-mohiyati yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ekanligini ta’kidlashadi. Professor A.Zunnunov darsliklardan o‘rin olgan bu didaktik ashyolarni uch guruhga bo‘ladi:

- bilimlari mustahkamlash vazifasini bajaruvchi;
- mantiqiy fikrlash usullarini egallashga imkoniyat beruvchi;
- o‘zlashtirilgan bilimlami amalda qo‘llash imkonini beruvchi [3, 13].

Bu jarayonda har bir sinf adabiyot darsligida keltirilgan hikoyalar mazmunidan, o‘quvchilarning yoshidan kelib chiqqan holda topshiriqlarni shakllantirish lozim. Topshiriqlar nafaqat badiiy tafakkurni, balki o‘quvchining lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Demak, o‘quvchida o‘qib tushunish uchun shakllanishi kerak bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar hisoblanadi:

-Ravonlik
-So‘z boyligi
-Eslab qolish
-Xulosa [4, 2]

Ravonlik. hikoyani o‘qish jarayonida ravonlikni ta’minlash uchun uning bir nechta xususiyatlarini bilib olishimiz lozim. Avvalo, ravonlik matnni uzviyligini ta’minlagan holda aniq o‘qish qobiliyatingizga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek

matnni o‘qish jarayonida so‘zlarning ma’nolarini to‘liq va tez idrok qilishi (dekodlash) ravonlikni ta’minlaydi.

So‘z boyligi. Har bir o‘quvchi o‘qilayotgan matnni yetarli darajada tahlil qilishi uchun matn tarkibidagi so‘zlarning ma’nosini to‘liq idrok qilishi muhim. Badiiy matnni o‘qib tushunish va tahlil qilish jarayonida so‘zlarning kontekst bilan bog‘liq ma’nolarini bilish, iboralar, tasviriy ifodalar, badiiy tasvir vositalarini to‘g‘ri tahlil qila olish ham til sohibidan yuqori darajadagi so‘z boyligini talab etadi.

Eslab qolish. Ma’lum bir hikoyani o‘qib tushunish undagi ma’lumotlarni eslab qolish bilan bog‘liq. Har bir o‘quvchi hikoya matnini qanchalik diqqat-e’tibor bilan o‘qisa , shunchalik ko‘p ma’lumotlarni xotirada saqlab qoladi. Qahramonlar hayoti, ularning qilgan ishlari, voqealar rivoji haqidagi axborotlarni eslab qolish badiiy asar haqida xulosa chiqarishga katta yordam beradi.

Xulosa chiqarish. Hikoyani o‘qib tushunish jarayonida xulosa chiqarish ko‘nikmasi ham muhim element hisoblanadi. O‘quvchi badiiy asar matnini idrok qilish va undan xulosa chiqarishda ma’lumotlarni o‘z g‘oyalari, fikrlari bilan bog‘laydi. Har bir mutolaa qilingan badiiy asardan tegishli xulosa chiqarish o‘qib tushunish jarayonidagi eng muhim ko‘nikma hisoblanadi.

O‘qituvchining har qanday savoli o‘quvchilardan keng miqyosda javob talab qiladigan, ularning aqliy faolligini oshirishga, mulohaza yuritishga, taqqoslashga yo‘naltiradigan tarzda tuzilishi adabiy ta’lim maqsadiga muvofiqdir [5, 256]. Demak, darsliklarda berilgan hikoyalarni o‘qib tushunish jarayonida yuqridagi ko‘nikmalar, ya’ni so‘z boyligi, ravonlik, eslab qolish, xulosa chiqarish kabilarni o‘quvchilar o‘zida shakllantirishi muhim. Buning uchun hikoyani o‘qigandan so‘ng uni to‘liq idrok etishga yordam beruvchi nostandart topshiriqlar to‘plamini shakllantirish maqsadga muvofiq. Hikoya mazmunini idrok qilish va undan to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun undagi har bir so‘z, qahramon holati, makon va zamon munosabati o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi lozim. Yuqoridagi ko‘nikmalarni hisobga olgan holda namuna sifatida Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasini o‘qib tushunish bo‘yicha bir necha topshiriqlar ishlab chiqildi. Topshiriqlar shakli quyidagicha:

1-topshiriq. Quyidagi fikrlarni to‘g‘ri bo‘lsa T(to‘g‘ri) belgisi bilan , noto‘g‘ri bo‘lsa N(noto‘g‘ri) belgisi bilan belgilang!

Namuna

T/r		T/N
1.	Fanorchi otaning bolalar tomonidan sindirilgan fanorning oyna ko‘zlarini indamasdan almashtirb ketishi bolalarga yoqmas edi.	T
2.	Fanorchi ota doim fanorni yoqish uchun narvon bilan kelar edi.	
3.	Fanor qurilgan vaqtda mahalla ahli uning qurilganligidan xursand bo‘lmadi.	
4.	Mahalla bolalari avvaliga fanorga do‘ppi otib merganliklarini	

	sinashdi	

Yuqoridagi topshiriq o‘quvchilarning hikoya ichidagi ma’lumotlarni aniq eslab qolish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini xotirasini ishga solgan holda aniqlashadi.

2-topshiriq. Hikoyaning mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi fikrlarni davom ettiring!

1. Mahalla bolalari va yangi o‘rnatilgan fonar o‘rtasida dushmanlik paydo bo‘ldi va bolalar…
2. Fanorchi ota har kuni fanorni bolalar sindirishiga qaramasdan yoqib ketar edi, chunki…
3. Fanorchi otaning bolalarga aytgan nasihatidan so‘ng fanorga hech kim teginmadi, chunki…

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchi ma’lumotlarni eslab qolish bilan birga yuqoridagi fikrlarni davom ettirish bilan o‘z nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkin. Ya’ni bu topshiriq o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan.

3-topshiriq. Hikoyadan quyida berilgan ta’riflarga mos so‘zni toping va jadvaldagi bo‘sh joyni to‘ldiring.

1	O‘taketgan yovuz, berahm, vahshiy	
2	Kun botib, qorong‘ilik tusha boshlagan payt, qosh qoraya boshlagan vaqt.	
3	Quyosh botgandan bir-ikki soat keyingi vaqt; taxminan kech soat yettidan o‘ngacha davom etuvchi vaqt.	
4	Ikki yoni uzun yog‘och yoki metall va unga ko‘ndalangiga mahkamlangan yog‘och yoki metall pog‘onalardan iborat, yuqoriga chiqish va tushish uchun ishlatiladigan asbob;	

3-topshiriq o‘quvchining so‘z boyligini rivojlantirishga va so‘zlarning ma’no ma’no qirralarini bilishiga qaratilgan hisoblanadi. Shuningdek hikoya matnini tushunishda bunday topshiriqlarning bajarilishi mutolaa qiluvchidan so‘zlarning izohiga e’tiborli bo‘lishini talab etadi. Bu esa , o‘z navbatida , o‘quvchining so‘z boyligini oshirishga va ravonlik ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

4-topshiriq. Quyidagi matn qismlarini tartib bilan joylashtirib chiqing

A) Bir kun, namozshom vaqti, ko‘chada bolalar ko‘p edi. Ichimizda eng ko‘p qo‘rqmaydigan, eng battol Qosim cho‘loq: “Bolalar!” — dedi. Changga botgan yuzlarimiz yangi bir narsa kutib, uning ko‘zlariga tikildik.

B) U ketdi, darrov biz yangi “ko‘z”ini o‘yib olardik. Shunday bo‘lsa-da, Fanorchi ota “lom” deb og‘iz ochmasdi. Uning bu qilii bizga sira yoqmas, tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib ursa ekan, der edik. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga chiqmasdi

C) To‘planishib, avvalo bir-birimizning do‘ppimizni otishar, fanorga do‘ppi kiygizgan o‘rtoq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi. Chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do‘ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo‘lar edi.

D) Shuning uchun qo‘limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o‘rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko‘zlarini o‘pirib tushirardi. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to‘rt marta unga “yangi ko‘zoynak” taqib ketishga majbur bo‘lardi [6, 111].

Yuqoridagi 4-topshiriq orqali hikoya matnidan kesib olingan parchalarni o‘quvchilar hikoyaga qaramasdan turib bajarishlari lozim. Bunda o‘qilgan axborotlar ketma-ketligi qay darajada ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu topshiriq o‘quvchidan mutolaa jarayonida yanada sezgirroq bo‘lishni talab etadi.

5-topshiriq. Hikoya mazmunidan kelib chiqqan holda Fanorchi ota, Qosim, Ahmad kabi qahramonlarga ta’rif bering va 50 ta so‘zdan iborat insho yozing!

Ushbu topshiriqda o‘quvchi yuqoridagi topshiriqlarni bajarishdan olgan ko‘nikmalari va o‘zining shaxsiy fikrlarini umumlashtirgan holda har bir qahramon harakteriga ta’rif yozadi hamda umumiy xulosa sifatida insho shakllantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, adabiyot darsliklarida berilgan hikoyalarning mazmuni va o‘quvchilarning yosh jihatini hisobga olgan holda noan’anaviy topshiriqlarni ishlab chiqish hikoya matnini o‘qib tushunish va idrok qilish samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda o‘quvchining savodxonligi, mantnning qiyinlik darajasi, berilayotgan topshiriqlar hajmiga e’tibor berish lozim.

Adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev M., Isaqov Z.,.Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2010. 15-bet.
2. Abdunazarov O. Ona tili ta’limida nostandart topshiriqlardan foydalanish metodikasi (8-sinf ona tili darslari misolida). Mag.diss. -2021. 30-bet.
3. Zunnunov A. O‘zbek tili va adabiyoti darsliklari mezoni. –Toshkent: O‘zPFITI 1994, 13-bet.
4. www.indeed.com. How to improve reading skills?
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R., - Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Toshkent: 2018, 256-b.
6. Ahmedov S, Qosimov B, Qo‘chqorov B, Rizayev Sh. - Adabiyot umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –T.: 2020. Sharq 111-bet.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH MODELI

Xudoyberdiyeva A.X. - Qarshi davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyati uchun asos sifatida ijodiy fikrlashni shakllantirish modeli tasvirlangan. Shunday qilib, ta’lim jarayoni ta’lim vositalari va pedagogik imkoniyatlar orqali bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladigan maxsus jarayondir. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilarning ta’lim faoliyati muayyan ta’lim kontekstida qo‘llaniladigan ta’lim usuli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tushunish, hamkorlik, motivatsiya, qobiliyat, ijodkorlik, rivojlanish, qat’iyatlilik, madaniyat.

MODEL OF FORMATION OF CREATIVE THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Khudoiberdieva A.K. - senior lecturer Karshi Pedagogical Instituti

Annotation. The article reveals the model of formation of creative thinking of primary school students as the basis of creative activity. Therefore, the learning process is a special process that occurs directly or indirectly through educational tools and pedagogical opportunities. This means that there is every reason to believe that students' learning activities are also a teaching method used in a specific learning context.

Key words: comprehension, cooperation, motivation, ability, creativity, development, rigidity, culture.

МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Худойбердиева А.Х. - старший преподаватель Каршинского педагогического института

Аннотация. В статье раскрывается модель формирования творческого мышления учащихся начальных классов как основа творческой деятельности. Следовательно, процесс обучения - это особый процесс, который происходит прямо или косвенно через образовательные инструменты и педагогические возможности. Это означает, что есть все основания полагать, что учебная

деятельность учащихся также является методом обучения, используемым в конкретном контексте обучения.

Ключевые слова: осмысление, сотрудничество, мотивация, способность, творчество, развития, ригидность, культура.

Развитие творческих способностей как основы для решения проблем в раннем детстве имеет решающее значение Креативность - это многогранная ступенька, которая формирует основу когнитивных навыков и способностей, метапознания, развития мотивации, стратегий и личностных факторов Креативность в образовании (или, в данном случае, обучении) описывается как понятие, которое включает инновации, решение проблем, сотрудничество, критическое осмысление, способность общаться и устанавливать связи с креативностью, можно развивать с помощью подхода творческой среды, а также дидактических материалов чтобы учителя могли развивать творческие способности детей, стимулируя их естественную любознательность.

Томпсон продолжает выделять четыре аспекта творчества, которые:

1) Люди с творческими способностями. 2)Творческая среда, которая либо способствует, либо препятствует творчеству. 3) Творческий продукт. (Инновация.) 4) Творческий процесс или способ мышления о вещах. (Инновационность.) Творческая среда Белл и Тернус подчеркивают важность создания и поддержания творческой среды, указывая, что уныние и негативность могут препятствовать творчеству. Творческая среда должна быть дружественной, безопасной (способной учиться на ошибках), способствовать исследованию и основной ценностью гуманистического личностно-ориентированного развития выступает творчество как способ развития человека в культуре.

Творческая ориентация обучения и воспитания позволяет осуществлять личностно-ориентированное образование как процесс развития и удовлетворения потребностей человека как субъекта жизни, культуры и истории[1]. Устанавливая связи и отношения между предметами и явлениями объективного мира, человек опирается не только на непосредственные ощущения и восприятия, но и обязательно на данные прошлого опыта, сохранившиеся в его памяти[2].

Опосредованное познание основано па наличии объективных отношений и закономерных связей между предметами и явлениями и осознании, понимании, знании человеком этих связей [3]. Эти связи обычно скрыты, их нельзя воспринимать непосредственно. Для того чтобы выявить их, человек прибегает к мыслительным операциям — сравнивает, сопоставляет факты, анализирует их, обобщает, делает умозаключения, выводы.

Мышление играет поистине огромную роль в познании. Мышление расширяет границы познания, дает возможность выйти за пределы непосредственного опыта ощущений и восприятия[4]. Мышление дает возможность знать и судить о том, что человек непосредственно не наблюдает, не воспринимает. Оно позволяет предвидеть наступление таких явлений, которые в данный момент не существуют (рассчитывать заранее затмения Солнца и Луны, орбиты космических кораблей, предвидеть ход общественно-исторического процесса и т. д.). Мышление перерабатывает информацию, которая содержится в ощущениях и восприятии, а результаты мыслительной работы проверяются и применяются на практике.

Творчество – деятельность, результатом которой является создание новых материальных и духовных ценностей. Оно предполагает наличие у личности способностей, мотивов, знаний и умений, благодаря которым создаётся продукт, отличающийся новизной и оригинальностью, уникальностью[5].

Я. А. Понамарев разделяет понятие творчества в широком и узком смысле (широкий смысл именует «прямым», узкий — «общепринятым»): «Творчество — в прямом смысле — есть созидание нового. В таком значении это слово могло быть применено ко всем процессам органической и неорганической жизни, ибо жизнь — ряд непрерывных изменений и все обновляющееся и все зарождающееся в природе есть продукт творческих сил. Но понятие творчества предполагает личное начало и соответствующее ему слово употребляется по преимуществу в применении к деятельности человека[6]. В этом общепринятом смысле творчество — условный термин для обозначения психического акта, выражающегося в воплощении, воспроизведении или комбинации данных нашего сознания, в (относительно) новой форме, в области отвлеченной мысли, художественной и практической деятельности (творчество научное, творчество поэтическое, музыкальное, творчество в изобразительных искусствах, творчество администратора, полководца и т. п.» [7].

В зарубежной психологии творческое мышление чаще связывают с термином «креативность». Креативность - это особое качество, свойство личности, проявляющееся в выраженной способности к творческому мышлению. Креативность рассматривается как важнейший и относительно независимый фактор одаренности[2]. Именно в процессе обучения и воспитания развивается творческое мышление. Оно формируется в процессе взаимодействия с миром, посредством овладения в процессе обучения содержания материальной и духовной культуры, искусства. Поэтому есть

возможность говорить о специальном, целенаправленном формировании творческого мышления, о системном формирующем воздействии[3].

Начальная школа играеть важную роль в подготовке к творческому труду именно в младшем школьном возрасте заключается психологическая основа для такой деятельности. Развиваются воображение и фантазия, творческое мышление, воспитывается любознательность, активность, инициатива, формируются умения наблюдать и анализировать явления, проводить сравнения, обобщать факты, делать выводы, практически оценивать деятельность. Чем разностороннее и совершеннее умения и навыки человека, тем богаче его фантазия, реальнее замыслы.

Но есть некоторые нюансы, которые мешают творческому развитию. Г. Линдсей, К.С. Халл и Р.Ф.Томпсон обнаружили, что проявлению творческого мышления мешает не только недостаточное развитие определённых способностей, но и наличие определённых личностных черт: желание быть

похожим на другого. Человек опасается высказывать необычные идеи из-за боязни показаться смешным или не очень умным.

Цензура – в особенности внутренняя цензура. Люди, которые бояться собственных идей, склонны к пассивному реагированию на окружающее и не пытаются творчески решать возникающие проблемы[4].

Ригидность – часто приобретаемая в процессе школьного обучения. Типичные методы помогают закрепить знания, принятые на сегодняшний день, но не позволяют научить ставить и решать новые проблемы, улучшать уже существующие решения[5]. По этому поводу у В. Гюго есть прекрасные слова: «У каждого человека три характера: тот, который ему приписывают; тот, который он сам себе приписывает; и, наконец, тот, который есть в действительности» Выводом можно сделать следующее Критическое мышление направлено на выявление недостатков в суждениях других людей.

Человек, у которого в большей степени развит именно этот тип мышления, видит только недостатки, но не предлагает своих конструктивных идей, поскольку опять-таки замыкается на поисках недостатков, но уже в своих

суждениях[5]. С другой стороны, человек, у которого преобладает творческое мышление, стремится к разработке конструктивных идей, но при этом не уделяет должного внимания тем недостаткам, которые содержатся в них, что также негативно отражается на разработке оригинальных идей[10]. В нашей жизни очень много вопросов, проблем, задач, которые требует решений. Используя творческое мышление в своей жизнедеятельности человек решая задачи размышляет, делает выводы на этой основе познает, созидает и преобразует мир вокруг него делая свою жизнь ярче и комфортнее.

Открытость новому, способствующее творческому мышлению, это качество личности, которое выражается в освоение и восприятие нового что появляется в окружении человека.

Одна из основных задач педагогики - создание условий для полноценного развития творческой активности всех детей. При этом необходимо выявить школьников, проявляющих глубокий интерес, стремления и способности в определенных областях, создать все условия для их дальнейшего развития. И для этого: важно создать условия для развития творческой активности учащихся младшего школьного возраста. В этом отношении:

1. Подготовка младших школьников к инновационной деятельности для развития их творческой активности.

2. Наладить совместную деятельность учителей и учеников.

3. Использование инновационных когнитивных технологий в развитии творческой деятельности.

В настоящее время в процесс обучения активно входит эвристическое и проблемное обучение, при котором учащиеся самостоятельно ищут и открывают истину.

В своем исследовании В. Каримова описывает три вида научной деятельности, в которых человек обладает следующими качествами:

1) Качества, необходимые школьникам в процессе наблюдения за внешним миром;

2) Качества творческой деятельности, обеспечивающие школьникам условия для создания творческого продукта деятельности;

3) При организации школьниками познавательной деятельности, ее качества проявляются в двух предыдущих состояниях - познании и творчестве.

Перечисленные ниже качества служат основой для планирования, организации и мониторинга эффективности типа творческого исследовательского образования.

Качества творческой деятельности включают:

- Страстные и образные качества: вдохновение, радость, энтузиазм от творческих ситуаций;

- образность, организованность, чувство новизны и необычности, чувствительность к противоречиям, творческим тенденциям, умение испытывать внутреннюю борьбу, символическое творчество и т. д.

- инициативность, смекалка, сообразительность, оригинальность, многогранность, нестандартность;

- умение находить идеи, их отношение к отдельным, чужим объектам познания;

- свобода мысли, эмоций и действий в сочетании со способностью поддерживать моральные ценности в школе, семье и других социальных условиях;

- чувствительность, способность видеть знакомое в незнакомом и наоборот; умение преодолевать стереотипы в решении проблем, уезжать в особое место;

- уметь вести диалог с объектом исследования; выбирать познавательные методы; найти функцию и отношение объекта к подобным объектам;

- определять динамику изменения, роста или развития объектов;

- уметь создавать новые методы обучения в соответствии со свойствами объекта;

- уметь описывать гипотезы, домыслы, законы, формулы, теории, построения: интуиция, медитация;

- реализовать свои способности в виде творческой работы и защиты, получить опыт участия в соревнованиях, олимпиадах.

Технология эвристической деятельности младших школьников.

Технология эвристической деятельности так же необходима и правомерна, как и творческие способности детей.

Индивидуальное обучение, систематическое обучение на учебном курсе, основано на эвристически ориентированной деятельности [2].

Технологические усилия по созданию и развитию эвристических ситуаций - способ обеспечить результаты детского творчества. Вот несколько технологических рекомендаций для учителей по подготовке и проведению эвристических ситуаций:

1. Основной образовательный объект ситуации (объект, понятие, событие, процесс, традиция, вещь и т. д.). Определите проблему, которая интересует объект и детей; помощь детям в поиске их личной внутренней связи с изучаемым объектом побуждает их задуматься о том, как подготовить

проблемы, которые лично для них важны. Это основано на личном опыте и результатах обучения школьников.

2. Детям дается проблема или задача, у которой нет решения. Выполнение этого задания будет эффективным только в том случае, если класс ведет активную образовательную деятельность, а учащиеся активны в выполнении задания. Описание заданий может быть результатом группового обсуждения проблемы. Задание, описываемое детьми, не только интересно, но и будет выполнено только в том случае, если оно будет новым для учителя.

3. Позвольте ученику лично решить возникшую или созданную ситуацию (задачу). Это основной этап эвристической ситуации. В любом образовательном результате необходимо определять признак творчества.

4. Демонстрация примеров учебной работы студентов: стихов, рассказов, заданий, описаний, условных обозначений, картинок, проектов и др. Сделайте презентации с лекциями.

5. Уметь после демонстрации обосновывать примеры учебной работы картинками, повествованиями, описаниями, мнениями ученых, информацией в учебниках, личными знаниями и воображением.

6. Организуйте детские мероприятия для сравнения, сопоставления и классификации произведений искусства. Когда учащиеся определяют свои взгляды или образцы творчества, им помогают понять причины изменения их взглядов. Образовательная ситуация улучшится.

7. Обдумывание и анализ понимания учащимися методов, используемых для обучения, возникшей проблемы и способов ее решения. Помогите учащимся определить индивидуальные результаты. Определите результаты командного обучения.

Продолжительность исследовательских ситуаций, которые ищет исследователь варьируется, и они также могут представлять собой цепочку взаимосвязанных ситуаций. Уровень организации исследования по принципам исследования ситуаций:

Программы начального образования, аналитические результаты преподаваемых предметов показывают, что учащиеся 1-4 классов имеют возможность осуществлять формирование творческой активности в несколько этапов, в том числе творческую активность учащихся на уроках. Хотя это не предписано непосредственно предоставлять целевые учебные материалы, квалифицированный педагог может осуществлять свою деятельность, основываясь на различных методах формирования творческой деятельности учащихся. Устный опрос; письмо; практическая работа; формировать творческую активность учащихся можно с помощью различных дидактических игр.

Например, на уроке «Чтение» начальной школы изложенные в учебных материалах концепции формирования творческой активности детей можно изучать конкретно-индуктивным методом, а в результате умелой организации учителем урок они могут повысить творческую активность. При этом учащиеся сначала определяют общие свойства изучаемого понятия, выполняя задания учителя, а затем под руководством учителя пытаются самостоятельно составить определение. Такой способ введения новых концепций особенно эффективен в младших классах.

Кроме того, проблемные ситуации создаются в процессе введения понятий по определенному индуктивному пути, что приводит к формированию у учащихся навыков творческого мышления.

Цель: найти свое собственное «правильное» решение, основанное на своем персональном опыте и опыте своего коллеги. Подбор творческого задания, отвечающего следующим критериям:

- не имеет однозначного и односложного ответа или решения
- является практическим и полезным для учащихся
- связано с жизнью учащихся
- вызывает интерес у учащихся
- максимально служит целям обучения[7].



Что не разрешено в презентации:

- Опишите ситуацию и перескажите ее;
- Противоречия в выступлениях участников;
- На непонятные, расплывчатые, неуместные фразы.

Следующее правило использовалось для руководства школьниками при создании кластера. Прежде всего, школьники записали все идеи, которые приходили им в голову по поводу слова. Не обсуждая качество идеи, игнорируя орфографию и другие факторы, кластер, сформированный до истечения отведенного времени, создавал основу для творческого мышления детей, давая волю своему мнению. Анализ показывает, что формирование творческой активности школьников может происходить по-разному. Однако, изучая текущую ситуацию в области исследований в общеобразовательных школах, учителя не всегда в полной мере используют эти методы.

Изучая сложившуюся ситуацию в школе, преподаватели в своих методиках по обучению сформировать у учащихся творческую активность современными методами, но в их действиях всегда достаточно социализации личности ученика, при свободном мышлении отсутствует мотивация для развития своей личности, навыки, найти творческое решение проблемы.

Преподаватели путём практики чтения, визуального наблюдения и абстрактного мышления, развивают у учащихся сенсорные системы, слух, зрения, моторику, которая становится неотъемлемой частью обучения. Следовательно, процесс обучения - это особый процесс, который происходит прямо или косвенно через образовательные инструменты и педагогические возможности. Это означает, что есть все основания полагать, что учебная деятельность учащихся также является методом обучения, используемым в конкретном контексте обучения.

Отличительной особенностью сравнения методов обучения с методами познания является то, что в процессе обучения решается задача творческого усвоения полученных знаний, а не открытия новых научных фактов. Существуют более «облегченные» условия обучения для получения новых знаний в процессе обучения, что практически исключает метод проб и ошибок, что характерно для общих знаний. Поэтому методы учебной деятельности адаптированы к условиям учебного процесса, которые сочетаются с познавательными операциями. Учебные мероприятия предоставляют более короткий путь к изучению информации, на разработку которой ушли годы. Они напрямую связаны с возрастом учеников. Именно здесь проявляется уникальность методов обучения.

Литература

1. Реферат: "Развитие творческого мышления" | Социальная сеть работников образования https://nsportal.ru
2. Реферат: "Развитие творческого мышления" | Социальная сеть работников образования https://nsportal.ru
3. Особенности творческого мышления https://revolution.allbest.ru
4. Пархунцова_Общая_и_экспериментальная_психология_(с_практик умом).docx
5. Особенности творческого мышления https://revolution.allbest.ru
6. ВКР.rar/Хабибуллин И.И (руководитель Гафарова Л.А.).doc

- 1. Маклаков А.Г. Общая психология. - СПб.: Питер, 2000.
- 2. Куркова В.В., Березанская Н.Б. Психология: Учебник. - М.: Высшее образование, 2006.
- 3. Кривчун А. А. Эстетика: Учебник для студентов вузов. - М., 2005.
- 4. Пономарев Я. А. Психология творчества. - М.: Наука, 2006.
- 5. Цалок В. А. Творчество: Философский аспект проблемы. - Кишинев, 2006.
- 6.Бескова И. А. Как возможно творческое мышление? [Текст] / И. А. Бескова. - М. : ИФРАН, 2008. - 260 с.
- 7. Грецов А. Тренинг креативности для старшеклассников и студентов [Текст] / А. Грецов. - СПб. : Питер, 2009. - 189 с.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Ismoilov E.O.– Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni integrativ yondashuv asosida o‘rganishning ahamiyati tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi amaliy vazifalarga qo‘yiladigan talablar ham batafsil izohlab berilgan. Tahlillar natijasida, matematikani umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga integratsiyalash sharoitida talabalarning kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishning darajalari ajratib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kasbiy kompetensiya, integratsiya, fanlar integratsiyasi, integrativ yondashuv, amaliy topshiriq, kasbga yo‘naltirilgan vazifa, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari, ta’lim jarayoni.

РОЛЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

Исмоилов Э.О. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье анализируется важность изучения развития профессиональной компетентности студентов на основе комплексного подхода. Кроме того, в статье подробно описаны требования к практическим заданиям, развивающим профессиональную компетентность. В результате анализа выделены уровни сформированности умений студентов решать профориентационные задачи в условиях интеграции математики в общеобразовательные и профильные дисциплины.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, интеграция, интеграция дисциплин, интегративный подход, практическое задание, профориентационное задание, общепрофессиональные дисциплины, дисциплины специализации, учебный процесс.

THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCES

Ismoilov E.O. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article analyzes the importance of studying the development of professional competence of students on the basis of an integrated approach. In addition, the article describes in detail the requirements for practical tasks that develop professional competence. As a result of the analysis, the levels of formation of students' ability to solve career-oriented tasks in the context of the integration of mathematics into general and specialized disciplines were highlighted.

Key words: competence, professional competence, integration, integration of disciplines, integrative approach, practical assignment, career-oriented task, general professional disciplines, specialization disciplines, educational process.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish kasbiy ta’lim oldiga tobora murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. U professional tajribaga ega, zamonaviy kompyuter texnologiyalari hamda matematik tahlil va modellashtirishning asosiy usullarini yaxshi biladigan mutaxassisni tayyorlashi kerak. Qolaversa, davlat talablari, talabalarning o‘zi ham ta’lim jarayoniga bo‘lgan nuqtayi nazarni o‘zgartiradi. Zamonaviy talaba faoliyatga asoslangan va amaliyotga yo‘naltirilgan interfaol usullardan keng foydalangan holda bilimlarni yanada intensiv tarzda olishni xohlaydi. Kompetensiyalar bo‘yicha belgilangan kasbiy tayyorgarlikning zamonaviy standartlari jamiyat va har bir talabaning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan[1]. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida kompetentlik yondashuvi ma’lum vaqtdan beri qo‘llanilmoqda; hozirda uni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va usullari belgilab berilgan. Ushbu yondashuvni amalga oshirishning muhim bosqichi yakuniy

davlat attestatsiyasini o‘tkazishda zarur kompetensiyalarning qanchalik shakllanganligini tekshiradigan va turli fanlar bo‘yicha bilimlarni har tomonlama qo‘llashni talab qiladigan vaziyatli (keys) topshiriqlardan foydalanilishi bilan ajralib turadi. Bunday vazifalar pedagoglar jamoasi tomonidan ishlab chiqiladi va o‘quv jarayoniga kiritiladi. Biroq, hatto maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan talabalar ham amaliy vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayniqsa, matematik vositalar va zamonaviy hisoblash usullaridan foydalanish haqida gap ketganda qiyinchiliklar murakkab vazifani hal qilish uchun ularda qo‘llaniladigan usullar, yondashuvlar va algoritmlarni birlashtirish bilan bog‘liq. Bunga ikkita qarama-qarshilik sabab bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Birinchidan, murakkab amaliy muammolarni hal qilish uchun bir vaqtning o‘zida matematik vositalar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari va kasbiy bilimlardan foydalanish kerak, holbuki bu sohalar o‘quv rejasiga muvofiq va alohida fanlarning bir qismi sifatida o‘qitiladi. Ikkinchidan, murakkab matematik usullar va hisoblash texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun sezilarli darajada ko‘proq vaqt talab etiladi, ammo auditoriya soatlari cheklangan. Yuqoridagi qarama-qarshiliklarni ta’lim jarayonini faollashtirish va bilimlarni qo‘llashga e’tiborni kuchaytirish orqali hal qilish mumkin. Ta’lim jarayonining tuzilishi, shuningdek, o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish usullarini o‘zgartirish kerak. Bunday o‘zgarishlarning uslubiy asosi *integrativ yondashuv*dir[2]. Bu kasbiy tayyorgarlikning muhim, uslubiy va tashkiliy yondashuvlarini har tomonlama o‘zgartirishni nazarda tutadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalarda kasbiga qiziqishni rivojlantirishda va ularning oliy ta’lim davrida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish, kasbiy malakalarini oshirishda fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday integrativ yondashuvni tashkil etishning usuli kasbga yo‘naltirilgan amaliy masalalar, topshiriqlar va vazifalarni dars mashg‘ulotlariga tatbiq etish hisoblanadi.

Amaliy vazifalar matematika faniga qiziqishni kuchaytiradi, chunki talabalarning aksariyati uchun matematika ta’limining qiymati amaliy ko‘nikmalarga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonida bunday vazifalardan hayotda matematika fanining turli xil ilovalarini ochib berishda haqiqiy dunyoni aks ettirishning o‘ziga xosligi va bunday didaktik maqsadlarga erishish uchun foydalanish tavsiya etiladi. Ya’ni, yangi matematik tushunchalar va usullarni joriy qilish uchun motivatsiya qilish – o‘quv materiallarini ko‘rsatish, mavzu bo‘yicha bilimlarni birlashtirish va chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Amaliy vazifalarni tuzishda zamonaviy ilmiy-texnik adabiyotlardan olingan ma’lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quv va ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish jarayonida matematika fani tabiatning o‘ziga xos vazifalarini tuzish uchun material sifatida tanlangan. Oxirgi bosqichda vazifalar holatini shakllantirishga, ularning tegishli rasmlari va chizmalarini yetkazib berishga alohida e’tibor qaratiladi.

Talabalarning matematika fani bilan bog‘liq amaliy vazifalarni hal qilishi jarayonida ushbu muammolarning ko‘p tomonlama ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Amaliy topshiriqlarning ahamiyati

Bilish	**Bilim, ko‘nikma va malaka hamda odatlarning shakllanishi**
Yaratuvchilik	Bilim olish malakasini shakllantirish, matematika va kasbiy ta’limni uyg‘unlashtirish
Amaliy	Matematikadan olingan bilimlarni amaliy ehtiyojlar uchun qo‘llash
Fikrlashning rivojlanishi	Tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, dalillarni taqqoslash
Ta’lim olish	Qiyinchiliklarni bartaraf etish, bir-birining ishiga hurmat, ishonchlilik va boshqalar

Har bir muayyan amaliy vazifa ko‘pincha, bir emas, balki bir nechta pedagogik, didaktik ta’lim maqsadlariga erishish uchun mo‘ljallangan va bu topshiriqlardagi maqsadlar mazmuni o‘qituvchining topshirig‘iga binoan belgilanadi[3].

Amaliy vazifalar bo‘lajak mutaxassislarning nafaqat kasbiy jihatdan ahamiyatli xususiyatlarini shakllantirishga, balki matematika faniga, matematika fani yordamida informatika va fizika fanlariga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashga imkon beradi. Matematika kursining mazmunan tatbiq etiladigan qiymatini tushuntirish talabalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishga yordam beradi, matematika fanini o‘qitish jarayonida talabalarda olingan bilimlarni qo‘llashda aniq ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi, ularni matematikaning o‘rganilayotgan kursi amaliy ahamiyati haqida to‘g‘ri tushunish, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga o‘rgatadi[4] (1-chizmaga qarang):



Vazifalarni yechish nafaqat matematika ta’limida, balki talabalarning umumiy psixologik va shaxsiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni ishlab chiqishda oliy ta’lim muassasalarida matematika fani turli darajadagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan aloqani amalga oshiradigan ta’lim predmeti sifatida tushuniladi, ta’lim oluvchilarda kasbiy faoliyatlarini boshqarish usullari va metodlarini o‘zlashtirish jarayoni mavjud bo‘ladi. Kasbga yo‘naltirilgan integratsion aloqalar tizimini yaratish va uni amalga oshirish uchun matematika fanini o‘qitishning bir qator vazifalaridan foydalanish, talabalarning kasbiy saviyasini bosqichma-bosqich oshirish taklif etiladi. Matematikaning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan integratsiyasi asosida muammolarni tahlil qilish, hozirda matematika fanining kelajakdagi kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi potentsiali yetarli darajada qo‘llanmasligini alohida ta’kidlash imkonini berdi. Talabalarni mutaxassislik muammolarini to‘g‘ri shakllantirish, uni matematika tiliga tarjima qilish, haqiqiy vaziyat tilida o‘z qarori natijasini talqin qilish, olingan va eksperimental ma’lumotlar muvofiqligini tekshirishga o‘rgatish lozim. Bunda:

1) vazifa bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan vaziyatni tavsiflashi kerak;

2) vazifalarni hal qilishda ma’lum kasbiy obyekt yoki hodisalarning xususiyatlari noma’lum bo‘lishi kerak, bu matematikadagi ma’lum xususiyatlarga ko‘ra o‘rganilishi lozim;

3) vazifalarni hal qilish bo‘lajak mutaxassis kasbiy faoliyatining asosi bo‘lgan matematik bilimlarni, metodlarni va usullarni mustahkam assimilyatsiya qilishga yordam beradi;

4) vazifalar matematika fanining umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashi zarur;

5) vazifaning mazmuni va uni hal qilish bo‘lajak mutaxassislardan matematika hamda umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini bilishni talab qiladi;

6) kasbga yo‘naltirilgan matematik vazifalarning mazmuni umumkasbiy va ixtisoslik fanlari tushunchalarini o‘rganishning propedevtik bosqichini belgilaydi;

7) vazifalarni hal qilish bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishini ta’minlashi darkor.

Bo‘lajak mutaxassisning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar matematika ta’limining mazmunini umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining mazmuni bilan ifodalashga imkon beradi va har bir bo‘limda matematik bilimlarning kasbiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilib, matematika fanini o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Matematikani umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga integratsiyalash sharoitida kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishning darajasi uchga ajratildi:

Boshlang‘ich daraja (operatsion) o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan modelga asoslangan asosiy ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

O‘rta daraja (texnik) ma’lum bir qobiliyat va uni rivojlantirish bilan tavsiflanadi, unda taniqli modeldagi metodni tanlashga yoki vaziyatga qarab, biroz o‘zgartirilgan vaziyatda harakatlarni amalga oshirishga imkon beriladi[6].

Yuqori daraja (umumlashtirilgan) amaliy, kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni yechishda qo‘shimcha va kasbiy ko‘nikmalar rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Olib borilgan kuzatishlar davomida, kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish jarayoni uch bosqichda kechadigan dinamik jarayon ekanligini aniqlandi:

1. Motivatsiyali (amaliy muammolarni hal qilishda ijobiy munosabatni rivojlantirish).

2. Faoliyat (amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish).

3. Kasbiy-amaliy (amaliy, kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni hal qilish bilan bog‘liq kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish).

Matematika fanining amaliy yo‘nalishi ta’lim oluvchilarni inson faoliyatining turli sohalarida yuzaga keladigan kasbga yo‘naltirilgan vazifalarni hal etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashi uchun rejalashtirilgan tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy malakasini oshirish uchun zarur bo‘lgan turli yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishga integrativ yondashuv matematik vazifalarni bajarish imkonini beradi. Bunda:

1. Vazifalar qabul qilingan matematik ma’lumotlarning amaliy ahamiyati va haqiqiyligini ochib beruvchi va amaliy mazmunga ega bo‘lishi lozim.

2. Vazifa turli fanlarning o‘zaro amaliy aloqalarini aniq namunalar bilan ko‘rsatishi kerak.

3. Vazifalar tanlangan kasbda matematik bilim va usullarni qo‘llash hamda ishlab chiqarish, texnologiya, ilm-fan holatini aks ettirishi zarur.

4. Vazifaning ma’lumotlari amaliyotga mos kelishi kerak, ya’ni haqiqiy bo‘lishi darkor.

5. Vazifalar talabalar darajasida va tushunarli bo‘lishi lozim.

6. Qaror jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalanilishi zarur.

Talabalarning matematika fanini chuqur va aniq o‘rganishi texnikaviy fanlarni o‘zlashtirish, kasbiy ko‘nikma va malakalarning shakllanishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, matematika qattiq jismlar fizikasining asosiy natijalari, yangi kodlash usullaridan foydalanish, yarim o‘tkazgichli qurilmalar, lazerli disklar va shu kabi zamonamizning texnik ishlanmalariga asos bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, talabalarni doimo ijodiy harakatda bo‘lish, muammolarni va vazifalarni qidirish, jamiyat

ehtiyojlarini tahlil qilish usullarini topish va ularni yechishga qodir qilib tarbiyalash o‘qitishning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kasbga yo‘naltirilgan amaliy vazifalar bilim, ko‘nikma va malakalar integratsiyalashuvini hamda muammolarni hal qilishda shakllangan tajribalar asosida talabalarning dunyoqarashi, kasbiga hissiy munosabatini yanada oshiradi. Hissiy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabat talabalarning amaliy vazifalarni hal qilishga tayyorligini belgilaydi va bu vazifalar orqali ularning kasbiy kompetensiyasi rivojlanadi hamda matematika va umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining integratsiyalashuvi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish tajribasi kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Ismoilov E.O., Ruzmanov Sh.U. Ta’lim tizimida fanlar integratsiyasidan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari // Mashinashunoslikning dolzarb muammolari va ularning yechimi: Resp. ilmiy amaliy konf. material. – Toshkent, 2019. 20-21 noyabr 2019. – b. 250-252.

2. Ismoilov E., Donayeva G. Fizika va matematika fanlarida variatsion tamoyil // Fizika, matematika va informatika. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 124-126.

3. Пудовкина Ю.В. Межпредметные связи как средство повышения эффективности процесса обучения математике студентов аграрного университета / - Дисс.канд.пед.наук. - Омск, - 2004. - 173 с.

4. Татьяненко С.А. Формирование профессиональной компетентности будущего инженера в процессе обучения математике в техническом вузе / - Дисс.... канд. пед. наук. - Тобольск, - 2003. - 240 с.

5. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования / Народное образование. - 2003. - №2. - С. 58 - 64.

6. Совертков П.И. Проектирование поисково-исследовательской деятельности учащихся и студентов по математике и информатике / - Сургут: Изд-во СурГПИ, 2004. - 361 с.

TALABALARDA KASBIY KO‘NIKMALARNING “ME’YORIY MODELI”NI SHAKLLANTIRISH

Abduraxmonova D.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllantirish mumkin va zarur bo‘lgan “me’yoriy model” ko‘nikmalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: me’yoriy model, kasbiy ko‘nikma, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik ko‘nikma, shaxsiy sifat.

ФОРМИРОВАНИЕ «НОРМАТИВНОЙ МОДЕЛИ» ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЙ У СТУДЕНТОВ

Абдурахмонова Д.А. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье представлены умения «нормативной модели», которые можно и нужно развивать в процессе подготовки студентов высших учебных заведений к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: нормативная модель, профессиональное умение, профессиональная подготовка, педагогическое умение, личностные качества.

FORMATION OF A "NORMATIVE MODEL" OF STUDENTS' PROFESSIONAL SKILLS

Abduraxmonova D.A. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article presents the “normative model” skills that can and should be developed in the process of preparing higher education students for professional activities.

Key words: normative model, professional skill, professional training, pedagogical skill, personal quality.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorligini ta’minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchi-talabalari umumiy va kasbiy bilimlar bilan birga, muhim pedagogik ko‘nikmalar bilan ham qurollantiradi. Ijodkorona uyushtirilgan mashg‘ulotlar nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘unligi ularda muhim kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi.

Biroq hozirgi kunda dolzarb pedagogik muammolarning ijobiy yechimini hal etish bo‘yicha oliy ta’lim muassasasi talabalarining pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish tizimi yaratilmagan. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tahsil olish jarayonida ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlari tasodifiy tavsifga ega bo‘lib qolmoqda. Shubhasiz, pedagogik ko‘nikmalar tizimini shakllantirishda pedagogik faoliyat tuzilishidan kelib chiqib maxsus, psixologik va pedagogik tamoyillar asosida tayyorlansa, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlari

yanada samarali va maqsadli amalga oshgan bo‘lar edi. Kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishi esa pedagogik mahorat sirlarini egallash yo‘lida dastlabki qadam hisoblanardi[2].

Ta’kidlash lozimki, talabalarni ta’lim jarayonida barcha pedagogik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga o‘rgatish imkoniyati mavjud emas, bunga ehtiyoj ham yo‘q, boshqa zarur ko‘nikmalar ularning mustaqil pedagogik faoliyatini amalga oshirishda va ta’limdan so‘ng o‘zlashtirishi mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarni “bir-biriga o‘tuvchi” ko‘nikmalar bilan qurollantirish, amaliy mehnat tajribasida o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ko‘nikmalar, - K.K.Platonovning ta’kidlashicha,- barcha komponentlarni o‘z tarkibiga kiritgan holda, quyidagi sharoitlarda muvaffaqiyatli tarkib topadi:

- o‘quv faoliyati maqsadini aniq belgilashda, aniqrog‘i natijalarga erishishda xatti-harakatlar va mashq maqsadlariga yo‘naltirilsa (mashq jarayonida xatti-harakatlar ko‘rsatkichiga qanday erishishiga qaratilsa);
- faoliyat maqsadiga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarning to‘g‘ri va ketma-ketligini anglashilsa;
- so‘nggi natija, ya’ni obrazga erishish texnik ijrosi haqida yaqqol tasavvurga ega bo‘lsa;
- tasavvurdagi obrazga erishish natijalariga taqqoslash, xatti-harakatlarning ijro sifatini muntazam nazorat qilsa;
- xato va kamchiliklarni tezda aniqlash, kerakli paytda xatti-harakatlarning takrorlanmasligi uchun zarur tuzatish va o‘zgartirishlar kiritilsa;
- o‘quv faoliyatining aniq maslaklari va mashq maqsadlariga erishish uchun o‘zlashtirilayotgan xatti-harakatlarni takomillashtirishda o‘z muvaffaqiyatlarini to‘g‘ri baholasa”[1]

L.F.Spirin va M.L.Frumkinlar bo‘lajak pedagoglar egallashi zarur bo‘lgan pedagogik ko‘nikmalarning tipologiyasiga ko‘ra mazmun jihatidan yaqinroq ta’rif berishadi. Ular kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni ajratish va klassifikatsiyalashda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini boshqarish bosqichlarining sikllarini inobatga olib ko‘rsatishdi.

Yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich ta’lim pedagoglarining egallashi zarur bo‘lgan kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarning taxminiy majmuini quyidagicha izohlash mumkin.

Ta’kidlash joizki, zikr etilgan kasbiy-pedagogik ko‘nikmalar majmui boshlang‘ich ta’lim pedagoglarining amaliy faoliyatida uchun zarur bo‘lgan kasbiy tavsifga ega bo‘lgan barcha ko‘nikmalarni qamrab olmagan. Biroq pedagoglarning kasbiy mahoratini takomillashtirish tizimini yaratish uchun asos sifatida qabul qilish mumkin[3].



1-rasm. Kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarning taxminiy tuzilmasi

Mazkur muammo doirasida o‘rganilgan maxsus va psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, oliy ta’limda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida barcha kasbiy-pedagogik ko‘nikmalar haqida emas, balki ularni oliy ta’lim muassasasida tahsil olish jarayonida shakllantirish mumkin va zarur bo‘lgan ko‘nikmalar haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Ayni shu fikr-mulohazaga tayangan holda, biz oliy ta’limda ta’lim-tarbiya olayotgan talabalarda shakllantirish mumkin va zarur bo‘lgan **“me’yoriy model”** (nisbiy me’yoriy model) ko‘nikmalarning asosini shakllantirish maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Rivojlangan kasbiy ko‘nikmalar esa pedagoglar faoliyatida keyinchalik yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga asos bo‘ladi va o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, o‘z kasbiga doir ma’lumot va materiallarni to‘plash, tasniflash ko‘nikmasini quyidagi ko‘rsatkichlar bilan izohlash mumkin.



2-rasm. **Kasbiy ko‘nikmalarni tasniflash ko‘rsatkichlari**

Tadqiqot metodologiyasining ayni shu tamoyil asosida nazariy va amaliy jihatdan uyushtirilishi, biz ko‘zlagan maqsadlarga mos keladi.

Tadqiqot ishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, mazkur me’yor yoki daraja talabalarning kasbiy ko‘nikmalarni aqliy va amaliy jihatdan o‘zlashtirishi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish uchun xizmat qiladi. Shu bois mazkur me’yorni talabaga uning oliy ta’limdan so‘ng pedagogik faoliyatini samarali yuritish uchun asos sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, ayni shu singari kasbiy ko‘nikmalar ish faoliyatining dastlabki paytlarida muvaffaqiyat keltiruvchi va keyinchalik boshqa ko‘nikmalar uchun zamin bo‘luvchi ko‘nikmalar darajasini tashkil etadi.

Tadqiqot ishlarimiz asosida 19 tadan iborat kasbiy ko‘nikmalarning tuzilishi yaratildi va mazmunan 5 ta asosiy tizimga ko‘ra bloklarga umumlashtirildi (3-jadval), ular o‘z navbatida me’yoriy model tarkibiga kiritildi[4].

Tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, boshlang‘ich ta’lim sohasi pedagog o‘z kasbining xususiyatiga ko‘ra, muayyn kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarar. Zero, shu ko‘nikmalar ta’lim muassasalari amaliy faoliyatining samarasini belgilab beradi.

Shu nuqtayi nazardan qonuniyat va ilmiy dalillarga asoslangan kasbiy ko‘nikmalarning tizimi va tuzilishi, soha mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, metodistlarning pedagog shaxsiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Zero, bu ko‘nikmalar bo‘lajak pedagoglarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishga, muhim kasbiy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga xizmat qilishi lozim.

Ayni paytda, mazkur ko‘nikmalar pedagogik faoliyatning yuksak mahorat sirlarini egallash silsilasida zarur bo‘lgan o‘zga ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham asos bo‘ladi deb, taxmin qilamiz. Fikrimizcha, ayni shu singari kasbiy ko‘nikmalar ish faoliyatining dastlabki paytlarida muvaffaqiyat keltiruvchi va keyinchalik boshqa ko‘nikmalar uchun zamin bo‘luvchi ko‘nikmalar darajasini tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: 2004
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.:1989
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.:1995
4. Бозорова С. Олий мактабда касбий йўналтирилган ўқитиш технологиялари. – Т.:2000.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI “TABIATSHUNOSLIK”NI O‘QITISHGA KASBIY TAYYORLASH TIZIMI

Toshxo‘jaeva N.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tabiatshunoslik”ni o‘qitishga kasbiy jihatdan tayyorlash tizimini takomillashtirishda ularning pedagogik mahorati, ijtimoiy xulq-atvori, pedagogik-psixologik bilimlari, kommunikativ ko‘nikmalari, yuksak tafakkuri, intellektual, professional salohiyati, ma’naviy-axloqiy sifatlari, siyosiy savodxonligi, o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas’uliyatini yanada rivojlantirish va zamon talablari darajasida bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish masalariga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy-metodik tayyorgarlik, pedagogik mahorati, metod, internal, adaptant, adept, optant.

СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ «ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ»

Ташходжаева Н.Р. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация: Данная статья посвящена совершенствованию системы профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов для преподавания «Естествознания», их педагогических навыков, социального поведения, педагогических и психологических знаний, коммуникативных навыков, высокого мышления, интеллектуального, профессионального потенциала, духовно-нравственных качеств, политической грамотности и т.д. А также вопросам дальнейшего развития относительной ответственности и развития системы подготовки будущих учителей на уровне современных требований.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, педагогическое мастерство, метод, внутренний, адаптант, адепт, оптант.

THE SYSTEM OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING "NATURAL SCIENCE"

Toshkhojaeva N.R. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the pedagogical skills, social behavior, pedagogical and psychological knowledge, communication skills, high thinking,

intellectual, professional potential of future primary school teachers in improving the system of professional training for teaching "Natural Science". , spiritual and moral qualities, political literacy, further development of responsibility for their professional activities and the development of the system of training future teachers at the level of modern requirements.

Key words: vocational training, pedagogical skills, method, internal, adaptant, adept, optant.

Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasi yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan yuksak malakali kadrlarga bog‘liq. Kadrlarni tayyorlash esa avvalo o‘qituvchi-murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli, chuqur bilimga ega bo‘lgan, zamonaviy o‘qituvchi-kadrlar taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qaralib kelinmoqda. O‘qituvchilarimiz bugungi zamon talablariga mos bilimlar sohibi, yangilangan ta’lim mazmunini egallagan bo‘lishlari kerak. O‘qituvchi xodimlar o‘zlarining kasb-ko‘nikmalari va muallimlik mahoratlarini doimo takomillashtirib borishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmonida 2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalardan biri “pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish” ham eng muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Ushbu farmonda mazkur tizimda ta’lim sifati va samaradorligini kafolatlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri – malakali pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, avvalo pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlarini rivojlantirish masalasi o‘z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiritilgan[1].

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ushbu muammolarning yechimini topishda bir qator fanlarni chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatish, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi.

Bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda pedagogik faoliyati jarayonida ta’lim-tarbiyani zamon talablari darajasida olib borishni, o‘quvchilarning bilimi, dunyoqarashi, tafakkuri, qobiliyat va ko‘nikmalarini har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan kasbiy ko‘nikma va malakalarni muntazam egallab borishni taqozo etadigan yaxlit tizimdir. Pedagogik

mahorat sohibi – “O‘z ishining mohir ustasi yoki yangilik yaratuvchisidir”. Mahoratli o‘qituvchi – bu yuqori darajadagi madaniyat xodimi, o‘z ishining ustasi, o‘z fanini mukammal egallagan yetuk tafakkur egasi, ta’lim-tarbiya metodikasini, psixologik bilimlarni, turli fan va texnika sohalaridagi yangiliklarni chuqur biladigan dunyoviy bilimlar sohibi, bolalarni samimiy sevuvchi, vatanparvar, fidoyi insondir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda uni rivojlantirishda mahorat cho‘qqisini egallashi uchun bosib o‘tadigan yo‘li mashaqqatli va uzluksiz jarayondir. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik jihatdan shakllanib borishining asosiy bosqichlarini ta’riflashga ko‘pgina yondashuvlar mavjud. Xususan, tadqiqotchi olim Ye.A.Klimov tavsiya qilgan shunday yondashuvlardan birida mukammal pedagogik kasb egasining hayot yo‘lida uchraydigan quyidagi davrlarni ajratib ko‘rsatadi[2]:

- ✓ optant (yoki optanit, optatsiya davri) – yoshlarning kasb tanlash bosqichi;
- ✓ adept (adept davri) – inson ongli ravishda o‘zi qiziqqan kasbni tanlagan hamda uni maxsus kasbiy ta’lim muassasalarida (kasb-hunar kolleji, akademik litsey, oliy ta’lim muassasasi va boshqalar) egallaydi;
- ✓ adaptant (yoki adaptatsiya, yosh mutaxassisning tanlagan kasbi bo‘yicha ishga “ko‘nikish” davri). Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida bu davr amaliy pedagogik faoliyatga kirish, nostandart, ko‘pincha kutilmagan ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda vaziyatdan mustaqil chiqish uchun adolatli yo‘l topishi bilan bog‘liqdir. O‘qituvchi uchun bu davr 3-5 yilga cho‘ziladi deb hisoblanadi (shuni ta’kidlash lozimki, yosh o‘qituvchilar aynan shu davrda o‘z kasbini tashlab ketishadi);
- ✓ internal (yoki mutaxassislikka kirishib ketish davri) – boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi asosiy kasbiy vazifalarini mustaqil tarzda va muvaffaqiyat bilan bajara oladigan, ko‘nikma va malakalarga ega tajribali pedagog bo‘lib yetishadi;
- ✓ master (kasbiy mahoratni to‘liq egallash davri) – pedagog harakter xususiyatlari nuqtayi nazaridan o‘zining maxsus fazilatlari, ko‘nikma va malakalari bilan ajralib turadi yoki kasbiy faoliyatning turli sohalarida osonlikcha yo‘l topib keta oladigan universal mutaxassis bo‘lib yetishadi, o‘z tabiiy yo‘nalishiga, o‘ziga xos, takrorlanmas kasbiy faoliyat uslubiga ega bo‘ladi, doimo ijobiy natijalarga erishadi;
- ✓ nufuz (nufuzga, hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lish davri) – o‘qituvchi o‘z kasbining mohir ustasi sifatida, o‘z sohasida yoki undan tashqari biror sohada ulkan yutuqlarga erishadi, jamoada mashhur bo‘ladi, unda kasbiy faoliyatiga xos istalgan vazifani hal qila oladigan ulkan pedagogik tajriba to‘plangan bo‘ladi;
- ✓ ustoz (yoki ustozlik davri) – o‘qituvchi ta’lim muassasasida pedagogik jamoadagi kasbdoshlari orasidan o‘z maslakdoshlariga, izdoshlariga, shogirdlariga ega bo‘ladi, ular bilan yillar davomida to‘plagan pedagogik tajribasini o‘rtoqlashadi,

ularning kasbiy omilkorligini va shaxsiy pedagogik mahorat maktabining shakllanishiga yordam beradi.

O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi shakllantirishda hamda asosiy bosqichlarni muvaffaqiyatli bosib o‘tishida uchta tarkibiy qism yetakchilik qiladi: oliy ta’limgacha bo‘lgan davr (o‘rta maxsus pedagogik ta’lim); oliy ta’lim (oliy pedagogik ta’lim); oliy ta’limdan keyingi (pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida amalga oshiriladigan qo‘shimcha pedagogik ta’lim) davr.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi fanini chuqurlashtirib o‘qitish asosida zamon talablari darajasidagi bilimli shaxslar etib voyaga yetkazish, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan jahon iqtisodiyoti va erkin mehnat bozorining barcha talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash – oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilaridan juda mukammal pedagogik mahoratga ega bo‘lishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan taniqli pedagog olimlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik mahoratni shakllantirish masalasiga alohida muammo sifatida jiddiy e’tibor bermoqdalar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirib borish hozirgi davr talabida eng ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. Negaki pedagog o‘z-o‘zidan bo‘lajak yosh avlodni tarbiya qilish, uning kamolotga yetishishidagi jarayonda ildamchi hisoblanadi. Shu o‘rinda boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga o‘rgatiladi. Milliy urf-odatlar va an’analarga rioya etishga, bu urf-odatlarni ardoqlashga, an’analarni davom ettirishga o‘rganadilar. Birinchi sinfda o‘qitiladigan 1-2 sinf “Atrofimizdagi olam” 3-4-sinf “Tabiatshunoslik” o‘quv fanlari bu sohada keng imkoniyatlarga ega. Bu fanlar tevarak atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, unda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang‘ich tasvvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg‘otish va undan oqilona foydalanishni o‘rgatish ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida tabiat bilan tanishtirishda, bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shaklantirishda xilma-xil usullardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatlarni o‘stirish, ta’limni hayot bilan bog‘lash va mehnatga tayyorlashga qaratiladi. Darslarni turli usulida tashkil etish o‘qituvchidan ko‘p mehnat talab qilsa-da, o‘quvchilarni shijoatkorlikka undab, fikrlarni vaqtdan unumli foydalangan holda tez, aniq, lo‘nda va ixcham ifodalashga zamin yaratadi. Darslarni ilg‘or ta’lim metodlari va usullarga tayanib tashkil etish orqali

o‘quvchilarni faollashtirishga, mustaqil fikr yuritishga, yangi tushunchalarni matn ichidan topib, mazmunini anglab yetishga harakat qilishga yo‘llash mumkin. Agar bola yangilik sari intilmasa, unda qobiliyat, o‘z fikri, nuqtayi nazari ham shakllanmaydi. Bugungi zamonaviy ta’limda bilim va qobiliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Atrofimizdagi olam” darsligi bilan ishlash tabiatga doir bilimlar ta’lim bosqichlaridagi uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga tayanib davom ettiriladi.

Darslikning asosiy g‘oyasi - insonning tabiat bilan o‘zaro aloqasi, inson mehnatining tabiatdagi ahamiyati, unda yurish-turishning qoidalaridir. Ijtimoiy hayotning hodisalariga bag‘ishlangan maqolalari bolalar e’tiborini inson, jamiyat va tabiatning birligiga qaratadi.

Bolalarning xilma-xil hissiyot va qabul qilishlaridan to‘laroq foydalanish uchun ko‘rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan birga ularni gigiyena qoidalarini amaliy jihatdan bajarishga o‘rgatish zarur. Gigiyena bilimlarining muvaffaqiyatli egallab olinishi o‘qitishning barcha xilma-xil metodlari hamda uslublarini qo‘llanish bilan ta’minlanadi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi faqat o‘qitish jarayonini ta’riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o‘qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo‘yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o‘qitishi mumkin.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi fani boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tayyorlanishidan tortib, to o‘quv materialini o‘zlashtirish natijalarini, jumladan, sinfdagi, uydagi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hisobga olishgacha barcha o‘qitish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. O‘qitish amaliyotini har tomonlama o‘rgatish va natijalarni keyin ijodiy umumlashtirish asosida o‘qitishning muayyan qonuniyatlari belgilanadi hamda uni yanada yaxshilash bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Chunonchi, o‘rganilayotgan narsalarni (o‘simlik va hayvonlarni) bevosita qabul qilish (bu to‘g‘ri tasavvur hosil bo‘lishini ta’minlaydi) qonuniyati asosida predmetli o‘qitishni qo‘llash bo‘yicha aniq tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bugungi kun talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, yosh avlodga tabiatshunoslik fanini o‘rgatishga tayyorlashdir. Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat [3]:

1. Talabalarga tabiatshunoslik haqida eng zarur ilmiy-nazariy bilimlarni berish.

2. Boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi fanini ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini yoritib berish.

3. Talabalarga tabiatshunoslik fani bazasida zamonaviy pedagogik texnologiya haqida bilim berish.

4. Talabalarni o‘quv metodik adabiyotlar, dastur va darsliklarni tahlil qilishga o‘rgatish.

5. Talabalarni tabiatshunoslikni o‘qitishning turli uslublari va yo‘llari bilan tanishtirish.

6. Talabalarda mazkur fandan o‘qitishning turli tashkiliy shakllarini, uslublarini, zarur ko‘rgazmali qurollarni to‘g‘ri tanlash malakalarini hosil qilish.

7. Tabiatshunoslik muammolariga bag‘ishlangan maqolalar, adabiyotlarga taqriz, annotatsiya yozishga o‘rgatish.

8. Kuzatilgan dars va darslardan tashqari tadbirlarni mustaqil metodik jihatdan to‘g‘ri tahlil qilishga o‘rgatish.

9. Fanlararo aloqalar va ta’lim-tarbiya integratsiyasi asosida turli dars tiplari uchun ishlanmalar, reja-konspektlar tuzishga tayyorlash.

10. Maktabda tabiatshunoslik darslarini o‘tishda ekologik va tabiatni muhofaza qilish jihatlarini ko‘ra bilishga o‘rgatish.

11. Talabalarni Sharq mutafakkirlarining inson va uni o‘rab turgan tabiat bilan aloqalariga bag‘ishlangan asarlari, ularning dunyoqarashlari bilan tanishtirish, shuningdek, tabiatga oid aforizm, ruboiy va she’rlardan tabiatshunoslik darslarida foydalanishga o‘rgatish.

Bundan tashqari, tabiatshunoslik o‘qitish metodikasining umumpedagogik va o‘ziga xos metodlari, darsni to‘g‘ri tashkil etish tarixi va istiqbolli rejalar tuzish, darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish usullarini o‘rganish kabi masalalar ham ushbu fanning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi fanining ikkinchi tomoni bu metodikani yaxshi bilish jarayoni hisoblanadi. Metodika o‘qituvchi tomonidan o‘quv materialni o‘qitishning muvofiq (ratsional) ravishdagi metod va vositalari o‘quvchilarning tabiat haqidagi eng soda bilimlarni egallashi hamda kelajakda hayotda qo‘llay olishi o‘quvchilar uchun retseptlar va nasihatlar majmuasi bo‘libgina qolmasdan, u fan, uning tamoyillari, tabiatshunoslik o‘qitish jarayonining qonuniyatlarini bilishga ham asoslangan. Metodika o‘quv fanining mazmuni, ta’lim va tarbiya metodlari hamda shakllarini ko‘rib chiqadi. Metodikaning bu bo‘limlari bir butun bo‘lganligi uchun bir-birini to‘ldiradi.

O‘quv ishlarining jihozlari hamda vositalari (qo‘llanmalar) metodika asosida belgilanadi. Metodika nima uchun tabiatni o‘rganish, nimani va qanday o‘qitish, nima asosida va qanday tarbiya berish kerak, degan savollarga javob beradi.

Tabiatshunoslik fanini o‘qitilishining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi uchun maxsus o‘quv moddiy bazaga, ya’ni o‘quv qurollari bilan jihozlangan xona, tirik tabiat burchagi va o‘quv-tajriba maydonchasiga ega bo‘lishi kerak. Materialni o‘ziga xos bo‘lishi faqat tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligini emas, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi maktabda hamma tabiat haqidagi fanlarni o‘qitishga oid masalalarni: o‘qitishning g‘oyaviy yo‘nalganligini, o‘qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o‘quv ishlarining shakllari o‘rtasidagi izchillikni va barcha tarbiyalovchi ta’lim elementlarining yaxlitligini hamdarivojlanishini ko‘rib chiqadi.

O‘qitish tizimi o‘quvchilar bilimining puxta bo‘lishi va ongiga yetib borishini ta’minlaydi. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi barcha predmetlar uchun umumiy tamoyillarga ega bo‘lgan didaktik va tarbiya jihatidan pedagogika bilan chambarchas bog‘langan. Maktabda ta’lim-taibiya jarayoni amalga oshiriladi va o‘rganiladigan materialning mazmuni, uni bayon qilish mantiqi, o‘qitish metodlari barcha shakllardagi butun ta’lim jarayonini, o‘qituvchi shaxsining o‘zi, uning fanga fidoyiligini ham tarbiyalaydi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi pedagogikada qo‘llaniladigan tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Tadqiqotchi-metodist maktabda tabiatshunoslikni o‘qitish jarayonini kuzatadi, kuzatilgan faktlarni tahlil qiladi va taqqoslaydi, hodisalar o‘rtasidagi qonuniy bog‘lanishlarni aniqlaydi, xulosa va umumlashtirishning to‘g‘riligini amalda tekshiradi va buning natijasida tabiatshunoslikni o‘qitish tamoyillarini belgilaydi. Kuzatish va tajriba tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi sohasidagi eng muhim metodlardir.

Hozirgi kunda metodikaning fan sifatida qaror topishida integratsiya (birlashish), sintez - barcha ilmiy materiallarning muammolar bo‘yicha to‘planishi hamda tahlil qilinishi, umumlashtirilishi, tizimga solinishi va yagona ilmiy nazariyaga keltirilishi alohida o‘rin egallaydi. Metodika o‘qituvchi ijodi uchun ta’lim va tarbiyaning boy xazinasidagi xilma-xil metodlar, usullar va vositalarni bilib olishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi, shuningdek, fiziologiya, anatomiya, gigiyena, botanika, zoologiya, geografiya, agrotexnika, meteorologiya, mantiq va psixologiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu fanlar bilan bo‘ladigan aloqa o‘qituvchining o‘sha fanlar asoslarini egallagan bo‘lishida, ularning eng muhimlarini ajratib, materiallarni o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos holda tushuntira olish uquvlarida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning kamol topishi va rivojlanishi uning ayrim ishlar, munosabat va harakterni o‘z ichiga olgan faoliyat jarayonida boradi. Bunda u yoki bu faoliyat turning - o‘qish, mehnat, o‘yin, muloqotlarning dalillari (motivlari) alohida ahamiyatga ega. Muloqot dalillari har qanday darsning tarkibiy qismi bo‘lishi kerak. Uni o‘qituvchi hisobga olmasa, tabiat to‘g‘risidagi bilimlar imkoniyatini pasaytirb yuboradi. Shunday qilib, tabiat bilan to‘g‘ri tashkil qilingan muloqot kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida go‘zallikni his etishni shakllantiradi, ularda o‘z harakati va ishini o‘zi baholay olish qobiliyatini rivojlantiradi, bu xislatlar xulq-atvorning odobiy

hamda axloqiy me’yorlarini anglash, atrofdagilarga nisbatan mas’uliyat hamda burchni tarbiyalash uchun zarurdir. Tabiat bilan muloqot jarayonida o‘rtoqlariga, kattalargahurmat va mehr vujudga keladi.

Shuningdek, tabiatshunoslikni o‘qitish jarayoni faqat o‘qituvchinigina emas, balki o‘quvchilar faoliyatini ham o‘z ichiga oladi. O‘qitishning natijasi dasturda mo‘ljallangan materialning puxta o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o‘qitish metodlari va o‘quvchilarga o‘quv jarayonini tashkil etish shakllarini o‘rganish, ularning materialni o‘zlashtirib olish jarayonini o‘rganishlari bilan birga boradi.

O‘qituvchilik kasbini tanlagan ko‘pchilik yosh yigit va qizlar o‘rta pedagogik ta’limga ega bo‘lmasdan pedagogika oliy o‘quv yurtlariga intilishadi va kasbiy jihatdan shakllanishdagi dastlabki ma’lumotlarni umumiy o‘rta ta’lim maktablari yoki o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi darajasida egallashadi. Kimdir esa kasb tanlash haqida umuman o‘ylamaydi va o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos qiyinchiliklarini o‘ylamasdan va butunlay boshqacha, kasbga aloqasi bo‘lmagan maqsadlarni ko‘zlab pedagogika oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga intilishadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda, ularning pedagogik mahoratini, ijtimoiy xulq-atvorini, pedagogik-psixologik bilimlarini, kommunikativ ko‘nikmalarini, yuksak tafakkurini, intellektual, professional salohiyatini, ma’naviy-axloqiy sifatlarini, siyosiy savodxonligini, o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan mas’uliyatini yanada rivojlantirish va zamon talablari darajasida bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni maqsadli tashkil etish maqsadga muvofiqdir[4]:

- ✓ ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini oliy pedagogik ta’limning maqsad va vazifalari bilan uyg‘unlashtirish. “Zamonaviy pedagogning ma’naviy qiyofasi”ni yaratish;
- ✓ bo‘lajak o‘qituvchilarning umumiy va kasbiy faoliyatiga xos bo‘lgan intellektini, qobiliyatini uyg‘unlikda rivojlantirish texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish;
- ✓ ijtimoiy faollikni moddiy va ma’naviy motivatsiyalashning yangi va samarali usullarini ishlab chiqish va keng foydalanish;
- ✓ bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini hamda kasbiy moslashishga oid qo‘shimcha malakalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora – tadbirlarni yanada kuchaytirish avlodini shakllantirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimizki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi hozirgi zamonaviy sharoitda o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan, balki yanada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, hozirgi kunda ushbu muammoning nazariy va amaliy darajadagi optimal yechimlari ilmiy tadqiqot ishlarida to‘liq o‘z ifodasini

topmagan. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish zaruriyatini anglash va ushbu maqsadga erishish mexanizmlarining mutlaqo yo‘qligi tufayli qarama-qarshiliklarni vujudga keltirmoqda.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mutaxassislik fanlaridan bilimlarni chuqur egallab, kasbiy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmoqdalar.

Ushbu mexanizm asosidagi kasbiy-metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi, oliy pedagogik ta’lim muassasasidan keyingi faoliyatda hamisha kutilgan natijalarga erishmaydi, bu esa o‘qituvchi egallagan bilimlar va kasbiy ko‘nikmalarni pedagogik faoliyati jarayonida samarali qo‘llashda qarama-qarshiliklarga uchramoqda, bu esa fan olimlarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga yanada e’tibor qaratishlarini talab etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Holiqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2010. 19,5 b.t.

3. Sharipova D., Xodieva D., Shirinov M. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. –T.: Avto-nashr, 2018. 450 b.

4. Моргачева Н.В. Профессиональная компетентность будущего учителя естествознания в условиях реализации ФГОС // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, № 8(64), 2016. Стр. 158-162.

O‘QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Insapova G.G. - Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasiyasidan foydalanishning nazariy asoslari va qo‘llash usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, integratsiyalashgan ta’lim, integratsiyalashgan ta’lim texnologiyasi, integratsiyalashgan dars, integratsiyalashgan dars modeli (loyihasi), integratsiyalashgan o‘quv kursi.

ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Инсапова Г.Г. - преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация. В статье говориться о совершенствовании содержания учебно-воспитательной работы в начальных классах на уровне современных требований. А также в статье раскрыты особенности использования интеграционных образовательных технологий, создающих высокую степень усвоения учебного материала, который гарантирует расширение кругозора учащихся.

Ключевые слова: интеграция, интегрированное обучение, интегрированная технология обучения, интегрированный урок, интегрированная модель урока (проект), интегрированный учебный курс.

WAYS TO USE INTEGRATED LEARNING TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Insapova G.G. - Lecturer at Namangan State University

Annotation. This article is about modernization of content of educational works in elementary classes in the level of modern requirements. Use of integrational educational technologies serving for modernization of content of educational works. These methods support rational use of educational time and widen people's world views.

Key words: integration, integrated learning, integrated learning technology, integrated lesson, integrated lesson model (project), integrated training course.

Xalqaro standartga muvofiq, boshlang‘ich ta’limning asosan bir nafar o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi ham pedagoglarning integratsion o‘qitish tizimini joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Dunyo miqyosida boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda integrativ pedagogikadan foydalanish, o‘qitish jarayonlarining integratsiyalashuviga kompleks yondashuvni tatbiq etishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mavzular, fanlar va transfanlararo integratsiyani qo‘llash asosida boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, kontsentrizm tamoyili asosida o‘quv materiallarini tizimlashtirishning modullashgan integratsiyasini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda ta’lim modelini tanlash, muloqot

turlarini aniqlashtirish, axborot va boshqaruv tizimini ishlab chiqish, ta’lim beruvchilar faoliyatini rejalashtirish, o‘qitishning shakl, metod va vositalarini oqilona tanlashga asoslangan integratsion darslarni loyihalash muhim dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya sifati, xususan boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish, raqobatbardosh boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, boshlang‘ich ta’limning integratsion o‘quv-uslubiy ta’minotini mustahkamlashga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, integrallashgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning metodik mexanizmlarini aniqlashtirish, integratsion mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga alohida zarurat mavjud. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish” [1; B. 4] kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda integrallashgan o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish mazmuni, didaktik va metodik talablarni, tashkiliy faoliyat shakllarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Integratsiya ta’limning turli bosqichlarida turli xil xususiyatlarga ega. Boshlang‘ich sinflardagi integratsiyalashgan darslar ta’limning birinchi qadamlaridan boshlab bolaga borliqni bir butun holatda tasavvur qilishni, undagi hamma narsa o‘zaro bir biriga bog‘langanligini tushunishga qaratilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang‘ich maktabda integratsiyalashgan ta’lim, mazmunan bir birga yaqin bo‘lgan fanlarni integratsiyalashtirishga qaratilgan. Masalan, o‘qish darsida badiiy asarlar bilan bir qatorda tarbiya, tabiat va mehnatga doir ma’lumotlar ham kiritilgan. Matematika geometriya, algebra va arifmetikaga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Tabiatshunoslik geografiya, biologiya, botanika, shuningdek fizika, ximiya va astranomiya kabi fanlarni ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Integratsiyalashgan ta’limning mohiyati shundan iboratki, unda umumiy mavzular bo‘yicha kerakli darslar rejalashtirilishi va ular turli o‘qituvchilar tomonidan turli vaqtlarda o‘tilishi ham mumkin.

I.P.Podlasiyning “Boshlang‘ich maktab pedagogikasi” asarida integratsiyalashgan darsda (lotincha “to‘la”, “yaxlit”, “butun”) bir mavzu atrofida bir necha fanlar materiallari birlashtirilgan bo‘ladi deb tushuntiriladi [3; 232-234]. Biz ham bu fikrni ma’qullaymiz. Har qanday integratsiyalashgan darsda asosiy ustuvor fan bo‘ladi, atrofidagi fanlar esa maqsadni amalga oshirish uchun vosita bo‘ladi, lekin shunday bo‘lsada, barcha fan o‘z mustaqilligiga ega bo‘ladi va darslikdagi material to‘liq qamrab olinadi. Masalan matematika fanidan bo‘lish amali qiyin bo‘lganligi sabab biz uni o‘quvchilarga tushuntirishni qulay va oson yo‘lini o‘ylab topamiz. Bunda integratsiyalashgan darslar juda qo‘l keladi. Biz matematika fanidan

o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan mavzuni o‘qish darsligida kelayotgan ertak bilan integratsiyalashtiramiz. Ya’ni matematikani ertaklar orqali o‘rgatamiz. Xuddi shu usulni ona tili darsida ham qo‘llasa bo‘ladi. (Ilovaga qaralsin)

Ye.I.Rudnyanskaya integratsiyalashgan darslarni o‘quv jarayonidagi fanlararo bir shakl deb hisoblab, asosan tafakkurga tayanishi va bilim izlash fanlararo izlanish olib borishda muhim vositadir deb hisoblaydi [4; B. 3].

Bizning nuqtayi nazarimizda integratsiyalashgan darslarda dominanta bitta o‘quv predmeti bo‘lishi, atrofidagilari esa unga qo‘shimcha, yordamchi predmet vazifasini bajarishi lozim. Shuningdek integrativ yondashuvda barcha o‘quv predmetlari mustaqil, tuzilishi, ajratilgan vaqti, hajmi va mazmuni yuzasidan teng bo‘lishi kerak. Ya’ni integratsiyalashgan ta’limda berilgan obyekt va hodisani o‘rganish uchun o‘quv predmetlari mazmuni teng huquqli bo‘lishi lozim.

Integratsiyalashgan darslarning ustuvorligini:

-ta’lim mazmunini boyitishida;

-darslikdan tashqari berilayotgan qiziqarli ma’lumotlar hisobiga o‘quvchilarning fikrlash va his qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda;

-predmet va hodisalarni tarqoq holda emas, balki har taraflama bir butunlikda, yaxlit anglashga yordam berishida ko‘rishimiz mumkin.

Integratsiyalashgan darslarda turli fanlar bo‘yicha bilimlar bloki birlashtiriladi. Shuning uchun bunday darslarning asosiy maqsadini anglab olish muhimdir. Umumiy maqsad aniq bo‘lsa, predmetlar tarkibidan ularni realizatsiya qilish uchun zarur ma’lumotlargina olinadi. Ya’ni darslikdan tashqari ma’lumotlar o‘sha mavzuga doir bo‘lishi kerak. Tog‘lar mavzusini tushuntirish jarayonida tog‘larning turlari, eng katta tog‘, eng kichik tog‘, tog‘larning cho‘qqisi: dunyodagi va O‘rta Osiyodagi eng baland cho‘qqi, sharshalar vulqonlar, lava va geyzerlar haqida o‘quvchilarga qo‘shimcha ma’lumot berish mumkin. Bunda biz atrofimizdagi olam darsini geografiya darsi bilan integratsiyalashtirgan bo‘lamiz, bu transpredmetli intngratsiyaga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida aynan transpredmetli integratsiyadan foydalanish talab qilinyapti. Albatta bu o‘quvchilar uchun juda foydali bo‘lib ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga asos bo‘ladi.

Amaliyotlar integratsiyalashgan darslarni o‘tish uchun birinchi sinfdanoq darslarni mujassamlashtirishni taqozo etadi.

I.P. Podlasiy integratsiyalashayotgan darslarni rejalashtirishga, tashkil etishga va o‘tkazishga quyidagi talablarni qo‘yadi:

-har bir sinfda integratsiyalashgan darslar tizimini bir yilga mo‘ljallashni;

-har bir darsni mukammal rejalashtirishni;

-asosiy va yondosh maqsadlarni aniqlab olishni;

-darslar tuzilishini modellashtirish, ularni faqat asosiy maqsadni quvvatlaydigan mazmun bilan boyitish;

-dars turi, tuzilishi, uslubi va ko‘rgazmali qurollarini diqqat e'tibor bilan tanlash;

-integratsiyalashgan darslarni o‘tishda turli fan o‘qituvchilari va mutaxassislarni jalb qilish [4; B. 400].

Biz ham I.P.Podlasыyning fikrlarini asosli deb hisoblaymiz, haqiqatda ham integratsiyalashgan darslarni o‘quv yilning boshida rejalashtirilish kerak. Shunga qarab dars jadvalini ham ishlab chiqiladi, ko‘zlangan natijaga erishish osonlashadi.

	O‘qish	Atrofimizdagi olam	Texnologiya
	Navro‘z bayrami	Bahorgi tengkunlik. Navro‘z bayrami	Navro‘z bayramiga tabriknoma tayyorlash

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mavzular bir-biriga mos keladi. Shuning uchun aynan bir biriga mos keladigan mavzularni integratsiyalashtirib o‘tsak, takroriylikdan voz kechgan bo‘lamiz. Agar bu darslarni o‘quv yilining boshida integratsiyalashtirishni rejalashtirsak, ularni jadvalga bir kunga qo‘yishning ham iloji bo‘ladi. Natijada integratsion kun tashkil qilinadi.

Har bir integratsiyatsiyalashgan dars mukammal rejalashtirilishi: fanlar mustaqilligi saqlanib qolishi; darsliklardagi material dars ishlanmada to‘liq aks ettirilishi; qo‘shimcha ma’lumotlar mavzu doirasida bo‘lishi; o‘quvchi har bir darsdan baho olishi kerak bo‘ladi.

Asosiy va yondosh maqsadlarni aniqlab olish.

Integratsiyalashtirish jarayonida ustuvor fanni aniqlash va maqsadni shu fanga qarab yo‘naltirish kerak bo‘ladi. Shunda asosiy fan birinchi planda qolganlari yordamchi planga o‘tadi. Bu asosan matematika yoki ona tili fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiyalashtirish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Matematika”dan qo‘shish mavzusini o‘tish jarayonida “Tabiat” darsida kuzgi mevalar mavzusi keladi shunda o‘qituvchi kuzgi mevalarni misolida o‘quvchilarga qo‘shish amalini o‘rgatishi mumkin (mevalarni olib kelib ularni ko‘z olida qo‘shib ko‘rsatsa ham bo‘ladi). Yoki xuddi shu mavzuni sinfdan tashqari o‘qish darsida rus xalq ertagi “Bo‘g‘irsok” misolida ham amalga oshirsa bo‘ladi (chol bitta unga kampir qo‘shiladi ikki bo‘ladi, nabira qo‘shiladi uch bo‘ladi, kuchukcha qo‘shiladi to‘rt va hokazo davom etaveradi). Demak, asosiy maqsad qo‘shish amalini o‘rgatish; yondosh maqsadlar esa o‘quvchilarga kuzgi mevalar haqida ma’lumot berish va rus xalq ertagi “Bo‘g‘irsok” bilan tanishtirish.

Darslar tuzilishini modellashtirish, barcha faqat asosiy maqsadni yoritadigan mazmunga yo‘naltirish.

Integratsiyalashgan darsning modeli va texnologik haritasi yaratilishi kerak. Chunki texnologik harita bilan ishlash o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham juda qulaylik tug‘diradi. I.P.Podlasiyning fikricha integratsiyalashgan darslarni faqat

asosiy maqsadni quvvatlaydigan mazmun bilan boyitish kerak [3; B. 400], lekin bizning nuqtayi nazardan e'tibor har bir fanga bir xil qaratilishi lozim, faqat urg‘uni asosiy fanga qaratish zarur. Maqsad qo‘shish amalini tushuntirib, o‘quvchilarni qo‘shishish haqidagi bilimlarini kengaytirish va sonlarni bir biriga qo‘shishga o‘rgatib, qo‘shish ko‘nikmasini hosil qilish, shuningdek o‘zlari qo‘shish amalini bajara olishlariga erishish, ya'ni qo‘shish malakasini oshirish..

Dars turi, tuzilishi, uslubi va ko‘rgazmali qurollarni to‘g‘ri tanlash.

Integratsiyalashgan dars tuzilishi jixatidan interfaol bo‘ladi. Har bir fanning maqsadi amalga oshishi, darslikdagi talab to‘liq bajarilishi, uyga vazifa, yangi mavzu, mavzular mustaxkamlanishi uchun o‘quvchilar tez va faol harakatlanishlari kerak. Bu ishlarni amalga oshirishda biz interfaol metodlardan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. Integratsion darslarda foydalanish mumkin bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashgan texnologiyalar deb yuritamiz, interfaol metodlarni ham integratsiyalashgan interaktiv metodlar deb atasak bo‘laveradi. Bunga misol qilib “WARK” “Intellekt maps” interaktiv metodlarini olishimiz mumkin. Bu interaktiv metodlar ikki yoki undan ortiq fanni integratsiyalashtirish jarayonida qo‘llash juda yaxshi samara beradi (kelgusi maqolalarimizda bu interfaol metodlar haqida batafsil to‘xtalamiz) .

Integratsiyalashgan darslarni o‘tishda turli fan o‘qituvchilari va mutaxassislarni jalb qilish ulardan maslaxat olish dars sifatini ta'minlaydi, mazmunini boyitadi va qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanadilar.

Predmetlararo to‘siqlarni bartaraf qilish uchun ularni bir mavzu va tushunchalar atrofida birlashtirish lozim. Bu predmetni har tomonlama o‘rganishdan va o‘zaro aloqalarini mustaxkamlashdan iboratdir. Shuning uchun ikki uch predmetni o‘zaro bog‘lanishdan hosil bo‘lgan yoki ayrim mavzularni birlashtirish asosida integratsiyalashgan kurslar va bloklar paydo bo‘la boshlaydi.

Integratsiyalashgan o‘quv kurslari-bir necha o‘quv predmetlarini ma'lum bir mavzu va asosiy tushunchalar atrofida birlashuvidan iborat [3; B.232-234].

Materialni katta bloklarga birlashtirish o‘quv jarayonida yangi tashkiliy tuzilmalarga olib keladi. Dars o‘rniga asosiy tashkiliy birlik bo‘lib o‘quv kuni, o‘quv xaftasi chiqadi. Bu esa mavzuga yanada chuqurroq kirib borish imkonini beradi [5; B.32].

V.N.Maksimova integratsiyalashgan darslarni tashkil qilishning bir shakli sifatida “integratsiyalashgan” o‘quv kunini bir sinfda o‘quv kuni davomida umumiy kompleks muammolarni yechish atrofida birlashtirilgan bir necha o‘quv darslarini tashkil etishni taklif qiladi. Bunday kunning so‘ngi darsida o‘quvchilar avvalgi darslardan olgan ma’lumotlarni tizimlashtiradi va umumlashtiradi. “Integratsiyalashgan” o‘quv kunining vazifasi predmetni o‘qitish vazifalariga hamda umumpredmet o‘quv-tarbiyaviy maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi [2. B.119].

Barcha (maktab) o‘quv fanlari o‘zining o‘ziga hos o‘quv potentsialga ega bo‘ladi, ularning integratsiyalashgan kurs bilan samarali moslashish xususiyati bir qator sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun umumiy dasturni ishlab chiqishdan avval, integratsiyani mumkinligi va kerakligini hisobga olish zarurdir. Buning uchun, avvalombor o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining tayyorgarlik holatini hisobga oladi, ularning psixologik xususiyatlari va qiziqishlarini taxlil qilib ko‘radi. Ularning o‘quv faoliyati davomidagi duch keladigan qiyinchiliklari integratsiyalashgan ta’limni qo‘llashga olib keluvchi sabablardan biri bo‘lishi mumkin. Ba’zida o‘quvchilarni bir predmetni muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishlari boshqa predmetdan olgan bilimlari va ko‘nikmalari orqali ham bo‘ladi.

Aksariyat maktab dasturlarida bir qator predmetlararo “chorraxalar”ga duch kelish mumkin: mavzulari o‘xshash, umumiy savol yoki muammo, ba'zida esa aynan bir xil jarayon va hodisaning o‘rganilishi, bitta obyektni turli hil yo‘nalishlarda qo‘rib chiqilishi mumkinligini yuqorida misollar bilan ta'kidlab o‘tgan edik. Aynan shu narsani predmetlararo mavzularni birlashtirib o‘tuvchi integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirish uchun buyurtma yoki talab deb hisoblasa bo‘ladi. Lekin birlashuvning chuqurroq asosi shundaki, o‘qituvchilar o‘z predmetlarini o‘rgatish chog‘ida o‘qitishning perspektiv maqsadlarini bir-birlariga yaqinlashtiradigan o‘zaro bog‘liqlikni topishlari kerak.

Shunday qilib, integratsiyalashgan dars integratsiya kursini aniq perspektiv masalalarini hal qiladigan, ya'ni ikkita yoki uchta predmet asosida rejalashtirilgandan ko‘ra, bir sifat tekisligida hosil qilingan yangi bir murakkab birlikni o‘zida mujassam etgan bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. Максимова, В. Н. Межпредметные связи в учебно-воспитательном процессе современной школы / В. Н. Максимова. – М.: Просвещение, 1987.

3. Подласый, И. П. Педагогика начальной школы / И. П. Подласый. – М.:Владос, 2000. – 400 с.

4. Руднянская, Е. И. Интегрированные уроки по общеобразовательным дисциплинам и природоведению в начальных классах / Е. И. Руднянская. – Волгоград: Учитель, 2002. – 72 с.

5. Сухаревская, Е. Ю. Технология интегрированного урока: практ. пособие для учителей начальной школы, студентов пед. учеб. заведений, слушателей ИПК / Е. Ю. Сухаревская. – Ростов н/Д: Учитель, 2003. – 128 с.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Adilov N.X. - Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda integrativ yondashuvdan foydalanish muammosini hal etishda axborot texnalogiyalari, predmetlararo aloqalar, o‘quv rejalarini mantiqiy tuzish shartlari, ta’limda yondashuvlar turlari kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabaqalashtirish, muhandislik ta’limi, fanlararo aloqadorlik, yondashuvlar, muammoli ta’lim.

ВОЗМОЖНОСТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Адилов Н.Х. – самостоятельный исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. При решении проблемы использования интегративного подхода к совершенствованию подготовки будущих инженеров к профессиональной деятельности освещаются вопросы информационных технологий, предметных отношений, условий логического составления учебных планов, типов подходов в образовании.

Ключевые слова. дифференциация, инженерное образование, межпредметные связи, подходы, проблемное обучение

PROBLEMS OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS BASED ON AN INTEGRATED APPROACH

Adilov N.K. - Freelance researcher at Tashkent State Pedagogical University

Annotation. When solving the problem of using an integrated approach to improving the training of future engineers for professional activity, the issues of information technology, subject relations, conditions for the logical preparation of curricula, types of approaches in education are highlighted.

Key words: differentiation, engineering education, interdisciplinary connections, approaches, problem-based learning.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi eng muhim muammolardan biri o‘quv fanlarini *integratsiyalash* va *tabaqalashtirish* hisoblanadi.

Integratsiyalash turli fanlar o‘rtasida tarkibiy bog‘lanishni mustahkamlash, ularni umumlashtirish, talabalarninng tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qilsa, *tabaqalashtirilgan ta’lim* talabalarga mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilim berishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda integrativ yondashuvdan foydalanish muammosini hal etish ta’lim muassasalar o‘quv jarayonida zamonaviy axborot va yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bilan bevosita bog‘liq, mazkur jarayonni to‘g‘ri tashkil etish kimyoviy texnologiya (qurilish materiallari) yo‘nalishida bo‘lajak muhandis kadrlarni tayyolashda o‘qitish samaradorligini oshiribgina qolmasdan, o‘qitishning loyihaviy yaratuvchanlik modeli asosini ta’minlaydi.

Axborotlar ko‘lamining kun sayin o‘sishi, bo‘lajak muhandislarga beriladigan bilimlar hajmining ko‘payishiga, mutaxassislik bo‘yicha o‘qitiladigan fanlar miqdorining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida talabalarga psixologik jihatdan og‘irlik qilib, ularning bu fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini susaytirmoqda hamda bilimlarni o‘zlashtirish darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etish uchun muhandislik sohasida kadrlar tayyorgarligini takomillashtirishda o‘quv fanlarini integratsiyalash muammosini muvaffaqiyatli hal etish zarurati vujudga keldi.

Bo‘lajak muhandis kadrlar tayyorgarligini takomillashtirishda integratsiya tufayli talabalar bilishlari zarur bo‘lgan axborotlar hajmi ma’lum darajada qisqaradi, talabalar zo‘riqishining oldi olinadi va vaqt tejaladi.

Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda muayyan fanning ichki va tashqi aloqalarini o‘rganish, uning boshqa fanlarga tatbiqini ta’minlash talabaning nafaqat bilish doirasini kengaytiradi, balki unga atrof-muhit haqida to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lishi, dunyoqarashining shakllanishi, shuningdek, mavjud bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishiga imkoniyat yaratadi.

Pedagogik lug‘atlarda “predmetlararo aloqalar” tushunchasi o‘quv dasturlarining o‘zaro moslashuvi sifatida ta’riflanadi. Muhandis kadrlar tayyorlash ta’limi jarayonidagi predmetlararo aloqalar talabalarning o‘quv - bilish faoliyatini faollashtiradi.

Bo‘lajak muhandislar tayyorgarligini takomillashtirishda o‘quv fanlari integratsiyalashuviga doir ijtimoiy, psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlarni ilmiy nazariy jihatdan o‘rganish va tahlil etish o‘quv fanlarini boshqa o‘quv fanlari bilan integratsiyalashuviga qo‘yiladigan pedagogik talablar, mezonlarini bir butun yaxlit tizim sifatida tadqiq etish lozim. Natijada talabalarning fanga nisbatan munosabati o‘zgaradi (predmetga bo‘lgan qiziqish oshiradi); talabalar tomonidan

umumiy o‘rta maktabda o‘zlashtirilmagan bilimlar o‘zlashtirilgan bilimlar hisobiga to‘ldiriladi; politexnik savodxonlikni oshirish tufayli talabalarning kasbiy mahorati shakllanadi; ilmiy dunyoqarashning samarali tarbiyalanishiga ta’sir etadi; talabalarda ishlab chiqarish mehnatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan metodlarni rivojlantirish imkoni yuzaga keladi. Muhandis kadrlar tayyorlashda fan asoslarini tashkil etadigan bilimlarni o‘rganishda ular o‘rtasidagi aloqalarni integratsiyalashni unutmaslik kerak (1-rasm).

1 - rasm. Fan asoslari orasidagi aloqalar

Predmetlararo aloqadorlik bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sohasida ham, ijodiy faoliyat va borliqdagi o‘zlashtiriladigan obyektlarga hissiy-qadriyatli munosabatni shakllantirishda ham o‘rnatilishi kerak.

Predmetlararo bilish masalalarini yechish jarayonida talaba o‘z faolligini tanish predmet bilimlarini mavjud bo‘lgan noma’lum munosabatlarni izlashga yoki aniq o‘rnatilgan predmetlaro aloqalar asosida yangi tushunchalarni shakllantirishga safarbar etadi. Predmetlararo aloqalarni o‘zlashtirishdagi tajriba natijasida olingan bilimlar bilish faolligini rejalashtiradi.

Yu.V. Sidorova fikricha, fanlararo aloqadorlik o‘quvchilar ongida axboriy bilimlarning to‘planishini ta’minlab qolmasdan, balki uning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, shu nuqtayi nazardan kasb-hunar ta’limida o‘quvchilarga axboriy

bilimlarni politexnik harakterga ega bo‘lgan amaliy masalalarni yechish va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish zarur [1].

Integrallashgan o‘quv kurslari o‘quvchilarda dunyoning yaxlitligi haqida bir butun tasavvur hosil qilishga ko‘maklashishi, har bir o‘quv predmetining mazmuni nafaqat muayayn o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan mavzularni, balki moddiy borliq hodisalarini ham o‘zida mujassamlashtirgan holda ifodalashi lozim.

S.M.Vishnyakovning e’tirof etishicha, integrallashgan dars, binar dars, qo‘shma dars o‘quv mashg‘ulotining alohida turi bo‘lib, unda ikki yoki bir necha o‘quv fanlari (fizika va elektrotexnika)ning o‘zaro bog‘liq o‘quv materiallari o‘rganiladi; bunday darslarni bir o‘quv predmeti materiallarini bilish ikkinchi o‘quv fani materiali mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan hollarda tashkil etish maqsadga muvofiq. integratsiyalashgan dars, odatda, o‘zaro bog‘liq fanlarning ikki o‘qituvchisi yoki ishlab chiqarish ta’limi ustasi va maxsus fan o‘qituvchisini tomonidan o‘tkaziladi [2].

Pedagogika fanlarini o‘rganish intizomiy mantiq doirasida (iloji bo‘lsa) ilmiy fanlar har bir ro‘yxatini o‘rganish qachon (bizning holda, "tarix - nazariyasi - metodologiyasi va texnologiya - amaliyot") taqdim etilishi mumkin, bu maqsad amalga oshirish uchun hissa qo‘shadi - sifat kelajakda o‘qituvchi pedagogik ta’lim darajasini oshirish, amaliyotlar turli birlashtirgan nazariy va uslubiy ta’lim - ijtimoiy va ijodiy faoliyat amaliyotiga ta’lim muassasasida pedagogikadan tortib ijtimoiy va ijodiy faoliyat amaliyotigacha yordam beradi [3].

Endilikda ta’lim amaliyotida an’anaviy, tizimli, texnologik, tadqiqiy, funksional, majmuaviy, integrativ va boshqa yondashuvlar keng qo‘llanishini inobatga olib, ta’limda yondashuvlar quyidagi tavsiflarni o‘z ichiga oladi.

Texnologik yondashuv. Texnologik yondashuv ta’lim jarayonini o‘zaro uzviy bog‘liq bosqichlarga ajratish; qo‘yilgan maqsadga erishish uchun bajariladigan amallarni muvofiqlashtirish va ma’lum ketma-ketlikda amalga oshirish; loyihalashtirilgan ish va amallarni bir xil talab asosida bajarishni nazarda tutadi. O‘quv materiali o‘quv maqsadiga mos tuziladi, ayrim qism yoki modullarga ajaratiladi. Texnologik yondashuv o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Tadqiqiy yondashuv. Bunda o‘quvchida muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirish, ularning yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishi, tashabbus ko‘rsatishiga ko‘proq e’tibor beriladi. Tadqiqiy yondashuvda o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyati, shaxsiy tashabbusi qo‘llab-quvvatlanadi, fikr va qiziqishi oldingi o‘ringa qo‘yiladi, ta’lim hamkorlikka asoslanadi.

Integrativ yondashuv. Integrallashgan ta’lim o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. U nafaqat o‘quv-bilish faoliyatini jadallashtirish, tizimlashtirish, maqbullashtirish, balki ta’lim oluvchilarning umumiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv yoki predmetlararo bog‘lanish ta’lim-tarbiya ishlarini kuchaytirish vositasidir. Predmetlararo bog‘lanish asosida ta’lim oluvchilarga qadriyatlarga oid bilimlar beriladi, ularda amaliy o‘quv faoliyatida zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar, dialektik qarashlar shakllantiriladi.

Quyida o‘quv predmetlari va o‘quv rejalarini mantiqiy tuzish shartlari kelitirilgan (2-rasm).



2 - rasm. O‘quv predmetlari va o‘quv rejalarini mantiqiy tuzish shartlari

O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva o‘quv rejalariga turli yohud yondosh o‘quv predmetlariga oid bilim, tushuncha, malaka va ko‘nikmalarni uyg‘un rivojlantirish unsurlarining kiritilishi, o‘quv predmetlarini integratsiyalashtirish, ular o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlash uchun asos bo‘ladi [4].

Predmetlararo aloqalarni joriy etish o‘quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi; ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, moddiy dunyoni, uning rivojlanishining bir butun tasvirini ilmiy tassavur qilish bilan qurollantiradi; turli fanlardan darslarda olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni majmuaviy ravishda qo‘llash va mustahkamlash imkoniyatini yuzaga keltiradi

O‘quv jarayoniga tegishli axborotni kompyuter vositasida: birinchidan, o‘rganilayotgan axborotni (obyektni, uning tarkibiy tuzilishi va ko‘rinishini kompyuter qurilmalarida namoyish qilish, o‘rganilayotgan obyekt axborotini (kompyuter vositasida kechadigan jarayon tasvirini va modelini, shu jumladan, tadqiq qilinayotgan obyektdagi jarayonning qonuniyatlarini grafik tarzda namoyish qilish) ko‘zga ko‘rinadigan qilish;

Bugungi kunda ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish va ularni axborotlashgan jamiyat sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash, ta’limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish kabi masalalarni hal qilish zarur.

Adabiyotlar

1. Сидорова Ю.В. Формирование общих и Муҳандисликьных компетенций студентов среднего Муҳандисликьного образования / Ю.В. Сидорова. // Педагогическое образование в России. - №6. - 2012. – 131-135 с.

2. Вишнякова С.М. Профессиональное образование. Словарь. – М.: «Новь», 1999 – 535 с.

3. Адилов Н. Х. About the integration of educational subjekst in the system of higher professional education. Special Issue No: 9, Avgust 2020 Novateur publication Indias. A Multidisciplinary Peer Reviewed journal impact factor 7.223 107-108 б.

4. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. –Т.: «Фан», 2005. 206 б.

TALABALARNING FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINING TUTGAN O‘RNI

Umarov J.S. – Toshkent davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchi

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitishning nazariy tavsifi, ustuvor tamoyillari va muhim yondashuvlari hamda oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitishning mavjud holati xususida so‘z yuritganimizda eng avvalambor fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda “Huquqiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti” tushunchasiga aksariyat holatlarda e’tibor qaratishimiz zarur bo‘ladi. Shunga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishda huquq fanlarini o‘qitish metodikasi o‘quv fanining umumiy mohiyati, yetakchi g‘oyalari, didaktik imkoniyatini yetarlicha anglab olish taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, huquq , ustuvor, tamoyil, yondashuv, oliy, muassasa, fuqarolik, savodxonlik, nazariya, metodika, g‘oya didaktik, imkoniyat.

РОЛЬ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Умаров Дж.С. – самостоятельный исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Говоря о теоретической характеристике, приоритетах и важных подходах к преподаванию права в университете, а также о современном состоянии преподавания права в высшей школе, необходимо ориентироваться на понятие «Теория и практика юридического образования» в развитие гражданской грамотности. Соответственно, при совершенствовании теории и практики юридического образования в высших учебных заведениях, методики преподавания юридических наук требуется достаточное понимание общей сущности предмета, ведущих идей, дидактического потенциала.

Ключавой слова: образование, право, приоритет, принцип, подход, высшее, учреждение, гражданство, грамотность, теория, методология, дидактическая идея, возможность.

THE ROLE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CIVIC LITERACY

Umarov J.S. - Freelance researcher at Tashkent State Pedagogical University

Annotation. Speaking about the theoretical characteristics, priorities and important approaches to teaching law at the university, as well as the current state of teaching law in higher education, it is necessary to focus on the concept of "Theory and practice of legal education" in the development of civic literacy. Accordingly, when improving the theory and practice of legal education in higher educational institutions, the methods of teaching legal sciences, a sufficient understanding of the general essence of the subject, leading ideas, and didactic potential is required.

Key words: education, law, priority, principle, approach, higher, institution, citizenship, literacy, theory, methodology, didactic idea, possibility.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng islohatlar bugungi zamon talablari va ehtiyojlariga har jihatdan javob beruvchi mutlaqo yangi tipdagi huquq tizmini shakillantirishga yo‘naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki jamiyatda huquqiy jihatdan demokratiyaning rivojlanishi, mamlakatdagi joriy qonunlarning mustahkamlanishi va ularga fuqarolarnining tartibli roya qilishi, ayniqsa yoshlarimizning o‘z identikligini, huquq, burch va erkinliklarini to‘g‘ri anglagan

holda ulardan samarali foydalanishi, Vatan, oila oldidagi majburiyatlarini aqlan va vijdonan bajarishi, o‘z hayotiy faoliyatlarida qonunga doimiy ravshda asoslanishilari bilan belgilanadi. Zero, jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi yoshlarning qay darajada o‘z identikligini anglagan holda qonunlarga ongli ravshda amal qilishi bilan muhimdir. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimiz kelajagi sanalmish yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasi davlatimiz oldidagi strategik ahamiyatga ega vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirish vazifasining dolzarb ahamiyatliligi shundaki, yoshlarning har biri avlodi o‘zlaridan oldingi avlodlar tajribasini o‘rganib, o‘zgarayotgan yangi ijtimoiy, sotsial munosabatlarni anglash, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o‘z munosib hissasini qo‘shishga intilishlaridadir. Bu jarayon esa o‘z navbatida, fuqarolarimiz ayniqsa yoshlarimiz huquqiy madaniyatini takomillashtirishning yangi metod va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bu boroda, Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro xuquqiy xujjat – BMTning yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi halqaro konvensiyasini ishlab chiqish taklifi halqaro jamoatchilikka bildirildi.[1] O‘zbekistonda BMT bilan hamkorlikda ilg‘or horijiy tajriba asosida tarbiyasi qiyin bo‘lgan bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. [2]

Halq ta’limini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rgangan holda umumta’lim muassalarida o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish va maktablarda nizolarni hal qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha samarali ichki tizim, shuningdek o‘quvchilarni xavf guruhidan chiqarish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.[3]

Chunki, jamiyatda mavjud bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy-sotsial muammolar orasida eng dolzarbdan biri ayrim oilalardagi yoshlarning huquqbuzarlik va jinoyatchilikka moyilligi, ularning xatti-harakatlarida deviant xulqning shakllanishini belgilaydigan ichki va tashqi sabablar borligidir. Bu sabab globallashuv jarayonidagi axborotlarning fuqarolar onu-tafakkuriga turli xil shakillarda ta’sir etishi, fuqarolarninig ayniqsa yoshlarning sotsial hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, gohida ijobiy, gohida esa salbiy jihatlari ommaviy madaniyatning qudratli vositaga aylanib yoshlar xulqida o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Shuningdek yoshlarning sotsial hayotidagi turli salbiy ommaviy madaniyat ko‘rinishlari, yoshlarning turmush tarziga urf bo‘lib kirayotgani yangicha deviant xulq-atvor namunalarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ommaviy madaniyat globallashib borayotgan zamonaviy jamiyatdagi axobotlar tufayli yoshlardagi ijtimoiy-ruhiy va intellektual o‘zgarishlar natijasida qaysarlik, depressiv holatlar hamda ommaviy

madaniyatga xos so‘zlashuv ritorikasi kabi xususiyatlar yoshlar xulqida deviantlik omili sifatida ko‘zga tashlanmoqda.

Shuning uchun ham Prezident Shavkat Mirziyoev yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan mas’uliyatli vazifa ekanligini ta’kidlab: “Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas” [4], deya takidlaydilar.

oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitishning nazariy tavsifi, ustuvor tamoyillari va muhim yondashuvlari hamda oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitishning mavjud holati xususida so‘z yuritganimizda eng avvalambor fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda “Huquqiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti” tushunchasiga aksariyat holatlarda e’tibor qaratishimiz zarur bo‘ladi. Shunga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishda huquq fanlarini o‘qitish metodikasi o‘quv fanining umumiy mohiyati, yetakchi g‘oyalari, didaktik imkoniyatini yetarlicha anglab olish taqozo etadi.

Ma’lumki, huquq fanlarini o‘qitish metodikasi bu ta’lim muassasasining faoliyat yo‘nalishi, sohani rivojlantirish konsepsiyasining mohiyati, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-huquqiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni inobatga olgan holda yuridik materiallarni tanlash asosida talabalarni nazariy va amaliy jihatdan kasbiy faoliyatga tayyorlashga, huquq ta’limi sifatini yaxshilash, o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim shakli, metodi, vosita hamda texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv fanlari yig‘indisi bo‘lib hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida huquq fanlarini o‘qitish tegishli o‘quv fanlari bilan talabalar huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining oldini olishda oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “O‘zbek adabiyoti”, “O‘zbekiston tarixi”, ijtimoiy-gumanitar fanlar: “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Davlat va huquq asoslari”, “Tarbiya” kabi fanlar talabalarning huquqiy savodxonlik saviyasining o‘sishiga, dunyoqarashini shakllantirishga, didaktik jarayonda ta’labalarning ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirishga, (“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” hamda huquq fanlari – davlat va huquq asoslari, ma’muriy huquq, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, jinoyat huquqi, ekologik huquq)dan talabalarga nazariy hamda amaliy bilimlar berib, mustaqil dunyoqarash, ish yuritish, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishiga kasbiy faoliyatda samarali foydalanish malakasini rivojlantirishga yordam beradi.[5]

Demak, har bir o‘quv fanini o‘qitish aniq belgilangan maqsad asosida tashkil etish orqali talabalarning oliy ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirish muammosini hal qilishda tegishli o‘quv fanining

nazariy-metodologik asoslari, o‘ziga xos xususiyatlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish orqali muhim ahamiyatga kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, huquq fanlarini o‘qitish metodikasi, talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yo‘nalishi, sohani rivojlantirish konsepsiyasi mohiyati, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-huquqiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni inobatga olgan holda yuridik materiallarni tanlash, ulardan talabalarni xabardor qilish va kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi o‘quv fanlari kompleksi bo‘lib ham hisoblanadi.

Ayni vaqtda, huquq fanlarini o‘qitish metodikasi oliy ta’lim muassasalarining “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida o‘qitilmoqda va ularning fuqarolik savodxonligini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida huquq fanlarini o‘qitish metodikasining predmetini huquqiy ta’lim konsepsiyasi mazmuni (DTS, o‘quv dasturi, darslik, o‘quv-metodik qo‘llanma, metodik tavsiyanoma, metodik ishlanma va nazorat topshiriqlari), o‘qitishning tashkiliy usullari, vositalari va texnologiyalarining majmui tashkil etadi.

Huquq fanlarini o‘qitish metodikasining maqsadi – tegishli ixtisoslik bo‘yicha kasbiy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy-huquqiy bilimlarni talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirishga erishish, amaliyotda ulardan samarali foydalanish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish orqali kasbiy-huquqiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishlarini ta’minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.[6] Yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, ular orasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish, bu borada pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish, talabalarning huquqiy ongini rivojlantirish orqali ularning huquqiy bilimning yetarli emasligi tufayli bazi bir kamchiliklari ham ko‘zga tashlanadi bular: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar, o‘z ustida mukammal ish olib bormaslik va xakozolar.

Shunday ekan yoshlarni tashqi muhitning ta’siri natijasida vujudga keladigan nuqsonlar, chunonchi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, ham tarbiyasi qiyin yoshlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Talabalar ya’ni yoshlar yetuk komil inson qilib tarbiyalashda ulardagi ba’zi bir kamchiliklarni barta’raf qilishimiz zarur masalan:

1. Shaxsning ruhiy kamolotidagi nuqsonlar: aqlning ojizligi, irodaning zaifligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanmaganligi, o‘spirindagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi, shaxsda hissiyotning sust rivojlanganligi vaxayotga bo‘lgan qiziqishning pastligi.

2. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar: axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar, talabalarning talabalar, guruh jamoasi va oila a’zolari bilan

muloqotidagi zaifliklar, mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar, axloqiy tarbiyasidagi kamchiliklar, bo‘sh vaqtni taqsimlashdagi xatolar, salbiy xatti-harakat yurituvchi guruhlar ta’siriga tushib qolish.

3. Oldingi ta’lim bosqichlarida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar: ta’lim jarayonida bilimlar va xatti-harakatlarni adolatsiz baholanishi, bilimlar, maxsus ko‘nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar.

4. Ta’lim muassasasi tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (talabaning atrofidagilariga nisbatan xayrixoh emasligi, empatiya hislarining mavjud emasligi, yoshlarning yakkalanishi, yoshlar jamoasidagi nuqsonlar, va h.k.).

Talabalarning fuqorolik savodxonligini rivojlantirishda ularda eng avvalom bor qonuniylik, insonparvarlik, tizimlilik, ishontirish usulining ustuvorligi, ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlarini farqlash kabi xislatlarini shakllantirish zarur.

Asosan yoshlarning huquqbuzarliklari va jinoyatchiligining oldini olishda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta’lim hamda tarbiya muassasalari bilan o‘zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun respublikamizda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil yoki uni sodir etgan og‘ir tarbiyali, muammoli o‘smir yoshidagi (adektiv xulqli)lar bilan ishlash, ularni tarbiyalash va qayta tarbiyalash tizimining samarali faoliyatini tashkil qilish lozim.

Xususan, yoshlarning oilaviy sharoitini o‘rganish va ota-onasiga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish; yoshlarning qiziqishlarini e’tiborga olgan holda turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarga muntazam ravishda jalb qilish;

Xulosa sifatida bayon qilingan mulohazalar asosida yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda, fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda huquqiy bilimdonlikni shakllantirish jihatlari ortib bormoqda. O‘zbekistonda yoshlarni barkamol, har tomonlama yetuk fuqarolar qilib tarbiyalash borasida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida yuksaltirish amaldagi mavjud qonun hujjatlarini ular ongiga singdirish bilan birga oiladagi sog‘lom muhitni shakillantirib borishdan iborat. Buning uchun esa, birinchi galda yoshlar ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratish, shaxs sifatida ularning o‘zligini anglashni kuchaytirish, milliy qadiriyatlar urf-odatlarni ularning ongiga singdirib, chin vatanparvar, o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglagan, bilimli, yetuk salohiyat va aqliy tafakkurga ega huquqiy ong va madaniyati yuksak qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. lex.uz/m/acts/3864155
http://uzedu.uz/Xtv/IndexBatafsil/71?ID1=1394

2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2019 й., 06/19/5712/3034-сон

3. Шавкат Мирзиёев. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. – Т.: Ўзбекистон, 2017.- Б. 21

4. Kadirova. Ya.B. Issues of Civil Literacy Development in the Education System. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, pp 5477-5489. Retrieved from. 2021.Volume 25: lssue 4 (https://www.annalsofrscb.ro/index. php/journal/issue/view/28).

5. Kadirova. Ya. Legal basis of formation of civic culture in students. Journal Of Information And Computational Science. Vol. 1 Issue 2, June – 2021, pp.35-48

6. https://www.sciencepublish.org/index.php/ics

O‘ZBEKISTONDA TURAR JOY MASALASINING HUQUQIY ASOSI VA SOHANING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

Rajabova M.B. - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholini takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda rivojlantirish, xususiy uy-joylar bilan ta’minash, zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lgan yangi va ko‘rkam uy-joy massivlarini barpo etish – mamlakatimiz qiyofasini har tomonlama obod qilishga qaratilgan, istiqbolga mo‘ljallangan muhim vazifalarni amalga oshirilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: muhandislik infratuzilmalar, ipoteka krediti, uy-joy bozori, marketing, maishiy obyektlar.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ЖИЛИЩНОГО ВОПРОСА В УЗБЕКИСТАНЕ И ГОСУДАРСТВЕННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ОТРАСЛИ

Раджабова М.Б. - базовый докторант кафедры истории Чирчикского государственного педагогического института Ташкентской области

Аннотация. В данной статье описывается строительство нового жилья на основе усовершенствованных современных проектов, комплексное развитие сельских поселений, обеспечение индивидуальным жильем, строительство новых и привлекательных жилых массивов с современной инженерной,

транспортной и социальной инфраструктурой, важные задачи на будущее, направленные на всестороннее улучшение имиджа нашей страны.

Ключевые слова: инженерная инфраструктура, ипотека, рынок жилья, маркетинг, жилье.

THE LEGAL BASIS OF THE HOUSING ISSUE IN UZBEKISTAN AND STATE REGULATION OF THE INDUSTRY

Rajabova M.B. - Basic doctoral student of the Department of History of Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

Annotation. This article describes the construction of new housing on the basis of improved modern projects, integrated development of rural settlements, provision of private housing, construction of new and attractive housing estates with modern engineering, transport and social infrastructure. It is stated that the implementation of important tasks for the future, aimed at the comprehensive improvement of the image of our country.

Key words: engineering infrastructure, mortgage, housing market, marketing, housing.

Aholini takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda rivojlantirish, xususiy uy-joylar bilan ta’minash, zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lgan yangi va ko‘rkam uy-joy massivlarini barpo etish – mamlakatimiz qiyofasini har tomonlama obod qilishga qaratilgan, istiqbolga mo‘ljallangan muhim vazifalarni amalga oshirilishi qator normativ huquqiy xujjatlar bilan tartibga solingan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Shaharsozlik kodeksi [1], hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori [2]shular jumlasidandir.

Shuningdek, bu sohani yanada rivojlantirish va qishloq joylarida aholini xususiy uy-joylar bilan ta’minlash maqsadida so‘ngi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1083-sonli [3], “Qishloq joylarida uy-joylarni qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1167-sonli [4], ”Qishloq joylarida uy-joylarni loyihalashtirishni takomillashtirish va qurilishni yaxshilash borasida qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1403-sonli [5] qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun “Qishloq qurilish bank”

aksiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 148-sonli, “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi ishtirokida uy-joylar qurishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 280-sonli qarorlari qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq joylarida uy-joylarni qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1167-sonli Qaroriga binoan “Qishloq qurilish bank” OATB ga quyidagi vazifalari yuklandi:

- uy-joy bozorini marketing jihatdan o‘rganish va buning asosida qurish massivlarini, barpo etiladigan uy-joylar, ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar va muhandislik infratuzilmalari tarkibi hamda tuzilmasini tanlab olish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- qishloq aholi punktlarida yakka tartibdagi yangi uy-joylar shuningdek, ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar va muhandislik infratuzilmalarini “tayyor holda topshirish” shartlarida buyurtmachi funksiyalarini shartnoma asosida bajarish, moliyalashni tashkil etish va qurilishning borishi ustidan texnik nazorat o‘rnatish;

- aholi buyurtmanomalariga muvofiq uy-joylar, shuningdek namunaviy loyihalar bo‘yicha “tayyor holda topshirish” shartlarida ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish buyurtmalarini obyektlarni sifatli qurishni ta’minlab bera oladigan amaldagi va yangi tashkil etilayotgan pudratchi qurilish tashkilotlari o‘rtasida tanlov asosida joylashtirish;

- keyinchalik OATB “Qishloq qurilish bank” tomonidan beriladigan imtiyozli kreditlar hisobidan uzil-kesil hisob-kitob qilingan holda namunaviy loyihalar bo‘yicha qurilgan yakka tartibdagi uylarni aholiga berish, muhandislik infratuzilmasi, ijtimoiy-madaniy va sanitariya-maishiy ahamiyatdagi obyektlarni ekspluatatsiya tashkilotlariga topshirishdir.

Bundan tashqari, kompaniyaning quyidagi faoliyat doirasi belgilandi:

- uy-joy bozorini marketing jihatdan o‘rganish hamda aholining buyurtmalari asosida har yili 1-oktyabrgacha mintaqalar doirasida quriladigan uy-joylar va ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar hajmi, tarkibi va tuzilmasi bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

- marketing jihatdan o‘rganish natijalari asosida 1 noyabrgacha bo‘lgan muddatda qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon fondi yerlari toifasiga kirmaydigan yer massivlari tanlaydi;

- tanlangan yer massivlarida namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy va ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar qurilishini tashkillashtiradi;

- aniq yer uchastkasi va namunaviy loyihani tanlagan yakka tartibda imorat quruvchi “tayyor holda topshirish” sharti bilan turar-joy binosini qurishda buyurtmachi vazifasini bajaradi;

- yakka tartibda imorat quruvchi bilan tuzilgan shartnoma asosida “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi buyurtmachi sifatida “tayyor holda topshirish” sharti bilan namunaviy loyiha bo‘yicha yakka tartibdagi turar-joy binosi qurilishi yuzasidan barcha ishlar kompleksini tashkil etadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 148-sonli [6] Qaroriga ko‘ra ipoteka krediti berish shartlari qarz oluvchiga bo‘lgan talablar quyidagilar:

- ipoteka krediti 6 oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga beriladi;

- ipoteka krediti miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda belgilanadi;

- qishloq joylarida yashaydigan, ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga;

- oxirgi 12 oy mobaynida doimiy ish joyiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo‘jaligidan yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga, shuningdek, ipoteka krediti bo‘yicha hisoblab yozilgan foizlarni va asosiy qarzni to‘lov jadvaliga muvofiq har oyda to‘lash uchun yetarli bo‘lgan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromad manbaiga ega bo‘lgan shaxslarga;

- barpo etilayotgan uy-joy smeta qiymatining yoki bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining va barpo etilayotgan uy-joy smeta qiymatining kamida 25 foizi summasidagi qurilish materiallari qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang‘ich badal uchun mablag‘ga ega bo‘lgan shaxslarga;

- kredit tashkilotlaridan kreditlar bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan qarzi bo‘lmagan shaxslarga beriladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi ishtirokida uy-joylar qurishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 280-sonli [7] qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 3-avgustdagi PQ-1167-sonli [4] qaroriga asosan Qishloq qurilish bank” OATB tomonidan namunaviy loyihalar bo‘yicha uy-joy qurilishida yakka tartibda imorat quruvchilarga ko‘mak berish uchun respublikaning har bir mintaqasida o‘z filialiga ega “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan sho‘ba injiniring kompaniyasi tashkil etilib, uning asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- uy-joy bozorini marketing jihatdan o‘rganish hamda aholining buyurtmanomalari asosida har yili 1-oktyabrgacha mintaqalar doirasida quriladigan uy-joylar va ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar hajmi, tarkibi va tuzilmasi bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

- marketing jihatdan o‘rganish natijalari asosida 1-noyabrgacha bo‘lgan muddatda qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon fondi yerlari toifasiga kirmaydigan yer massivlarini tanlaydi;

- tanlangan yer massivlarida namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy va ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlar qurilishini tashkillashtiradi;

- aniq yer uchastkasi va namunaviy loyihani tanlagan yakka tartibda imorat quruvchi “tayyor holda topshirish” sharti bilan turar-joy binosini qurishda buyurtmachi vazifasini bajaradi;

- yakka tartibda imorat quruvchi bilan tuzilgan shartnoma asosida “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi buyurtmachi sifatida “tayyor holda topshirish” sharti bilan namunaviy loyiha bo‘yicha yakka tartibdagi turar-joy binosi qurilishi yuzasidan barcha ishlar kompleksini tashkil etadi.

Mamlakatda aholining uy-joyga bo‘lgan talablarini o‘rganish va xususiy uy-joylar bilan ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni amalga oshirish, bu jarayonlarni tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank, “Davlatarxitektqurilish” qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi, OATB “Qishloq qurilish bank”, “Qishloqqurilishinvest” IShIK, “Qishloqqurilishloyiha” MChJ va boshqa mas’ul idoralar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda barcha zarur ijtimoiy va kommunikatsiya infratuzilmasiga ega bo‘lgan, izchil rivojlanib borayotgan o‘ta yirik uy-joy bozori shakllanmoqda. Qishloq joylarini tabiiy iqlim sharoiti va relyefining, hududlarning ijtimoiy, demografik xususiyatlarini inobatga olgan, zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini qo‘llagan holda, yakka tartibda quriladigan uylar, ijtimoiy, madaniy va sanitariya, maishiy obyektlar loyihalarini takomillashtirish ishlari va ushbu bo‘yicha normativ-huquqiy bazani yaratish tadbirlari izchil davom ettirilmoqda.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Shharsozlik kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021 y., 03/21/676/0142-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 29-yanvardagi “Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1051-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 yil, 5-son, 38-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-martdagi “Qishloq qurilish bank” aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida" PQ-1083-son

Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 3-avgustdagi “Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1167-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 9.06.2020 y., 06/20/6011/0780-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 8-sentyabrdagi “Qishloq joylarda uy-joylarni loyihalashtirishni takomillashtirish va qurilishni yaxshilash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1403-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010, 37-son, 320-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 25-maydagi “Tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun “Qishloq qurilish bank” aktsiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”148-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012, 11-son, 119-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 26-oktabrdagi “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida “qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi ishtirokida uy-joylar qurishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 280-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.06.2021 y., 06/21/6243/0540-son.

MAKTAB BIOLOGIYA TA’LIMIDA TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENSIYALAR TIZIMI

Jumaniyozova N.X. – Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya ta’limi O‘quv dasturi asosida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar bilan birgalikda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirilish mazmuni haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, kompetensiyalar, tayanch kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar

СИСТЕМА КЛЮЧЕВЫХ И ПРЕДМЕТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ШКОЛЬНОМ БИОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Джуманиязова Н.Х. - докторант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание формирования предметных компетенций у учащихся наряду с ключевыми компетенциями на основе учебной программы по биологии.

Ключевые слова: биологическое образование, компетенции, ключевые компетенции, предметные компетенции.

THE SYSTEM OF KEY AND SUBJECT COMPETENCIES IN SCHOOL BIOLOGICAL EDUCATION

Jumaniyozova N.X. - Doctoral student of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the content of the formation of subject competencies in students along with key competencies based on the curriculum in biology.

Key words: biological education, competencies, key competencies, subject competencies.

Biologiya tirik organizmlarning kelib chiqishi, turli-tumanligi, tuzilishi, rivojlanishi hamda ularda sodir bo‘ladigan hayotiy jarayonlar, tashqi muhit bilan aloqasi, moslashishi haqidagi fandir.

O‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfida biologiyaga kirish o‘qitilib, unda biologiya fani haqidagi dastlabki ma’lumotlar beriladi, 6-sinfda biologiya (botanika)da o‘simliklar, 7-sinfda biologiya (zoologiya)da hayvonot olami, 8-sinfda biologiya (odam va uning salomatligi)da odam organizmi va undagi jarayonlar haqida, 9-sinfda biologiya (sitologiya va genetika asoslari)da esa, umumiy biologik qonuniyatlarning boshlang‘ich tushunchalari o‘qitiladi.

O‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitishning maqsadi – o‘quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, ko‘payishi, kelib chiqishi, xilma-xilligi, o‘zaro munosabatlari, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishdan iborat[2].

O‘rta ta’lim muassasalarida biologiya o‘quv fanini o‘qitishning vazifalari:

- asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish;
- tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlarining vujudga kelishi mexanizmlari haqida ma’lumot berish;
- organizmlarning individual va tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari bilan tanishtirish;

- o‘quvchilarni o‘zlarining va o‘zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga yo‘naltirish;
- biologiya ta’limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog‘lanishini ta’minlash asosida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;
- tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;
- biologik bilimlar zaminida mahalliy o‘simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi olimlarning biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

O‘rta ta’lim maktablari biologiya ta’limida o‘rganilgan o‘quv materiallarining takrorlanmasligi, o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari, o‘rta ta’lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda biologik tushunchalarni asta-sekin oddiydan murakkabga shakllantirish e’tiborga olingan.

Biologiya ta’limi o‘quv dasturi asosida o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko‘ra, biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi **tayanch kompetensiyalar** shakllantirilib boriladi[1]:

Kommunikativ kompetensiya:

- o‘quvchi biologik tushunchaga ega bo‘lishi, o‘z ona tilida hamda birorta xorijiy tilda dastlabki tushunchalarni ishlata olishi.
- mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan o‘quv topshiriqlari va o‘qituvchining savollariga yozma va og‘zaki javob berishda ta’lim olayotgan til me’yorlariga rioya qilish; kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etish.
- maktab, mahalla, jamoat joylari, oilada, sinfda o‘rtoqlari bilan ma’naviy-axloqiy me’yorlarga amalga qilgan holda muloqotga kirishish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

- o‘quvchi biologiya fanining yangiliklari, rivojlanishi bo‘yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni ilmiy-ommabop materiallardan foydalanib, zarur ma’lumotlarni izlab topa olishi;
- darslikning kirish qismida berilgan ko‘rsatmalar asosida o‘rganilgan mavzu matniga reja tuza olish;
- matndan foydalanib savollarga javob topish, amaliy harakterdagi topshiriqlarni bajara olish.
- mediamanbalardan izlab topilgan ma’lumotlarni saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish.
- jadval, diagramma, sxemalar tuza olish, tushuncha, qoidalarni topa olish;

- media vositalardan hayvonot olami haqidagi ma’lumotlar va axborotlarni izlab topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

- biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish;
- tabiatda o‘z xatti-harakatlari bilan o‘zini nazorat qila olish.
- o‘zini o‘zi ma’naviy, ruhiy va intellektual rivojlantirishi, hayot davomida mustaqil holda o‘qib-o‘rganishi, bilim va tajribani muntazam oshirib borishi zarur.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- o‘quvchi biologiya fanining ilmiy-amaliy soha ekanligini, uning inson va tabiatdagi ahamiyatini anglash, biologiya fani o‘rganadigan obyekt, hodisa, jarayonlarni, tirik organizmlar ustida kuzatish va tajribalar olib borish.
- jamiyatda o‘z o‘rnini bilgan holda tabiatdagi voqea va jarayonlarga daxldorlikni his etish.
- tirik organizmlarning o‘ziga xos jihatlarini bilishi, ularning salbiy tomonlarini o‘zidan kichik bo‘lgan yoshlarga o‘rgatish jarayonida faol ishtirok etishi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

- biologiya darslari, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ta’lim va tarbiyaning uzviyligiga, estetik va axloqiy tarbiyaga e’tibor qaratish;
- insonlarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashini hurmat qilishi.
- madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.
- badiiy-ijodiy qobiliyatlarini namoyish qila olishi (turli grafik rasmlar, referatlar, xabarlarning dizayni).
- *Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:*
- - o‘quvchi kattalashtirib ko‘rsatuvchi asboblar va buyumlarni necha marta kattalashtirishini hisoblay olishi, mikroskoplar bilan ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirgan bo‘lishi.

- fanga doir masala va mashqlarni mustaqil ravishda yecha olishi, standart topshiriqlarni bajara olish.

Mazkur tayanch kompetensiyalar biologiya fanidan dars jarayonida uzluksiz ravishda shakllantirib boriladi. Buning uchun yuqorida keltirilgan tayanch kompetensiyalar har bir sinf o‘quvchilari uchun alohida belgilab olinadi hamda o‘qituvchi tomonidan uning yil davomida o‘quvchilarda o‘sish dinamikasi kuzatilib borilib, sinf jurnalining belgilangan sahifasida qayd qilib boriladi.

Shuningdek, biologiya fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda **fanga oid umumiy kompetensiyalar** ham shakllantiriladi[3].

1. Biologik obyektlarni tanish, ularda boradigan jarayonlarni tushunish va izohlash kompetensiyasi:

Biologiya fanidagi kashfiyotlarning ahamiyati, tirik tabiatning qonuniyatlari, biologik xilma-xillik haqida, atamalar, xususiy va umumbiologik tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, gipotezalarning mazmun-mohiyatini tushunadi, o‘z fikrini bayon eta oladi va asoslaydi, tushunchalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi, xulosalar chiqara oladi.

Biologik obyekt, hodisa, jarayonlar (tur – asosiy sistematik birlik; tur mezonlari; evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchlari: irsiy o‘zgaruvchanlik, yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish; evolyutsiya natijalari: turlarning xilma-xilligi, organizmlarning turli muhit sharoitlariga moslanuvchanligi)ning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rgazmali vositalar asosida taniydi, mohiyatini tushungan holda yozma, og‘zaki tavsiflay oladi [7].

Tirik organizmlarning o‘zaro va tashqi muhit bilan munosabatlarini, organizmlarga ekologik omillarning ta’sirini, ekosistema va unda organizmlarning o‘zaro munosabatlari, oziq zanjiri, oziq to‘ri, biosfera – global tizim; biosferada modda va energiyaning davriy aylanishini, biosferada insonning rolini, ekologik muammolarni, ekosistemalarda inson faoliyatining oqibatlarini tushunadi, mohiyatini yoritib bera oladi.

Axborotlarning turli manbalari (darslik, o‘quv qo‘llanmasi, ilmiy-ommabop adabiyotlar, biologik lug‘atlar, ensiklopediyalar, elektron-axborot ta’lim resurslari va hokazolar) bilan ishlay oladi, kerakli ma’lumotlarni ajrata oladi, ma’lumotlarni tahlil qiladi va amalda qo‘llay oladi[4].

Tirik tabiatning qonuniyatlari, biologik xilma-xillik, xususiy va umumbiologik tushunchalar, biologik qonuniyatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladi va biologiyadan olgan bilimlarini hayotda qo‘llay oladi.

2. Biologik obyektlarda boradigan jarayonlarni kuzatish, tajribalar o‘tkazish va xulosa qilish kompetensiyasi:

Atrof-muhit bilan tirik organizmlarning uzviyligi va o‘zaro aloqasi, ekologik sharoitga ko‘ra tirik organizmlarning moslanishi va tarqalishini o‘rganish uchun tabiatda kuzatish va tajribalarni aniq maqsad va reja asosida tizimli tarzda olib bora oladi, ma’lumotlar to‘playdi, natijalarni qayd etadi, xulosa chiqarish va rasmiylashtirish ishlarini amalga oshira oladi [5].

Didaktik va tarqatma materiallar, laboratoriya jihozlari, kimyoviy reaktivlar bilan ishlay oladi, ekotizimlarning oziq zanjirini tuza oladi, tabiatda va biologiya o‘quv xonasida xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi.

Biologik obyekt, hodisa, jarayonlar ustida aniq maqsad va reja asosida tajriba va kuzatishlarni tizimli tarzda olib bora oladi, muayyan mavzular yuzasidan laboratoriya mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda bajaradi, olingan natijalarni tahlil qila oladi.

3. Sog‘lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya:

Sog‘lom turmush tarzi me’yorlariga rioya qiladi, o‘zining va o‘zgalarning sog‘lig‘ini asrash va qadrlash, organizmidagi o‘zgarishlarni nazorat qilish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, jismoniy mehnat va aqliy faoliyatni uyg‘un ravishda amalga oshirishning ahamiyatini biladi;

- ekologik madaniyat asoslari: insoniyat va tabiatning uzviyligi, inson salomatligiga ekologik omillarning ta’siri, tabiatda inson faoliyatining ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qila oladi, tabiat va boshqa kishilar bilan munosabatda o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara oladi;
- tabiat va uning boyliklarini asrash, qadrlash, biologik xilma-xillikni saqlash va uni ko‘paytirishda ishtirok eta oladi.

Tabiat – inson – jamiyat munosabatlarini anglagan holda sog‘lom turmush tarzi me’yorlarini tushuntirib, unga amal qilish yo‘llarini ochib bera oladi;

- sayyoramizdagi global, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolarni anglab, ularni hal etish yuzasidan olib borilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etadi [6].

Xulosa qilib aytganda, mazkur tayanch kompetensiyalar biologiya fanidan dars jarayonida uzluksiz ravishda shakllantirib boriladi. Buning uchun yuqorida keltirilgan tayanch kompetensiyalar har bir sinf o‘quvchilari uchun alohida belgilab olinadi hamda o‘qituvchi tomonidan uning yil davomida o‘quvchilarda o‘sish dinamikasi kuzatilib borilib, sinf jurnalining belgilangan sahifasida qayd qilib boriladi.

Adabiyotlar

1. https://hozir.org/biologiya-fani-orta-talimda-biologiya-oquv-fanini-organish-bos.html
2. G‘ofurov A.T., Tolipova J.O. Umumiy biologiyani o‘qitishning norasmiy usul va shakllari. – T.: “Fan”, 1990.
3. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе / В.А. Болотов В.В. Сериков // Педагогика. 2003. №10. – С. 8-14.
4. Смирнова Н.З., Бережная О.В. Компетентносной подход в биологическом образовании. Учебно-методическая пособие / Красноярск, 2012, – С. 168.
5. Tolipova J.O. Biologiya ta’limi texnologiyalari. – T.: “O‘qituvchi”, 2002. 128-b.

6. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Bilim”, 2004. 160-b.

7. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе / В.А. Болотов, В.В. Сериков // Педагогика. 2003. №10. – С. 8-14.

KIMYONI O‘QITISHNING METODIK TIZIMINI ISHLAB CHIQISHDA TA’LIM MAZMUNINI TANLASH MEZONLARI

Xolmurodova L.E. – Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ta’lim mazmunida tanlov mezonlari, tanlov tizimining muhim elementi hisoblanadi. Har bir mezon qandaydir alomat bo‘lib, uning asosida tarkib elementini tanlash paytida mazkur alomatga muvofiqlik baholanadi. Maqolada ana shunday mezonlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, mazmun, tanlov, alomat, mezon, tamoyil, didaktika, kimyo.

КРИТЕРИИ ОТБОРА СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ РАЗРАБОТКЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ

Холмуродова Л.Е. - преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация. Критерии отбора в содержании образования - важный элемент системы отбора. Каждый критерий - это характеристика, на основании которой оценивается соответствие этому критерию при выборе элемента содержания. В статье обсуждаются такие критерии.

Ключевые слова: образование, содержание, выбор, знак, критерий, принцип, дидактика, химия.

CRITERIA FOR SELECTING THE CONTENT OF EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF A METHODOLOGICAL SYSTEM FOR TEACHING CHEMISTRY

Xolmurodova L.E. - Lecturer at Karshi State University

Annotation. Selection criteria in the content of education is an important element of the selection system. Each criterion is a characteristic, on the basis of which the conformity to this criterion is assessed when selecting a content element. The article discusses such criteria.

Key words: education, content, choice, sign, criterion, principle, didactics, chemistry.

Xususiy predmet darajasida tamoyillar tanlov mezonlarida transformatsiyalanadi. Tamoyillar va didaktik asoslardan farqli o‘laroq mezonlar o‘quv materialining aniq mazmunini aniqlashning bevosita vositasidir [5]. Mazmunni tanlashning didaktik mezonlarini ishlab chiqish muammolari pedagogik adabiyotlarda atroflicha yoritilgan [1, 3].

Quyidagi mezonlar:

1) fanning aspektli muammolari tipologiyasiga o‘quv predmetining mos kelishlik mezoni;

2) aspektli muammolar tipologiyasidan foydalanishning to‘liqlilik mezoni;

3) fan metodlarining yoki aspektli muammolarni hal etish metodlarining tipologiya mezonlari ko‘rsatib berilgan [7].

Hozirga qadar ishlab chiqilgan o‘quv materiallarning mazmunini tanlash mezonlarining umumiy didaktik tizimi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Oliy ta’limda tahsil olishda qo‘llanadigan mezonlar ham mavjud bo‘lib, ular:

1) ijodiy fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifalarini ta’lim mazmunida yaxlit aks ettirish;

2) materialning yuqori ilmiy va amaliy ahamiyati;

3) ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga material mazmunini murakkabligining mosligi;

4) berilgan mavzuni o‘rganish uchun mazmun hajmining mavjud bo‘lgan vaqtga mosligi;

5) oliy kimyo ta’limi mazmunini tuzishda xalqaro tajribani hisobga olish hamda mazmunning mavjud o‘quv-metodik bazaga mosligi [2].

Bundan tashqari, quyidagi mezonlarning ahamiyatli ekanligi ham e’tirof etiladi:

- izomorfligi, unga ko‘ra fanning asosiy tarkibiy elementlari va semantiq birliklari o‘quv mashg‘ulotlar tarkibida aks etirilishi lozim. Bu mezonning amalga oshirilishi ilmiy tavsifdagi tamoyilning amalga oshirilishini ta’minlaydi, tegishli faoliyat usullarini bilish va egallashning yetarlicha to‘liq majmuini kafolatlaydi. Bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarini tayyorlashda izomorflik mezoni o‘quv mashg‘ulotining mazmuniga mosligini emas, balki maktab intizomi mazmunini ham aks ettirishi mantiqan to‘g‘ri tahmin qilsa buladi;

- minimallashtirish - predmet mazmuniga biror narsa qushish yoki chiqarishning ehtiyoji yo‘q bo‘lgan mukammallikdir. Kimyo fanini o‘rganishning birinchi bosqichlarida, “o‘quv faoliyati fanlararo ichki bog‘lanishining uncha katta bo‘lmagan soni - fikrimizcha, kimyoviy obyektlarning ham uncha katta bo‘lmagan soni – talabani ko‘p tomonlama yondashuvga o‘rgatadi va fikr yuritishning tizimli sifatini rivojlantiradi” [4, 46-b.].

Izomorflik va minimallashtirish mezonlarining uyg‘unlashuvida o‘quv dasturlarini tuzish uchun matritsalar, grafiklar va tarmoq usullaridan foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini mazmunini tuzishda va rasmiylashtirilgan tanlov algoritmlarini qurish imkoniyatini beradi.

Ahamiyatlilik va xususiylik, majmualilik va optimallik mezonlarini ajratib ko‘rsatishadi [6].

Oliy ta’limning bitiruvchisining tayyorgarlik darajasini aniqlashga zamonaviy ta’lim standartlari va kompetentli yondashuvga muvofiq asosiy mezonlar mutaxassis modelida ko‘rsatilgan maqsad mezonlari: ta’lim tarkibida bir necha komponenlarning mavjudligi: bilim, ko‘nikma, ijodiy va emotsional harakterdagi faoliyat tajribasi [5].

Bunga muvofiq, bo‘lg‘usi o‘qituvchi tayyorgarligini shakllantirishning uchta mezonini belgilangan: o‘ta umumiy shaklda taqdim etilgan va “o‘quv faoliyatiga nisbatan bebaho munosabatning shakllanishi” deb tushuniladigan asosiy kasbiy kompetentlik mezoni, ta’lim faoliyatiga bo‘lgan qiziqish, mahsus va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga bo‘lgan qiziqish; o‘quv faoliyatida maqsad qo‘yish; subyektivlik va ijodkorlikni rivojlantirish motivatsiyasi; uzluksiz kasbiy mustaqil rivojlantirish usullari va texnologiyalari haqidagi bilimlarni egallash; kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish; kasbiy faoliyat jarayoni va natijasini aks ettirilishi; uzluksiz kasbiy ta’limga tayyorgarlik; kasbiy faoliyatdan mamnun bo‘lish; integrativ-modulli ta’lim modeli doirasida aniqlanadigan alohida vakolatlar mezoni; mahsuldorlik mezoni, “o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalar sifatining o‘zgarishi, o‘quvchilarning bilim fondini oshirish; bilim, ularning o‘zlashtirilganlik darajasi, tizimlilik” ko‘rsatkichlarga tegishlidir [2, 59-60-b.].

Muayyan mavzu doirasida umuman tan olingan tanlov mezonlari mavjud emasligii qayd etilsa-da [8], ayni paytda ta’lim mazmunining kimyo fani, yaxlitligi, mavzu tizimi va tuzilishi, izchilligi, ilmiy ahamiyati, vaqt resurslariga muvofiqligi, mavjud moddiy resurslarga muvofiqligi ko‘plab mualliflar tomonidan tadbiq etiladi. Tizimlilik tamoyiliga muvofiq, ta’lim tarkibining tanlash mezonlarini aniqlashga bo‘lgan yondashuvni global va lokal elementlar mavjud bo‘lgan bu tarkib haqidagi tasavvurga egaligini asoslaydi. Mazkur tasavvurlar unga muntazamlilik tamoyiliga javob beradigan kurs uchun tarkibni tanlash mezonlarini shakllantirish imkonini berdi:

- agar kontentda turli tushunchalar, ya’ni tarkibning global elementlari va ularning rivojlanish darajalarini aniqlangan bo‘lsa, unda bunday kontentni kurs uchun tanlash mumkin;

- agar mahalliy elementlar avvalgisiga suyangan holda tarkibni o‘z ichiga olsa, hamda keyingisiga ma’lumot beradi, u holda bunday tarkib kurs uchun tanlanishi mumkin;

- agar harakat uchun muayyan ko‘rsatmalarni ifodalovchi qoidalar ilgari kiritilgan nazariyalarga asoslangan bo‘lsa, unda bunday qoidalar kurs uchun tanlanishi mumkin [6].

Mazkur mezonlar ular tomonidan maktab kimyo kursi uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ular oliy ta’lim kimyo fanlari tarkibini tanlash mezonlarining bir qismi sifatida ishlatilishi mumkin. Fikrimizcha, oliy ta’lim uchun yana bitta mezon qo‘shilishi lozim - agar empirik dalillar mavjud bo‘lgan nazariyalar doirasida izohlanmasa, biroq qator obyektlarda o‘ziga xoslik kuzatilib, ularlarda mavjud nazariyalar chegaralarini asoslash uchun tarkibga kiritish va kimyoviy bilimlar tizimining ochiqligi haqidagi g‘oyalarni yangi dalillar uchun ham, ularni tushuntiruvchi yangi nazariyalar uchun ham shakllantirish kerak.

Shu bilan birga mezonlarning ba’zi birlari yetakchi, ba’zi birlari esa ikkinchi darajali bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, tadqiqot maqsadlariga muvofiq, tarkibni tanlashning asosiy mezonlari bo‘lib:

Oliy ta’lim kimyo fanlarining o‘quv predmeti mazmunining izomorflik mezoni maktab “kimyo” predmeti mazmuni va fani sifatida;

Nafaqat qayta ishlash, ya’ni nusxa ko‘paytirish darajasida, balki uzatish va modellashtirish darajalarida moddalar hamda tegishli xususiyatlarini tavsiflovchi umumiy qobiliyatini shakllantirish darajasi bilan ifodalangan elementlar kimyo sohasida oliy ta’lim muassasalarini bitiruvchilarining kompetentlik mezoni;

Modda va uning xossalarini tavsiflash qobiliyati sifatining o‘zgarishi, ko‘nikmaning teranligi va tizimlilik darajasining oshishi bilan tavsiflanadigan mahsuldorlik mezoni xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Дидактика средней школы: некоторые проблемы современной дидактики / [В.В. Краевский, И.Я. Лернер, М.Н. Скаткин и др.]; Под ред. М.Н. Скаткина. - М.: Просвещение, 1982. - 319 с.

2. Емельянова Г.М. Подготовка будущего учителя к реализации интегративно-модульного обучения в школе: Дис. канд. пед. наук. Курск: КГПУ, 2003. - С. 59-60.

3. Загвязинский И. И. О современной трактовке дидактических принципов // Советская педагогика. - 1978. - № 10. - С. 66.

4. Зайцев О.С. Методика обучения химии: теоретический и прикладной аспекты. - М.: Владос, 1999. - 384 с.

5. Коваленко Н.Д. Методы реализации принципа профессиональной направленности при отборе и построении содержания общеобразовательных предметов в высшей школе: Дис. канд. пед. наук. - Томск, 1995. - 158 с.

6. Минченков Е.Е. Научно-методические основы отбора содержания и структурирования школьного курса химии: Автореф. дис. докт. пед. наук. - М., 1987.- 42 с.

7. Теоретические основы содержания общего среднего образования / Под ред. В.В. Краевского, И.Я. Лернера. - М.: Педагогика, 1983.

8. Чернобельская Г.М. Методика обучения химии в средней школе: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. - 336 с.

INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI VA BOSQICHLARI

Pulatova D.R. - Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ingliz tili amaliy kursi” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida intensiv ta’lim texnologiyalari asosida xorijiy tilni o‘qitish tamoyillari mazmuni va bosqichlari yoritib berilgan bo‘lib, ta’lim samaradorligini oshirishning kontseptual asoslar, zamonaviy ta’lim kontseptsiyalari va ularning intensiv ta’lim texnologiyasi o‘qitish tamoyillari bilan xorijiy tilni o‘rganishdagi o‘rnini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ta’lim texnologiyasi, intensiv ta’lim texnologiyasi, ta’lim samaradorligi, kompetentsiya, kommunikativ kompetentsiya.

СОДЕРЖАНИЕ И ЭТАПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИНТЕНСИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

Пулатова Д.Р. – и.о. доцента кафедры практического курса английского языка Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье описаны содержание и этапы принципов обучения иностранным языкам студентов высших учебных заведений на основе технологий интенсивного обучения, концептуальные основы повышения эффективности образования, современные концепции образования и их роль в обучении иностранному языку.

Ключевые слова: обучение, технология обучения, технология интенсивного обучения, эффективность обучения, компетенция, коммуникативная компетентция.

THE CONTENT AND STAGES OF IMPROVING THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON INTENSIVE LEARNING TECHNOLOGIES

Pulatova D.R. - Acting Associate Professor of the Department of "Practical English Course" of the Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article describes the content and stages of the principles of teaching foreign languages to students of higher education institutions on the basis of intensive learning technologies, the conceptual framework for improving the effectiveness of education, modern educational concepts and their role in learning a foreign language.

Key words: learning, learning technology, intensive learning technology, learning efficiency, competence, communicative competence.

Til kishining istalgan psixik faoliyatida tayanch bo‘lib hisoblanadi va tabiiyki, ingliz tilini o‘zlashtirish hamda undan nutqda foydalanish barcha psixik funktsiyalarning, ayniqsa, xotira, anglash, fikrlashning xossalari rivojlanganlik darajasining ishtirokisiz mumkin emasdir [1; 248-b.] Zamonaviy ta’lim kontseptsiyalarini tahlil qilib va ularni oliy ta’lim tizimida muloqot qobiliyatini maqsadlari bilan solishtirib, olingan ma’lumotlarni talabalarda intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish sifatini oshirishning kontseptual asoslarini aniqlab oldik. Birinchi yondashuv sifatida biz zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasini ajratib ko‘rsatamiz, chunki u o‘qitishning barcha intensiv metodikalarida asosiy bo‘lib sanaladi. [1-jadval]

G.K.Lozanov inson psixikasining zahiralari juda kattaligini ta’kidlaydi va biz u taklif etgan intensiv metodni takror hosil qilish vazifasini qo‘ymaymiz, aksincha, biz uning nazariyasidagi o‘quv jarayonini intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitishga imkon beruvchi va zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasi asosiga qo‘yilgan jihatlardan foydalanishni taklif qilamiz. Bunday o‘qitish varianti sifatida biz samarali pedagogika nazariyasi va texnologiyasidan foydalandik, u zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasiga asoslanadi va pedagogik jarayonda o‘qitishning yetakchi zahiralarini yuzaga chiqarishga yordam beradi [2; 140-b.] [1-jadval]

Sanab o‘tilgan zahiralardan foydalanish pedagogik jarayonni o‘qitishda mavjud imkoniyatlar hisobiga qo‘shimcha aqliy yoki jismoniy charchashni keltirib chiqarmagan holda sezilarli darajada faollashtiradi. Zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasi tayyorgarlikning barcha turlariga taalluqli bo‘ladi va ularga majmuaviy tarzda ta’sir ko‘rsatadi.

Intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha o‘quv faoliyati bilishga doir jarayonlarning rivojlantirilishiga ya’ni, kognitiv tayyorgarlikni shakllantirishga qaratilishi lozim

Talabalarida kommunikativ kompetentsiyani intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish samaradorligini oshiishda mazkur yondashuvdan foydalanish intensiv o‘qitishning eng yaxshi an’analarini va tamoyillarini yuzaga chiqarishga imkon berib, ular faqat talabaning har tomonlama o‘zini-o‘zi namoyon etishiga qaratilgan pedagogika asosida yuzaga chiqarilishi mumkin.

1-jadval.

Ta’lim samaradorligini oshirishning kontseptual asoslari

	O‘z-o‘zini takomillashtirish	**Imkoniyatlar**
1.	O‘quv faoliyatini amalga oshirishda duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va bu qiyinchiliklarning bartaraf etilishiga yordam beradigan zaruriy qobiliyatlarni mashq qildirish bilan bog‘liqdir.	Qobiliyatlarni mashq qildirish va takomillashtirish jarayoni tabiatga moslilik tamoyili asosiga quriladi. zaruriy ichki zahiralari (xotira, tasavvur va boshqalar)ni birinchi navbatda rivojlantirilishi lozim.
2.	O‘qitish davrida talabalarning intellektual zahiralarini faollashtirish bilan bog‘liq	Trening, o‘yin, muammoli vazifalarni yechish kabi o‘qitishning faol metodlaridan foydalanish; talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati, jamoadagi hamda juftlikdagi hamkorlikda ishlashlari hisobiga amalga oshiriladi.
3.	Talabaning o‘quv jarayoniga munosabati, uning motivatsiyasi zarur	Ichki ijobiy motivatsiyaning shakllantirilishi o‘quv faoliyatining faollashuviga yordam beradi.
4.	Kommunikativlik, empatiya, emotsional ifodalilik	Harakat qilish uchun zarur bo‘ladigan shaxsning bir qator sifatlarini shakllantirish hisoblanadi.
5.	O‘quv jarayonining samaradorligini oshirilishi dastlabki o‘quv materialini anglab olishni tashkil etish bilan bog‘liq	O‘quv materialni o‘zlashtirish uning birinchi marta taqdim etilishi bilan o‘tishi hamda anglab olishning o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq qiyinchiliklarning bartaraf etilishiga olib kelinishi.

Ta’lim jarayonida zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasini yuzaga chiqarish texnologiyasi uning individuallashuviga tayanadi, chunki har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va zarur komponentlarini shakllantirish hamda takomillashtirish texnologiyasini tuzib chiqish zarur bo‘ladi.

O‘qitish jarayonida muhim bo‘lgan kompetentli yondashuvni amalga oshiruvchi uning tarkibiy qismlari – o‘qitish va o‘qish munosabati hisoblanadi. Mazkur munosabatlar (pedagogik o‘zaro harakatlar) shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish asosiga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqilgan yondashuvning qadriyatli jihati bo‘lib, eng avvalo, pedagogik jarayonning ijtimoiylashuvi hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bu tabiiy tizim hisoblanib, talabaning noyob shaxsiy rivojlanishi, uning o‘ziga xos qobiliyatlarini va psixologik yo‘nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Sh.Sharipovning fikricha, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deganda, ko‘proq talabalarning shaxsiy manfaatlari, ehtiyojlarini nazarda tutadi. Bunda ta’limning mazmuni o‘quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo‘naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo‘llab-quvvatlash bosh maqsad qilib olinadi [3; 46-b.].

I.S.Yakimanskayaning ta’kidlashicha, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyati o‘qitish jarayonida ta’lim beruvchining sub’ektiv nuqtayi nazarlarini amalga oshirishdan iborat. Biroq u ta’lim oluvchi o‘qitish jarayonida sub’ekt bo‘lib yetishmaydi, balki oldindan sub’ektiv tajribani eltuvchi hisoblanadi. O‘qitish jarayonida mazkur tajribani aniqlash, boyitish va o‘zgartirish yuz beradi. Bu tajribaning mazmuni ochib berilishi, maksimal darajada foydalanilishi, ilmiy mazmun bilan to‘ldirilishi va zarur bo‘lganda ta’lim jarayonining borishida shakl almashtirilishi kerak deb hisoblaydi [4; 25-b.].

V.V.Serikov esa shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ma’nosini talabaning shaxsiy vazifalari, uning universal shaxsiy qobiliyatlari: motivatsiya, ijod, o‘zini namoyon qilish, refleksiya va boshqalarning namoyon bo‘lishi uchun sharoitlar yaratish deb aytadi [5; 21-b.].

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda talaba shaxsi ta’lim jarayoni markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar, talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta’lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta’minlash, faollikni oshirish, o‘z-o‘zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. Shuning uchun bu texnologiyada bo‘lajak mutaxassisning faqat kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarnigina emas, balki shaxsiy imkoniyatlarini takomillashtirishni ham nazarda tutiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida talaba butun ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchisi, o‘qituvchi bilan teng huquqli mustaqil bilim oluvchi sub’ektdir, o‘qituvchi esa nafaqat “ma’lumot manbai” va “nazoratchi”, balki ko‘proq talaba shaxsi rivojlanishiga yordam beruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi va tashxis qo‘yuvchi hamdir.

O‘zining individual o‘ziga xosliklari, yoshga doir xususiyatlari, o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarishga ehtiyojlari bilan talaba shaxsi o‘qitishdagi markazida turadi. Bunday o‘qitish turi talaba shaxsining paydo bo‘lishi va rivolanishidagi optimal shart-sharoitlarni yaratishda; “ta’lim orqali o‘z-o‘zining taqdirini belgilash va o‘z-o‘zini namoyon qilishni qo‘llab-quvvatlash”dan iborat bo‘ladi. O‘quv jarayoni talaba shaxsining qobiliyatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular o‘qitish jarayonida rivojlanib boradi va talabaning qiziqishlariga asoslanadi,

shuningdek, shaxsiy o‘sishga hamda individual bilishga doir qobiliyatlarini hisobga olish bilan o‘quv fanlaridagi bilimlarni ancha osonlik bilan o‘zlashtirishni ta’minlaydi [7; 310-b.]. Mazkur kontseptsiyaning asoschisi I.S.Yakimanskaya [4; 25-b.] o‘qitish jarayoni va o‘qish jarayonini bir-biridan ajratadi. Bilish faoliyati sub’ekti bo‘lish bilan talaba o‘quv faoliyati orqali o‘zining sub’ektli tajribasini yuzaga chiqaradi, natijada ko‘rib chiqilayotgan ta’lim texnologiyasining farqli jihatlari bo‘lib quyidagilar sanaladi:

muloqot mazmuni va shaklining o‘zgarishi: o‘qituvchi va talaba orasidagi muloqot;

o‘qitishda har bir sub’ektnig individual rivojlanishi dinamikasiga yo‘naltirilganlik va unga o‘z rivojlanish jarayonini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratib berish;

qadr-qimmatga ega ta’lim faoliyatini amalga oshirishga talabani faol rag‘batlantirish;

oilada, ijtimoiy davralarda va shu kabi hayot faoliyatining tajribalaridan maksimal darajada foydalanish va uni boshqa madaniyatlar, qadriyatlar, milliy o‘ziga xoslikning xususiyatlari va shu kabilar bo‘yicha komponentlarni kiritish bilan boyitish [4; 25-b.].

O‘quv faoliyatida har birida talabaning muvaffaqiyatliligi undagi psixologik jarayonlarning, maxsus qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Kommunikativ kompetentsiyani intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish sifatini oshirish muammosiga nazariy yondashuvlar tahlilini tugata turib, birinchi navbatda uchta nazariy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish lozim deb hisoblaymiz: birinchisi kompetentli yondashuvi bo‘lib, u zamonaviy oliy ta’lim tizimi va ilm-fandagi asosiy yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchi yo‘nalish sifatida biz asosiy kompetentsiyalarning shakllanish jaryonini samarali tashkil etishga imkon beruvchi dastak sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tanladik. Uchinchi yo‘nalish qilib zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasini tanladik, chunki u ingliz tilini intensiv ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitishga tayyorgarligini shakllantirishda asosiy kompetentsiyalar bo‘lib namoyon bo‘ladigan bir qator kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lish darajasini sezilarli ravishda oshirishga imkon beradi. Pedagogik shart sharoitlari tayyorgarligining shakllanish zahiraviy imkoniyatlar pedagogikasining o‘ziga xosliklarini o‘rganib, biz birinchi zahiraning mohiyatini ko‘rib chiqdik, unda talaba o‘qitish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bilish o‘qituvchi hamda talabaning urinishlarini sezilarli darajada tejash va ularni yakka hamda guruhli didaktik qiyinchiliklarning bartaraf etilishiga yo‘naltirish imkonini beradi [74; 424-b.].

Mazkur jihatlarda zamonaviy kommunikativ qobiliyatni maqsadi –va uni shakllantirilishi bilan hamohangdir. Muloqot tajribasining oshirilishi talaba

madaniyatlararo kommunikatsiyasining rivojlanishi hamda hayot faoliyatidagi o‘z sub’ektiv tajribalarini boyitadi.

Ingliz tili kursidagi o‘quv faoliyati mazmuni tayyorgarlik bosqichida quyidagi komponentlardan iborat bo‘ladi:

xorijiy tildagi leksikani o‘zlashtirish (so‘z va iboralarni eslab qolish);

o‘qish;

yozish;

tilidagi nutqni tinglab, tushunish;

og‘zaki nutq (monolog, dialog).

Shunday qilib, o‘quv faoliyatining har bir turi bo‘yicha talaba bu faoliyatni bajarishning ma’lum bir sifatiga – individual ijodiy yutug‘iga erishadi, talabaning muvaffaqiyatliligi va o‘qitishning mezoni bo‘lib hisoblanadi. Mana shunga bog‘liq holda odatdagi baholash tizimi mavjud bo‘lmaydi, uning o‘rniga sinov tizimi – faoliyatni bajarishning belgilangan sifat darajasiga erishilgani yoki yo‘qligi qo‘llaniladi. Shuning uchun belgilangan sifatga erishish har bir talaba uchun majburiy bo‘lib sanaladi, lekin u talabaning individual o‘ziga xosliklari bilan taqqoslanadi. [6].

Adabiyotlar

1. Rashidova F.M. O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimida CEFRni tatbiq etishning kontseptual-metodik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida): Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2017. – 309 s.

2. Lozanov G. Suggestopaedia – Desuggestive Teaching Communicative Method on the Level of the Hidden Reserves of the Human Mind. – Vienna: International Centre for Desuggestology, 2005. – 140 p.

3. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti.: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – T., 2012. – 46 b.

4. Якиманская И. С. Личностно ориентированное обучение в современной школе. – М., 1996. – С. 24-25

5. Сериков В. В. Личностно ориентированное образование // Педагогика. – М., 1994. – № 5. – С. 16-21.

6. Pulatova D, Talabalarda intensiv ta’lim texnologiyalari asosida ingliz tilini o‘qitish tamoyillari: The Modernization Of Foreign Languages Education :Professional Competence And Education Resources, Tashkent , 2020

7. Карпова О.Л. Педагогическая концепция содействия развитию самообразователной деятелности студентов вуза. Монография –Челябинск: УралГУФК, 2009. – 310 с

8. Занков Л.В. Избранные педагогические труды. – Москва: Педагогика, 1990. – 424 с.

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHNING MOTIVATSIYALI, MAZMUNLI VA OPERATSIYALI TARKIBIY QISMLARINI PEDAGOGIK QO‘LLAB - QUVVATLASH

Panjiyev Q.B. - Toshkent davlat pedagogika universiteti “Musiqa nazariyasi va metordikasi” kafedrasi dotsenti, s.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligining motivatsion, mazmun va operatsion komponentini pedagogik qo‘llab quvvatlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, kasbiy, pedagogik, komponent, tayyorgarlik, ta’lim, nazariya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА МОТИВАЦИОННОГО, СОДЕРЖАТЕЛЬНОГО И ОПЕРАЦИОННОГО КОМПОНЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Панжиев К.Б. - кандидат искусствоведения, доцент кафедры теории и методики музыки Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы педагогической поддержки мотивационного, содержательного и операционного компонентов профессиональной подготовки будущих учителей музыки.

Ключевые слова: музыка, профессиональная подготовка, педагогические условия, образование, теория.

PEDAGOGICAL SUPPORT FOR THE MOTIVATIONAL, CONTENT AND OPERATIONAL COMPONENTS OF THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS

Panzhiyev K.B. - Ph.D. in Artscology, Associate Professor of the Department of Theory and Methods of Music Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article deals with the problems of pedagogical support for the motivational, content and operational components of the professional training of future music teachers.

Key words: music, professional training, pedagogical conditions, education, theory.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligining uslubiy treningning motvatsion komponenti[1]ning alohida roli quyidagilar bilan belgilanadi: a) ongli motivatsion insonning muhim xususiyati sifatida faoliyat yuritadigan faoliyatda subyektning faol yuzi (ya’ni subyektning kasbiytabiatiga xos) haqidagi falsafiy xulosalar; b) subyektning shaxsiy-semantiq munosabatlarining maqsadga, mavzu mazmuniga, amalga oshirish usullariga va ushbu subyekt ishtirok etadigan faoliyat natijalariga nisbatan umumiy va kasbiy (shu jumladan qo‘shiqchilik) pedagogik va ruhiy tayyorgarlik qoidalari; v) musiqiy-nazariy fanlarning (shu jumladan, musiqa nazariyasi, cholg‘u ijrochiligi, xonandalik, musiqa o‘qitish metodikasi) kasbiy-amaliy, ijodiy-musiqiy faoliyatda motivatsiyaning ahamiyati to‘g‘risidagi xulosalari.

Kasbiy tayyorgarlikning motivatsion jihati bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-amaliy va ijodiy faoliyatga, musiqiy-pedagogik voqelikni bilish va o‘zgartirish jarayoniga bo‘lgan ehtiyojini qiziqtiradigan shaxsiy-qadriyatli munosabatni shakllantiradigan asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu tarkibiy qism kasbiy ta’lim mazmunining bunday elementini o‘quv va musiqiy pedagogik jarayonda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tomonidan kasbiy aks ettirishga hissiy-irodaviy va qadriyatli munosabat tajribasi sifatida o‘zlashtirishga bevosita qaratilgan [8].

Motivatsion komponentning mazmuni, avvalo, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsining emotsional-qadriyatli va ehtiyoj sohalarini qamrab olib, ular kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va uning yuqori sifatiga erishishga ko‘maklashadi. Bu yerda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsining asosiy sifati ijtimoiy va kasbiy yo‘naltirilgan pozitsiyadir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-pedagogik haqiqatini bilish va o‘zgartirish bilan bog‘liq kasbiy faoliyatga qiziqish ko‘rsatish; kasbiy bilim va faoliyat usullarini takomillashtirish, ularning kasbiy-amaliy va ijodiy faoliyatining barchasini sifat jihatidan o‘zgartirish zaruratidir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ushbu pozitsiyasining samarali tomoni, birinchi navbatda, fan-ta’lim va musiqa san’ati sohasidagi turli hodisalar va qarashlarni baholashga tanqidiy yondashuv o‘qituvchining mavjud kasbiy muammolarga daxldorlik hissi, ularni o‘rganishga didaktik, ijodiy yondashish zarurligiga ichki ishonch bilan birlashtirilgan uslubiy trening mazmuni va jarayoniga shaxsiy qadriyat munosabati orqali namoyon bo‘ladi.

Ushbu komponentning tarkibida kognitiv va ijodiy motivlar ham muhim o‘rin tutadi: kasbiy ahamiyatga ega muammolarni uslubiy tushunish jarayoniga qiziqish, ularni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlarni izlash, uslubiy tahlilda original ijodiy natijaga erishish istagi va boshqalar namoyon bo‘ladi [2]. Bugungi globallashuv o‘zgarishlar, musiqiy-falsafiy va pedagogik-psixologik adabiyotlarda insonning hissiy va qimmatli jihatlarini shakllantirishda inson tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatga ijobiy yoki salbiy munosabatining oddiy o‘sishiga emas, balki, birinchi navbatda, motivatsion soha tuzilmasining murakkablashuviga, faoliyat

motivlarining sifatli o‘zgarishiga, ular o‘rtasida yangi, chuqurroq va yetuk munosabatlarni o‘rnatishga urg‘u beriladi. Mutaxassislar tomonidanmusiqa ta’lim yo‘nalishlarida shakllantiriladigan qadriyat munosabati (musiqiy bilimlarga, xalq qo‘shiqchiligiga, kasbiy faoliyatga va hokazo) avtomatik ravishda shaxsiy faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunday bo‘lishi uchun turli didaktik obyektlarning ahamiyatini ochib berish ularning shaxsiy (subyektiv) qiymatini aniqlash bilan birga, ya’ni “shaxsiy munosabat” kasb etishi kerak bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatda motivatsiyaning roli [5] haqidagi musiqiy, pedagogik va psixologik ma’lumotlarga asoslanib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘rganilayotgan kasbiy tayyorgarlikning motivatsion-qiymat komponentini shakllantirishda birinchi navbatda hissiy, faol- metodologiyaga haqiqatni ilmiy bilish sohasi, nazariy bilimlarga (turli darajadagi) va musiqiy va pedagogik nazariya va amaliyotning dolzarb muammolarini o‘rganishga didaktik, ijodiy yondashuvni ta’minlaydigan faoliyat usullariga shaxsiy munosabatini takomillashtiradi. Olib borilgan tadqiqot natijalari qo‘yilgan vazifalarni hal etishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini tashkil etishning pedagogik va estetik (axloqiy)munosabatlari muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Jumladan, kasbiy tayyorgarlikning motivatsion komponentini faollashtirish va rivojlantirishning muhim sharti-ta’lim va musiqiy-pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotda xayrixohlik, hamkorlikka ishonish ruhi hukmron bo‘lgan barcha guruh shakllarida kasbiy-amaliy va ijodiy hamkorlik muhitini yaratishdir. SHuni ta’kidlash kerak-ki, ushbu shartning bajarilishi ko‘p jihatdan maxsus o‘quv kurslariga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga ham bog‘liq. Avvalo, u kasbiy tayyorgarlikning yetarlicha yuqori darajasini namoyish etishi, keng umumiy ilmiy bilimga va pedagogik muloqot uslubiga ega bo‘lishi shart.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsining motivatsion qo‘llab-quvatlash kasbiy tayyorgarlik jarayonida yanada muvaffaqiyatli takomillashadi, ular kasbiy bilim va faoliyat usullarini, ularning obyektiv (ijtimoiy-musiqiy-kasbiy) va subyektiv (shaxsiy) amaliy ahamiyatini o‘rganish zarurligini tushunib yetadi. Shu munosabat bilan, dars mashg‘ulotlarining dastlabki bosqichida talabalar tomonidan egallagan bilim, ko‘nikma va kompitentsiyalarning mohiyatini ochib berishga emas, balki ularning kasbiy va ijodiy faoliyati uchun ahamiyatini baholashga to‘g‘ri yo‘naltirilgan holatlarga qo‘yish tavsiya etiladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy va pedagogik haqiqatini kasbiy tushunish jarayoniga bo‘lajak mutaxassislarning hissiy, faol va shaxsiy munosabatini dolzarblashtirish va takomillashtirish, birinchi navbatda, ushbu muammoni hal qilishni nazarda tutgan mashg‘ulot (ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, yakka tartibdagi dars)lar davomida amalga oshirildi. Bu yerda muammoli didaktik suhbat metodidan keng foydalanildi. Bu bir vaqtning o‘zida bir nechta didaktik va tarbiyaviy

vazifalarni hal qilish, zarur nazariy materiallarni taqdim etish, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari hisoblangan mutaxassislar shaxsining hissiy-baholash, badiiy-intellektual va faoliyat jihatlarini faollashtirish imkonini berdi. Bunday suhbat orqali alohida talabalar va tinglovchilar bilan yanada yaqinroq aloqa o‘rnatish imkoniyati ko‘paydi. Mazkur jarayonda qo‘llanilgan muammoli savollar va ijodiy topshiriqlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining dars mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini, ularni “o‘z ifodasini topish”ga intilishlarini rag‘batlantirish barobarida takomillashtiradi. Masalan, “musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi: mazmuni va uning xususiyatlari” mavzusini ochib berishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga musiqa pedagogikasi fanining muayyan muammosini hal qilishda kasbiy yondashuvni talab qiladigan savollar, vazifa va topshirqlar beriladi. Bunday hollarda kasbiy bilimlar talabalarning kasbiy-musiqiy va pedagogik haqiqatining muayyan hodisasi mohiyatini yaxlit ko‘rib chiqishga undaydi. Fikrimizcha, professional jihatdan muhim muammolarni tahlil qilishda musiqiy-pedagogik va umumkasbiy ilmiy darajadagi bilimlarni nazarda tutishning amaliy ahamiyati nimada, bunday sharoitda kasbiy-amaliy va ijodiy faoliyatning turli jihatlarini o‘rganishga nazariy yondashuvni qo‘llash zarur bo‘ladi va hokazo. Ushbu holatda, bu va boshqa savollar o‘quv mavzu talabalarning assimilyatsiya sifatini “tekshirish” imtihondan o‘tkazish uchun yetarli bo‘ladi. Biroq, talabalar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv, pedagogik amaliyotlarini o‘tkazishda yoki kasbiy darajada ahamiyatini tushunish, ularni yordam berish uchun muhimligini ko‘rsatadi.

O‘quv va pedagogik amaliyot davomida talabalar faoliyatining kasbiy jihatlarini bilish va o‘zgartirish jarayoniga hissiy, qimmatli va ijodiy munosabat tajribasini to‘plashga imkon beruvchi [6] maxsus vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday vositalardan biri maktab o‘quvchilari bilan mashg‘ulotlarda olingan amaliy natijalarni aks ettirish shakllaridan biri sifatida introspektsiya hisoblanadi. O‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonida talabalar e’tiborini nafaqat natijalarni aniqlash va baholashga, balki ularning erishishiga to‘sqinlik qiluvchi pedagogik va psixologik omillarning qiymatini aniqlashga ham yo‘naltiradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning motivatsion va qiymat jihatini takomillashtirishni ta’minlaydigan pedagogik vositalarga turli xil savollar-ijodiy turdagi vazifalar, zarur adabiyotlarni tanlash bilan bog‘liq tadqiqot vazifalari, muayyan muammo bo‘yicha uslubiy tahlil o‘tkazish (“yaxlit”,“qisman” shaklda), modellashtirish va tajriba o‘tkazish va boshqalar kiradi. Bu turdagi izlanish va ijodiy ishlarning har birini bajarishda talabalar ma’lum hissiy va irodaviy harakatlarni namoyon qiladilar, ma’naviy va shaxsiy-kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqaradilar. O‘z navbatida, talabalar tomonidan yaratilgan motivatsion munosabat, pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llaniladigan vositalar orqali kasbiy bilim, ko‘nikma, malakaviy kompitentsiyalar va faoliyat usullarini qo‘llash musiqa darslarini

o‘qitishga qiziqishni oshiradi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini sifat jihatdan takomillashuvga intilishga sabab bo‘ladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining xalq qo‘shiqchiligi, balki musiqa pedagogikasi muammolarini kasbiy tushunish namunalari bilan tanishtirishda tahlil qilingan muammoga muallifning ijodiy munosabati qanday va qanday namoyon bo‘lishiga, uning tadqiqot mavzusi doirasida yondashuviga xos bo‘lgan xususiyatlarga alohida e’tibor beriladi. Musiqa o‘qitish masalalari ko‘rib chiqilgan taniqli pedagog-olim B.V.Asafevning asarlarini o‘rganish, uning badiiy va tadqiqot uslubining o‘ziga xos xususiyatlari, didaktik, tizimli, hukmlarni taqdim etishda ekspressivlik, o‘rganilgan muammoga shaxsiy-qiymat munosabati va boshqalarni talabalar nuqtayi nazaridan taxlili etish maqsadga yo‘naltirishda yanda oydinlik qiladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi musiqa va pedagogika haqiqatini bilishning eng boy ma’naviy va kasbiy-ijodiy tajribasi bilan aloqa qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqa ta’limi sohasidagi shaxsiy mavqeini, qadriyat yo‘nalishini va ehtiyojlarini takomillashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga motivatsion va qimmatli munosabati dars mashg‘ulotining yakkadars turida ayniqsa samarali takomillashtiriladi. Buerda talabalarning individual mustaqil izlanishlari va kasbiy-amaliy-ijodiy faoliyati o‘qituvchi-talaba-jo‘rnavoz hamkorligida amalga oshadi. Bunday faoliyat bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-amaliy va ijodiy-pedagogik faoliyatining refleksiv, dialogik, ijodiy tabiati dars mashg‘ulotlarida ijodiy hamkorlik muhitini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday dars turi davomida har bir talaba o‘zining individual va shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, takomillashtirish musiqiy-nazariy bilimlarni musiqa pedagogikasi sohasidagi qadriyat yo‘nalishlari va ehtiyojlarini barqarorlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Ushbu dars mashg‘uloti turining qiymati beqiyos. Unda kasbiy-pedagogik qidiruv o‘yinlari jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida nafaqat kasbiy bilimlarga, balki ularni amalda qo‘llash usullariga ham barqaror qiziqishni takomillashtiradi. O‘qitishning bu turi asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari turli kasbiy-fikrlash qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini, eng muhimi-izlanish va amaliy-ijodiy faoliyatini takomillashtiradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatga tayyorgarligining motivatsion tarkibiy qismini ishlab chiqishda uning mazmuniga ko‘ra, bu jarayon jamoaviy va individual faoliyatlarni o‘zida birlashtirilgan ijodkorlikning bir turi hisoblanadi. Shunday qilib, har bir talabaning muayyan muammo bo‘yicha nutqi “muholiflar”, barcha talabalar, o‘qituvchi, yetakchi o‘quv kursining nutqlari, shuningdek, “mudofaa”ga taklif qilinishi mumkin bo‘lgan fan va musiqa ta’limi va pedagogikasi sohalari mutaxassislari tomonidan to‘ldirilib, belgilangan natijalarni baholashda ishtirok etish, bu borada kasbiy-ijodiy izlanishning ko‘rsatkichi hozirgi

kishilar orasida alohida qiziqish uyg‘otadi va bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari uchun kasbiy tayyorgarlikning qiymatini ko‘rsatadi. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning motivatsion komponentini ishlab chiqishbo‘lajak musiqa o‘qituvchisi amaliyotlar jarayonida ham amalga oshirilishini yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Tarbiyaviy ishning bu maxsus shaklida talabalarning musiqiy-pedagogik voqelikni bilish va o‘zgartirish jarayoniga shaxsiy-qadriyat munosabatini faollashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi.Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, musiqa ta’limi yo‘nalishi o‘quv rejasida kiritilgan musiqiy-nazariy fanlardan dars mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish o‘quvchilarga musiqiy-pedagogik voqelikning murakkabligi, nomuvofiqligiga bevosita ishonch hosil qilish, unga didaktik yondashishning o‘rni va zarurligini anglab yetish imkonini beradi. Talabalarning o‘quv va pedagogik amaliyotlar orqali musiqa va pedagogik jarayonida muayyan masalalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun empirik kuzatishlarning o‘zi yetarli emasligini, shu bilan birga “yuqori” darajadagi – kasbiy bilim talab etilishini yanada chuqurroq anglaydilar. SHu asosda talabalarning motivatsion sohasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi: ularning kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kompitentsiyalari ortib, o‘qituvchilikka bo‘lgan qiziqishi yanada chuqurlashadi va yetuklashadi, talabalarning bilim va ijodiy motivlari kengayadi, ulardakasbiy tayyorgarligi uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va pedagogik fazilatlar takomillashtiriladi.

Muayyan auditoriyaning saviyasiga qarab o‘qituvchi muammoni yechish uchun u yoki bu mantiqni, uni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini pedagogik rag‘batlantirish usullarini tanlaydi. Barcha hollarda, avvalo, zamonaviy musiqa o‘qituvchisi tafakkurdagi stereotiplikni, formalizmni yengib, ijodiy erkinlikka ega bo‘lishga intilishi kerakligini ko‘rsatib berish zarur. Bu yerda o‘qituvchining ijodiy rivojlanishini cheklovchi obyektiv va subyektiv sabablarni ko‘rsatish mumkin. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ta’lim-tarbiya va musiqiy pedagogik jarayonda, ta’lim muassasasi va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini o‘zgartirish bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlash joiz. Talabalar bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi sifatida kasbiy-ijodiy va axloqiy-estetik ideallarni, maktab o‘quvchilarining badiiy va musiqiy ehtiyojlarini, ularning ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun bevosita javobgardir. Bu fazilatlar bugungi kunda shaxs (shu jumladan, talaba shaxsi), millat va umuman jamiyat uchun har qachongidan ham dolzarbdir. Bunday vazifa bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi uchun faqat uni amalga oshirishda faol, shaxsiy, individual ijodiy yondashuv asosida amalga oshiriladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tafakkuri shunday darajada shakllanishi kerak-ki, u o‘ziga taklif etilgan muayyan musiqiy-pedagogik tushunchalar, o‘quv dasturlari, metodik tavsiyalarni holisona va har tomonlama, yaxlit baholay olsin. Bu faqat musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatining ijtimoiy ma’nosini, musiqiy ta’limni jamiyat rivojlanishining didaktik qonunlari, musiqa pedagogikasi haqiqati, turli ilmiy va badiiy bilimlarni uning

amaliyoti ehtiyojlari bilan bog‘lash qobiliyati, maktab o‘quvchilarining yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini chuqur tushunish asosida amalga oshiriladi.

Umumkasbiy va maxsus metodikaning farqli tomonlarini tavsiflashda ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatish, ularga kiritilgan bilimlar umumiyligi va kengligiga ega ekanligini ta’kidlash zarur. Bu, birinchi navbatda, ularni mavzu bilimlaridan, nazariy darajadagi bilimlardan ajratib turadi. Umumkasbiy va maxsus metodologiyaning muhim tomonlarini o‘rnatishda bilim masalasi eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Pedagogikada metodologiya va kasbiy bilimlarning mohiyati va ahamiyati g‘oyasi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik muammosini uning faoliyati xususiyatlariga muvofiq ko‘rib chiqishga imkon beradi. Dastlab talabalarga o‘qituvchining pedagogik madaniyati haqida kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi sifatida umumlashtirilgan tasavvur berish, keyinchalik ushbu kasbiy tayyorgarlikning yetarlicha yuqori darajasini ifodalovchi shaxsiy va kasbiy fazilatlarochiladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari kasbiy ahamiyatga molik muammolarni tahlil qilish va hal etishga yaxlit, kontseptual yondashuv asosini tashkil etgan turli darajadagi uslubiy bilimlarning alohida ahamiyatini ko‘rsatishlari kerak. Bu o‘rinda o‘qituvchining kasbiy madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlari orasida pedagogik omillar va hodisalarni shaxsiy-qimmatli idrok etishni, ularni oldindan aks ettirish qobiliyatini, ilmiy asoslangan pedagogik ta’sirvositalarini tanlash bo‘yicha tavsiya beriladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligining mohiyatini aniqlashtirib, uni ikki darajada ko‘rib chiqamiz: a) o‘qituvchining ijtimoiy va shaxsiy tajribasi, shu jumladan uslubiy bilim, ko‘nikma, malaka va kompitentsiyalarini takomillashtirish ehtiyojlari; b) musiqa o‘qituvchisi shaxsining ajralmas xususiyati bo‘lib, asosan didaktik fikrlashda, musiqiy va pedagogik nazariya va amaliyotni ijodiy bilish va o‘zgartirishda namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ilmiy-pedagogik tafakkur uslubi nazariy kasbiy madaniyatni shakllantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Musiqa o‘qituvchisining fikrlash uslubini aniqlash mutlaqo o‘zaro bog‘liq ikki tomonni o‘z ichiga oladi: ilmiy va kasbiy. Ularning birligini qayd etib, bu tomonlarning har biriga alohida e’tibor qaratish zarur.SHunday qilib, musiqa o‘qituvchisi kasbiy tafakkurining ilmiy jihatlarini ta’riflashda real faktlar, pedagogik voqelik, uning qoliplari va ziddiyatlarini aks ettiruvchi kategoriya va tushunchalarni tushunishdagi roli belgilanadi [7].

O‘z navbatida, kasbiy tafakkurdagi badiiy jihat nafaqat pedagogik voqelik haqiqatlarini kuzatish va umumlashtirish, balki ularga individual va shaxsiy baho berish va talqin qilish qobiliyati orqali namoyon bo‘ladi. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy tafakkurini kasbiy yo‘nalganligi, eng avvalo, uning faoliyatining predmet mazmuni – musiqa, qo‘shiqchilik ijodiyoti va u bilan o‘qituvchi va talabalarning

o‘zaro ham guruhli va ham individul muloqotini o‘z ichiga oluvchi jarayon bilan belgilanadi. Bu jarayon bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tafakkuri badiiy jihatining yetakchi rolini belgilaydi. Mavzuni tahlil qilish jarayonidabakalavriat talabalarining umumkasbiy tafakkur muammosiga qadriyatli munosabatini va uning nazariy darajasini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning mavjud fikrlash darajasi g‘oyasiga tayanish o‘qituvchiga yangi mavzu bo‘yicha materialni taqdim etishning eng ma’qul mantig‘ini aniqlash imkonini beradi, umumiylik va aniqlik qanday o‘lchov bilan ushbu auditoriya talabalariga taqdim etilishiga bog‘liq. Talabalar pedagogikaning eng muhim qonuni – hodisa va jarayonlardagi “umumkasbiy”, “maxsus” va “yakka” didaktik munosabatlar haqidagi g‘oyalarini tiklash orqali “nazariy tahlil” tushunchasini ko‘rib chiqishga olib keladi [3]. Pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganilayotgan masalaga ilmiy fikrning “yuqori darajalari”dan qarash talabalarni “muammo”ni hal etish barobarida, ya’ni uning mohiyatini ko‘rib chiqish zaruriyatini anglashga yordam beradi. Bu o‘z navbatida yana bir vazifani ilgari suradi: tushuncha mohiyatining umumkasbiy ta’rifini, uning pedagogika fanida –musiqa pedagogikasi sohasida talqinini izohlashga yordam beradi. Ushbu talqinning darajasi va to‘liqligi, boshqa hollarda bo‘lgani kabi, auditoriyaning o‘ziga xos imkoniyatlariga qarab belgilanishi kerak. Kontseptsiyaning mazmun-mohiyatiga yondashuvlar xususiyatlari metodologiyaga “bilim haqida bilim” deb kelganda, nazariy bilim va tahlilning transformatsion funktsiyasiga e’tibor qaratilganda yanada tushunarli bo‘ladi. Talabalar uchun bunday xulosa juda aniq ma’noga ega bo‘ladi: natijada uslubiy tahlil o‘zingiz uchun biror narsani “kashf qilish”, muayyan kasbiy ahamiyatga ega muammo bo‘yicha yangi yaxlit nuqtayi nazarga ega bo‘lish imkonini beradi va shu bilan nafaqat nazariy, balki amaliy tajribangizni ham boyitadi.

Kasbiy tahlil yetakchi muhim fazilatlarni tavsiflovchi-uning mustahkamlik, ko‘p tabiati, obyektiv-subyektiv tabiati, didaktik, bu ilmiy va kasbiy tadqiqot amaliyotida aniq misollar bilan ularning har biri haqida taassurotlari hamrohlik qilish tavsiya etiladi. Zotan, bu yerda, “rivojlanishdan oldinga qarab” talabalar o‘zlarini adabiyotda ma’lum bo‘lgan misollar yordamida tahlil qilish fazilatlarini ko‘rsatadilar [6].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy-ijodiy faoliyati nuqtayi nazaridan uslubiy tahlilni ko‘rib chiqish talabalar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Odatda, barcha talabalar ushbu darajalarning har birini o‘zlari uchun roli-vazifasini bilishadi, ularning imkoniyatlarini va ushbu bosqichda u yoki bu tahlil darajasini amalga oshirishga tayyorligini obyektiv baholaydilar. Alohida ilmiy muammoning pedagogik talqini undagi muhim, umumlashgan tomonlarni ochib berishi, shuning uchun musiqa pedagogikasi soha tadqiqotchilari bu muammoni o‘rganishning turli yo‘llarini topish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, musiqa pedagogikasining falsafiy tushunchasi

nafaqat butun dunyoni, balki shaxsni ham ma’naviy va amaliy o‘zgartirish usuli sifatida bu jarayonni tarixiy dinamikada (axloqshunoslik), aniq ijtimoiy-pedagogik-badiiy-musiqiy-kasbiy haqiqat (sotsiologiya) sharoitida ko‘rib chiqish zarurligiga olib keladi, nihoyat, shaxsiy rivojlanish uchun ta’lim imkoniyatlarini aniqlash nuqtayi nazaridan (pedagogika boshqa nomlangan sohalar bilan birlikda) mavzuni o‘rganishning yakuniy bosqichida musiqa pedagogikasi bilan aloqasi bilvosita shaklda “asosiy” sohalar (pedagogika, musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, musiqa pedagogikasi)da aniqlashtiriladigan strategik munosabat sifatida harakat qilishiga e’tibor qaratish muhimdir. Ayrim soha olimlar (K.S.Stanislavskiy) pedagogikada ijodiy sohani muhimligini ko‘rsatish, shuningdek, psixolog (L.S.SHgotskiy), sotsiolog (A.N.Sokor) musiqa nazariyasi (V.V.Medushevskiy) musiqiy asarlariga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlab o‘tadilar. Musiqa pedagogikasining bir qator uslubiy muammolarini chuqur va izchil o‘rganish asnosida ta’lim jarayonini tashkil etish muamosini san’atshunos (L.A.Barenboim) tavsiya etadi.

Xulosa sifatida aytish lozimki musiqa pedagogikasi muammolarini o‘rganishga xususiy ilmiy yondashuvning muhim tomonlarini ochib berishda talabalar e’tiborini nazariy tahlilda manbalarni tanlash va keltirishga tadqiqotchining munosabati kabi masalaga qaratish lozim. Ba’zi talabalar ba’zan turli sohalardagi “takliflar to‘plami”ni ilgari suradilar va bu darajadagi kasbiy tahlilni amalga oshirishning mohiyatidir, deb hisoblashadi. Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida bakalavriat talabalarining “printsip” atamasini qanday tushunganliklariga aniqlik kiritish lozim. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining o‘ziga xos talablari asosida aniqlashtirilgan mazkur tushunchaning ilmiy-pedagogik talqini beriladi. Ushbu ish kontekstiquyidagi printsiplarga asoslanadi. Jumladan: mazmun-mohiyati nazariy tahlilning pedagogik, umumkasbiy, ilmiy va xususiy darajalarining birligi printsipi; obyektiv va subyektiv munosabatlar printsipi; kasbga yo‘naltirish printsipi. Bular muayyan kasbiy tadqiqot, musiqiy pedagogik amaliyot va kasbiy tahlil jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi pedagogik ta’lim konsepsiyasi. – Toshkent: O‘zR XTV, O‘zPFITI, 1995. – 20 b.

2. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. – Toshkent, Fan, 2004.

3. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan.nom. – Toshkent, 2006. – B. 182.

4. Muslimov N.A. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. 2012. O‘quv qo‘llanma. 6,1 b.t.

5. Tolipova J. O‘qituvchilarning kompetentligiga qo‘yiladigan talablar. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 125.

6. Holikov A.A. Pedagogik mahorat. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – B. 418.

7. Panjiev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqchiligi vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Mahalla va oila nashriyoti. 2021. – B. 200.

MANTIQ ELEMENTLARI VA ULAR USTIDA OPERATSIYALARDAN FOYDALANISHGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

Usarov S.A. - Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada matematika fanining muhim bo‘limlaridan - matematik mantiq fanining asosiy tushunchasi bo‘lgan mulohazalar (rost yoki yolgon qiymat qabul qiluvchi darak gaplar) va ular ustida amallarga doir ma’lumotlar, ularning boshqa fanlarda qo‘llanilishi, mantiqiy formulalar va qonunlarning tildagi talqinlari haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: mulohaza, mulohazalar dizyunksiyasi, konyunksiyasi, implikatsiyasi, ekvivalensiyasi, mulohazaning inkori, mantiqiy qonunlar, tavtologiya.

ЭЛЕМЕНТЫ ЛОГИКИ И НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ПРИМЕНЕНИЮ ОПЕРАЦИЙ НА НИХ

Усаров С.А. - преподаватель Джизакского государственного педагогического института

Аннотация. Данная статья содержит важные разделы математической науки - комментарии к основным понятиям математической логики (высказываниям, принимающим истинные или ложные значения) и сведения об их действиях, применении в других дисциплинах, логические формулы и толкования законов в языке.

Ключевые слова: рассуждение, обратная дизъюнкция, конъюнкция, импликация, эквивалентность, отрицание рассуждения, логические законы, тавтология.

ELEMENTS OF LOGIC AND SOME CONSIDERATIONS ON THE APPLICATION OF OPERATIONS ON THEM

Usarov S.A. - Lecturer at Jizzakh State Pedagogical Institute

Annotation. This article contains important sections of mathematical science - comments on the basic concepts of mathematical logic (statements that take true or false values) and information about their actions, their application in other disciplines, logical formulas and interpretations of laws in te language.

Key words: reasoning, reverse disjunction, conjunction, implication, equivalence, negation of reasoning, logical laws, tautology.

Matematika - eng qadimiy va uzoq rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan fanlardan biri sanaladi. Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea-hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda ahamiyati juda katta. Barchamizga ma’lumki, matematika fani insonning dunyoqarashini rivojlantiradi, tafakkurini kengaytiradi, to‘g‘ri fikr yuritish, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatadi, aqlni chiniqtiradi, diqqatni rivojlantiradi, qat’iyat va irodani tarbiyalaydi.

Amaliy ko‘nikmalar natijasida matematika barcha sohalarda yetakchilik funksiyasini bajarishi hech kimga sir emas. Shuning uchun oliy ta’lim, shu jumladan gumanitar yo‘nalishlarda bu fanga alohida e’tibor qaratiladi.

Gumanitar ta’lim yo‘nalishlari o‘quvchilari ma’lum sabablarga ko‘ra matematika fanini o‘zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar, jumladan, sof matematik tushunchalarni o‘zlashtirish qiyinroq kechadi. Shu bois gumanitar yo‘nalishi o‘quvchilariga matematikani o‘qitish jarayonida berilayotgan ma’lumotlar, bilimlar, keltirilayotgan misol va masalalarning tushunarli bo‘lishi juda muhim masaladir. Bundan tashqari matematika va gumanitar fanlari orasidagi bog‘liqlik munosabatlarini tushunish va uni amaliyotda qo‘llash o‘ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Keltirilayotgan ma’lumotlar matematika va gumanitar fanlari orasidagi bog‘liqlik munosabatlarini matematikaning muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan mulohazalar, ular ustidagi amallar, mantiqiy qonunlar va ularning boshqa fanlarda qo‘llanilishini ko‘rsatish yo‘lidagi urinishlardan biridir.

Matematik mantiq matematikaning rost yoki yolg‘onligini bir qiymatli aniqlash mumkin bo‘lgan darak gaplar bilan ishlaydigan bo‘limidir. Bunday darak gaplar mulohaza deyiladi. Mulohazalar *a, b, C,....* harflar bilan belgilanadi. Mulohazalar ustida ^, & (konyunksiya, “va”, “ammo”, “and”, “but”), $\vee$ (dizyunksiya, “yoki”, “or”), $\Rightarrow$ (implikatsiya , “agar ....bo‘lsa, u holda...” “if...then... ”), $\Leftrightarrow$ (ekvivalensiya,“....bo‘lishi uchun ... zarur va yetarli”, “... if and only if...”) deb nomlanuvchi binar mantiqiy amallar va unar amal mulohazaning inkori $\neg$ (inkor, “....emas”) o‘rnatilgan.

A, B, C,.... mulohazalarni inkor, dizyunksiya, konyunksiya, implikatsiya va ekvivalensiya mantiqiy bog‘lovchilar vositasi bilan ma’lum tartibda birlashtirib hosil

etilgan murakkab mulohazaga **mantiqiy formula** deb ataladi. Mantiqiy formulalar tabiiy tildagi mulohazalarning matematik modeli bo‘ladi.

Bu tilda sodda darak gaplardan “va”, “yoki”, “agar ....bo‘lsa, u holda...”, “...bo‘lishi uchun ... zarur va yetarli” bog‘lovchilari yordamida qo‘shma gap tuzish demakdir.

Masalan, **A**: “O‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganyapti”; **V**: “O‘quvchi Boltayev matematikani o‘zlashtiryapti”, S: “ O‘quvchi Boltayev nufuzli oliygohga o‘qishga kiradi” mulohazalari berilgan bo‘lsin.

U holda quyidagilarga ega bo‘lamiz:

$A \wedge V$: “O‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganyapti va matematikani o‘zlashtiryapti”.

$A \vee V$: “O‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganyapti yoki matematikani o‘zlashtiryapti”.

$A \Rightarrow V$: “Agar o‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganayotgan bo‘lsa, u holda matematikani o‘zlashtiradi”

$\mathbf{A} \wedge \neg V$: “O‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganyapti va matematikani o‘zlashtirmayapti”.

$\mathbf{A} \Rightarrow \neg V$: “ Agar o‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganayotgan bo‘lsa, u holda matematikani o‘zlashtirmaydi”.

$A \wedge V \Rightarrow S$: “Agar o‘quvchi Boltayev fizikani o‘rganayotgan va matematikani o‘zlashtirayotgan bo‘lsa, nufuzli oliygohga o‘qishga kiradi”.

$S \Rightarrow A \wedge V$ “Agar o‘quvchi Boltayev nufuzli oliygohga o‘qishga kirgan bo‘lsa, fizikani o‘rgangan va matematikani o‘zlashtirgan”.

Xuddi shunday, “Agar universitetni bitirsam, magistraturaga o‘qishga kiraman yoki soham bo‘yicha ishlayman”. Bu mulohaza $A \Rightarrow V \vee S$ ko‘rinishda ifodalanadi.

Mulohazalar hisobida mantiqiy formulalar **rostlik jadvallari *ni keltiramiz***. Bunday jadvallar mantiqiy bog‘lovchilar bilan tuzilgan murakkab mulohazaning rost yoki rost emasligini tashkil etuvchi mulohazalar qiymatiga qarab aniqlanadi (Jadvalda 1 rost qiymatni, 0 yolg‘on qiymatni bildiradi):

$A \wedge V$		$\neg A$	$A \Leftrightarrow V$
1		0	1
0		0	0
0		1	0
0		1	1

Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, yanada murakkabroq mulohazalar uchun rostlik jadvalini tuzish mumkin. Misol uchun $((\mathbf{A} \vee \mathbf{V}) \wedge (\neg A)) \Rightarrow \mathbf{V}$ mulohazaning rostlik jadvalini keltiraylik:

		$\vee V$	A	$(A \vee V) \wedge (\neg A)$	$((A \vee V) \wedge (\neg A)) \Rightarrow V$
				0	1
				0	1
				1	1
				0	1

Jadvalni yakunlab, qaralayotgan **A** va **V** mulohazalar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar $((A \vee V) \wedge (\neg A)) \Rightarrow V$ mulohaza doim rost bo‘lishini ko‘ramiz.

Bu mulohaza quyidagicha o‘qiladi: “Agar **A** yoki **V** to‘g‘ri bo‘lsa va **A** noto‘g‘gri bo‘lsa, u holda **V** to‘g‘ri.

Har doim rost bo‘lgan mulohaza **mantiqiy qonun** yoki **tavtologiya** deyiladi.

Agar $\mathbf{A} \Leftrightarrow \mathbf{V}$ mulohaza tavtologiya bo‘lsa, u holda **A** va **V** mulohazalar **teng kuchli** deyiladi va $\mathbf{A} \equiv \mathbf{V}$ kabi belgilanadi.

Tavtologiyalar (mantiqiy qonunlar) tafakkur qonunlari sifatida fikrlashning to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo‘lgan tushunchalar, mulohazalar hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o‘zaro aloqalarini ifodalaydi. Mantiqiy qonunlar fikr yuritishning to‘g‘ri ekanligini isbotlash usullarini ifodalaydi. Mantiqiy qonunlariga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan holi bo‘lish va asoslanganlik to‘g‘ri fikrlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo‘lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

Asosiy mantiqiy qonunlar:

1. $A \vee \neg B \equiv 1$ - **uchinchisini inkor qilish qonuni.**

Bu qonun quyidagicha ifodalanadi: bir-biriga zid bo‘lgan ikki fikrdan biri hamisha to‘g‘ri (rost) bo‘lib, ikkinchisi xatodir, uchinchisi bo‘lishi mumkin emas.

Masalan, o‘quvchi yo a’lochi, yo a’lochi emas bo‘ladi.

2. $A \wedge \neg B \equiv 1$ - **ziddiyatsizlik qonuni.**

Bu qonun quyidagicha ifodalanadi: obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo‘lishi, ham ega bo‘lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o‘zida o‘quvchi a’lochi va a’lochi emas bo‘lishi mumkin emas. Yuqorida keltirilgan ikkita qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

3. $\neg(\neg A) \equiv A$ **-qo‘sh inkor yoki inkorni inkor qonuni.**

Masalan, “Bu o‘quvchi a’lochi emas degan gap noto‘g‘ri” degan fikrdan “Bu o‘quvchi a’lochi” degan fikr kelib chiqadi. Yana bir misolni ko‘raylik. **A** mulohaza

“Bu o‘quvchi fizikani yaxshi biladi” bo‘lsin. U holda - **A** mulohaza “Bu o‘quvchi fizikani ya**xshi** bilmaydi” va $\neg(\neg A)$ mulohaza “Bu o‘quvchi fizikani yaxshi bilmasligi noto‘g‘ri” bo‘ladi. Natijada bu fikrdan “Bu o‘quvchi fizikani yaxshi biladi” degan fikr kelib chiqadi.

4. $A \Rightarrow B \equiv \neg B \Rightarrow \neg A$ **-kontrapozitsiya qonuni.**

Bu qonun inkor amali yordamida sharti va xulosasining o‘rinlarini almashtirishga imkon yaratadi. Masalan: “Agar inson komil inson bo‘lsa, u holda u chuqur bilimga ega” degan mulohaza “Agar inson chuqur bilimga ega bo‘lmasa, komil inson bo‘lmaydi” degan mulohazaga teng kuchli.

5. ***1)*** $\neg(A \wedge B) \equiv \neg A \vee \neg B$ **;** **2)** $\neg(A \vee B) \equiv \neg A \wedge \neg B$ **-** de Morgan qonunlari.

De Morgan qonunlari inkor amali yordamida konyunksiya va dizyunksiya amallarini bir-biri bilan almashtirishga imkon yaratadi.

Misollar: 1) “O‘quvchilar nemis tili va fransuz tilini o‘rganmoqdalar” mulohazasining inkori “O‘quvchilar yoki ingliz tilini urganmayaptilar yoki fransuz tilini o‘rganmayaptilar” mulohazaga teng kuchli.

2) “Men darsdan so‘ng yo kutubxonaga, yo nonushta qilgani bordim” mulohazaning inkori “Men darsdan so‘ng kutubxonaga ham, nonushta qilgani ham bormadim” mulohazasiga teng kuchli.

6. $A \wedge B \equiv B \wedge A;\ A \vee B \equiv B \vee A$ **- kommutativlik qonunlari.**

“O‘quvchilar nemis tili va fransuz tilini o‘rganmoqdalar” mulohaza “O‘quvchilar fransuz tili va nemis tilini o‘rganmokdalar” mulohazaga teng kuchli.

“O‘quvchilar nemis tili yoki fransuz tilini o‘rganmoqdalar” mulohaza “O‘quvchilar fransuz tili yoki nemis tilini o‘rganmoqdalar” mulohazaga teng kuchli.

7. $A \wedge (B \wedge C) \equiv (A \wedge B) \wedge C;\ A \vee (B \vee C) \equiv (A \vee B) \vee C$ **- assotsiativlik qonunlari.**

8. $A \wedge (B \vee C) \equiv (A \wedge B) \vee (A \wedge C);\ A \vee (B \wedge C) \equiv (A \vee B) \wedge (A \vee C)$ **-**

distributivlik qonunlari.

9. $A \wedge (B \vee A) \equiv A;\ A \vee (B \wedge A) \equiv A$ **- qisqartirish qonunlari.**

10. $A \Rightarrow B \equiv \neg A \vee B$.

Misol: “Agar bo‘sh vaktim bo‘lsa, kinoga boraman ” mulohazasi “Yoki bo‘sh vaqtim bo‘lmaydi, yoki kinoga boraman” mulohazasiga teng kuchli.

11. $\neg A \Rightarrow B \equiv A \vee B$ **.**

Misol: “Agar x juft son bo‘lmasa, tub son bo‘ladi” mulohazasi “x yoki juft son yoki tub son bo‘ladi” mulohazasiga teng kuchli.

12. $A \Rightarrow \neg B \equiv \neg A \vee \neg B$.

“Agar x juft son bo‘lsa, tub son bo‘lmaydi” mulohazasi “x yoki juft son bo‘lmaydi yoki tub son bo‘lmaydi” mulohazasiga teng kuchli.

13. $A \wedge B \equiv \neg(A \Rightarrow \neg B)$.

“O‘quvchi darsda yaxshi javob beradi va yaxshi baho oladi” mulohazasi “ O‘quvchi darsda yaxshi javob berib baholanmasligi noto‘g‘ri” mulohazasiga teng kuchli.

14. $((A \Rightarrow B) \wedge A) \Rightarrow B$. Bu qonun quyidagicha izohlanadi:

A to‘g‘ri bo‘lganda, **B** to‘g‘ri bo‘lsin. Bunda **A** to‘g‘ri. Demak, **B** ham to‘g‘ri.

15 $((A \Rightarrow B) \wedge \neg B) \Rightarrow \neg A$. Bu qonun quyidagicha izohlanadi:

A to‘g‘ri bo‘lganda, **B** to‘g‘ri bo‘lsin. Ammo **B** noto‘g‘ri. Demak, **A** ham noto‘g‘ri.

16. $((A \vee B) \wedge (\neg A)) \Rightarrow B$. Bu qonun quyidagicha izohlanadi:

A yoki **B** to‘g‘ri va **A** notug‘ri bo‘lsin. Demak, **B** noto‘g‘ri.

17. $((A \Rightarrow B) \wedge (B \Rightarrow C)) \Rightarrow (A \Rightarrow C)$. Bu qonun quyidagicha izohlanadi:

A dan *B* hamda *B* dan *C* kelib chiqsin. U holda *A* dan *C* kelib chiqadi.

Matematik mantiq fanida bunday mantiqiy qonunlarni ko‘plab keltirish mumkin. Fanning imkoniyatlari keng. Mulohazani uning inkori bilan almashtirib, yangi bir mantiqiy qonunlar ham yaratish mumkin. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, matematikaning, xususan, uning matematik mantiq bo‘limining qonunlari barcha fanlarda keng qo‘llaniladi.

Mantiqiy formulalar va qonunlardan gumanitar fanlarida ham bevosita foydalanish namunalarini ko‘rib chiqdik. Mulohazalar implikatsiyasi (“agar ....bo‘lsa, u holda... ”) ishtirok etgan gap (formula) ustida ham ishlash mumkin. $A \Rightarrow B$ mulohaza matematikada teorema deb ataladi. A teoremaning sharti, B teoremaning xulosasi deb ataladi. Teoremaning shart va xulosalarining o‘rnini almashtirib hosil qilingan $B \Rightarrow A$ teorema berilgan teoremaga teskari teorema deyiladi. Teoremaning shart va xulosalarini inkor kilib hosil qilingan $\neg A \Rightarrow \neg B$ teorema berilgan teoremaga qarama-qarshi teorema deyiladi va nihoyat, $\neg B \Rightarrow \neg A$ teorema teskari teoremaga qarama-qarshi teorema deyiladi. Filologiyada teoremalar va ularning turlarining qo‘llanilishiga doir misollarni ko‘p keltirish mumkin.

A: “ Gap ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan” va B: “Gap qo‘shma gap” mulohazalari berilgan bo‘lsin. U holda $A \Rightarrow B$ mulohaza “Agar gap ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan bo‘lsa, qo‘shma gap bo‘ladi” deb o‘qiladi. Ma’lumki, bu gap ona tilida qo‘shma gapning qoidasini ifodalaydi va bu mulohaza rost qiymatni qabul qiladi.

$B \Rightarrow A$ mulohaza “Agar gap qo‘shma gap bo‘lsa, ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topgan bo‘ladi” deb o‘qiladi. Bu mulohaza ham rost qiymatga ega.

$\neg A \Rightarrow \neg B$ mulohaza “Agar gap ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topmagan bo‘lsa, qo‘shma gap bo‘lmaydi” deb o‘qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu mulohaza ham rost qiymatga ega.

$\neg B \Rightarrow \neg A$ mulohaza “Agar gap qo‘shma gap bo‘lmasa, ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan tashkil topmagan bo‘ladi” deb o‘qiladi. Bu mulohaza ham rost qiymatga ega.

Xuddi shunday so‘zlarning sifat so‘z turkumi bo‘lishi qoidasini ham misol qilib keltirish mumkin.

$A \Rightarrow B$ mulohaza “Agar so‘z “qanday, qanaqa?” so‘roqlariga javob bersa, sifat so‘z bo‘ladi”. Bu mulohazaning ham barcha ko‘rinishlari rost qiymat qabul qiladi.

Yana bir misolni ko‘raylik. Rost qiymatga ega bo‘lgan “Agar yomg‘ir yog‘sa, yer ho‘l bo‘ladi” mulohazasini ko‘raylik.

Mulohazani “A dan B kelib chiqadi” yoki “A bo‘ldi, demak B bo‘ladi” deb ham o‘qish mumkin. Rost qiymatga ega bo‘lgan “Agar yomg‘ir yog‘sa, yer ho‘l bo‘ladi” ($A \Rightarrow B$) mulohazasi uchun $B \Rightarrow A$ mulohazasi “Agar yer ho‘l bo‘lsa, yomg‘ir yoqqan bo‘ladi” ko‘rinishda bo‘ladi. Bu mulohaza yolg‘on qiymatga ega, chunki yer suv sepilganda ham ho‘l bo‘lishi mumkin.

Bu misolni bergandan so‘ng implikatsiya qatnashgan barcha gaplar ham rost bo‘lmasligi haqida tushuncha paydo bo‘ladi. Uchinchi ko‘rinishdagi mulohazaning rost yoki yolgonligini aniklashda to‘g‘ri fikrlash, to‘g‘ri xulosa chikarish borasidagi talablarga e’tibor qaratish extiyoji tug‘iladi. $\neg A \Rightarrow \neg B$: “Agar yomg‘ir yog‘masa, yer ho‘l bo‘lmaydi”(yolg‘on). Ko‘pchilik o‘quvchilar bu mulohazaning qiymatini baholashda xatolikka yul qo‘yadilar. Nixoyat, $\neg B \Rightarrow \neg A$: “Agar yer ho‘l bo‘lmasa, yomg‘ir yog‘magan bo‘ladi” (rost).

Misol sifatida berilgan quyidagi mulohazalar, albatta o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi va to‘g‘ri fikr yuritishga o‘rgatadi.

“Agar har qanday inson o‘quvchi bo‘lsa, universitet ichki tartib-qoidalariga bo‘ysunadi” mulohazasini taxlil qilish jarayonida o‘quvchilar bir-biriga zid bo‘lgan turli fikrlarni beradilar (tahlil qilib ko‘ring).

Shu o‘rinda yana bir muhim qoidani ko‘rsatib o‘tish zarur. Har doim $A \Rightarrow B$ (teorema) va $\neg B \Rightarrow \neg A$ (teskari teoremaga qarama-qarshi teorema) mulohazalar bir xil qiymatga ega bo‘lishi, $B \Rightarrow A$ mulohaza (teskari teorema) va $\neg A \Rightarrow \neg B$ (berilgan teoremaga qarama-qarshi teorema) mulohazalar bir xil qiymatga ega bo‘lishi haqida ma’lumot berilsa, o‘quvchilar xulosa chiqarishda yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zlari aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Gumanitar fanlarda matematikaning qo‘llanilishiga doir bu kabi misollarni juda ko‘p keltirish mumkin. Bu albatta matematikaning faqatgina bitta tushunchasi - mulohazalar va ular bilan bog‘liq amallarning gumanitar fanlarda qo‘llanilishini ko‘rsatishdir. Bundan tashqari, xuddi shunday matematikaning predikat, kvantor, funksiya, munosabat, graf, ehtimollik va boshqa tushunchalarining ham gumanitar fanlarda qo‘llanilishiga doir misollarni keltirish mumkin.

Yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, chuqur bilimli, ma’rifatli, mustahkam ishonch-e’tiqodli, fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qura oladigan, har bir qilayotgan ishi, aytadigan gapini aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radigan yetuk yoshlar-komil insonlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim talabidir. Bunday insonlarda aqliy faoliyatning voqelikni bilishdan iborat bo‘lgan yuksak shakli bo‘lmish tafakkur kuchli shakllangan bo‘ladi.

Tafakkur qonunlari bo‘lmish mantiqiy qonunlar fikrlashning to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo‘lgan tushunchalar, mulohazalar hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o‘zaro aloqalarini ifodalaydi. Mantiqiy qonunlarga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan holi bo‘lish to‘g‘ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo‘lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko‘rib chiqishga harakat qildik.

Maqolada matematik mantiq fanining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan mulohazalar va ular ustida o‘rnatilgan binar mantiqiy amallar - mulohazalar dizyunksiyasi, konyunksiyasi, implikatsiyasi, ekvivalensiyasi; unar amal-mulohazaning inkori; mantiqiy formulalar, qonunlar va ularning boshqa fanlarda qo‘llanishi, talqini haqida ma’lumotlar, matematika va gumanitar fanlari orasidagi bog‘liklik munosabatlarini ko‘rsatuvchi misol va masalalar berilgan. Keltirilgan ma’lumotlar gumanitar ta’lim yo‘nalishlari o‘quvchilari va matematika o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Adabiyotlar

1. Грес П.В. Математика для гуманитариев. Учебное пособие. - Москва: Университетская книга, Логос, 2007. -161 б.

2. Исмаилов Ш.Н., Атакулов А.М., Эшончаева Г.Н. Математика. Педагогика институтлари талабалари учун укув-услубий кулланма. - Ангрен: 2006, - 57 б.

3. Воронов М.В., Мещерякова Г.П.Математика для студентов гуманитарных факультетов. -Ростов-на-Дону: Феник^ 2002. - 190 с.

4. Bozorov G‘.S. “Improve the knowledge of students, expressing mathematical reasons, using logic and restoring the logical function” (European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 7 No. 12, 2019).

5. Bozorov G‘.S., Turdiboyev S.S. Methodology of teaching the concept of logical action to students. // “Materialien der XVII internationalen wissenschaftlichen und praktischen konferenz” Berlin-2020. spitzenforschung-2020 / Volume 13.

PEDAGOGIK MAHORAT TA’LIM VA TARBIYANING MUHIM OMILI SIFATIDA

Azimova N.E. - Buxoro davlat universiteti pedagogika fanlari nomzodi, professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik mahoratning muhim jihatlari, xususan, o‘qituvchilar mehnatini baholashda rasmiyatchilikka barham berish, o‘qituvchilarning ijodiy mehnati uchun shart-sharoit yaratish, rag‘batlantirishning yangi reyting tizimiga o‘tish va hokazolar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, metod, mezon, usul, shakl, faoliyat, jarayon, pedagogika, pedagogik mahorat, muloqot, obyekt, subyekt.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Азимова Н.Е. - кандидат педагогических наук, профессор Бухарского государственного университета

Аннотация. В данной статье речь идет о важных аспектах педагогического мастерства, в частности, устранении формальности в оценке труда учителей, создании условий для творческой работы учителей, переходе на новую рейтинговую систему поощрения и др.

Ключевые слова: образование, воспитание, метод, критерий, форма, деятельность, процесс, педагогика, педагогическое мастерство, общение, объект, субъект.

PEDAGOGICAL SKILLS AS AN IMPORTANT FACTOR OF EDUCATION AND TRAINING

Azimova N.E. - Candidate of Pedagogical Sciences of Bukhara State University, professor

Annotation. This article deals with important aspects of pedagogical excellence, in particular, the elimination of formalities in the assessment of teachers' work, the creation of conditions for the creative work of teachers, the transition to a new rating system of encouragement, and others.

Key words: education, training, method, criterion, method, form, activity, process, pedagogy, pedagogical skill, communication, obyekt, subyekt

Mehnat, bilish, mahorat**,** ijod... Inson hayotining bosh mezonlari.Bu mezonlar faoliyat orqali shakllanadi va amalga oshiriladi - mehnat qilish, izlanish jarayonida

yutuqlar qo‘lga kiritiladi, mahoratga erishiladi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lish yo‘lida harakat qilayotgan, izlanayotgan har qanday o‘qituvchi, shubhasiz, egallashi lozim bo‘lgan ilmiy-nazariy ma’lumotlarni qo‘lga kiritish uchun o‘qituvchilik pozitsiyasiga ega bo‘lishi kerak, mazkur pozitsiya ijtimoiy jihatdan progressiv, shaxsiy jihatdan optimistik bo‘lib, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodikaning ilg‘or g‘oyalarini o‘zida aks ettirishi lozim. Bu, o‘z navbatida, pegagogik jarayonga demokratik va insoparvarlik nuqtayi nazaridan yondashishni taqozo qiladi. Bunday yondashish faoliyat asosida amalda oshiriladi. Faoliyat mahoratga yetkazuvchi bosh mezon bo‘lib hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi mehnati uning pedagogik faoliyati, pedagogik mahorat, muloqoti va shaxsining birligidir. Pedagogik faoliyat- o‘qituvchi mehnatining istiqbolini**,** texnologiyasini, vazifalarini, ta’sir ko‘rsatish yo‘llarining majmuidir. Pedagogik muloqot bo‘lsa - axloqiy psixologik muhit, munosabatlar yig‘indisi bo‘lsa, pedagogning shaxsi – qiziqishlar, layoqatlar, ehtiyojlar, u yoki bu mehnat turiga yo‘nalganligi, uning idealini belgilovchi bir belgi bo‘lib hisoblanadi. Bu uchala tushuncha birlikda pedagogik mahorat asosini tashkil etadi.

Ensiklopediyada yozilishicha, ”Faoliyat - atrofdagi olamga nisbatan insonning o‘ziga xos aktiv munosabati shakli. Odam nimaqsadga muvofiq va qayta o‘zgartirish faoliyatning mazmunini tashkil etadi. Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat. Har qanday faoliyat singari o‘qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, obyekt va subyekt majmuasidir.

Pedagogik maqsad o‘qitish, tarbiyalash asosida ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirishni, usul tarbiyalanuvchilar obro‘siga, hurmatiga sazovor bo‘lishni, pedagogik mehnat obyekti sifatida - o‘qituvchining shaxsi (harakteri, irodasi, xulq-odobi, tafakkuri va h.k.) Subyekt sifatida tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi. O‘qituvchi o‘qituvchilarni borliq bilan tanishtirar ekan, ularga tabiat-jamiyat va tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlari haqida tushuncha berar ekan, avvalo mana shu jarayonlarini o‘z faoliyatining obyektiga aylantiradi [1].

Darhaqiqat, ***pedagogik faoliyat***- bu o‘qituvchining o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir. O‘qituvchi mazkur faoliyat jarayonida o‘qitadi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, tarbiyalaydi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi. Prezident, hukumat farmoyishlarini targ‘ibot qiladi, o‘z malakasini oshirish uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o‘zi ham kamol topadi, o‘quvchilarni ham kamol toptiradi.

Qayd qilib o‘tilganlar bevosita va bilvosita pedagogik mahoratni shakllantirish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat aniq ko‘rinishda bo‘lsa, o‘qituvchi o‘qitish, tarbiyalash va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish vazifalarini aniq hal etishga harakat qiladi. Mazkur jarayonda faoliyat aqliy-ruhiy jihatdan ta’sir ko‘rsatish, natijalarni nazorat qilish, tahlil qilish va baholash hamda yangi vazifalarni belgilash

uchun tayyorlanish bilan chegaralanadi. Bilimlarni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishi ta’minlanadi. Natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Bunday jarayonni tashkil qilish uchun o‘qituvchi o‘z oldiga turgan jamiyat talabiga molik bo‘lgan vazifalarni anglashi, vaziyatni tushunishi, har bir o‘quvchining o‘zlashtirish jarayonini rivojlantirib, shaxs darajasiga ko‘tarilish mezonlarini aniq ko‘ra bilish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i darkor. Bu o‘qituvchidan katta tajriba va bilim talab etadi. Buning uchun mahorat zarurdir. Pedagogik mahoratni egallagan o‘qituvchi ko‘p mehnat va kuch sarflab, yaxshi natijalarga erishadi. Yangilikka intilish, ijodkorlik doimo uning hamkori bo‘ladi.

Oliy o‘quv yurti rahbarlari o‘z jamoasida ishlayotgan har bir o‘qituvchida pedagogik mahorat malakalarini shakllantirishi darkor. Buning uchun kollejda ijodiy muhit, izlanish, yangilikka intilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o‘quvchilarii ijodiy izlanishga odatlantirish, har yangi faoliyatni rag‘batlantirish, o‘qitish va tarbiyalashning faol shakl, usul va vositalarini ish jarayoniga tatbiq etishni ommalashtirishga harakat qilish zarur.

Mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida rivojlanib boradi. Bu xususiyatlarning barchasi faoliyat jarayonida tarkib topib boradi. ”Faoliyat, - deb yozgan edi, akademik A.N.Leontev, - dunyoni o‘zlashtirishning birinchi shartidir” [2]. Shunday ekan pedagogik mahoratning shakllantirish va rivojlantirishda faoliyat yetakchidir. Buni aniq his qila oladigan har bir kollej rahbari o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga harakat qilishi lozim.

O‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirish masalasi pedagogika, psixologiya, metodika, fanlari mazmunida ma’lum darajada o‘z yechimini topa olgan, xususan, Yu.P.Azarov, T.I. Gonobolin, N.V.Kuzmina, A.N. Herbakov. V.A.Sebastyanin. N.V.Aleksandrov, S,A,.Abdulina, D.N.Nikolaenko, A.V.Petrovskiy, V.A.Zamaxshariy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, V.A.Krutetskiy, M.G.Davletshin, N.V.Kuharev, M.Ochilov. K.Z.Zaripov, V.A.Rozov, A.P.Spirin, J.G. Yo‘ldoshev, E. QoziYev va boshqa olimlarimiz o‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirish va takomillashtirishning ma’lum qirralarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berganlar [3].

O‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning shakl va usullarini ishlab chiqishda pedagogika, psixologiya, metodika fanlarida yangi g‘oyalar yaratilib katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Hozirgi kunda ham fanda pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishni toifalash, klassifikatsiya qilish ishlari davom etmoqda. Ammo pedagogik mahorat ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy muammo sifatida kompleks tatbiq qilinmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda kollej rahbarlarining oliy boshqaruvchilik roli, ahamiyati fanda o‘z echimini to‘la topa olgan emas**.** Ayniqsa, o‘qituvchi kasbiy

mahoratini rivojlantirishda pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari: pedtexnika, pedagogik muomala, pedagogik qobiliyat, pedagogik takt o‘rnini anglash va kollejda ularni takomillashtirishga erishish ishlari bo‘yicha aniq tavsiya va yo‘llanmalar ishlab chiqilmaganligi sababli kollej rahbarlari mazkur ishni amalga aniq oshirishga qiynalmoqdalar. Zotan, pedagogik mahorat tizimidagi qayd qilingan qismlar uzviy bog‘liqlikda, bir-biriga ta’sir ko‘rsatgan yoki bir-birini to‘ldirgan taqdirda mohirlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik o‘z muddaosiga erishadi.

Hozirgi ta’lim-tarbiya mazmunining milliylashuvi, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari o‘quv-tarbiya tizimiga yangi pedagogik texnologiyaning tatbiq etilishi jarayonida yangi tipdagi kollejlar, o‘quv muassalarining keng rivojlanib borishi keskintus olib borayotgan bir davrda o‘qituvchi kasbiy mahoratini takomillashtirish vazifasi turibdi. Bu vazifa o‘qituvchilar faolligi va mustaqilligini oshirishni uning pedagogik texnikasi, pedagogik takti (nazokati), pedagogik qobiliyatini takomillashtirish uchun doimiy izlanishni talab qiladi.

Qayd qilib o‘tilgan xususiyatlar har bir ta’lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi uchun nihoyatda zarur. Bu xususiyatlar pedagogik texnikani egallash, pedagogik qobiliyat, pedagogik nazokat (takt), pedagogik muloqot malakalari bilan qurollanish orqali qo‘lga kiritiladi.

Pedagogik texnika - bu o‘qituvchi kasbiy va shaxsiy sifatlarining umumlashmasi bo‘lib, uning bilimlar, ko‘nikma, malakalaridir. Pedagogik texnika o‘qituvchiga aytayotgan gapi, bajarayotgan ishi orqali o‘quvchiga o‘z qalbini berish, ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Buning uchun o‘qituvchi:

a) o‘z o‘quv predmetini davr, fan-texnika taraqqiyoti darajasida bilishi, uni fanlar tizimidagi o‘rnini aniqlashi;

b) o‘quv jarayonini aniq va ratsional ta’minlashga yordamlasha oladigan yaxshi metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

v) bolani, o‘quvchilar jamoasining qiziqishlari, ehtiyojlari, qiyinchiliklarini, har bir o‘quvchining harakter hislatlarini, qobiliyatlarini aniq bilib, ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning maqsadga muvofiq shakllari va metodlarini tanlay olishi;

g) o‘zining tashkilotchilik mahoratini, shaxsiy fazilatlarini o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘qishlari, tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish va ularga ta’sir ko‘rsatishda qulay malakalarga ega bo‘lishi darkor.

“Pedagogik mahorat” fanining maqsadi pedagoglarga kasbiy ijod, mahorat malakalarini shakllantirish, pedagogik texnikani egallash to‘g‘risida tushuncha berishdan iborat.

Bu maqsad quyidagi vazifalarni echish orqali hal etiladi:

-pedagogik mahoratning nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish;

-pedagogik mahoratning pedagogik texnika, pedagogik muloqot, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat kabi tarkibiy qismlari haqidagi malakalarni echish;

-pedagogik mahoratni mustaqil shakllantirish ko‘nikmalarini hosil qilish;

-egallangan pedagogik-psixologik bilimlar asosida shaxsiy pedagogik mahoratni yaratish malakalarini hosil qilish;

-o‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish uchun shaxsiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari bilan o‘qituvchi-tarbiyachi, talabalarni tanishtirish.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishni “...ilmiy asosda tashkil qilish avvalo”, “o‘qituvchining istak va qiziqishlarini hisobga olib intilishi na boshqa ta’sir omillarini bir-biriga uyg‘unlashtirib, kasbi va shaxsining xususiyatlaridan kelib chiqib uning faolligini oshirishga erishish demakdir”. Bu holat tinmay izlanishlar, kuzatishlar, tajribalarni o‘rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish lozimligini talab qiladi. Ilmiy pedagogik ta’limot, o‘tmish ajdodlarimizning tajribasi va maktab amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, kasbiy mohirlik, muntazam ilm olish bilan shug‘ullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalar asosida ish olib borish orqali qo‘lga kiritiladi.

Pedagogik mahorat avvalo falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik bilimlarga ega bo‘lishi, o‘quv predmeti bo‘yicha keng va chuqur ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularni takomillashtirib borish orqali qo‘lga kiritiladi. Milliy mustaqillik, “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni ta’lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi va ijrochisi o‘qituvchi kasbiy mahoratini takomillashtirish, ta’lim tarbiya samaradorligini muhim sharti ekanligini ta’kidlar ekan, avvalo o‘qituvchilar mahoratini oshirishni pedagogik jarayonning ajralmas qismi deb qaralishi lozimligini alohida uqtiradi.

O‘quvchi-yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab-topib amaliy faoliyatida qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o‘zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylikni o‘zida tarkib toptirishga intlishi lozim. Shuni alohida qayd qilib o‘tmoq zarurki, o‘qituvchilik kasbi murakkab va qiyindir. Ushbu kasbning qiyin va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo tirik, ongi jonzot bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzot esa ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchi bilan doimo muloqotda bo‘lish, unga ta’sir ko‘rsatish, undan psixologiya, tarbiya nazariyasini mukammal bilishni taqozo qiladi. Bu o‘qituvchidan pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lish lozimligini ta’kidlaydi.

Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayoni emas, balki oila, ishlab chiqarish va shu kabi sohalarda ham ma’lumot o‘zlashtirish jarayonidir.

Ta’lim ilm berish va tarbiyalashni o‘ziga qamrab olib, respublikaning aql zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat

oldidagi o‘z mas’uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

Ta’lim - bilim berish, malaka va ko‘nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida bilim o‘zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Ta’lim faoliyati o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

a) ma’lum bir tajriba va amaliy faoliyat turini muvaffaqqiyat bilan tashkil qilish uchun olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlarni o‘zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimlardir);

b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va vositalarni o‘zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo‘ladi);

v) ko‘zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to‘g‘ri yo‘l va usul tanlash hamda nazorat qilish uchun ko‘rsatilgan axborotlardan foydalanish usullarini egallash (bu jarayonning mahsuli – malakadan iborat bo‘ladi) [4].

Insonning ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishida ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta’lim bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ta’limning mohiyati, maqsadi va mazmuni jamiyatning madaniy taraqqiyoti, fan-texnikasining rivojlanganligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etish darajasi kabilar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma’lumotga bo‘lgan talab va ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta’lim haqidagi g‘oyalarga qarab kishilik jamiyatining turli davr (bosqich)larida ta’limning mohiyati, maqsadi, mazmunini tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalari o‘zgarib, takomillashib boradi.

Ta’lim mohiyatiga ko‘ra, bu jarayonda ishtirok etuvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining natijasidir. Ta’lim jarayonida shaxsning dunyoqarashi, qobiliyati, fazilat (xislat)lari o‘zgaradi. Ta’lim jarayonida kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy tajribalari tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi va shu yo‘l bilan u avlodlar orasidagi ma’naviy-madaniy, ijtimoiy vorislikni taminlaydi.

Adabiyotlar

1. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

2. Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя профессионального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.

3. Азимова Н. Э. Роль профессионального педагога в подготовке гармонично развитой личности //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2018. – №. 5-1.

4. Азимова Н. Э., Насимова З. И. К. ВАЖНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СЕМЬЕ //Academy. – 2020. – №. 5 (56).

5. Азимова Н.Э., Элибоева Л.С. Некоторые аспекты повышения уровня экологической культуры //Наука, техника и образование. – 2019. .1(54).

MODULLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nasimova Z.I. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Modulli o‘qitish tizimi inson miyasining o‘zlashtirish mexanizmiga asosan vujudga kelgan. Inson miyasi axborotni oqim sifatida yaxlit holicha emas, balki kvant (bo‘linmas miqdor) ko‘rinishda yaxshi qabul qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, ta’limni ya’ni o‘qitishni inson bosh miyasining o‘zlashtirish tizimiga moslashtirish g‘oyasi asosida tashkil qilish eng samarali yo‘l ekanligini e’tirof etilmoqda.

Kalit so‘zlar: modul, texnologiya, Oliy o‘quv yurti, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiya, o‘qituvchi, talaba, bilim, ko‘nikma, malaka, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, qobiliyat.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОДУЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Насимова З.И. - базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. Модульная система обучения возникла на основе системы ассимиляции человеческого мозга. Человеческий мозг хорошо воспринимает информацию в квантовой (неделимой) форме, а не в целостном виде, как поток. Исходя из этого, признается, что наиболее эффективным способом является организация обучения, т. е. на основе идеи приспособления обучения к системе усвоения человеческого мозга.

Ключевые слова: модуль, технология, высшее учебное заведение, образовательный процесс, педагогическая технология, учитель, ученик, знания, умения, квалификация, самостоятельное мышление, анализ, способности.

SPECIFIC FEATURES OF THE ORGANIZATION OF EDUCATION THROUGH USING OF MODULAR TECHNOLOGIES

Nasimova Z.I. - Basic doctoral student of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The modular learning system is based on the learning mechanism of the human brain. The human brain perceives information as a flow, not as a whole, but as a quantum (indivisible quantity). Therefore, it is recognized that the most effective way is to organize education based on the idea of adapting learning to the system of assimilation of the human brain.

Key words: module, technology, higher educational institution, educational process, pedagogical technology, teacher, student, Knowledge, Skills, Qualification, independent thinking, analysis, ability.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni” ta’limni samaradorli qilish, uning imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish, ta’limni hozirgi zamonning asosiy talablaridan biri bo‘lib qolmoqda [1; 2-b.].

Pedagogik fanlarni modulli o‘qitish jarayonining ma’lum jihatlariga tayyorgarlik ko‘rish va moslashish muhim ma’lumotlarni inobatga olishi orqali amalga oshadi. Talabalar holatiga baho berish, ta’lim sharoitlari bilan tanishish, umumkasbiy fanlarni yaxshi bilish - bularning hammasi nazariy va amaliy mashg‘ulotga tegishli ilk shart-sharoitlar haqidagi ma’lumotlar sanaladi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shart-sharoitlarini quyidagi 3 ta tahlil yo‘llari orqali aniqlash mumkin;

- talabalar tahlili (talabalarga qaratilgan);
- shart-sharoit tahlili (o‘qitishni tashkil qilishga qaratilgan);
- kasbiy soha tahlili (o‘quv materialiga qaratilgan).

Ta’lim oluvchilar tahlilida o‘qituvchi har bir talabaning bilimi, o‘zlashtirish hamda o‘rganish darajasi, qobiliyatlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi. Chunki talabalar dars jarayonida, avvalo, egallagan bilim va tajribalarini qo‘llaydilar, shu bilan birga o‘z ishonchlarini ham ifoda etadilar. Ularning ta’lim olishga bo‘lgan qobiliyati, shaxsiy holati, yoshi ta’lim holatiga muayyan ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir inson va har bir talabalar guruhi turlicha bo‘lgani kabi ta’limda doimo yangi holatlar yuzaga keladi. Ular esa o‘z navbatida o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilmog‘i lozimdir.

Talabalarning qobiliyatlariga ko‘ra tabaqalanishi natijasida o‘qituvchi ayrim talabalarga fanni indivudial o‘zlashtirishni tavsiya qilishi mumkin. Agar talabalar tahlili o‘tkazilmagan bo‘lsa, u holda, ayniqsa, muammoli vaziyatlarda noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin.

Quyida ko‘rsatilgan shart-sharoitlar tahlili modul tarkibiga kiritilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni tashkil etish va yaratish borasidagi muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Huquqiy shart-sharoitlar ta’lim jarayoniga taalluqli bo‘lgan o‘quv rejasi va modulli o‘quv dasturi kabi hujjatlari bilan bog‘liqdir.

Tashkiliy shart-sharoitlarga modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish borasidagi quyidagi zaruriy talablar qo‘yiladi:

- o‘qitish joyini tanlash;
- dars, amaliy mashg‘ulotlar vaqti va davom etishi;
- amaliy namoyishlarga tayyorgarlik ko‘rish;

Texnik shart-sharoitlar. Ushbu shart-sharoitlar texnik moslamalar, yordamchi audiovizual vositalar, o‘qitish va o‘rganish vositalari (doska, flipchart, proektor, videomagnitafon)ning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolarning mavjudligi bilan uzviy bog‘liqdir. Amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchisi zaruriy shart-sharoitlar mavjudligiga va texnik moslamalarni istalgan paytda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Kasbiy soha tahlili. Agar o‘qituvchi ilk marotaba dars o‘tishga tayyorlanayotgan bo‘lsa, u holda u o‘zi dars bermoqchi bo‘lgan kasbiy sohaning (masalan, pedagogika nazariyasi va amaliyoti) umumiy qamrovi va mazmuniy tarkibiy qismining elementlari borasida tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Kasbiy soha tahlilini quyidagicha o‘tkazish tavsiya etiladi: kasbiy soha maqsadlarini aniqlash; maqsadlar asosida ta'lim mazmunlar tanlash va amaliy ishlar mazmunini aniqlash [2; 34-35 b.].

Maqsadli modullar mazmunini turli manbalardan:

- kasbiy soha bo‘yicha kitoblar yoki o‘quv adabiyotlaridan;

-texnikaviy adabiyotlar (ilmiy texnikaviy jurnallar, kasbiy maqolalar, patentlar va hokazolar)dan;

Aksariyat hollarda modulli o‘qitishda kasbiy sohalar bo‘yicha nazariy bilimlarni berish dalillar, tushunchalar, tamoyillar va usullarning qat’iy mantiqiy ketma-ketligi asosida ishlab chiqiladi.

Ko‘pincha modul mavzuning mazmunini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Mavzu doirasidagi o‘rgatiladigan dalillar.
2. Dalillar bilan bog‘liq tushunchalar.
3. Dalillarni o‘zaro bog‘laydigan tamoyillar (funksional aloqadorlik, qoidalar). 4. O‘rgatiladigan usullar (ta’lim jarayonlari, amallar).

Aslida bu bosqichlar quyidagi o‘sib boruvchi darajalarda tasvirlanadi.

Bilim – bu o‘zlashtirilgan va xotirada saqlangan ma’lumotlar bo‘lib, uni tez va aniq biror holatga mos ravishda ishlatish mumkin. Bilim quyidagi 3 ta turdan tuzilgan;

Dalil - bu o‘qitish obyektini anglash va to‘g‘ri belgilash demakdir (masalan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘z yo‘nalishini aniq va to‘g‘ri tanlay oladi).

Tushuncha - bu o‘rganilgan dalilni tushuntirish, ta’riflash, shuningdek, tasnif qilishdir. Tamoyil - umum qabul qilingan qoidadir. U bir yoki bir necha tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etadi.

Amaliy ta'lim qismiga taalluqli kasbiy sohani tahlil qilish ta'lim jarayonini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunki bunday ta'lim qismlari kasbiy – mantiqiy emas, balki harakatlarga yo‘nalgan tarzda kechadi.

Kasbiy sohani o‘zlashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- o‘qituvchi talabalarning ko‘z o‘ngida nafaqat kasbiy soha bo‘yicha bilim va tajribalarga ega bo‘lgan shaxs, balki boshqa sohalar bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi. U bu bilimlarni talabaga yetkazishda turli qiziqarli o‘yin va usullardan foydalaniladi. Bu orqali uning o‘quvchilar oldidagi obrO‘– e’tibori ortadi. Shuning uchun o‘qituvchidan doimo o‘z ustida ishlash va “har sohadan xabardor” bo‘lishi talab etiladi. O‘qitish faoliyatining amaliy qismini talabalar yaxshi o‘zlashtirib olishi uchun ular amalga oshirishi kerak bo‘lgan barcha mashqlarni o‘qituvchi o‘zi ham yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak. Muammoli vaziyatlarni bilish va bu borada o‘uvchilarga maslahat bera olish uchun u vaqt-vaqti bilan bajariladigan amaliy mashqlarni takrorlab turishi lozim. O‘qituvchi nazariy bilimlarni olish uchun kasbiy soha bo‘yicha yangi adabiyotlarga ega bo‘lishi va o‘zida his etishi kerak.

Buning uchun quyidagi usul tavsiya etiladi:

- iloji boricha o‘z sohasi yoki mavzusiga tegishli bo‘lgan barcha kitob, nashrlar, jurnallarning muhim betlaridan nusxa olish;

- boshqa hamkasblari tajribalarini o‘rganish;

- muayyan mavzuga tegishli qisqa tushuntirishlar bilan berilgan manbalar majmuasini to‘plash;

Kasbiy fanlarni modulli metodika asosida o‘qitishda fanning o‘qitish maqsadi va mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, modullarning o‘quv maqsadlari va mazmuni belgilanadi. O‘quv maqsadlari modul yakunida ta’lim - tarbiya samarasi sifatida o‘quvchi erishishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni belgilaydi [3; 36-45-b.]. Modulning o‘quv maqsadlari tarmoq standartining har bir ixtisoslik bo‘yicha kasbiy tavsifnomasida keltirilgan kasb-faoliyat turlari, kasbiy talablar, ko‘nikma va bilimlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi lozim.

Modul asosida o‘qitishda o‘quv maqsadlarini qo‘yish uslubining o‘ziga xos xususiyatga egaligi shundan iboratki, o‘quv maqsadlari talabalar faoliyatida ifodalanadigan va aniq ko‘rinadigan hamda o‘lchanadigan natijalar orqali belgilanadi. O‘quv maqsadlarini o‘lchash, aniqlash orqali o‘qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo‘lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bo‘lishi kerak, ya’ni ta'lim maqsadi shunday qo‘yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo‘lsin.

Modulning o‘rganish maqsadlarini quyidagi 3 sohada tuzish mumkin [4; 54-58-b.]. Koginitiv o‘rganish sohasi. Bu sohada modul bo‘yicha qayta ishlangan axborotlarni, ya’ni dalil va tushunchalarni, tamoyil va usullarni tahlil va sintez qilish, baholash orqali qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Kognitiv o‘rganish sohasi bilimlarni yodda saqlash, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish, k o‘zlangan o‘rganish maqsadlarni o‘zida mujassam etadi. Psixomotorik o‘rganish sohasi. Bu soha modulni o‘rganish bo o‘yicha amaliy ish jarayonlar orqali hosil qilinadigan qobiliyatlar va ko‘nikmalarni shakllantirishga mo‘ljallangan. Masalan, tikuv mashinasini ishlatish va unda biron bir tikish jarayonini bajarish psixomotorik o‘rganish sohasiga taalluqlidir. Demak, talaba xohishi bilan boshqariladigan amallarni ifodalaydi.

Affektiv o‘rganish sohasi. Ushbu soha munosabat, qadriyat, intizomga nisbatan qarash, mehnat xavfsizligi, mehnatga tayyorgarlik kabi emotsional holatlarni o‘z ichiga oladi.

Nazariy darsda asosan kognitiv, amaliy darsda esa ko‘proq psixomotorik soha qo‘llaniladi va quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi:

Bilish - bu dalillar va tamoyillarni eslab qolish va qayta xotirlashni bildiradi. Bunda o‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlarini eslashi va ularni aytib berishi mumkin.

Tushunish - o‘rganilgan materialning mohiyatini tushunish qobiliyatining ko‘rsatkichi bo‘lib, tushunish asosida xulosalar chiqariladi, mavjud vaziyat tahlil qilinadi. Tushunish ko‘rsatkichi sifatida izohlab berish, materialni qisqacha ifoda etish yoki keyingi hodisalar to‘g‘risida takliflar berish va hokazolar ishtirok etadi. Metodlar, qoidalar, umumiy tushunchalarni qo‘llash - bunga qoidalar, metodlar, tushunchalar, tamoyillar, nazariyalarni qo‘llash kiradi.

Bunda o‘qitish natijalari o‘quv materialini tushunishdan ko‘ra yuqori saviyada o‘zlashtirishni talab qiladi. Tahlil qilish u butunni elementlarga bo‘la olish, bu elementlarning gradatsiyasi va munosabatlarni o‘rnata olish, butunni tashkil qilish tamoyillarini bilishni o‘z ichiga oladi. Bunda o‘quv natijalari tushunish va qo‘llashga nisbatan o‘zining yuqori intellektual saviyasi bilan xarakterlanadi, chunki u o‘quv materialining mazmuni va uning ichki tuzilishini bilishni talab qiladi. Sintez - yangi tuzilmalarni hosil qilish maqsadida berilgan elementlardan bir butunni yaratish. Natijalar orqali yangi sxema va strukturalarni yaratishga yo‘naltirilgan ijodiy xarakterdagi faoliyatni ifodalaydi.

Modulni o‘rganish maqsadi qanchalik aniq bo‘lsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo‘ladi. Modulning o‘quv maqsadlarini aniqlashtira olsak, shunchalik ularga erishishga yaqinlashamiz. Amaliy mashg‘ulotlar sohasida eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: shart-sharoitlar; sifat; miqdor; vaqt [5; 101-101-b.].

Miqdoran belgilanajak vazifani tasvirlash qiyin kechadi. Shu sababli o‘rganish maqsadlarini ifodalashda ish-harakatni bildiruvchi va ish harakatni bildirmaydigan fe’llarni farqlashadi.

Ifodalangan o‘rganish maqsadlari ham mavjud bo‘ladi. Agar qo‘llash bosqichida tavsirlangan, bunday o‘qitish va o‘rganish materiallari q o‘llanilsa, unda eslatib o‘tilgan o‘rganish maqsadlariga erishiladi, deb hisoblasa b o‘ladi. O‘quv-didaktik materiallar (yoki o‘quv vositalari) deyilganda, o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Modulli metodika asosida o‘qitishda o‘quv-didaktik materiallar sifatida nazariy darslarda matnli vizual vositalardan, misol uchun o‘quv kitoblari, kartoteka va prospektlardan, tarqatma materiallari, uslubiy qo‘llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalardan foydalanilish tavsiya etiladi. Bunday o‘quv va didaktik materiallarga qo‘shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlar hosil qilishni osonlashtiradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzoyoyevning 2016-yil 8-oktabrdagi PQ 4724 - son farmoyishi
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2014-yil 10-maydagi 3/1 sonli hay’ati qarori.
4. Mirziyoyev Sh. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini bilgalikda barpo etamiz”. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
5. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoyev Sh. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi ” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
7. Mirziyoyev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
8. Karimov I.A. “Yuksak bilimli va intelektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” – T., 2012.
9. Avliyoqulov N.X. Kasbiy fanlarni modulli o‘qitish texnologiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2004. – 106 b.

10. Скаткин М.Н. Методология и методика педагогических исследований. М.: Педагогика, 1986. – 150 s.

11. Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni modulli o‘qitish //Kasb-hunar ta'limi.T.: 2004. №5. - 25 b.

ELEKTRON TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHILAR RAQAMLI KOMPETENSIYASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Yaxyayev S.J. – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali, o‘quv – uslubiy bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqola elektron ta’lim muhitida o‘qituvchilar raqamli kompetensiyasining o‘rni, ahamiyati, o‘qituvchining AKT kompetensiyasini shakllantirish yo‘llarini yoritishga bag‘ishlangan. Raqamli ta’lim tizimining mukammalligi, samaradorligi, va salbiy jihatlari haqida gap ketadi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, raqamli kompetentlik, AKT kompetensiya, raqamli ta’lim tizimi, masofaviy jarayon.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ В СРЕДЕ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Яхяев С.Ж. – заведующий учебно-методическим отделом Каршинского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми

Аннотация. Статья посвящена роли и значению цифровой компетентности учителей в среде электронного обучения, путям формирования ИКТ, компетентности учителей. Говорится о совершенстве, эффективности и недостатках цифровой системы образования.

Ключевые слова: электронное обучение, цифровая компетентность, ИКТ-компетентность, цифровая система образования, дистанционное обучение.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL TEACHERS 'COMPETENCE IN E-LEARNING ENVIRONMENT

Yahyaev S.J. - head of the educational and methodological department of the Karshi branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmiy

Annotation. The article is devoted to the role and importance of teachers' digital competence in the e-learning environment, ways of developing teachers' ICT

competence. It is said about the perfection, efficiency and shortcomings of the digital education system.

Key words: e-learning, digital competence, ICT competence, digital education system, distance learning.

Raqamli kompetentlik ta’riflari va tasniflari bo‘yicha Yevropa Ittifoqi talabalar va fuqarolar uchun uchta asosiy toifasini belgilaydi[1].

■ Raqamli kompetentlik, shuningdek, raqamli savodxonlik deb ham ataladi, axborot va ma’lumotlar ko‘nikmalarini, onlayn muloqot va hamkorlikni, raqamli kontent yaratishni, xavfsizlikni va muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan bir qator asosiy raqamli ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Raqamli kompetensiya - bu raqamli ko‘nikmalarni (bilim va munosabatlar) muayyan kontekstda (masalan, ta’limda) ishonchli, tanqidiy aks ettirish va mas’uliyat bilan qo‘llash qobiliyati. 2006-yildan beri raqamli kompetensiya Yevropa Ittifoqida umrbod ta’lim olish uchun sakkizta asosiy kompetensiyalardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi.

■ Kasbga xos raqamli ko‘nikmalar - Ishlar raqamli vositalarni (masalan, 3D printerlar, SAPR dasturiy ta’minoti, robotlar) ishlatish va ularga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lganlar uchun maxsus raqamli ko‘nikmalar to‘plami.

■ AKT mutaxassislari uchun raqamli ko‘nikmalar – dasturchilar yoki kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar, AKT mutaxassislari uchun yuqori darajadagi, yuqori ixtisoslashtirilgan raqamli ko‘nikmalar qatori, ular nafaqat mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishlari, balki o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishlari, innovatsiyalar kiritishlari va yangi texnologiyalar yaratishlari tushiniladi.

Virtual makonda taqdim etilgan ta’lim muhitini loyihalash bo‘yicha ko‘plab onlayn platformalar va xizmatlarni tekshirish va sinovdan o‘tkazish natijasida bugungi kunga qadar bepul va yaxshi ishlab chiqilgan eng yaxshi elektron resurslar tahili qilindi.

Shunday qilib, videokonferensiya rejimida muloqotni ta’minlaydigan turli platformalar qatoriga Zoom, Hangouts, Microsoft jamoalari, Webinar.fm, ClickMeeting, WebRoom, MyOwnConference, Skype, Google Classroom, Canvas Instructure, Moodle Cloud (www.moodle.org) kiradi. Google makonida biz onlayn ilovalar, o‘yinlar, interaktiv vazifalar, taqdimotlar imkoniyatlari tahlil qilindi. Google shakllaridan nutq terapiyasi va psixologik tuzatish va rivojlanish darslari, viktorinalar, testlar va javoblarni avtomatik tekshirish va fikr-mulohazalar bilan ishlash uchun foydalanish bir vaqtning o‘zida ko‘plab yordam vazifalarini hal qiladi [2].

Taniqli messenjer ilovalari orasida (Vkontake, Viber, Whatsapp, Instagram, Twitter, Facebook va Telegram) Vkontake va Whatsapp tezkor aloqa xizmatlari, shu jumladan chat botlarida QR-kod orqali ro‘yxatdan o‘tish xizmatlari sifatida eng ko‘p

talabgorligi aniqlandi. Onlayn platformalarning asosiy afzalliklari mutaxassislariga ta’lim jarayoni ishtirokchilariga samarali hamrohlik qilish imkonini beradi.

Masofaviy jarayon:

− ishlab chiqarish qobiliyati - zamonaviy samarali dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanish;

- qulaylik va ochiqlik - o‘zaro aloqa mashg‘ulot joyidan masofadan turib amalga oshiriladi, mijoz o‘z uyini tark etmaydi, aloqa anonim ravishda amalga oshiriladi;

- selektivlik va moslashuvchanlik - mijoz uchun qulay vaqtda muammo bo‘yicha dars tanlash imkoniyati;

- moslashish - masofadan turib muloqot qilishda raqibning asabiylashishi va kuchlanishini kamaytirish, baholashning sub’yektiv omilining yo‘qolishi;

− tarqatish, tajriba va ilg‘or tajriba almashish - zamonaviy masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish virtual professional jamoalarni tezkor shakllantirish imkonini beradi.

Hech kimga sir emaski, onlayn muloqot faqat mutaxassis bilan haqiqiy muloqotga taqlid qilishga erishilgandagina to‘liq huquqli bo‘ladi. Buning uchun shaxsiy aloqaning yetishmasligini qoplash uchun har xil turdagi elektron aloqalardan foydalanish kerak, ya’ni multimedia va interaktivlikning barcha imkoniyatlari, ovozli video va slayd-filmlar, animatsiya, audio va video, turli xil simulyator o‘yinlari. Interaktiv kontent va dasturlarning jozibadorligini oshirish maqsadida platformaning texnologik infratuzilmasi va texnik resurslari hisobiga axborot mazmuni va mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish zarur. Masofaviy yordam ko‘rsatish uchun taklif etilayotgan elektron resurslar modeli quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:

− o‘quvchilar va ularning ota-onalarining ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish;

− uzluksiz o‘rganish, rivojlantirish va tuzatish jarayonini ta’minlash, shu jumladan uzrli sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shatish holatlarida;

- ta’limning yangi shakllarini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar va talabalarning kognitiv motivatsiyasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

− olingan ta’lim xizmatlari sifatidan qoniqish darajasini oshirish;

− innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayonida mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

− ta’lim muassasasining maqomini va raqobatbardoshligini oshirish.

O‘qituvchining AKT kompetensiyasini shakllantirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

− Internet texnologiyalari yordamida uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalash va malaka oshirish, vebinar va mahorat darslarida qatnashish;

− maktab tomonidan uslubiy ta’minot tizimini ta’minlash;

− kasbiy mahorat tanlovlarida, uslubiy ishlanmalar tanlovlarida, fan va AKT kompetensiyasi testlarida qatnashish;

− ma’lumot olish uchun veb-sayt yoki blog yaratish, talabalar va ularning ota-onalari, hamkasblari va boshqalar;

- bulutli texnologiyalarni rivojlantirish, fan va tanlov kurslarini yaratish va ulardan foydalanish yoki Internet xizmatlari orqali ishchi materiallarga kirishni ta’minlash.

Biz o‘z tadqiqotimizda masofaviy ta’lim jarayonini ta’limda interaktiv muloqotni tashkil etish uchun zamonaviy va ommabop infokommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash shakli sifatida ko‘rib chiqdik.

Masofaviy ta’limni tashkil etishning muhim sharti - o‘zaro aloqada bo‘lgan tomonlar shaxsiy kompyuter va global Internetga ega bo‘lishlari, ammo bu yetarli emas. Masofaviy ta’lim jarayonida dialog aloqasini interfaol dasturlarsiz va qo‘shimcha dasturiy ta’minotisiz qurish mumkin emas. Aynan o‘qituvchilarning masofaviy o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari bilan ishlash ko‘nikmalari yetarli emasligi tufayli ko‘plab maktablarda muammolar yuzaga kelgan. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, so‘rovda qatnashgan talabalarning 25 foizi masofaviy ta’lim jarayonida internet resurslari, messenjerlar va dasturiy ta’minotlardan foydalanmagan, chunki ular bu shakllar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega emaslar.

Ta’lim platformalari nafaqat talabalarning masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish, uni samarali qilish, balki o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha malakasini oshirish imkonini berdi. Ushbu resurslar yordamida o‘qituvchilar uchun bepul vebinarlar, videoma’ruzalar va mahorat darslari o‘tkazildi, bu esa AKT bo‘yicha kompetensiyasini oshirishga yordam berdi. Shunday qilib, zamonaviy o‘qituvchining AKT kompetensiyasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lib, uni hal qilish o‘qituvchining uzluksiz o‘z-o‘zini tarbiyalashi, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish bilan bog‘liq.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarga o‘quv materialini taqdim etish ancha osonlashadi, bu esa o‘rganishni sezilarli darajada kengaytirish imkoniyatini beradi.

Multimedia resurslari eng samarali elektron ta’lim resurslari hisoblanadi. Ushbu turdagi resursning qulayligi shundaki, o‘quv ma’lumotlarini turli xil usullarda taqdim etish mumkin: matn, grafik, fotosurat, video, ovoz va animatsiyadan foydalanish.[5] Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz ushbu manba ekanligini ko‘ramiz:

- idrokning barcha turlaridan foydalanadi, mos ravishda talabaning fikrlash va amaliy faoliyatining barcha turlari yo‘lga qo‘yiladi. Axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarga axborotni taqdim etish jarayoni ushbu ish

shaklining yangiligi tufayli ushbu jarayonni faol qiladi, shuningdek multimedia fayllari yordamida uni yorqin va rang-barang qiladi;

- turli darajadagi vazifalar orqali, materialni individual shaklda o‘zlashtirish orqali o‘quv jarayonini individuallashtiriladi.

Ta’limda axborot texnologiyalarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- har bir talabaning individualligi tufayli ma’lumotni idrok etishning qulay usulidan foydalanish, bu keyinchalik ijobiy o‘quv g‘oyalarini shakllantiradi;

- savollarga javob berishda talabalarni mustaqilligini oshirish;

- qayta aloqa tufayli o‘z faoliyatini yaxshilash, bu esa keyinchalik o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini yaxshilashga olib keladi;

- ijodiy faollikni rivojlantiruvchi mustaqil tadqiqot ishlarini (konstruktorlik ishlarini yaratish, modellashtirish, taqdimotlar qilish) amalga oshirish.

Talabalar tomonidan vazifalarning to‘g‘riligini tekshirish uchun taqdimotlardan foydalanish tavsiya etiladi, chunki grafik va chizmalarni ko‘paytirishga, qiyinchiliklarga olib kelgan vazifalarni tushuntirishga ko‘p vaqt sarflanadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli ta’lim texnologiyalari materialni mustaqil o‘rganishni nazarda tutadi. O‘qituvchi bu holda maslahatchi, agar kerak bo‘lsa, tushunarsiz savollarni tushuntirib beradigan yordamchi sifatida ishlaydi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari:[4]

- mustaqillik, raqamli ko‘nikmalar mustaqil ishlashni nazarda tutganligi sababli, bilimga intilish paydo bo‘ladi;

- talaba o‘qituvchining ortiqcha g‘amxo‘rligisiz katta muvaffaqiyatlarga erishadi;

Raqamli ta’lim qog‘ozbozlikdan xalos bo‘lishga imkon beradi: kompyuterda barcha darsliklar mavjud, planshet esa ish kitoblarini osongina almashtirishi mumkin;

− iqtisodiyot; biz ofis jihozlari haqida gapiramiz, elektron gadjetlar va kompyuterlar faqat buzilgan taqdirda almashtirishni talab qiladi;

− o‘qituvchi ishini soddalashtirish; raqamli ta’limda o‘qituvchi ko‘proq yordamchi sifatida ishlaydi, u talabalarning harakatlanish yo‘nalishini belgilaydi. Ular raqamli ko‘nikmalar orqali bilimlarni mustaqil ravishda izlay oladilar;

- kelajakka qadam, doimiy rivojlanayotgan texnologiya olamiga tez moslashishni nazarda tutadi, kelajakda axborot texnologiyalari sohasida yaxshiroq yo‘naltirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda, zamonaviy axborot ta’lim tizimining kamchiliklari ham mavjud. Bunday holda, biz salbiy natija xavfini hisobga olishimiz lozim. Ushbu tizim birinchi marta qo‘llanilmoqda, bizda amaliyot yo‘q va shunga ko‘ra, bizda ham solishtirish uchun hech narsa yo‘q. Ushbu innovatsiyaning samaradorligi haqida mutlaq ishonch bilan ayta olmaymiz.[3] Bular quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Ijodkorlikning yetishmasligi. Axborot texnologiyalari o‘zini namoyon qilish imkoniyatini bermaydi. Elektron fragmentlar hissiyotlardan holi harakterga yega. Olimlar shuni isbotladilarki, rang sxemasi va daftarda eslatmalar yaratish ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ijodkorlikni rivojlantiradi. Aqliy qobiliyatlarning zaiflashishi. Biz bu hodisani hozirdanoq kuzatishimiz mumkin, chunki qiziqtirgan savolni izlash uchun Internetga kirish va kerakli ma’lumotlarni olish kifoya. Axborot texnologiyalarining zamonaviy dunyosida insonga mustaqil fikrlash kerak emas, global tarmoq uning uchun hamma narsani qiladi, bu esa o‘z navbatida aqliy qobiliyatlarning zaiflashishiga olib keladi.

Yomon ijtimoiylashuv. Talaba raqamli olamda tanish odamlarni ko‘rish ehtimoli juda oz. O‘zini hech kimni tanimaydigan boshqa jamiyatda topadi. Ta’lim muassasasida u nafaqat bilim oladi, balki jamiyat bilan muloqot qiladi, do‘stlari bilan muloqot qiladi. Raqamli texnologiyalar insonning ijtimoiylashuv darajasini sezilarli darajada zaiflashtiradi, bu kelajakda shaxsning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Jismoniy rivojlanish muammolari. Kompyuter ekrani oldida uzoq vaqt turish ko‘zning charchashiga, keyin esa ko‘rishning yomonlashishiga olib keladi. Ko‘rish nozik vosita qobiliyatlari birinchi navbatda azoblanadi. Klaviatura ishi barmoqlarning fiziologiyasini o‘zgartirishi mumkin, natijada suyaklar, bo‘g‘inlar va mushaklarning tuzilishi o‘zgarishi mumkin.

To‘liq nazorat. Mutlaq nazorat o‘qituvchilarga tegishli, talabalar va ota-onalar, ularning har biri uchun shaxsiy ish ochilganligi sababli, har bir oila a’zosi haqida batafsil ma’lumot to‘planadi. Agar bola yomon baho olsa, ota-onalar bu haqda bilishadi va kundalikni yashiradilar va olganlari haqida aytmaydilar.

Yomon baho yo‘q. Bu mustaqillikka zarba beradi, muammolar paydo bo‘lganda, bolalar noto‘g‘ri yo‘llar bilan bo‘lsa-da, ularni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qilishadi.

O‘qituvchilarning vazifasi. Ta’lim sohasiga raqamli texnologiyalar to‘liq joriy etilgandan so‘ng, mutaxassislar o‘rnini robotlar va virtual tizimlar egallashi, bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilarning ish o‘rinlarini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirib, biz shunday xulosaga kelamiz, raqamli ta’lim tizimining zohiriy mutlaq mukammalligi va samaradorligiga qaramay, salbiy jihatlar ham mavjud. Qanchalik kuchli bo‘lmasin, robot qanchalik aqlli bo‘lmasin hissiy tuyg‘ular va, albatta, insonni almashtira olmaydi. Raqamlashtirishning salomatlik va jismoniy rivojlanish kabi muammoli qismini qayd etmaslik mumkin emas, chunki biz bolalarimiz, kelajak haqida gapiryapmiz.

Bizningcha, o‘qituvchilarni butunlay siqib chiqarish mumkin emas, raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida bo‘lishi kerak, lekin ular hech kimga zarar

keltirmaydigan tarzda. Samarali ta’lim uchun ideal formula: raqamli texnologiyalar va o‘qituvchilar tandemi.

Adabiyotlar

1. https://www.etf.europa.eu/sites/default/files/2019-08/dsc_and_dol_ru_0.pdf
2. https://phsreda.com/e-publications/e-publication-10233.pdf
3. https://storage.strategy24.ru/files/news/202102/ff00a177b3fa0bb25513e8e59ad097d5.pdf
4. https://lala.lanbook.com/cifrovaya-didaktika-11-osnovnyh-principov
5. https://elibrary.ru/item.asp?id=39148918

TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA BADIIY IJODIYOTDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA AHAMIYATI

Sobirxonov A.T. - Namangan Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maktab tabiiy geografiya darsliklari tahlil qilingan, tabiiy geografiya ta'limida qo‘shimcha badiiy adabiyotlardan foydalanish usullari o‘rganilgan, tabiiy geografiyasi darslari jarayonida badiiy ijodiyotdan foydalanishning afzalliklari batafsil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktab tabiiy geografiyasi, badiiy ijod, badiiy metod, she’riy usul, Janubiy Amerika, chekka nuqta, atmosfera, kislorod, karbonat angidrid, traposfera, stratosfera, mezosfera, ekzosfera, bahrubayt.

ОСОБЕННОСТИ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. Проанализированы школьные учебники по физической географии, изучены способы использования дополнительной литературы в обучении физической географии, подробно изложены преимущества использования художественного творчества на уроках физической географии.

Ключевые слова: школа естественной географии, художественное творчество, художественный метод, поэтический метод, Южная Америка, краевая точка, атмосфера, кислород, углекислый газ, трапосфера, стратосфера, мезосфера, экзосфера, бахрубайт.

FEATURES AND SIGNIFICANCE OF THE USE OF FICTION IN THE LESSONS OF PHYSICAL GEOGRAPHY

Sobirxonov A.T. - Independent researcher at Namangan State University

Annotation. School textbooks on physical geography are analyzed, ways of using additional literature in teaching physical geography are studied, the advantages of using artistic creativity in physical geography lessons are detailed.

Key words: School of natural geography, artistic creativity, artistic method, poetic method, South America, edge point, Atmosphere, oxygen, carbon dioxide, traposphere, stratosphere, mesosphere, exosphere, bahrubait.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya sohasida ko‘plab metodlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinmoqda. Bu esa o‘z navbatida har bir bilim oluvchi yosh uchun qulay imkoniyatlar eshigini ochadi. Har bir fanni rivojlantirish va uning ko‘lamini kengaytirish, ushbu fanni ko‘p jihatdan o‘qitilishiga bog‘liq. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek**, “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi” [1].**

Shu ma’noda geografiya darslarida ham dars o‘tishning yangicha usullaridan foydalanish ta’lim sohasidagi va bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri ekanligini inobatga olsak, bu kabi jihatlarga oddiy hol sifatida qarashning o‘zi kifoya. Bu o‘rinda geografiya darslarida badiiy ijoddan foydalanish orqali mavzularni har tomonlama o‘quvchilarga oson, sodda va tushunarli tarzda yetkazish mumkin. Avvalambor, badiiy ijod deganda, geografiya mavzulariga tegishli bo‘lgan biron bir asardan parcha, hikoya yoki sherni tushunish kerak.

Keling, shu o‘rinda, ajdodlarimiz bizga qoldirgan tarixiy meroslarni bir eslasak, ko‘p hollarda o‘sha zamondagi voqea va hodisalar bizgacha badiiy ijod mahsuli hisoblangan asarlar, hikoyalar yoki she’rlar orqali yetib kelganiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz. Qolaversa, har qanday kitoblarda keltirilgan badiiy asarlar voqea-hodisalarni kitobxonga o‘zi xohlagandek tushunishiga yordam beradi. Chunki badiiy yo‘l bilangina bu natijalarga erishish mumkin. Shunday ekan, geografiya darslarida biron bir mavzuga bag‘ishlangan badiiy ijoddan keltiriladigan namunalar, o‘quvchilarni har tomonlama mavzuni tushunishiga va darslarning qiziqarli bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Shu boisdan maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijoddan foydalangan holatda darslar tashkil etilsa, o‘qituvchi dars jarayonida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga tezroq va osonroq erishgan bo‘ladi. Boisi, badiiy ijodda (roman, doston, hikoya, she’r va h. z.) keltirilgan jumlalarda geografik mavzuga tegishli bo‘lgan tayanch so‘zlar, iboralar, atamalar tinglovchilarga, mazmun jihatdan har tomonlama tushunarli bo‘ladi va mavzuni to‘laligicha ochib berishga hizmat qiladi.

Masalan, bizga ma’lumki jahonda oltita materik mavjud, (Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida va Avstraliya) ushbu materiklarni

yoritishda badiiy ijod orqali quyidagi she’riy usuldan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Janubiy Amerika

Eng katta iloni, mitti baliqlar,
Eng sersuv daryosi, eng keng sharshara,
„Sayyoramiz o‘pkasi“ deyishar uni,
O‘quvchim diqqat qilib, kartaga qara.

Galinas, Frourd, Parinyas ham,
Hamda, Kabu-Branku chekka nuqtasi,
O‘rmonlar maydoni ulushi ko‘pdir,
Tekislik hududi uning markazi.

O‘rganing iqlimi, relefini ham,
Geografik o‘rniga ta’rif beringlar,
Globusga qarab, ma’lumot to‘plab,
Mavzuga doir savol tuzinglar [2].

Yuqorida keltirilgan, Janubiy Amerika materigi mavzusiga tegishli ushbu she’rda mavzularni har tomonlama tushunarli yoritilganligini ko‘rish mumkin. Badiiy ijod namunasi orqali o‘quvchilar materikning chekka nuqtalari, uning o‘ziga hos jihatlarni o‘rganish bilan bir qatorda u sodda tilda aytilishi ham diqqatga sazovordir. She’rni tahlil qilish orqali esa, mavzuga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni bemalol tushunib yetish imkoniyati mavjud.

Atmosfera - Geografik qobiqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u havo qobig‘i. Atmosfera yer bilan birga aylanadi. Yerning havo qobig‘i (Atmosfera) asosan azot – 78% , kislorod – 21% , argon- 0.93% , karbonad angidrid – 0.03% kabi gazlardan tashkil topgan. Bundan tashqari atmosferada suv bug‘lari, changlar ham mavjud. Keling endi ushbu mavzuni ham badiiy ijod bilan izohlasak,

Atmosfera

Atmosfera – havo qobig‘i, ekan,
Tarkibidir azot, kislorod uni,
Geliy, neon, ksenon, amiaklar ham,
Unga tegishlidir unutma buni.

Hayot uchun muhimi troposfera,
Yana stratosfera, mezosfera bor,
Bordir termosfera, ekzosfera ham,
Oraliq qatlamga qilgin e’tibor.

Balandlashgan sari tarkib o‘zgarar,
Havo pasayadi, bosim ortadi,

Oraliq qatlamlar turar bir joyda,
Qatlamlar orasida ular yotadi.
Troposferada – havo zich bo‘lar,
Bulutlar, shamollar vujudga kelar,
Yer yuzi uchun eng muhim qatlam,
Yog‘inlar ham aynan shu yerda bo‘lar.
Atmosfera massasining 10 % qismi,
Havo siyrak, azon miqdori ko‘pdir,
Bu qatlam albatta Stratosfera,
Lekin bu yerda ham ionlar yo‘qdir.
Mezosferada ham bosim ancha kam,
Manfiy haroratlar bu yerga xosdir,
Yerdan farqli havo anchayin siyrak,
Changlarning bo‘lishi qatlamga mosdir.
Termosfera, Ekzosfera qatlami,
Qatlamlarning ustki yuqori qismi,
Atmosfera shudir aziz o‘quvchim,
Xullas bu qatlamlar uning bir qismi.

She’r orqali bu mavzu to‘laligicha yoritib beriladi. Bunda o‘quvchilar mavzuga tushungan holda, Atmosferaning qanday qobiq ekanligini, uning tarkibiga kiruvchi komponentlarni, atmosfera qatlamlarini hamda yuqoriga ko‘tarilgan sayin qatlamlarning xususiyatini o‘zgarib borishini bilib oladilar. O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida atmosfera qatlamlarini qanday xususiyatlarga ega ekanligini, qatlamlardagi turli xil jarayonlarni, undagi voqea-hodisalarning holatini, atmosferadagi oraliq qatlamlarning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quvchilarga tushuntirish mumkin.

Atmosfera qatlamlari bo‘lgan Troposfera, Stratosfera, Mezosfera, Termosfera, Ekzosferalar haqida o‘quvchilar yetarlicha ma’lumot oladi. Bundan tashqari o‘quvchilar har bir qatlamga xos bo‘lgan hususiyatlarni, jumladan, troposferadagi havoning zichligini, bulutlar, shamollar, yog‘inlarning aynan shu qatlamda yuzaga kelishini bilib oladi. Atmosfera massasining 10% ini stratosfera tashkil etganligi, qatlamdagi havo tarkibida azon miqdorining ko‘pligi va u yerda ionlarning yo‘qligi, mezosfera qatlamida esa bosimning ancha kamligi, havo haroratining sovuqligi va havoning siyrakligi, bu qatlamda chang zarralarining bo‘lishi, eng yuqorid a termosfera va ekzosfera qatlamlari mavjud ekanligi yuqoridagi badiiy ijod namunasida batafsil yoritilgan [4].

Maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijoddan foydalangan holda dars o‘tishning bir qator o‘ziga xos jihatlari va hususiyatlari mavjud;

1. O‘quvchilarga tabiiy geografiya darsligidagi mavzularni, geografik tushunchalarni sodda, ravon va tushunarli holatda yetkazishni ta’minlash;

2. O‘quvchilarning nutq ravonligini oshirish, yodda saqlab qolish qobilyatlarini kuchaytirishga hizmat qilish;

3. Dars mashg‘ulotlari jarayonida mavzular bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida o‘ziga xos raqobatni vujudga keltirish, shu orqali ularni mavzularga oid tushunchalarini mustahkamlash;

4. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabatlarni ilm-fan nuqtayi nazaridan bir-birlarini tushunishiga yordam berish;

5. Dars davomida o‘quvchilarga, badiiy ijod namunalaridan misollar keltirib, geografik obekt va predmetlar to‘g‘risida tasavvurlar uyg‘otish;

6. Mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishlariga yordam berish;

7. Geografiya fan oyligida va geografik kechalarda bahrubaytlar uyushtirish hamda shu orqali geografiya faniga bo‘lgan qiziqishni yanada ortirish kabilarni o‘z ichiga oladi [3].

Xulosa o‘rnida, O‘quvchilar mavzuga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni bitta kitobdan yoki darslikdan olishga harakat qilishadi, bu esa ko‘p hollarda fanni o‘zlashtirish uchun kamlik qiladi. Shuning uchun ham geografiya darslarida badiiy ijoddan keltirilgan misollar orqali mavzular har tomonlama keng yoritiladi. Qolaversa, o‘quvchilar geografiya faniga tegishli bo‘lgan mavzularni badiiy ijod orqali ham olish mumkinligini anglab, boshqa adabiyotlarni ham izlashga tushadi. Bu esa ular uchun juda qiziq bo‘lish bilan bir qatorda, yosh-psixologik hususiyatlariga ham mos keladi. Shuningdek, darsning har tomonlama qiziqarli, bahs-munozarali o‘tishiga asos bo‘ladi. Shunday ekan, geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish, zamon talabidan kelib chiqgan holda, dars o‘tish jarayoniga yangicha yondashishni kerakligini yana bir bor o‘zida namoyon etadi.

Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi ma’ruzasi. 2020-yil 30-oktyabr

2. Sobirxonov. A.T. Tabiiy geografiya kursida mavzularni yoritishda badiiy metoddan foydalanish (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) - T.:”Turon zamin ziyo” 2015. 32-33 b.

3. Sobirxonov. A.T. Tabiiy geografiya fani darslarida qo‘shimcha badiiy adabiyotlardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari-T. 2015. 426 b.

4. Nabixonov. M. Tabiiy geografiya darslarida qo‘shimcha badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati-T. 1968. 17 b.

MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ZOOLOGIYA TA'LIMI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (SUYAKLI BALIQLAR SINFINI O'RGANISH MISOLIDA)

Xonnazarova M.T. – Toshkent davlat pedagogika universiteti "Zoologiya va anatomiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada media, mediatexnologiyalar, mediata'lim tushunchalari hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarga suyakli baliqlar sinfini o'qitishda media resurslaridan foydalanish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Zoologiya fanining mediatexnologiya resurslari, ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: media, mediata'lim, mediatexnologiya, mediasavodxonlik, zoologiya fani, suyakli baliqlar sinfi, media-axborotlar, ta'lim jarayoni, axborot savodxonlik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ЗООЛОГИИ НА ОСНОВЕ МЕДИАТЕХНОЛОГИЙ (НА ПРИМЕРЕ ИЗУЧЕНИЯ КЛАССА КОСТИСТЫХ РЫБ)

Xonnazarova M.T. - преподаватель кафедры зоологии и анатомии Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье рассматриваются понятия медиа, медиатехнологии, медиаобразования и их значение в образовательном процессе. Обсуждается также использование медиа-ресурсов в обучении костистых рыб студентам высших учебных заведений. Раскрываются медиатехнологические ресурсы зоологии, их содержание и сущность.

Ключевые слова: медиа, медиаобразование, медиатехнологии, медиаграмотность, зоология, класс костистых рыб, медиаинформация, образовательный процесс, информационная грамотность.

IMPROVING THE METHODS OF TEACHING ZOOLOGY BASED ON MEDIA TECHNOLOGIES (ON THE EHAMPLE OF STUDYING THE CLASS OF BONY FISH)

Khannazarova MT - Lecturer, Department of Zoology and Anatomy, Tashkent State Pedagogical University

Annotation. The article discusses the concepts of media, media technology, media education and their importance in the educational process. The use of media

resources in teaching class of bony fish to students in higher education institutions was also discussed. Media technology resources of zoology, their content and essence are revealed.

Key words: media, media education, media technology, media literacy, zoology, bony fish class, media information, educational process, information literacy.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlarning asosiy maqsadi mamlakatimizning jahonning yetakchi davlatlari yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, har tomonlama yetuk, barkamol avladlarni voyaga yetkazish hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida ***“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya, bu- kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”*** [4] - deb ta’kidlagan edilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli [2], 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli [3], 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5763-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmonlarida [1] keltirilgan ustuvor vazifalarda ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatli va samarali tashkil etishga, shuningdek, ta’lim jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish va ko‘zlangan maqsadga erishishda media, ya’ni internet, televidenie, radio, kino, video va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish samarali ekanligi o‘z isbotini topmoqda [6; 56-bet]. E’tibor beradigan bo‘lsak, hayotimizning barcha jabhalariga mediatexnologiyalar jadal sur’atlarda kirib kelmoqda. Shunday ekan, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar ham ulardan to‘g‘ri, unumli va maqsadga muvofiq foydalanishi zarur bo‘ladi [5; 65-bet].

Xo‘sh, mediatexnologiya nima va uning ta’lim jarayonlaridagi ahamiyati qanday?

“Media” atamasi (lotincha - medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasi kabi ma’nolarni bildiradi. Shuningdek, media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy axborot almashinuvining texnik vositalarini kiritish mumkin. [8; 115-bet]:

Mediatexnologiyalardan ta’lim jarayonlarida foydalanish ta’lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, dars mashg‘ulotining sifatli, qiziqarli va mazmunli o‘tilishiga hamda ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Medianing dastlabki turlari ancha oldin paydo bo‘lganligiga qaramay, o‘tgan asrning 50-60-yillarida mediadan ta’lim jarayonlarida foydalanish masalalari ko‘pgina tadqiqotchi-olimlar e’tiborini tortgan. Mediata’lim medianing barcha turlari (bosma, grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) turli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikatsiya paytida mediadan foydalanish ko‘nikmasini o‘zlashtirish kabi ijobiy imkoniyatlar yaratadi.

Mediata’lim aynan mediatexnologiyalar asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, rus olimi A.Jurin medata’limni uchta turini ajratadi [7; 88-bet]:

1. Ommaviy axborot vositalarining bolalar va o‘smirlarga ta’sirini o‘rganuvchi va nazariy masalalarini ishlab chiquvchi, ta’lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan uchrashuvga tayyorlovchi pedagogik fan;

2. Bolalar va o‘smirlarni ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, medianing dunyodagi rolini tushunishga tayyorlovchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi amaliy faoliyati;

3. Ta’limning OAVlarini madaniyat va dunyoni tushunishdagi roli haqida bilim beruvchi, media axborotlar bilan samarali ishlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi qismi.

Ingliz olimi A.Dorrining fikriga ko‘ra, mediata’lim mediani o‘rganish orqali mediasavodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. [9; 116-bet]

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimidagi barcha fanlar qatori zoologiya faniga, xususan “Suyakli baliqlar” sinfini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga oid mediatexnologiyalarni yaratish va foydalanishga kamroq e’tibor berilayotganligi sir emas. “Suyakli baliqlar” sinfini o‘qitishda mediatexnologiyalarning bugungi kun talabiga va vazifalariga ko‘ra bir nechta xususiyatlarini ajratishimiz mumkin:

1. Media - axborotlar orqali “Suyakli baliqlar” sinfiga oid materiallarni boyitish va samarali ishlash ko‘nikmasini shakllantirish mexanizmi sifatida;

3. O‘qituvchining samarali metodik faoliyati asosida talabalarda mediaaxborotlar orqali “Suyakli baliqlar” sinfini mukammalroq o‘rganish, tushunishdagi o‘rni va ahamiyatini oshiruvchi omil sifatida;

4. Mediatexnologiyalar – suyakli baliqlarga doir voqea-hodisalar (ularning yashash sharoiti, tarqalishi, ko‘payishi, tashqi ko‘rinishi, hazm qilish sistemasi va h.k.)ning mohiyatini makon va zamonda tez anglatuvchi, oson tushuntiruvchi manba sifatida;

6. Talabalarda keng qamrovli informatsiyalarni qisqa muddatda qayta ishlash, sintez qilish imkonini yaratuvchi omil sifatida va h.k.

Quyida biz oliy ta’lim muassasalarida zoologiya faninini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishga oid resurslarni keltiramiz (1-rasm).



1-rasm. Zoologiya fanining mediatexnologiya metodik resurslari

“Mediatexnologiya”, “mediata’lim”, “innovatsion mediatexnologiya” kabi tushunchalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Suyakli baliqlar sinfi”ni mediatexnologiyalar

asosida o‘qitish mohiyati va tuzilishini aniqlashda “Talabalarning zoologiya fanini o‘qitishda mediatexnologiyalar” tushunchasiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini talabalarning pedagogik faoliyati uchun zarur bo‘lgan integrativ mazmunga ega bo‘lgan resurslar tashkil etadi. Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida aynan zoologiya fanini o‘qitishda foydalanilayotgan ta’lim metodlari va o‘quv materiallarida jiddiy metodik o‘zgarishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Bu o‘zgarishlar sirasiga albatta mediatexnologiyalarni kiritishimiz mumkin.

Zoologiya fanini o‘qitishda mediatexnologik ta’limdan foydalanishdan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda mediasavodxonlikni takomillashtirishdir. Savodxonlikning aynan shu turi talabalarga axborot maydonida televidenie, radio, video, kinematograf, matbuot, internet, mediamadaniyatning mohiyatini tushunishga, axborotlarni tahlil etish yo‘li bilan qabul qilishga, ulardan maqsadli va samarali foydalanishga yordam beradi.

Hozirgi globallashuv zamonda jahon jamoatchiligini, xalqimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohatlar, yangilik va o‘zgarishlardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lish, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ta’lim jarayonida axborotlar olishini keng ta’minlash, o‘zaro munosabatlarni holis va haqqoniy aks ettirishda zamonaviy axborot vositalari, xususan mediatexnologiyalar talabalarning mediasavodxonligi va ijtimoiy faolligini oshirish samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu qatorda zoologiya fanidan ham elektron darsliklar, videodarslar, dasturiy ta’minotlar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, multimedia ilovalarini yaratish va foydalanish talabalarning zoologiya faniga oid qiziqishlarining yanada oshishiga, ularning tabiat ne’matlariga ongli munosabatda bo‘lishlariga, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga hamda shu fanni o‘qitish metodikasining yanada takomillashuviga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mediatexnologik ta’limning asosiy maqsadi mediasavodxonlikni oshirish va insonlarni jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini ko‘tarishga xizmat qilishdan iborat. Zoologiya fanini o‘qitishda mediatexnologiyalardan foydalanish talabalarning axborot madaniyatining rivojlanishiga, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish kompetentsiyalarini yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda jamiyat taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar voqea-hodisalarni ijtimoiy va ruhiy jihatdan yaxshiroq anglaydi va baholaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni // QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.

4. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi “Xalq, so‘zi”, №261 (6955) 2017-yil, 27-dekabr.

5. Abduqodirov A.A va boshqalar. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: Iste’dod jamgarmasi, 2008. -145 b.

6. To‘lqin Eshbek.”Mediata’lim: yangi ta’lim usuli sifatida.” www.sharh.uz. 2020. 120 b.

7. Журин А.А. Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы // Медиаобразование. 2005. № 1. –С. 32.

8. Фатеева И.А. Медиаобразование: теоретические основы и практика реализации // Монография.-Челябинск: Челяб. гос.ун-т, 2007.-270 с.

9. Dorr, A. (2001) Media Literacy. In: International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. Vol. 14 / Eds.N.J.Smelser & P.B.Baltes. Oxford, 2001, pp. 9494-9495.

ПРИМЕНЕНИЕ КРЕАТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ

Марупова Д.Д. ─ преподаватель Международного университета туризма и культурного наследия «Шёлковый путь»

Аннотация. Статья посвящена проблеме использования интерактивных (креативных) методов обучения на уроках литературы в высшей школе. В исследовании обосновывается дидактический потенциал данной педагогической технологии, выявляется целевая система и преимущества ее использования на уроках литературы в современной системе образования. В работе среди креативных идей путем теоретического анализа и отбора указаны наиболее эффективные методы, которые могут быть использованы в рамках современных уроков литературы.

Ключевые слова: креативность, креативные способности и технологии, «образовательное путешествие», метод «дебаты».

OLIY MAKTABDA ADABIYOT DARSLARIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLANISH

Marupova D.D. ─ “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqola oliy o‘quv yurtlarda adabiyot darslarida interfaol (kreativ) o'qitish usullaridan foydalanish muammosiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ushbu pedagogik texnologiyaning didaktik imkoniyatlari asoslanadi, maqsadli tizim va zamonaviy ta’lim tizimida adabiyot darslarida foydalanishning afzalliklari aniqlanadi. Ishda ijodiy g‘oyalar spektri orasida zamonaviy adabiyot darslari doirasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng samarali usullar nazariy tahlil va tanlash orqali ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, kreativ qobiliyat va texnologiyalar, “ta’lim sayohati”, “bahs” usuli.

APPLICATION OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF LITERATURE AT THE HIGHER SCHOOL

Marupova D.D.─ Teacher of the International University of Tourism and Cultural Heritage "Silk Road"

Annotation. The article is dedicated to the problem of implementing interactive (creative) teaching methods in lessons on literature at higher educational establishment. The study substantiates the didactic potential of this pedagogical technology, identifies the target system and the advantages of its implementation in lessons on literature in the modern system of education. The article provides the most effective methods that can be implemented in the framework of modern literature lessons, selected by theoretical analysis and selection among the spectrum of creative activities.

Key words: creativity, creative abilities and technologies, "educational journey", "debate" method.

Современная тенденция гуманизма и гуманитаризма отражается в развитие социокультурной компетенции через образование, что в свою очередь ведет к приобщению к культуре и повышению общего уровня знаний. Кретивное мышление позволяет человеку управлять своей коммуникативной деятельностью и личностным поведением [1]. В технологическом двадцать

первом веке необходимо внедрить новые методики и педагогические технологии для того чтобы развить образовательный процесс и мышление студентов, для чего и разрабатывают разного рода интерактивные методы. Например, были разработаны методы объективности, логики, анализа и синтеза научных знаний. Но одной разработки здесь мало, для того чтобы эффективно имплементировать это в научную среду преподавателю необходимо обладать педагогическими навыками. Преподаватель должен доточить свое мастерство до высокого уровня. Интерактивное обучение - это особая форма организации познавательной деятельности, что подразумевает под собой конкретные и прогнозируемые цели, такие как создание комфортных условий обучения, при которых студент сам делает свой процесс обучения.

Традиционные методы обучения уже не так эффективны, из-за чего высшие учебные заведения на сегодняшний день перешли от методики *«передачи максимального объёма знаний» на «формирования креативной личности». Суть данных перемен в том что двадцать первый век ставит новые требования к участникам рынка труда, сегодня они должны уметь оптимально распорядиться знаниями, эффективно реализоваться, быть востребованной социумом. Формирование* индивидуальности *является одним из основных стратегических целей образования, в которой максимально полно выражена духовная, нравственная и профессиональная сущность человека. При этом, знания, как основа образованности человека остаются базисом в его формировании.*

Образование это общественный институт, обеспечивающий приобщение у культурно-нравственным ценностям, важно подметить, что образование осуществляется передачей знаний, а путем приобщения к ценностям.

Технология *«образовательные путешествия»* переносит внимания с приобретения конкретных знаний о мире на освоение различных способов познания мира, например, погружением в историю и культуру человечества. Она была разработана и внедрена в образовательную практику сегодняшнего дня русскими учёными кафедры прикладной культурологи Санкт-Петербургской академии [5]. Данная технология направлена на развитие личности и раскрытие творческого потенциала в процессе освоения культуры. Культурно-исторические памятники и произведения искусства могут быть использованы как хорошая площадка для развития данной технологии. Технологию и способ его реализации можно адаптировать к явлениям своего города, с целью расширения взглядов на мир студентов, что позволит им лучше сориентироваться и найти свое место в жизни. Также, данная технология позволяется привить исследовательские навыки и развить умение работать в

команде. Через технологию *«образовательные путешествия»* студент сможет получить знания, умения, навыки и ориентации на и дальнейшее использование в процессе становления личности. Изюминка и в то же время сложность данной технологии выражается в невозможности достигать одинаковых результатов всеми участниками, здесь важен личностный рост каждого пропорционально его/ее силам и возможностям. При этом, у каждой личности появляются свои интересы и направления, например, один из студентов может заинтересоваться исследовательской работой, в то время как второй осмыслит текст культуры и напишет эссе; а третий может заинтересоваться определённым пластом культуры. В итоге в сознании студентов возникнет целостный фрагмент картины мира, реконструируемой путешественником.

Технология *«Дебаты»* нацелена на креативное мышление и умение быстро переваривать информацию. С ее помощью можно усилить интерес студентов актуальным проблемами мира, и в процессе дебатов услышать много новых идей и решений.

Вся прелесть дебатах заключается в отсутствии точности, в дебатах всегда можно оценивать ситуацию или факт различных ракурсов, пересмотреть очевидные, на первый взгляд, истины и усомниться в их справедливости. Они формируют умение вырабатывать жизненную позицию и развивают оценочное мышление личности. В основе технологии *«дебатов»* лежит спорный тезис, который является темой и определяет позиции двух соревнующихся команд (две команды по три человека, которых традиционно называют спикерами). Одна из команд защищает тезис, представляя его как правильное, а другая отрицает, доказывая его неправильность, при этом вторая команда должна представит антитезис. Дебаты работают по схеме «критикуешь – предлагай». Данная технология может быть применена в учебном процессе на занятиях, уроках контроля знаний, обобщения или при закреплении учебного материала.

Что же дают дебаты студентам?

Во-первых, в процессе подготовительного этапа к дебатам каждый студент проводит своё собственное исследование темы, что позволяет ему/ей ознакомиться со всей актуальной информацией о теме дебатов. На этом этапе студенты изучают документальные материалы (письма, дневниковые записи), литературоведческие и отдельные философские работы, подробнее знакомятся с исторической обстановкой и так далее.

Во-вторых, изучая материалы, студенты набираются необходимой стилистики, словарного запаса и способ преподнесения информации касаемо выбранной темы. Они учатся выстраивать свою позицию в споре, подкрепляя свои аргументы фактами и точными ссылками на источники. В-третьих – суть

дебатов (слушать и отвечать аргументам другой стороны) заставляет студентов принимать другую точку зрения и относиться толерантее к мнению, отличающим от их личного. В-четвёртых, дебаты – это командная работа, в процессе, студенты учатся работать в коллективе и осознают важность «один за всех, все за одного». В-пятых – в дебатах всегда есть вакансия лидера команды, что дает возможность студентам почувствовать дух соперничества и проявить себя в качестве ведущего и ответственного за всю команду. В-шестых, дебаты требуют быстрой реакции и умения подбирать контраргументы на аргументы другой команды, это развивает критическое мышление студентов.

В дебатах ключ успеха – это структура и планирование. Это подразумевает что дебаты – это система формализованных дискуссий на различные темы. При подготовке и проведении урока литературы в формате дебатов выделяется две группы содержательная сторона и процессуальная сторона. Содержательная сторона - определяется характером и содержанием произведения, в то время как процессуальная, связана с освоением учащимися ролевых функций участников дебатов и отработкой соответствующих систем действий, предписываемых этой технологией.

Успех дебатов – это уже нарисованная структура, это и заставляет всех его участников готовиться заранее. Подготовка преподавателя заключается в выборе темы введении рамок на проведение прений и дискуссий. Подготовка студентов подразумевает детальный анализе выбранной темы. В этом этапе наблюдается тенденция подчеркивания, выделения текста: устанавливаются отрывки, которые будут использованы в дебатах; в подборе литературоведческих и критических источников, с помощью которых будут строиться аргументы и контраргументы.

Для студентов, этот этап достаточно сложный так как он подразумевает работу с литературными текстами, при этом бремя анализа и интерпретации данной литературы в свою пользу лежит на студенте. Больше всего сложностей студенты встречают на этапе интерпретации такой литературы, так как мы имеем дело с авторским текстом, студентам приходится представлять авторскую концепцию. Студент может соглашаться с автором или нет, но при этом ему придётся убеждать оппонента в преимуществах определённого мнения.

В дебатах обучающиеся проходят три стадии: стадию вызова, осмысления темы, рефлексии. Чтобы яснее обосновать свою позицию в отношении темы, в процессе подготовки к дебатам и утверждающая, и отрицающая стороны должны ответить на следующие вопросы:

- *Согласен ли студент с позицией автора?*
- *Какие проблемы поднимает автор в произведении?*

- *Каковы тема и идея произведения?*
- *Какие основные проблемы содержит тема и какие примеры можно привести?*

Следующий этап в дебатах – итоги. На этом этапе участникам нужно ответить на следующие вопросы:

- *Какое их личное мнение по поводу поставленного вопроса?*
- *Чем отличается данное мнение от позиции автора?*
- *Помогло ли участие в дебатах ответить каждому на поставленный вопрос?*
- Самой главной целью в дебатах является интерес учащихся к предмету спора. Азарт и дух соперничества заставляет участников глубже вникать в тему и попытаться интерпретировать все в свою пользу. Дебаты позволяют студентам на безопасном полу спорить и дискуссировать о теме, и в споре, как говорил Сократ, рождается истина.

В заключение, студентам двадцать первого века сложно угодить традиционными методами обучения, они требуют большего и поэтому все большее число преподавателей применяют нетрадиционные (креативные) идеи в своей работе. Благодаря чему развивается критическое мышление у обучающихся.

Эти методы способны организовать активное и открытое обсуждение учебного материала, модифицировать его и дополнять в процессе обсуждения в режиме реального времени. Они являются средством активизации читательской аудитории и восприятия мира, поскольку они содержат компоненты, обеспечивающие интерес к выполняемым заданиям, интерактивные приемы и творческие задания. Эти элементы помогают преподавателю в проведении уроков, основанных на различных формах коллективной и групповой работы. Технология "Дебаты" дает возможность развивать логическое мышление, аргументированно высказывать свою точку зрения, активизируя речевые навыки.

Литература

1. Указ № УП-5847 Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования до 2030 года» от 8 октября 2019 г.

2.*Браже Т. Г.* Целостное изучение эпического произведения: пособие для учителя. – 2-е изд., перераб. – СПб., 2000.

3. *Брякова И. Е.* Образовательное путешествие как способ постижения культурного пространства пушкинского текста // Четвёртые Измайловские чтения, посвящённые 180-летию поездки А. С. Пушкина в Оренбург.

Международная научно-практическая конференция. Оренбург, 26-28 сентября 2013 г.: сборник статей. – Оренбург, 2013.

4. *Брякова И. Е.* Формирование креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: монография. – Оренбург, 2010.

5. *Гнатко М. Н.* Проблема креативности и явление подражания. – М., 1994.

6. *Маслоу А. Г.* Мотивация и личность. – СПб., 1999.

7. Мировая художественная культура: контуры современного урока. Методические рекомендации в помощь учителю. – СПб., 2007.

TABIIY FANLAR YO‘NALISHIDA PISA, PIRLS, TIMSS DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI

Supayeva A.N. - Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tayanch maktablari bazasida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarida xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlari doirasidagi sinovlarga o‘quvchilarni tayyorlash, xalqaro tadqiqotning namunaviy topshiriqlarini yechish bilan birga, tadqiqotda baholanadigan ko‘nikma va kompetensiyalarni, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini baholash va rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy tavsiyalar berish maqsadlari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, xalqaro tadqiqot dasturlari, Tabiiy - ilmiy savodxonlik.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММ PISA, PIRLS, TIMSS В ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУКАХ

Супаева А.Н. - докторант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется подготовке учащихся к международным тестам PISA, PIRLS, TIMSS и TALIS в основных школьных учебных мероприятиях, а также навыкам решения проблем и компетенциям, а также творческому и логическому мышлению учащихся и оцениванию и развитию соответствующих предметных областей, а также практическим и методическим рекомендациям для учителей.

Ключевые слова: PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, международные исследовательские программы, естественнонаучная грамотность.

ADVANTAGES OF USING PISA, PIRLS, TIMSS PROGRAMS IN NATURAL SCIENCES

Supayeva A.N. - Doctoral student of Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article focuses on preparing students for international PISA, PIRLS, TIMSS, and TALIS tests in basic school-based learning activities, as well as problem-solving skills and competencies, as well as students' creative and logical thinking and relevant subject areas. assessment and development, and practical and methodological recommendations for teachers.

Key words: PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, international research programs, Natural Science Literacy.

“Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak.”

Sh.M. Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga [1] muvofiq O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim tashkilotlarining PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularda ishtirokini ta’minlash vazifalari belgilangan. Shuningdek, “Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga [2] ko‘ra, o‘quvchilarni baholash xalqaro PISA dasturi reytingida O‘zbekistonning 2030-yilga kelib, 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishiga erishish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida [3] 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish, 348 ta Tayanch maktablarni tashkil etish va 6000 nafar o‘qituvchilarning malakasini oshirish vazifalari belgilab qo‘yilgan.

Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xalq ta’limi vazirligining qarori [4] asosida Respublika bo‘yicha Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirilgan Tayanch maktablari belgilandi. Qarorga ko‘ra, Tayanch maktablari - hududdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishga yo‘naltirish bo‘yicha asosiy metodik bazaga ega bo‘lgan, doimiy harakatdagi o‘quv mashg‘ulotlar, seminar-treninglar, davra suhbatlarini tashkil etish, xalqaro baholash dasturlariga oid ilg‘or tajribalarni ommalashtirish ishlarini amalga oshiradigan muassasalar hisoblanadi.

Tayanch maktablari bazasida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarida xalqaro PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlari doirasidagi sinovlarga o‘quvchilarni tayyorlash, xalqaro tadqiqotning namunaviy topshiriqlarini yechish bilan birga, tadqiqotda baholanadigan ko‘nikma va kompetensiyalarni, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini baholash va rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy tavsiyalar berish maqsadlari ilgari surilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Tayanch maktablar faoliyatini samarali tashkil etish, o‘tkaziladigan seminar-trening, o‘quv mashg‘ulotlari va davra suhbatlarining tizimli va mazmunli bo‘lishi dolzarb ahamiyatga ega.

PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo‘lib, Program for international student assessment – o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma’noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo‘lib, u dunyo bo‘ylab 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir.

Tadqiqot an’anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o‘tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo‘nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo‘nalish kiritiladi. 2022-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo‘nalish sifatida o‘quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o‘quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari baholanadi.

PIRLS - ingliz tilidagi Progress in international reading and literacy study so‘zlaridan olingan bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur dastur IEA tomonidan har 5 yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISAdan farqli ravishda boshlang‘ich ta’limdagi 4-sinf o‘quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko‘nikmalari baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi.

PIRLS dasturida asosiy e’tibor 4-sinf o‘quvchilariga qaratiladi, buning boisi, ushbu rivojlanish davrida o‘quvchilar o‘qish ko‘nikmasini hosil qilgan bo‘lib, endi bu ko‘nikmadan boshqa fanlarni o‘rganishda foydalanayotgan bo‘ladi.

TIMSS - ingliz tilidagi Trends in International Mathematics and Science Study so‘zlaridan olingan bo‘lib, umumiy o‘rta ta’limdagi matematika va tabiiy fanlardan ta’lim sifatini baholashga mo‘ljallangan xalqaro tadqiqot 6 dasturidir. TIMSS ham IEA tomonidan joriy etiladigan PIRLS bilan hamnafas keladigan dastur bo‘lib, unda 4-, 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlari va savodxonliklari har 4 yilda bir marotaba xalqaro darajada baholanadi. Shuningdek,

2015 - yilga qadar bitiruvchi sinf o‘quvchilari ham tadqiqotlarda ishtirok etgan. Ushbu dastur o‘quvchilarning, asosan, fundamental bilimlarini va mantiqiy fikrlashini aniqlashga qaratiladi.

TALIS - bilim yoki kompetensiyani baholaydigan emas, balki ta’lim muassasasidagi boshqaruv muhitini o‘rganadigan dasturdir. Unda o‘qituvchilar va maktab direktorlari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali ta’lim sohasida olib borilayotgan siyosatning samaradorligi haqida qiyosiy va tahliliy ma’lumotlar olish imkoniyati vujudga keladi. Ta’kidlash joizki, o‘tgan vaqt mobaynida Tayanch maktablari bazasida ko‘plab tadbirlar o‘tkazildi, xalqaro, respublika, viloyat darajasida o‘tkazilgan tadbirlardagi ma’lumotlarni har bir umumta’lim muassasasiga yetkazib berishda Tayanch maktablar samarali faoliyat ko‘rsatdi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro tadqiqotlar, uning tarkibiy yo‘nalishlari, ularda qatnashish orqali o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar, olgan bilimini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, fanlar bo‘yicha savodxonligini rivojlantirish, shu bilan birga, milliy ta’lim sifatini oshirishda ahamiyati haqidagi ma’lumotlarni nazariy hamda amaliy jihatdan tizimli tashkil etishda o‘qituvchilarni tayyorlash yuzasidan namunaviy dasturning zaruriyati sezildi.

Trenerlar uchun Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi, Respublika ta’lim markazi va Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti hamda tajribali metodistlar, pedagoglar va amaliyotchi o‘qituvchilr bilan hamkorlikda ushbu namunaviy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. O‘quv dasturining maqsadi ta’lim olayotgan o‘qituvchi va o‘quvchi zamonaviy jamiyatda to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, ya’ni inson faoliyati, aloqa va ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida keng ko‘lamli vazifalarni hal qila olishiga qaratilgan.

Ustuvor maqsadlarga erishishda Tayanch maktablari va ular orqali barcha umumta’lim muassasalariga uslubiy yordam ko‘rsatishdan iborat. O‘quv dasturining vazifasi o‘quv dasturida berilgan mavzular doirasida Tayanch maktablarida tashkil etiladigan seminar, trening va o‘quv mashg‘ulotlarini samarali va tizimli tashkil etish hamda olingan bilimlar asosida ta’limning barcha darajalarida o‘quvchilarning o‘qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish. O‘quv dasturi xalqaro PISA, PIRLS va TIMSS tadqiqotlarining mos yo‘nalishlari, ya’ni matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, o‘qish savodxonligi, kreativ fikrlash hamda boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Dasturdagi mavzular umumiydan xususiylik tamoyili asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda har bir yo‘nalish haqidagi umumiy ma’lumotlar, baholashning asosiy jihatlari, tadqiqotda baholanayotgan ko‘nikma va kompetensiyalar, ularni rivojlantirish omillari haqidagi

nazariy ma’lumotlar bilan birga, tadqiqotda foydalaniladigan savol va topshiriqlarning namunalari hamda ularni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O‘qish savodxonligi – matnli ma’lumotni anglash va tushunish qobiliyati sifatida qaraladi, olingan bilimlar haqida mulohaza yuritish va maqsadlarga erishish uchun o‘qish bilan shug‘ullanish, dunyoqarash va imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyatda faol ishtirok etish va jamiyat bilan o‘zaro munosabat. Matematik savodxonlik – bu o‘quvchilarning matematik fikrlashi shuningdek, matematikani fan sifatida talqin qilishi hamda turli amaliy va hayotiy sharoitlarda muammolarni hal qilishda qo‘llash qobiliyatidir. Bu ko‘rsatkich proseduralarni, faktlar va atamalar, tushunchalar, vositalarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy - ilmiy savodxonlik– insonning tabiiy bilimlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanishda, savollarni aniqlash va to‘g‘ri berish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda tabiat hodisalarini tushuntirish va tabiatshunoslik muammolari bilan bog‘liq holda ilmiy dalillarga asoslangan xulosalarni shakllantirish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta’sirchan ifodalashga qaratilgan g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir.

O‘quv dasturidagi mavzular xalqaro dasturlarning baholash qamrov doiralaridagi mos mavzulardan kelib chiqqan bo‘lib, ularning o‘quv mashg‘ulotlari davomida to‘liq qamrab olinishi nazarda tutilgan, lekin seminar mashg‘ulotlarini tashkil etishda trenerlardan faqatgina ushbu mavzular bilan cheklanib qolmasdan qo‘shimcha manbalar yordamida mavzuni boyitgan holda tinglovchilarga yetkazib berishi qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘qituvchilar ko‘proq 15 yoshga to‘lgan maktab o‘quvchilarining kundalik hayotiy vaziyatlarda ta’lim olish vaqtida olgan bilimlarini inson faoliyatining turli sohalarida, jumladan, moliyaviy yutuqlar, ijtimoiylashuv va turli to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘plab vazifalarni hal etishga qanday yondashishlariga e’tibor qaratishi lozim.

O‘quv dasturining jihatlari. O‘quv dasturidagi mavzularni yoritib berishga qaratilgan mashg‘ulotlarni quyidagi jihatlar asosida tashkil etish ko‘zda tutiladi: o‘qituvchilar ehtiyoji va qiziqishini e’tiborga olish; ko‘rish, o‘rganish va qo‘llay olish ko‘nikmalari natijasi; erkin ijodiy ish, mustaqil harakat va hamkorlik; yaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirish; fanlararo (integratsiya) va mavzu qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik; topshiriqqa mos tushuncha va xatti-harakatlarni anglash va mustaqil tahlil qilish, o‘z fikrini himoya qilishdan iborat.

Ushbu namunaviy o‘quv dasturini samarali tashkil etish uchun namunaviy ish rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda quyidagi uchta asosiy qismlarga e’tibor qaratiladi: “NIMA?”(nazariy) – trener - o‘qituvchi o‘quv dasturida belgilangan mavzular yuzasidan nazariy ma’lumotlar asosida taqdimot tayyorlaydi, mavzuni atroflicha tushuntirib beradi hamda tinglovchi o‘qituvchilarda mavzu haqida umumiy tushunchalar, tasavvurlar va xulosalar qilishida yordam beradi. “QANDAY?” (amaliy) – bunda trener-o‘qituvchi mavzu yuzasidan amaliy jarayonni tashkil etadi.

Zamonaviy va innovatsion o‘qitish metodikalaridan foydalangan holda dasturda berilgan mavzuga aloqador topshiriqlar ustida tinglovchi o‘qituvchilar bilan birgalikda amaliy mashg‘ulotlarni bajarishni tashkil etadi. Topshiriqlar ustida ishlash jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash va rivojlantirishning zamonaviy usullari haqidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lish hamda dasturda belgilangan maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

“SAMARA” (mustaqil ish) – nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni o‘z ish jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida tinglovchi o‘qituvchi mustaqil ravishda dasturda tavsiya etilgan mavzular asosida ijodiy ish olib borishi lozim bo‘ladi. Ijodiy ishi o‘qituvchining mavzu yuzasidan qo‘shimcha manbalar orqali ma’lumotlar izlash, o‘rganish, olgan bilimlarini mustahkamlash, mashg‘ulot davomida egallagan bilimini o‘quvchilarga yetkazib berish hamda o‘quvchilarning savodxonligini baholash va rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar asosida dars jarayoni va to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan harakterlanadi.

Asosiy tamoyillar Tayanch maktablardagi trenerlar uchun mo‘ljallangan o‘quv dastur va ish 9 reja quyidagi tamoyillarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

- o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro dasturlar tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalangan holda darslarni samarali tashkil etish;

- o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlanish usullarini maktablarda joriy etish; o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini hamda ta’lim sifatini oshirish orqali xalqaro tadqiqotlarda ijobiy natijalarga erishish uchun zamin yaratish;

- o‘qituvchilarni o‘quv jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalanishi mumkin bo‘lgan materiallar bilan ta’minlash.

Kutilayotgan natijalar kurs yakunida tinglovchilar, ya’ni xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlar:

- o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashning yangi strategiya va usullarini;

- ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS) tushunchalariga nisbatan zamonaviy yondashuvlar mohiyatini;

- ta’limga kirib kelayotgan yangi yondashuvlar, strategiyalarni o‘rganish, o‘z ish faoliyatiga moslashtira olish;

- ta’lim samaradorligi va uni baholashdagi muammolarni aniqlash, ularning yechimini topishni tahlil qilish; - o‘qituvchilar bilim, ko‘nikmalarini baholashning yangi usul va vositalarni tanlay olishi;

- ta’limga kirib kelayotgan yangi innovatsiyalar, xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim samaradorligini oshirish; - ta’lim jarayoni sifatini tashxis qilish va baholashning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish; - ta’lim jarayonida yuz berayotgan turli o‘zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish;

- ta’limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o‘z kasbiy amaliyotiga joriy etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori;

2. 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712–son farmoni;

3. 3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

4. 4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xalq ta’limi vazirligining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko’rishga yo’naltirilgan tayanch maktablar faoliyatini tashkil etish haqida” 2020-yil 8-maydagi 17/23-sonli qarori.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI DIZARTRIK BOLALARNI SAVODGA TAYYORLASH

Safarova S.O. - Toshkent davlat pedagogika universiteti, Maxsus pedagogikaning klinik asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolaning maktabdagi savodni egallashga tayyorlash jarayoninnng muhim jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Savodni egallash jarayoni murakkab va ayni damda muhim bo‘lib, u boladan qator ko‘nikma va

malakalarni talab etadi. Bu jarayon imkon qadar erta boshlanib, u bolaning maktabgacha bo‘lgan eng kamida ikki o‘quv yillik davrini egallashi lozim. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada bola tomonidan savodni samarali egallanishining talablari ishlab chiqilgan. Ular bola xulqidagi pozitiv holatlar va motivatsiyadan tortib, nutqiy faollik va dunyoqarash shakllanganligigacha bo‘lgan ulkan hududni egallaydi.

Kalit so‘zlar: og‘ir nutqiy muammolar, dizartrik bolalar, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, ko‘rish qobiliyati va ko‘ruv idroki, tafakkur, fazoviy tasavvurlar, barmoqlar motorikasi.

ПОДГОТОВКА ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ОБУЧЕНИЮ ГРАМОТЕ

Сафарова С.О. - старший преподаватель кафедры клинических основ специальной педагогики Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые важные аспекты подготовки ребенка к школьной грамотности. Процесс приобретения грамоты сложен и в то же время важен, он требует от ребенка ряда навыков и умений. Этот процесс должен начинаться как можно раньше и должен охватывать не менее двух дошкольных лет. В современной педагогике и психологии выработаны требования к эффективному овладению ребенком грамотой. Они охватывают широкий круг тем, от положительных установок и мотивов в поведении ребенка до формирования речевой деятельности и мировоззрения.

Ключевые слова: выраженные нарушения речи, дети с дизартрией, навыки чтения и письма, слуховые и зрительные восприятия, мышление, пространственные представления, моторика пальцев.

PREPARING CHILDREN WITH DYSARTRIA FOR LITERACY IN PRESCHOOL AGE

Safarova S.O. - Senior Lecturer, Department of Clinical Basis of Special Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University

Annotation. This article focuses on the important aspects of preparing a child for school literacy. The process of acquiring literacy is complex and at the same time important, it requires a number of skills and abilities from the child. This process should begin as early as possible and should cover at least two pre-school years. In modern pedagogy and psychology, the requirements for the effective acquisition of

literacy by the child have been developed. They cover a wide range of topics, from positive attitudes and motivations in a child's behavior to the formation of speech activity and worldview.

Key words: pronounced violations of speech, children of the C-Dysarthria, reading and writing skills, auditory and visual perceptions, thinking, spatial performances, motormark fingers.

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada bola tomonidan savodni samarali egallanishining talablari ishlab chiqilgan. Ular bola xulqidagi pozitiv holatlar va motivatsiyadan tortib, nutqiy faollik va dunyoqarash shakllanganligigacha bo‘lgan ulkan hududni egallaydi. Aksariyat hollarda og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nuqson faqatgina nutqiy muammolar bilangina chegaralanib qolmay, balki qator jismoniy hamda ruhiy yetishmovchiliklar zamirida kuzatiladi. Ko‘pgina hollarda ularda nutqiy kamchiliklar bilan birga motorika bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘ladiki, ular o‘z navbatida bola va pedagoglar oldida katta to‘siq sifatida shakllanadi.

Hozirda ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan metodikalarni kuzatsak, ularda bolani makgabgacha tarbiya muassasasida savodga tayyorlashning ikki yirik maqsadi ajratilib ko‘rsatiladi, bular:

1. Bolalarda savodni egallash uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikni shakllantirish;

2. Bolalarni yozish va o‘qishga o‘rgatish

Yuqoridagi maqsadlar asosida bolaning maktabdagi savodni egallashga tayyorlash jarayoninnng umumtarkibini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Savodni egallash jarayoni murakkab va ayni damda muhim bo‘lib, u boladan qator ko‘nikma va malakalarni talab etadi. Bu jarayon imkon qadar erta boshlanib, u bolaning maktabgacha bo‘lgan eng kamida ikki o‘quv yillik davrini egallashi lozim.

Dizartirik bola og‘ir nutqiy kamchilikka ega bo‘lgan boladan farqli ravishda harakat holatida ham murakkab ziddiyatlarga ega. Fikrimizcha ushbu bolalarni savodga tayyorlash jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishiga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim:

1) bolaning umumjismoniy va motorik holatini yaxshilash;
2) mayda muskul motorikasi rivojlantirish;
3) aqliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish;
4) bolalarda xotira, idrok, diqqatni o‘stirish;
5) imkon darajada nutqiy faolliklarini oshirish;
6) nutqiy muammolarni bartaraf etish;
7) fazoviy tafakkur, hamda tasavvurlarini o‘stirish;

Egallanish lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma hamda malakalar bir necha

bo‘limlarga ajratilib, ular asta-sekinlik va izchillikda, soddadan murakkabga karatilgan holda o‘zlashtirilishi lozim. Avval o‘zlashtirilgan bilimlar, keyingi bosqichdagi materialni egallashga tayanch bo‘lib xizmat qilmog‘i hamda keyingi bosqichlarda takrorlanib mustahkamlanib bormog‘i lozim [1].

Ma’lumki savodni egallashda barmoqlar motorikasi muhim ahamiyatga ega. Barmoqlar harakatchanligini oshirishga qaratilgan mashqlarning muayyan tarzda doimo bajarilishi bolaning nutqiy faoliyatiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Qo‘llardagi mayda muskul motorikasini oshirishga qaratilgan ishni har kuni eng kamida 5-10 minut davomida amalga oshirish lozim. Ushbu maqsadda turli o‘yinlar va mashqlardan foydalanish mumkin. Barmoqlar faolligini oshirish maqsadida she’r o‘qish bilan birga bajariladigan mashqlarni tavsiya etish mumkin. Xususan **“Salomlashish” mashqi:**

Salomlashdi barmoqlar.
Assalomu alaykum.
Doim ular birgalar,
Ko‘rishadilar har kun.

Bunda kaftlar bir-birini siqib “so‘rashadilar”. Bu mashq davomida bolaga kattalar yordami kerak. Chunki bola kaftlarini siqa olmasligi yoki ularning ta’sir kuchi juda zaif bo‘lishi mumkin. Kaftlar ma’lum kuch bilan siqilib, bunda kaftning ichki satxida joylashgan va barmoqlar harakatchanligini ta’minlovchi bir qancha nerv tolalariga zarur ta’sir ko‘rsatiladi.

Barmoqlar faolligini oshirishda she’riy matnlar bilan olib boriladigan o‘yin-ermaklar juda foydalidir.

“**Ari” mashqi.**

• o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘ini oldinda aylantirish;
• xuddi shu mashq chap qo‘l bilan;
• mashqni birdaniga ikkala qo‘l bilan bajarish.

“Quvnoq odamcha”

• ko‘rsatkich va o‘rta barmoqar stol ustida tik holda “yuguradilar”;
• xuddi shu mashqni chap qo‘lda bajarish;
• mashqni bir vaqtning o‘zida ikkala qo‘l bilan bajarish

“bolalar kim o‘zarga yugurayaptilar”.

“Echkicha”

• o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich va jimjiloq barmoqlarini oldinga chiqargan holda oldinda chap va o‘ngga bukish;
• xuddi shu chap qo‘l bilan;
• mashqni ikkala qo‘l bilan bajarish- “urishqoq echkilar”

“Quyoncha”

• o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini yuqoriga chiqazish, nomsiz

va jimjiloq barmoqlar uchini bosh barmoq uchi bilan birlashtirish;

• xuddi shu mashq chap qo‘lda bajariladi;

• mashqni ikkala qo‘l bilan bajarish – “quyonchalar raqsi”

“Daraxt”

• ikkala qo‘lning kaftlarini o‘ziga qaratgan holda yuqoriga ko‘tarish, barmoqlarni yozish;

• qo‘lni o‘ng va chap tomonlarga yengil egish- “daraxtzorda shamol turdi”.

“Toshbaqa”

• o‘ng kaftni chap kaft ustiga qo‘yish, bosh barmoqlarni yon taraflarga qaratish;

• kaftni oldinga uzatish davomida bosh barmoqlarni yengil bukish va yozish.

Qo‘llarni uqalash

Avval bir qo‘lda, keyin esa ikkinchi qo‘lda bajariladi.

1. Barmoq uchlaridan qo‘lning o‘rta sathigacha ichki va tashki taraflaridan silash.

2. Barmoqlar harakati: har bir barmoqni aylana bo‘ylab aylantirib silash.

3. Bosh barmoqni o‘ng-chapga, oldingga-orqaga, aylana bo‘ylab bukish va yozish.

4. Barcha barmoqlarni bir vaqtda bukish va yozish,

5. Qo‘lni bilak qismida bukish va yozish.

6. Har bir barmoqni intensiv ravishda ishqalash.

7. Har bir barmoqning yon hamda ichki taraflarini yengil nuqtali uqalash.

8. “Barmoqlar uxlaydilar”- ketma-ket bittadan barmoqlarni bukish va she’riy talqin asosida yozish:

Bu barmoq uxlamoqchi,
Bunisi ham yotmoqchi,
Bu barmoq mudrab qoldi,
Bunisi uxlab koldi.
Shovqin qilma jimjiloq,
Akalaring uyg‘onar.
Barmoqlar turdi birdan,
Endi birga o‘ynarlar.

Bola barmoqlarining motor hamda muskul imkoniyatlarini oshirish bilan birgalikda u yoki bu harfning obrazi bilan xotirada uning modelini yaratgan holda tanishtirib borish lozim. Buning uchun eng mayda qum qog‘oz yoki duxoba qog‘ozdan harflar shaklini qirqib olish va kartonga yopishtirish zarur. Bola yetakchi qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘i bilan harflar konturini yurgizib chiqadi va uning obrazi va elementlarini eslab qoladi. Harflar shakli taktil (his etish orqali) va kinestetik (harakatli) hissiyotlar orqali idrok qilinadi. Masalan, duxoba qog‘ozdan

nafaqat harflar balki, predmetlar shakli tayyorlanishi va bola uni kattalar yordamida o‘rganib tahlil etishi mumkin. Xususan, bunday shakllarni qator alohida mavzular (“Meva va sabzavotlar”, “Uy hayvonlari”, “Idish-tovoq buyumlari” va hokazo) bo‘yicha tayyorlash hamda nutq o‘stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida keng foydalanish mumkin. Ushbu ish turining ahamiyatli tomoni shundaki, bolalar bir vaqtning o‘zida ham nutqiy ham taktil va kinestetik hissiyotlar zaxiralarini oshiradilar.

Savodni egallashda fazoviy tasavvur muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bolaning yozuv malakalarini samarali egallashida uning tutgan o‘rni beqiyosdir. Shu sababli ham bola tomonlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, nafaqat o‘z chap qo‘li yoki o‘ng qulog‘ini ko‘rsatib berishi, balki o‘zgalarning, o‘z o‘rtoqlarining chap ko‘zi yoki o‘ng oyog‘ini qiyinchiliksiz aniqlashi lozim. Tevarak-atrofda to‘g‘ri mo‘ljal ola bilish ko‘nikmasi o‘z-o‘zidan qog‘ozda mo‘ljal ola bilish malakasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Harakat muammolariga ega bo‘lgan dizartrik bolalarda esa ushbu masala juda murakkab harakterga ega. Shu sababli ham kundalik mashg‘ulotlar va mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda bolalar bilan maxsus mashqlar o‘tkazish hamda ulardagi fazoviy tushunchalar zaxirasini oshirib bormoq muhimdir. Masalan, mashg‘ulotlar davomida bolalarga tarqatma material yoki o‘quv qurollarni tarqatish davomida topshiriqlar berish mumkin: “qalamni qog‘ozning yuqori o‘ng tomoniga qo‘ying”, “rasmli kartochkalarni to‘g‘ri chiziq bo‘ylab ketma-ket qo‘yib chiqing”.

Ushbu maqsadda og‘zaki instruksiyalar bo‘yicha bajariladigan mashqlar qiziqarli va foydalidir. Masalan, bolalarga bir xil yig‘imdagi rangli kubiklar tarqatilgach ushbu yo‘riqnoma bo‘yicha vazifani bajarishni taklif etish mumkin: “Stolning o‘rtasiga qizil katta kubikni qo‘ying. Uning old tarafiga ko‘k rangdagi kubikni va ortiga esa sariq rangli kubikni qo‘ying. Ko‘k kubikning ustiga qizil kubikni qo‘ying. Uning o‘ng tarafiga yashil kubikni qo‘ying”. Bu mashqning e’tiborli tomoni shundaki, bola ularni bajarish davomida nafaqat fazoviy tushunchalarni oshiribgina qolmasdan balki, so‘z boyliklarini, tevarak-atrof haqidagi ma’lumotlarini oshirishlari, etiborli bo‘lishga o‘rganishlari mumkin.

Fazoviy tasavvurni rivojlantirish maqsadida turli o‘yin-mashqlarini tashkil etish mumkin:

“Qayerdaligini top-chi?”

Bolalar guruhiga umumiy yoki har-bir bolaga alohida topshiriq berish. Bunda bola so‘z yo‘llanmasi bo‘yicha muayyan buyumni topib kelishi yoki belgilangan manzilga yetishi shart. Masalan: “O‘rningdan turib chap tarafga buril. To‘g‘riga ikki qadam qo‘y. Endi o‘ng tarafga buril, bir qadam oldinga yur. Sen nimani ko‘ryapsan» Bu topshiriqni olgan bola mo‘ljalni to‘g‘ri olib, belgilangan buyum oldidan chiqishi va uni aytishi lozim.

Ammo har doim ham BSF dizartrik bola mustaqil harakatlanish imkoniga ega

emas. Bu esa bolani ushbu yo‘nalishda olib boriladigan o‘yinlardan mahrum qilish degani emas. Bu muammoni yakka mashqlar davomida quyidagicha hal etish mumkin [2].

“Yuqorida va pastda”

Bu o‘yinda tarbiyalanuvchi xonadagi buyumlarning joylashuvini aniqlashi mumkin. Masalan, bu maqsadda bolaga alohida topshiriq berish mumkin: “Sen xonaning yuqorisida nimalarni ko‘ryapsan? (lampochka, qandil...)”. Bu o‘yin interpretatsiyasini bir muncha o‘zgartirishi mumkin. bolaga alohida mazmunli rasm ko‘rsatib uning ma’lum qismlarida nimalarni ko‘rayotganini so‘rash mumkin. Masalan: “rasmning yuqorigi o‘ng burchagida qanday hayvon tasvirlangan?” va hakazo.

Yuqoridagi mashqlarni ko‘plab tuzish va ijodiy yondoshgan holda mashg‘ulotlarning muayyan bir qismi sifatida yoki alohida o‘yin-mashg‘uloti sifatida tashkil etish mumkin.

Savodga o‘rgatish bolani biror bir harfni yod olishga undashdan boshlanmay, balki undan “Quloq solib ko‘rchi, chumchuqlar qanday chirqillayaptilar” degan qiziqtirishdan o‘z ibtidosini olmog‘i lozim.

Umuman bu yo‘nalishda olib boriladigan ish ketma-ketligini quyidagicha belgilash mumkin:

- eshituv diqqatidan eshituv idrokiga
- eshituv idrokidan eshituv xotirasiga
- eshituv xotirasidan eshitib farqlashga
- eshitib farqlashdan analiz va sintezga
- tovushdan harfga.

Bunday ketma-ketlikning muhim sababi mavjud: atrofdagi tovushlarni taxminan har bir bola farqlay olsada ammo nutqiy tovushlarni barcha kichikintoylar ham farqlay olmaydilar. Ayniqsa, markaziy asab tizimida organik o‘zgarishlar hamda og‘ir nutqiy muammolarga ega bo‘lgan bolalar bu qatorda eng murakkab xalqani hosil qiladilar. Nutqiy tovushlarni me’yorida idrok eta olish, ularni farqlash hamda to‘g‘ri falaffuz etish, ketma-ketligini to‘g‘ri aniqlay olish esa o‘qish va yozish malakalarini samarali egallanishni asosini tashkil etadi [3].

Savodga tayyorlash jarayonida olib boriladigan barcha ishlar talaffuzi avvaldan egallangan tovushlar bilan olib boriladi. Dizartrik bolalardagi mavjud og‘ir nutqiy muammolarni hisobga olgan holda bu ishdagi izchillikning ahamiyatini ta’kidlab o‘tish lozimdir. Butun jarayon davomida talaffuzga qo‘yilgan tovushlarning avtomatizatsiyasi hamda differensiatsiyasiga alohida ahamiyat beriladi. Bir vaqtning o‘zida bolani turli sxemalarga tayangan holda so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratishga o‘rgatiladi.

Qo‘llarida og‘ir falajlanish mavjud bo‘lib, bu faoliyatdan mahrum bolalar

ushbu ish ko‘rinishini barmoqlarni bir-biriga urish yoki oyoq bilan depsinish orqali bajarishlari mumkin. Kesma alifbo bilan ishlash doimiy ravishda guruh tarbiyachisi hamda ota-onalar tomonidan takrorlanib borilishi mumkin. Harflarnn o‘rganish tartibi uning talaffuz imkoniyati hamda frontal mashg‘ulotlarda o‘rgatilishiga bog‘liq. Shuningdek, bolalarni berilgan chapaklar soni yoki bo‘g‘inlardan so‘z tuzishga, talab qilinayotgan bo‘g‘in yoki tovush ishtirok etgan rasm yoki predmetni ajratib olishga o‘rgatiladi. Harflar bilan tanishish davomida bolalar o‘zlari tuzayoggan sxemalarga harflarni kiritib boradilar. Bolalar bo‘g‘inda bitta unli tovush bo‘lishi mumkinligini, so‘zda nechta unli harf bo‘lsa shuncha bo‘g‘in bo‘lishi mumkinlini bilib oladilar. So‘zlarni qo‘shimchalar va tovushlar qo‘shish, tovushlar o‘rnini almashtirish orqali o‘zgartirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda, albatta, ongli ravishda o‘qilganni taxlil etish zarurligi ta’kidlab boriladi. Tovush analiziga turli murakkablikdagi bo‘g‘in va so‘zlar tanlanadi. Mashg‘ulotlar davomida bolalarga tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib chikish, bo‘g‘inlarni o‘qish va ulardan so‘zlar tuzish o‘rgatilib boriladi. Ular shuningdek, gapni so‘zlarga ajratishga, gaplardagi so‘zlar miqdori, ularning ketma-ketligini aniqlash, qo‘shimchalarni ajratishga o‘rganadilar.

Dizartrik bolalarni savodga tayyorlash jarayoni quyidagi vazifalarni amalga oshirishda xizmat qilmog‘i zarur:

1. Nutqning tovush tarkibiga qaratilgan e’tiborni tarbiyalash:
- so‘zga e’tibor bilan quloq solish;
- tovushlarni ajratish;
- fonatsion tomondan o‘xshash bo‘lgan tovushlarnn ajratish;
2. So‘zning tovush tarkibida to‘g‘ri mo‘ljalga ola bilish:
- tovushlarni ketma-ket ajratish;
- ularning so‘zdagi o‘rnini belgilash;
3. Bolalarning og‘zaki nutqlarini faollashtirish.

Bolalar diqqat markaziga so‘z va gapni chiqarish, so‘zlarni o‘zgartirish va yangi so‘zlarni hosil qilishga o‘rgatish, nutqiy holatlarni kuzatish, solishtirish hamda umumlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish. O‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallashda ko‘ruv idroki va fazoviy tasavvur muhim ahamiyatga ega. Dizartrik bolalarda aynan ana shu jihatlar fiziologik to‘siqlar tufayli ma’lum muammoli ko‘rinish kasb etadi. Aksariyat bolalarda aynan ana shu sabablar tufayli harflar obrazini yaxshi esda saqlab qola olmaslik tufayli uni unutilishi hamda optik jihatlariga ko‘ra adashtirilishiga sabab bo‘ladi [4]. Zero o‘qish va yozish ko‘nikmalarining hosil bo‘linishi to‘liqligicha ko‘rish qobiliyati va ko‘ruv idroki tomonidan boshqariladi. Ushbu jihatning dizartrik bolada imkon qadar rivojlangan ko‘rinishini tarbiyalash o‘ta muhimdir. Dizartrik bolalarni savodga tayyorlash kundalik mashg‘ulotlar davomida olib boriladi. Uning ayrim qismlari kechki soatlarda tarbiyachi hamda uy sharoitida ota-onalar bilan mustahkamlanadi.

Adabiyotlar

1. Аюпова М.Ю. Логопедия.. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. -658 б.

2. Мўминова Л.Р., Аюпова М.Ю. логопедия. – Т.: “Ўқитувчи”, 1993.

3. «Логопедия» -Учеб. пособие для студентов пед. институтов по специальности Дефектология. — Под ред. Л.С. Волковой, С.Н.Шаховской-3-е изд. Перераб.и доп. — М.: «Владос», 2003. 528 с.

4. Нуркелдиева Д.А., Аюпова М.Ю.,Ахмедова З.М. Бармоқлар машқи ва логопедик ўйинлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” LEKSIKASINING QIPCHOQ SHEVALARIGA MUNOSABATI

Aralova L.A. – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. “Devonu lug‘otit turk” asari jahon tilshunos olimlari e’tiborini tortgan qadimiy asarlardan biri bo‘lib, tukiy so‘zlarning arabcha izohli lug‘ati bo‘lgani uchun ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga molikdir. Uni har tomonlama tadqiq qilish turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqining tarixini, urf-odatlarini, so‘z boyligini, adabiy merosini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada qipchoq lahjalari leksikasida mavjud bo‘lgan so‘zlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi so‘zlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar davomida so‘z ma’nosidagi o‘zgarishlar, ma’no kengayishi va ma’no torayishiga uchragan so‘zlar xususida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: “Devonu lug‘otit turk”, qipchoq shevasi, ma’no o‘zgarishi, ma’no kengayishi, ma’no torayishi, etimologiya.

ОТНОШЕНИЕ ЛЕКСИКИ “ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТУРК” К КЫПЧАКСКОМУ ДИАЛЕКТУ

Аралова Л.А. - Магистр Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация. “Девону луготит турк” — одна из старейших работ лингвистов мира, имеющая особое научное значение, поскольку представляет собой арабский словарь слов туки. Его всестороннее изучение имеет большое значение в изучении истории, обычаев, лексики и литературного наследия тюркских народов, в том числе узбекского народа. В данной статье сравниваются слова лексики кыпчакских диалектов со словами в “Девону

луготит турк” Махмуда Кашгари. Анализ был сосредоточен на изменении значения слова, расширении значения и сужении слова.

Ключевые слова: “Девону луготит турк”, кыпчакский диалект, изменение значения, расширение значения, сужение значения, этимология.

THE ATTITUDE OF THE LEXICON “DEVONU LUGOTIT TURK” TO THE KIPCHAK DIALECTS

Aralova L.A. - Master of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Annotation. “Devonu lugotit turk” is one of the anciest works that has attracted the attention of linguists in the world and is of special scientific importance because it is an Arabic dictionary of Tukish words. Its comprehensive study is of great importance in the study of the history, customs, vocabulary and literary heritage of the Turkic peoples, including the Uzbek people. This article compares the words in the lexicon of Kipchak dialects with the words in Mahmud Kashgari’s “Devonu lugotit turk”. The analysis focused on changes in word meaning, meaning expansion, and word narrowing.

Key words: “Devonu lugotit turk”, kipchak dialect, change of meaning, expansion of meaning, narrowing of meaning, etymology.

Turkiy tillar dunyodagi barcha tillar singari eng qadimgi tillardandir. Shuning uchun hozirgi turkiy tillardagi har bir lug‘aviy birlikni eng qadimgi davrlardan mavjud, deb bilish kerak. Lekin bu lug‘aviy birliklar eng qadimgi davrlardayoq ham tovush tomoni, ham ma’nosi jihatidan u qadar murakkab bo‘lmagan so‘zlar bo‘lib, hozirgi turkiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lgan o‘sha davr urug‘, qabila, qabilalar uyushmalari tillarining asosiy lug‘at boyligini tashkil qiladi [1].

Yozma yodgorliklar tilini hozirgi zamon sheva materiallari bilan qiyosiy o‘rganish muhim bo‘lib, tarixiy grammatika uchun asosiy manbalardan hisoblanadi. Shevalardagi leksik o‘zgarishlar tarixiy dialektologik planda tekshirilishi zarur bo‘lgan masaladirki, uni atroflicha o‘rganish, shevalararo leksik o‘xshashlik va farqli tomonlarni ilmiy asosda tegishli manbalarga suyangan holda tarixiy-qiyosiy tekshirish o‘zbek tilshunosligi uchun juda muhim ahamiyatga ega.

“Devonu lug‘otit turk” asari leksikasining bugungi o‘zbek shevalariga munosabati bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz yodnoma tili bilan shevalarda qo‘llanilgan so‘zlar o‘rtasida yaqinlik va ba’zi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini ko‘rsatdi.

“Devon” leksikasi misolida eski turkiy til va hozirgi o‘zbek tili materiallari qiyoslanganda eski turkiy tilda ishlatilgan ayrim so‘zlarning fonetik o‘zgarishlar bilan

qipchoq shevasida qo‘llanayotgani kuzatiladi. Bunday so‘zlarga tovush tushishi, tovush almashinishi, tovush ortishi, metateza kabi hodisalarga uchragan so‘zlarni kiritish mumkin. Masalan, orğaq “o‘roq”, tarğaq “taroq” (ДЛТ, I, 97), sïbïrgü “supurgi” (ДЛТ, I, 323), kirpik “kiprik” (ДЛТ, 1, 316) kabilar shular jumlasidandir. Yoki hozirgi o‘zbek adabiy tilida sariyog‘so‘zi “mol sutidan ajratib olingan yog‘” (O‘TUL) ma’nosini anglatadi. Bu so‘z qadimda **sağ yoğ** (ДЛТ, III, 168) birikmasi tarzida qo‘llangan. “At-tuhfa”da bu so‘zning sari yav fonetik shaklini ko‘ramiz va u “sariyog‘”ni ifodalagan [3]. Bunda so‘z birikmasi o‘rtasida i tovushi orttirilganligini va til taraqqiyoti davomida so‘z birikmasi yaxlit holda bir so‘zga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Aslini olib qaraganda, sariyog‘ sariq rangda bo‘ladi, rangiga nisbat berilib eski turkiy tilda ushbu so‘z “sağ yoğ” deb nomlangan bo‘lishi mumkin. Ba’zi qipchoq shevasi vakillari nutqida ushbu so‘zning sari moy, sori moy tarzida talaffuz qilinishini ko‘rishimiz mumkin.

Chumchuqsimonlar turkumining bir oilasini tashkil etadigan, qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola kichkina qushcha – **qaldirg‘och** bo‘lib, ushbu so‘z qipchoqlar dialektida qarlag‘ach tarzida ishlatiladi (ЛДЛ, 251). Asli turkiy so‘z hisoblangan ushbu leksemaning “Devonu lug‘otit turk”da ham qarlïğač, ham qarğïlač variantlari uchraydi (ДЛТ, I, 479).

Cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan nonni ko‘moch deymiz. Ushbu so‘z laqaylar tilida ko‘mech: Ko‘mechiŋdi tezrekpishir, taŋ atti jaylavg‘a jo‘neymiz; “Devon”da **kömäč** tarzida kelgan (ДЛТ, 341). Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida: Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg‘onni ham turkcha ayturlar, - deydi.

“Devonu lug‘otit turk” asari hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘zlarning etimologiyasi, ularning asli qaysi manbadan kelib chiqqanligi haqida ham muhim ma’lumotlar beradi. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarda qo‘llanilib kelayotgan **emaklamoq** fe’lining etimologiyasi, bizningcha, o‘mgan so‘ziga borib taqaladi: **o‘mganla > o‘mgakla (bu yerda n>l) emgakla>emakl**a, **ya’ni o‘mgan bilan yurmoq**dir. XI-XII asrlar yozma yodgorliklar tilida **qayg‘iq** (ДЛТ, III, 90), **tamg‘aq** (ДЛТ, I, 69), **ko‘rgak** (ДЛТ, II, 335) kabi so‘zlar o‘rtasidagi **g‘, g** undoshlari keyinchalik tushirilib, **qayiq, tamaq, ko‘rak** tarzida bo‘lgani singari emgakladagi **g** ham tushib qolgan.

Kögän – buzoq, qo‘zichoqlarning arqonlari (ДЛТ, I, 415). Shevada kögän – qo‘zichoq va uloqlarning bo‘ynidan bog‘lash uchun ishlatiladigan halqasimon arqonchalar. O‘zbek xalq maqollarida ushbu so‘zning ko‘kanak variantini uchratamiz: Ko‘zga - ko‘kanak, oyoqqa – tikanak (Maqol). Bu so‘z “hayvon bolasi oyoqlarini bog‘lash uchun xizmat qiladigan arqon (chilvir)” ma’nosini anglatuvchi **kökän** otidan (ДЛТ, I, 393) kichraytirish ma’nosini ifodalovchi **–(ä)k** qo‘shimchasi

bilan hosil qilingan, keyinchalik **ö** unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: **kökän + äk = kökänäk > kokänäk.**

Eski turki tilda qo‘llangan ba’zi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida ma’lum jihatdan ma’noviy o‘zgarishlarga uchragan. Ayrim so‘zlarning ma’nosi toraygan, ayrimlariniki kengaygan bo‘lsa, ba’zilari o‘zi anglatgan ma’noga qarama-qarshi ma’noda ham qo‘llangan.

Leksik ma’noning kengayishi va torayishi faqat bir leksik ma’no hajmida ekstralingvistik omilga ko‘ra sodir bo‘ladi [4].

Eski turkiy tilda **qïrtïšlamoq** so‘zi teri yuzini qirib tozalash hamda yerning yuzi ma’nosida izohlangan: ol sağrïnï qïrtïšladï – u teri yuzini qirtishladi (ДЛТ, III, 362); jer qïrtïšï – yer qobig‘i, yuzi. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zning har narsaning yuzasiga nisbatan qo‘llanmasligini ta’kidlagan. Navoiyda esa bu so‘z hatto daraxtga nisbatan ham qo‘llangan:

Naxli ayshim qo‘ng‘ordi o‘yla g‘aming,

Kim makonida qolmadi qirtish.

(Rohatim daraxtini g‘aming shunchalar qattiq qo‘pordiki, daraxt o‘rnida qirishga loyiq biror narsa ham qolmadi).

Hozirgi o‘zbek tilida mazkur so‘zning ma’nosi toraygan bo‘lib, “yaxshilab, top-toza qilib qirmoq” va “batamon tozalamoq, sira qoldirmay, tag-tugi bilan yo‘q qilmoq” ma’nolarida qo‘llanadi (O‘TUL). Izohdan ko‘rinadiki, so‘zning “yerning yuzi” ma’nosi hozirgi kunda iste’moldan chiqqan.

Til taraqqiyoti natijasida ma’nosi kengaygan so‘zlardan biri sifatida **kerilmoq** so‘zini misol qilib keltirish mumkin. Qipchoq shevasi vakillari nutqida kerilmoq va shu so‘z asosidagi bir qancha so‘zlar mavjud: keriguv – qanotini yozmoq, gavdasini kermoq; keriluv – bo‘ynini cho‘zmoq, so‘zilmoq, gerdaymoq; kerildi – cho‘zdi, kengaytirdi, esnab qanotini yozdi kabi. Ko‘rinib turibdiki, barcha so‘zlar asosida “cho‘zilish” sememasi mavjud: aynaŋ uyxudan turg‘annan soŋ bosag‘ag‘a chig‘ip kerilibedi, chinachaqayi arqasidan kelayatqan inisiniŋ burnig‘a tiyip qanap qaldi (ЛДЛ, 125). Bu so‘z “Devon”da “esnab kerishish” sifatida uchraydi: bu er ol telïm kerïlgän – bu odam har vaqt esnaydi va kerishadi (ДЛТ, I, 477). So‘zlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kerilmoq so‘zi hozirgi kunga kelib “Devon”da anlatgan ma’nosidan kengroq ma’no ifodalaydi.

Qipchoq lahjasiga mansub kishilar tilida ma’no kengayishiga uchragan holda qo‘llaniluvchi yana bir so‘z bu **bejal** so‘zidir. Qipchoq vakillari nutqida ushbu so‘z ikki xil ma’noda qo‘llanadi: 1. Sho‘x, tinmas: *seniŋ bu bejal balaŋ tekti-qoydi bilmeydi* (ЛДЛ, 34). 2. Yolsiz ot yoki eshak: bejal atiŋdi jem berib bag‘abermey, ulaqa sal! “Devon”da esa mazkur leksemaning faqat birinchi ma’nosini uchratishimiz mumkin. Asarda “bejal” (ДЛТ, I, 373) sifatida berilib, erlar, ayollar va hamma hayvonlarning kuchliroq, mahkamroq, pishiqrog‘i sifatida talqin etilgan.

XI asr manbasida utti so‘zi quyidagicha izohlangan: **ütti** – on bašiğ ütti (ДЛТ, I, 182). Shevada ut (Utmoq) so‘zining ma’no diapazoni ancha kengaygan va ma’no kengayishi hodisasi yuz bergan: 1) yulmoq, tozalamoq (masalan, qush patini); 2) kuydirib tozalamoq (masalan, kalla-pochani); 3) pishirmoq (masalan, go‘shtni). Bu so‘z haqida Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “Va utki, boridin ariq harakatdur, kallani o‘tqa tutub, tukini aritur ma’nosidadur” [2], - deydi. Utmoq so‘zi o‘zbek tilining shevasida va ayrim turkiy tillarda deyarli yuqoridagi ma’nolarda qo‘llanadi.

Laqaylar tili qipchoq shevasiga mansub bo‘lib, ularning lug‘at qatlamida “Devonu lug‘otit turk”da mavjud so‘zlarning ma’no o‘zgarishiga uchragan variantlari ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, **mendoruq** – turkiy arxaik so‘z bo‘lib, laqaylar dialektida ziyofat ma’nosida ishlatiladi. Ilgari imkoniyati bor odamlar bug‘doydan qirq xil ovqat tayyorlatib, umr bo‘yi bir marta xalqqa beriladigan ziyofat, xudoyi (ЛДЛ, 145). Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “məndiri” (ДЛТ, I, 454) sifatida keltirilib, boshqacharoq ma’no anglatgan, ya’ni “kelin va kuyov ishtirokida kechasi yig‘iladigan majlisning oti, unda ularning ustlaridan pul sochadilar (chigilcha)”, sifatida uchraydi. Keyinchalik bu odat transformatsiyalashgan hamda bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.

Qipchoq shevasi leksikasini o‘rganishimiz chog‘ida xuddi “Devon”dagidek ma’no anglatgan so‘zlar, ya’ni hozirgi kungacha shu ma’noda ishlatilib kelinayotgan so‘zlar mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Hattoki shevadagi ba’zi so‘zlarning asosi aynan mana shu lug‘at kitobda aks etgan. Masalan, tilimizda “yo‘rgakka o‘rabdi”, “chaqaloqni yo‘rgaklabdi” kabi birikmalarni tez-tez eshitib turamiz. Yo‘rgaklamoq so‘zining asosi “Devon”da mavjud ekan: **jörgadi** – o‘radi (Indeks, 136). Nasriddin Nazarovning kitobida chaqaloqni o‘raydigan yumshoq matoga nisbatan jo‘rgek istilohi qo‘llanilgan [5].

Sekin tebratmoq, mayin qimirlatmoq, silkitmoq ma’nosida laqaylar **irg‘a, irg‘at** leksemalaridan foydalanadi (ЛДЛ, 116). Bu so‘z “Devonu lug‘otit turk”da ïrğattï shaklida qo‘llanilgan: ol jïğač ïrğattï – u daraxt silkitdi (ДЛТ, I, 262). Alisher Navoiy “Hamsa” asaridagi “Sab’ai sayyor” dostonida: anda Anushirvon kerak boqqay, Boshini irg‘atib ovuch qoqqay, deb ishlatgan.

Hidlamoq so‘zi bilan parallel ravishda qo‘llanuvchi **iskamoq** (ЛДЛ, 116) leksemasi “Devon”da ham xuddi shu ma’noda qo‘llangan (ДЛТ, I, 281).

Qipchoq shevasi vakillari **minggeshti** so‘zini bitta ot, eshak yoki texnikaga birgalashib minmoq ma’nosida qo‘llashadi: piyada jireseme, eshsheke chaliŋniŋ arqasig‘a mingesh (ЛДЛ, 146). “Devon”da ham xuddi shu ma’noda: ol mening birlä miŋašti – u men bilan birga otga mingashti (ДЛТ, III, 408).

Suyuqlikning ko‘payib, yo‘l topishga intilib oqishiga nisbatan **sizmoq** leksemasi ishlatiladi: suvdiŋ aldini achqang‘a sabzi jueklerge sizip kelayatir (ЛДЛ, 169). “Devon”da jağ sïzdï – yog‘ eridi tarzida kelgan (ДЛТ, 2, 17; ДЛТ, 3, 198).

Suvliq – dastro‘mol, ho‘l qo‘lni quritishga mo‘ljallangan sochiq (ЛДЛ, 174), “Devon”da ham xuddi shunday ma’noda: suwluq – dastro‘mol (ДЛТ, I, 437).

Yazna forsiy so‘z bo‘lsa-da, turkiy manbalarda uchraydi. O‘zbek xalq shevalarida *pochcha* so‘zi bilan parallel ravishda bir ma’noda ishlatiladi. Qipchoq shevasi vakillari nutqida ushbu so‘zni uchratamiz (ЛДЛ, 241). “Devon”da katta qiz qardoshning eriga nisbatan jäznä leksemasi ishlatilishi aytib o‘tilgan (ДЛТ, III, 42).

Ilgarigi, oldingi kabi ma’nolarda ishlatiluvchi **burung‘i** (ЛДЛ, 46) “Devonu lug‘otit turk” asarida “burun” sifatida berilib, ilgari, oldin sifatida izohlangan: ol mendän burun bardï – u mendan oldin bordi (ДЛТ, 1, 379).

Ingichka ximcha, daraxtning mayda shoxlari, paxta, jun yoki poxolni tekislab, yumshatish uchun ishlatilinadigan qo‘sha ximcha, novda laqaylarda **chibiq** deyiladi: *Katapaŋniŋ chibig‘ini apke, jundi sabap qoymasam, qoqib jatir*. Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ho‘l navda sifatida talqin etiladi (ДЛТ, I, 361).

“Devon”da berilgan hayvonlar ba’zida qipchoq shevasidagi so‘z bilan aynan bir xil ma’no anglatganlari, ba’zida ma’no farqliliklariga uchraganlari ham kuzatiladi. Ular quyidagilar:

Og‘laq – uloq (ДЛТ, I, 141). Forish shevasida og‘laq – echki bolasi, uloq. Bu so‘z Navoiyda ham o‘g‘loq formasida qo‘llanilib, echki bolasi, uloq ma’nosida ishlatilgan.

Toqli – olti oylik qo‘chqor, qo‘zi (ДЛТ, I, 405). Shevada toqli – bir yoshgacha bo‘lgan qo‘y bolasi.

Tišäk – ikki yoshli qo‘y (ДЛТ, I, 368). Shevada šišäk formasida mavjud bo‘lib, bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan qo‘y demakdir.

Kölük – yuk ortishi mumkin bo‘lgan hayvon orqasi (ДЛТ, I, 372). Shevada ko‘luk – ot, ulov, transport.

Ko‘rinib turibdiki, turkiy tillar, jumladan, shu guruhga mansub o‘zbek tili va uning shevalari boy leksik birliklar qatlamiga ega. Bu leksik birliklar eng ta’sirchan va doimo o‘zgarib turuvchi qatlam hisoblanib, o‘zbek xalqining yuksalishi hamda taraqqiyoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘zlar qiyosiy tahlil qilinganda ba’zi birlarida xuddi shu ma’no saqlanib qolgan bo‘lsa, ba’zilarida ma’no o‘zgarishlari ham sodir bo‘lgan.

Shartli qisqatmalar

ДЛТ – Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.

ЛДЛ – Н. Назаров. Лақайлар: диалектал луғат. – Тошкент, 2019.

O‘TUL – Abdiraimov Sh. O‘zbek tilining universal lug‘ati. – Toshkent, 2019.

Adabiyotlar

Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 54.

Алишер Навоий. Асарлар.14-том. Тошкент,1967, 114-бет.

Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. – Т.: ТДШИ, 2017. – Б. 71.

Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – Б. 112.

Назаров Н. Лақайлар: диалектал луғат. – Тошкент, 2019.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ПРОСТРАНСТВЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ СТУДЕНТОВ

Азимов Т.Д. - профессор Ташкентского государственного технического университета, кандидат технических наук
Алимова Д.К. - доцент Ташкентского государственного технического университета

Аннотация В данной статье рассмотриваются современные методы преподавания начертательной геометрии способствующие эффективному формированию пространственных представлений студентов технического Вуза. Сущность методов заключается применений инновационных способов обучения в среде мультимедия, использовании графических программ в нескольких направлениях.

Ключевые слова: пространственные представления, мультимедийные технологии, графические программы, студенты технического Вуза, интерактивный процесс, наглядность учебного материала, методы преподавания, компьютерная графика, применение графических редакторов, повышенный интерес, традиционная методика, студенты технических Вузов, 3D-моделирования, компьютерный алгоритм, фундаментальная наука, электронное учебное пособия, инженерная графика, выполнения задания.

TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Azimov T.J. - Toshkent davlat texnika universiteti professori, texnika fanlari nomzodi
Alimova D.K. - Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika universiteti talabalarining fazoviy tasavvurlarining samarali shakllantirishga hissa qo‘shadigan chizma geometriya

fanini o‘qitishning zamonaviy usullari ochib berilgan. Metodlarning mohiyati multimediya muhitida o‘qitishning innovatsion usullarini qo‘llash va grafik dasturlaridan foydalanish yotadi.

Kalit so‘zlar: fazoviy tasavvurlash, multimediali texnologiyalar, grafik dasturlar, texnika OO‘Y talabalari, interfaol o‘quv jarayoni, o‘quv materiallarini yaqqolligi, o‘qitish metodlari, kompyuter grafikasi, grafik redaktor qo‘llash, talabalarda yuqori qiziqish, 3D-modellash kompyuterli algoritm fundamental fan, electron o‘quv qo‘llanma, muhandislik grafikasi, topshiriqni bajarish.

MODERN METHODS OF TEACHING DESCRIPTIVE GEOMETRY IN THE FORMATION OF SPATIAL REPRESENTATIONS OF STUDENTS

Azimov T.J. - Professor of Tashkent State Technical University, Candidate of Technical Sciences
Alimova D.K. - Associate Professor of Tashkent State Technical University

Annotation. This article discusses modern methods of teaching descriptive geometry that contribute to the effective formation of spatial representations of students of a technical university. The essence of the methods is the application of innovative ways of teaching in the multimedia environment, the use of graphic programs in several directions.

Key words: spatial representations, multimedia technologies, graphic programs, students of a technical university, interactive process, visibility of educational material, teaching methods, computer graphics, use of graphic editors, increased interest, traditional methodology, students of technical universities, 3D modeling, computer algorithm, fundamental science, electronic textbooks, engineering graphics, completing the task.

Современная образования ориенитровано на приоритетное развитие творческих качеств студентов [1],развития которых, по мнения многих специалистов возможно графической среде[2,3]. С другой стороны, студенты технического Вуза испытывают затруднения в процессе обучения начертательной геометрии по ряду причин, главные из которых - недостаточный уровень школьной подготовки или её отсутствие, интенсификация учебного процесса при существенном сокращении аудиторных часов, особенности восприятия студентов технических Вузов. По результатам проведенных нами исследований, большинство студентов технических направлений образования имеют аналитические способности, используют мыслительную стратегию (аналитичность, вербальность), но при решении заданий по начертательной геометрии более продуктивной является зрительно-

пространственная. Многолетние исследования кафедры выявили, что значительная часть студентов технического вуза основной причиной своих затруднений считает сложность учебных пособий при недостаточной степени их наглядности. Это выдвигает на передний план поиск путей решения проблемы повышения наглядности учебного материала.

Развитие информационного общества позволило внести изменения в методы преподавания и существенно дополнить традиционные учебные материалы. На кафедре разработан интерактивный учебный контент, в котором применен комплексный подход, интегрирующий в себе различные средства взаимодействия со студентами при применении графических программ в нескольких направлениях.

С одной стороны, графические программы применяются преподавателями при объяснении учебного материала, что существенно повышает его наглядность. С другой стороны, программы используются студентами в качестве инструмента при выполнении заданий, в том числе средствами 3D-моделирования. Хочется подчеркнуть особую роль 3D-моделирования для формирования пространственных представлений и осмысления наиболее сложных задач. Средства 3D-графики применяются для повышения наглядности, дополняя алгоритмы начертательной геометрии и 2D-построения. Вместе с тем ряд заданий целиком выполняется по компьютерным алгоритмам.

Выводы, сделанные нами [4], подтверждают точку зрения других авторов. Например, Н.Е. Суфляева в своих исследованиях показывает преимущества преподавания графических дисциплин с применением CAD-систем. Она пишет, что в группах, участвующих в эксперименте, «отмечен повышенный интерес студентов к изучаемым предметам, улучшение успеваемости и стремление к самостоятельному расширению знаний в области графических дисциплин по сравнению с группами, обучаемыми по традиционной методике» [5].

Полагаем, что для выхода из кризиса необходимо дополнять курс методами 3D геометрического моделирования, но не можем согласиться с крайним мнением о том, что методы начертательной геометрии давно устарели и их необходимо заменить преподаванием компьютерной графики. Начертательная геометрия – фундаментальная наука в техническом вузе, и принижение ее роли – существенная ошибка. Именно начертательная геометрия позволяет формировать пространственные представления и связанные с ними творческие качества максимально эффективно. Мы полагаем, что необходима лишь коррекция учебного курса, связанная с применением CAD-систем, а для исключения сомнительных дискуссий по

поводу устаревания начертательной геометрии как науку предлагаем присоединиться к мнению автора [6], который видит здесь следующий выход: «компьютерную графику классифицировать как аппарат для реализации наработок всех ветвей геометрической науки, а не как отдельно стоящую над геометрией науку» [6]. По мнению автора, именно такой подход позволит сохранить начертательную геометрию как фундаментальную науку, осваиваемую в техническом вузе.

Существенной проблемой для применения графических программ на первом курсе является отсутствие учебных часов для их освоения и несмотря на обилие информации в интернете по заданной тематике, ее недостаточно для выполнения поставленных задач. Например, в настоящее время на YouTube и сайтах различного содержания помещено множество уроков по освоению различных графических редакторов, в том числе в формате видео, но в них не учтена специфика обучения начертательной геометрии в техническом вузе.

В сложившихся условиях мы разработали интерактивный учебный контент преподавателя начертательной геометрии, который включает в себя учебный комплекс: учебные курсы в системе Moodle, канал на YouTube, сайты преподавателя, электронные учебные пособия.

Курс «Основы автоматизированного проектирования объектов» содержит видео уроки по освоению графических программ AutoCAD [7]. Видео уроки адаптированы для студентов технического вуза и для применения программ на кафедре начертательной геометрии. Сами уроки помещены на канале YouTube, а в курсе они размещены в виде ссылок. В настоящее время канал насчитывает сотни видео различного содержания, в том числе по начертательной геометрии, инженерной графике, по освоению CAD-систем. Общее количество просмотров – более 600 тысяч, что говорит об особом интересе обучающихся к данному представлению учебной информации.

Опросы подтверждают положительный опыт применения мультимедии технологий в процессе обучения студентов всех форм обучения, а также то, что студентам значительно помогло объемное моделирование на компьютере для осмысления задач по начертательной геометрии (рисунки 1, 2).



Постоянно Эпизодически

Рисунок 1. Частота обращения к электронным средствам обучения в процессе освоения курса начертательной геометрии (в % от общего количества участников)



Рисунок 2. Оценка эффективности видео уроков при освоении курса
начертательной геометрии

В группах, где применяются графические редакторы студентами в процессе выполнения заданий и преподавателями при чтении лекций, мы отмечаем повышенный интерес студентов к изучаемым предметам, улучшение успеваемости и стремление к самостоятельному расширению знаний в области графических

дисциплин по сравнению с группами, обучаемыми по традиционной методике.

Литература

1. Государственная программа Российской Федерации «Развитие образования» на 2013–2020 годы : утв. решением Правительства РФ от 15.05.2013 № 792-р [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://минобрнауки.рф/ документы/3409/файл/2228/13.05.15-Госпрограмма-Развитие_образования_ 2013-2020.pdf

2. Лагунова, М. В. Современные подходы к формированию графической культуры студентов в технических учебных заведениях / М. В. Лагунова. – Новгород : ВГИПИ, 2003. – 251 с.

3. Якиманская, И. С. Психология математической деятельности учащихся при обучении геометрии / И. С. Якиманская // Методика обучения геометрии. – Москва, 2004. – Вып. 4. – С. 34.

4. Тен, М. Г. Формирование профессиональных компетенций студентов технических специальностей в процессе графической подготовки / М. Г. Тен // Геометрия и графика. – 2015. – Т. 3, № 1. – С. 59–63.

5. Суфляева, Н. Е. Современные аспекты преподавания графических дисциплин в технических вузах / Н. Е. Суфляева // Геометрия и графика. – 2015. – Т. 2, № 4. – С. 28–33.

6. Сальков, Н. А. Начертательная геометрия – база для компьютерной графики / Н. А. Сальков // Геометрия и графика. – 2016. – Т. 4, № 2. – С. 37–47.

7. Тен, М. Г. Компьютерная графика при выполнении заданий по начертательной геометрии и инженерной графике. Видео уроки: AutoCAD для заочников [Электронный ресурс] : учеб. пособие / М. Г. Тен ; Новосиб. гос. архитектур.-строит. ун-т (Сибстрин). – Новосибирск : НГАСУ (Сибстрин), 2012. – 1 электрон. опт. диск (CD-ROM).

Bosh muharrir:
Qirg‘izboyev Abdug‘affor Karimjonovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Avazov Sherimmat

Tahrir hay’ati:

Abdullayeva B.S., Asqarov A.A., Azimov I.M., Djurayev R.X., Muslimov N.A., Xaliqov A.A., Djurakulova E.S., Djamilova N.N., Mamarajabova Z.N., Masharipova U.A., Abdug‘aniyev O.T., Axmedova N.M., Kurbanova Sh.I., Rahimov V.Sh., Maqsudova G.O., Ishquvvatov V.T., Nurullayev M.E., Ergashev J.B., Xo‘janazarov O‘.E., Isakulova N.J., Normurodova N.A., Mamarajabov M.E., Orlova T.A., Nosirov A.N., Qahharov M.M., Sariyev Sh.U.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy
e-mail: tdpuia@mail.ru

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tahrir va nashr” bo‘limida chop etildi. Adadi 10 nusxa. Hajmi 22 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27-uy